

INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID XALQARO SHARTNOMALAR VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUN HUJJATLARI TO'PLAMI

Toshkent – 2023

UO'K 343.211-055.2(575.1)
KBK 67.404(50')
X 78

X 78 Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 204 b.

ISBN 978-9943-7235-8-0

Mas'ul muharrir: Saidov A.X., akademik, yuridik fanlar doktori
Tuzuvchilar: Tillabayev M.A., yuridik fanlar doktori, professor
Olimova K.K., yuridik fanlari nomzodi
Muratova D.K.
Ruzikulova L.E.

To'plamdan xotin-qizlarning huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya etishga oid xalqaro shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari o'rin olgan.

Mazkur to'plam davlat organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar, talabalar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda inson huquqlari masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K 343.211-055.2(575.1)
KBK 67.404(50')

ISBN 978-9943-7235-8-0

MUNDARIJA

Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish (<i>kirish soʻzi oʻrnida</i>)	5
--	---

BIRINCHI BOʻLIM.

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BOʻYICHA XALQARO SHARTNOMALAR

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (<i>koʻchirma</i>)	7
Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt (<i>koʻchirma</i>)	8
Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt (<i>koʻchirma</i>)	10
Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiya	12
Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya	22
Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya (<i>koʻchirma</i>)	24
Taʼlim sohasida kamsitishga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi konvensiya	25
Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanafurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash toʻgʻrisidagi konvensiya hamda Yakunlovchi bayonnoma	30
Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini toʻldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qoʻyish va buning uchun jazolash haqidagi bayonnoma	36
Dengiz qurolli kuchlari tarkibidagi yaradorlar, bemorlar va kema halokati jabrlanuvchilarining taqdirini yaxshilash boʻyicha konvensiya (<i>koʻchirma</i>)	44
Harbiy asirlar bilan qanday munosabatda boʻlish toʻgʻrisidagi konvensiya (<i>koʻchirma</i>)	45
Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli Jeneva konvensiyalariga 1949-yil 12-avgustdagi qoʻshimcha bayonnoma (<i>I bayonnoma</i>) (<i>koʻchirma</i>)	47
Sanoat va savdoda mehnat inspeksiyasi toʻgʻrisidagi 81-konvensiya (<i>koʻchirma</i>)	48
Haq toʻlanadigan taʼtil toʻgʻrisidagi 52-konvensiya	49
Teng haq toʻlash toʻgʻrisidagi 100-konvensiya	53
Onalikni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi 103-konvensiya (<i>qayta koʻrib chiqilgan</i>)	56
Majburiy mehnatni tugatish toʻgʻrisidagi 105-konvensiya	62
Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish toʻgʻrisidagi 111-konvensiya	65
Qishloq xoʻjaligida mehnat inspeksiyasi toʻgʻrisidagi 129-konvensiya (<i>koʻchirma</i>)	68

IKKINCHI BOʻLIM.

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BOʻYICHA OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUN HUIJATLARI

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (<i>koʻchirma</i>)	70
Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	72
Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	78
Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	79
Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	98
Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	99
Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	108
Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	109
Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	110
Oʻzbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (<i>koʻchirma</i>)	111

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni (<i>ko'chirma</i>)	112
O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni (<i>ko'chirma</i>)	117
O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonuni	121
O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (<i>ko'chirma</i>)	122
O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni	123
O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni	134
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni	146
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni	151
1-ilova. 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur	159
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori	166
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori	170
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori	173
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.....	175
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	177
"Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risida"gi Nizom	178
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	183
1-ilova. "“Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida"gi Nizom	186
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida"gi qarori	198
1-ilova. "Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom	200

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

(Kirish soʻzi oʻrnida)

Gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi rolini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish yangi Oʻzbekistonni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari, onalikni muhofaza qilish masalasi davlat ijtimoiy siyosatining strategik yoʻnalishlaridan biri etib belgilandi va millat genofondini yaxshilash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, aholining turmush farovonligini va uzoq umr koʻrish darajasini oshirish maqsadida sogʻlom avlod tugʻilishi hamda uning tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilib, izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatda gender tengligini taʼminlash boʻyicha bir qator vazifalar koʻzda tutilgan. 2022 yil 28 yanvarda “2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “Inson qadrini ulugʻlash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Strategiyaning ustuvor maqsadlaridan biri mamlakat ijtimoiy hayotida xotin-qizlarning rolini oshirish hamda yurtimiz xotin-qizlarining tashqi va ichki siyosatdagi gʻoyat muhim vazifalarni hal etish borasidagi vakolatlarini yanada kengaytirishdan iborat. Bu boradagi ishlarni jadallashtirish uchun “2020–2030 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” tasdiqlandi.

Oʻzbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bagʻishlangan uchrashuvdagi nutqida taʼkidlaganidek, “Hozirgi vaqtda yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan hurmatli ayollarimizning ulushi tibbiyotda – 77 foizni, taʼlim sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda.

Agar 2017 yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foiz boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan – 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan – 37 foizga yetdi.

Bilimli, tashabbuskor va faol ayollarimizdan 2 ming nafarga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat aʼzolari hamda mahalliy kengashlar deputatlarining 25 foizi xotin-qizlardir”¹.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi tashkil qilindi. Qoʻmitaning asosiy maqsadi xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida toʻlaqonli ishtirokini, xotin-qizlar va yoshlarni maʼnaviy va intellektual oʻsishini taʼminlashdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 7-martda “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonni imzoladi va ushbu Farmonga asosan “2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boʻyicha” Milliy dastur tasdiqlandi.

Oʻzbekiston BMTning xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlashga qaratilgan barcha tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlab kelmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini taʼminlashda Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan bir qatorda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiya va boshqa xalqaro shartnomalarga ham tayaniladi. Bugungi kungacha mamlakatimiz 80 ga yaqin inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qoʻshilgan. Mazkur

¹ Mirziyoyev Sh. M. Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish – doimo eʼtiborimiz markazida. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6013>.

xalqaro huquqiy hujjatlar orasida xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, parlamentimiz Pekin Deklaratsiyasi va Harakatlar platformasini ro'yobga chiqarish hamda Pekin+25 tashabbusi bo'yicha hisobot tayyorlash doirasidagi maslahatlashuvlar va muhokamalarda faol ishtirok etdi.

Hozirgi vaqtda BMTning shartnomaviy qo'mitalari hamda Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalarini bajarish doirasida xotin-qizlar mehnat huquqlarining himoyasi kafolatlarini yanada kuchaytirish va odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- muayyan tarmoq yoki kasblarda xotin-qizlar mehnatidan foydalanish bo'yicha o'rnatilgan taqiqlar bekor qilinmoqda;

- xotin-qizlar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarmoq yoki kasblarning tavsiyaviy ro'yxati tasdiqlanmoqda;

- agar ota bola parvarishi bo'yicha ta'tilning kamida uch oyidan foydalangan bo'lsa, u holda ota-onadan biriga bola parvarishi bo'yicha qo'shimcha bir oylik ta'til beriladi hamda nafaqa to'lanadi;

- ikki yoshga to'lmagan bolasini parvarish qilayotgan ota-onadan biriga, ish beruvchi bilan kelishgan holda, kun davomida tanaffusga qachon chiqishni o'zi belgilashi huquqi beriladi va bunday imkoniyat ish vaqtidagi dam olish, ovqatlanish, shuningdek bolani ovqatlantirish uchun ajratilgan tanaffuslar hisobiga taqdim etiladi;

- xotin-qizlar nafaqa yoshiga yetgan yoki qonun talabiga ko'ra 60 yoshga kirmasdan nafaqaga chiqishi taqozo etilgan hollarda, ular bilan noaniq muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi yoki qisqa muddatga tuzilgan va hali muddati o'tmagan mehnat shartnomasining ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilinishi taqiqlanadi;

- xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganiga oid ishlarni sudlarda ko'rib chiqishda, xotin-qizlarning iltimosiga muvofiq, ularga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi.

Alohida qayd etish kerakki, xotin-qizlarning huquq va erkinliklari qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ularni bajarish bo'yicha mamlakatda keng ko'lamli amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xotin-qizlar huquqlari sohasida axborot-ma'rifat va ta'lim faoliyati sezilarli darajada faollashdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023 yil 7 fevraldagi PQ-46 Qarorining 6-bandiga asosan 2023/2024 o'quv yilidan boshlab professional va oliy ta'lim tizimida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" bo'yicha tegishli o'quv va maxsus kurslar joriy etilishi, shuningdek 2023-yil 1-iyunga qadar "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" bo'yicha o'quv va maxsus kurslar joriy etiladigan professional va oliy ta'lim tashkilotlarining aniq ro'yxatini shakllantirish hamda tegishli o'quv dasturlarini takomillashtirish choralari ko'rish belgilandi.

Xotin-qizlar huquqlariga rioya qilish, ularni rag'batlantirish va himoya qilish masalalari bo'yicha aholining keng qatlamini xabardor qilish maqsadida **"Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami"** tayyorlandi. Mazkur to'plamda onalik, xotin-qizlar huquqlariga oid BMT, Xalqaro mehnat tashkilotlarining hujjatlari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari ham o'z aksini topgan.

Umid qilamizki, mazkur to'plam davlat organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar, talabalar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda inson huquqlari masalalari bilan qiziquvchilar uchun foydali manba bo'ladi.

A.X. SAIDOV,
akademik, Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori

BIRINCHI BO'LIM.

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA XALQARO SHARTNOMALAR

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI

Bosh Assambleyaning 1948-yil 10-dekabrda 217A (III)-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabrda
366-XII-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

(Ko'chirma)

16-modda

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va xotin-qizlar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqlardan foydalanadi.
2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.
3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

25-modda

1. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega.
2. Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar nikohda yoki nikohda bo'lmagan ota-onalardan tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

IQTISODIY, IJTIMOY VA MADANIY HUQUQLAR TO'G'RISIDAGI XALQARO PAKT

*Bosh Assambleyaning 1966-yil 16-dekabrdagi 2200 A (XXI)-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi
126-l-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

(Ko'chirma)

II QISM

3-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Paktda nazarda tutilgan barcha iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan erkaklar va xotin-qizlar teng foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladilar.

III QISM

7-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining adolatli va qulay shart-sharoitga ega bo'lgan mehnat qilish huquqini, jumladan, quyidagilarni tan oladi:

a) barcha mehnatkashlarga kamida quyidagilarni ta'minlaydigan haq:

i) teng qiymatga ega mehnat uchun hech bir tafovutsiz adolatli ish haqi va teng daromad, ayni paytda, jumladan, xotin-qizlarga erkaklarnikidan kam bo'lmagan mehnat sharoitiga kafolat berilishi va teng mehnat uchun teng haq to'lanishi kerak;

ii) mazkur Paktning qarorlariga muvofiq ular va ularning oilalari uchun qoniqarli bo'lgan turmush;

b) xavfsizlik va gigiena talablariga javob beruvchi ish sharoiti;

c) mehnat staji va malaka asosidagina ishda tegishli yanada yuqoriroq mansablarga ko'tarilish uchun bir xil imkoniyat;

d) dam olish, bo'sh vaqt imkoniyatining bo'lishi va oqilona cheklangan ish vaqti hamda haq to'lanadigan ta'til, shuningdek bayram kunlari uchun haq.

10-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar quyidagilarni tan oladi:

1. Jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini hisoblangan oilaga imkoni boricha keng ko'lamda yordam berilishi hamda muhofaza etilishi zarur, ayniqsa, u shakllanayotgan va oila zimmasida mustaqil bo'lmagan bolalar hamda ular tarbiyasi mas'uliyati bo'lgan davrda. Nikoh nikohlanuvchilarning erkin roziligiga ko'ra tuzilishi kerak.

2. Bola tug'ilishidan oldin va undan keyingi davrda onalarga alohida e'tibor berilishi lozim. Bu davr mobaynida ishlovchi onalarga haq to'lanadigan ta'til yoki ijtimoiy ta'minot bo'yicha yetarli nafaqa bilan ta'til berilishi kerak.

3. Barcha bolalar va o'smirlarga hech bir kamsitishsiz, oilaviy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar alohida himoya choralari va yordam ko'rsatilishi shart. Bolalar va o'smirlar iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoyalangan bo'lishi kerak. Ularning mehnatini axloqi va salomatligi uchun zararli bo'lgan yoki hayot uchun xavfli sohalarda yoki ularning normal o'sishi uchun zarar keltirishi mumkin bo'lgan sohalarda qo'llash qonun bilan jazolanishi kerak. Bundan tashqari, davlat shunday yosh chegarasini belgilab qo'yishi kerakki, shu chegaradan quyi yoshdagi bolalar mehnatidan foydalanish taqiqlanishi va qonun bilan jazolanishi lozim.

12-modda

1. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining jismoniy va ruhiy salomatlik jihatdan oliy darajaga yetishi huquqini e'tirof etadi.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ko'rish kerak bo'lgan choralar quyidagi ishlar uchun zarur tadbirlarni o'z ichiga oladi:

a) o'lik go'daklar tug'ilishini va bolalar o'limini qisqartirish hamda bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash;

b) tashqi muhitning hamma jihatlarini va sanoatda mehnat gigienasini yaxshilash;

c) yuqumli, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklarni oldini olish, davolash hamda ularga qarshi kurashish;

d) kasal bo'lgan hollarda hammaga tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy parvarishni ta'minlaydigan sharoit yaratish.

13-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining ta'lim olish huquqini e'tirof etadi. Ular ta'lim inson shaxsining to'liq rivojlanishi va uning qadr-qimmatini anglashiga qaratilgan bo'lishi lozim, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni mustahkamlash zarur degan fikrga keladi. Shuningdek, ta'lim barchaga erkin jamiyatning foydali a'zolari bo'lishga imkon yaratishi, barcha irqiy, etnik va diniy guruhlar o'rtasidagi do'stlikka, xayrixohlikka va sabr-toqatli bo'lishga hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi ishiga ko'maklashishi lozim deb e'tirof etadi.

2. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqlarning to'liq amalga oshirilishi uchun quyidagi ishlarni amalda bajarish kerakligini e'tirof etadi:

a) boshlang'ich ta'lim hamma uchun majburiy va tekin bo'lishi kerak;

b) o'rta ta'limning barcha shakllari, jumladan, hunar-texnika o'rta ta'limi ochiq bo'lishi va barcha zarur choralar ko'rilib, xususan, asta-sekin pulsiz ta'lim olishni joriy etish yo'li bilan barchaning imkoni yetadigan darajaga erishish lozim;

c) har bir insonning qobiliyatini hisobga olgan holda barcha zarur choralarni ko'rish, xususan, asta-sekin bepul ta'lim olishni joriy etish yo'li bilan oliy ta'lim olish hamma uchun imkon yetadigan darajada bo'lishiga erishish kerak;

d) oddiy ta'lim, boshlang'ich ta'limning to'liq kursini o'tmagan yoki tugallamagan kishilar uchun imkon boricha rag'batlantirilishi yoki jadallashtirilishi lozim;

e) barcha darajadagi maktablar tarmoqlari faol rivojlantirilishi, stipendiyalarning qoniqarli tizimi belgilanishi va o'qituvchilarning moddiy ahvoli doimiy ravishda yaxshilanib borishi kerak.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ota-onalarning va tegishli hollarda qonuniy vasiylarning o'z farzandlari uchun davlat hokimiyati ta'sis etgan maktablarnigina emas, balki davlat tomonidan belgilanishi yoki tasdiqlanishi mumkin bo'lgan ta'lim olish uchun eng kam talabga javob beruvchi maktablarni ham tanlab olish erkinligini hurmat qilish majburiyatini oladi. Ota-onalar yoki qonuniy vasiylarning bu erkiga o'z shaxsiy e'tiqodiga ko'ra farzandlarini diniy va axloqiy ta'lim bilan ta'minlashlari ham kiradi.

4. Mazkur moddaning hech bir qismi ayrim shaxslar va muassasalarning ushbu moddaning birinchi bandida bayon qilingan tamoyillarga og'ishmay rioya etib va ushbu muassasalarda berilayotgan ta'lim davlat tomonidan belgilab qo'yilishi mumkin bo'lgan eng kam talablarga javob berishiga rioya qilib o'quv yurtlari ochish borasidagi erkinligini kamsitadi degan mazmunda talqin qilinmasligi kerak.

FUQAROLIK VA SIYOSIY HUQUQLAR TO'G'RISIDAGI XALQARO PAKT

*Bosh Assambleyaning 1966-yil 16-dekabrdagi 2200 A (XXI)-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi
127-I-sonli qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

(Ko'chirma)

II QISM

3-modda

Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va xotin-qizlar uchun ushbu Paktda ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

III QISM

6-modda

1. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoyalanaadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashashdan mahrum qila olmaydi.

2. O'lim jazosini bekor qilmagan mamlakatlarda o'lim hukmi faqatgina jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan va mazkur Pakt hamda Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyaga zid bo'lmagan qonunga muvofiq eng og'ir jinoyatlar uchungina chiqarilishi mumkin. Bunday jazo faqat vakolatli sud tomonidan chiqarilgan yakuniy hukmni ijro etib amalga oshirilishi mumkin.

3. O'lim jazosi bekor qilinmagan mamlakatlarda mazkur Paktga hamda Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyaga zid bo'lmagan, faqat jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan qonunga muvofiq eng og'ir jinoyatlar uchungina o'lim hukmi chiqarilishi mumkin. Bunday jazo faqat vakolatli sud tomonidan chiqarilgan yakuniy hukmni ijro etish uchun amalga oshirilishi mumkin.

4. Genotsid jinoyati uchun hayotdan mahrum etilayotgan bo'lsa, shuni e'tiborga olish lozimki, ushbu moddadagi hech bir narsa mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar uchun biror-bir yo'l bilan Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiya qarorlariga muvofiq qabul qilingan har qanday majburiyatlardan chekinish huquqini bermaydi.

5. O'lim jazosiga hukm qilingan har bir kishi afv etish haqida yoki hukmni yumshatish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega. Amnistiya, afv etish yoki o'lim hukmini almashtirish hamma holatlarda hadya etilishi mumkin.

6. O'n sakkiz yoshdan kichik shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun o'lim hukmi chiqarilmaydi va homilador xotin-qizlarga nisbatan bu hukm ijro etilmaydi.

7. Ushbu moddadagi hech bir narsa mazkur Paktda ishtirok etuvchi biror-bir davlat tomonidan o'lim jazosi muddatini kechiktirish yoki uni bekor qilishga yo'l qo'ymaslik uchun asos bo'la olmaydi.

14-modda

1. Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir. Har bir kishi unga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko'rib chiqilayotganda yoki biror-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga asosan tuzilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Demokratik jamiyatda axloq yuzasidan, jamiyat tartibi yoki davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoki buni tomonlarning shaxsiy hayoti manfaatlar talab etganida yoki sud fikriga ko'ra bu qandaydir darajada qat'iy zarur deb

topilganida, ya'ni omma ko'z o'ngida bo'ladigan jarayon sudlov manfaatlariga halal beradigan alohida hollarda matbuot xodimlari va omma barcha majlislarga yoki shu majlislarning bir qismiga kiritilmasligi mumkin; biroq jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan har qanday sud qarori oshkora bo'lishi kerak, voyaga yetmaganlarning manfaatlari boshqa narsani talab etgan hollarda yoki nikoh borasidagi nizolar yoki bolalarga vasiylik tayinlash haqidagi ishlar bundan mustasno.

18-modda

1. Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z tanloviga ko'ra din yoki e'tiqodga ega bo'lish yoki qabul qilishni hamda o'zining dini va e'tiqodiga ham yakka tartibda, ham boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda sig'inishga, diniy va boshqa marosimlarni bajarish hamda o'qitish erkinligini o'z ichiga oladi.

2. Hech kim o'z ixtiyoriga ko'ra o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki qabul qilish erkinligini kamsitadigan majburiy holatga duchor etilmasligi lozim.

3. Din yoki e'tiqodga sig'inish erkinligi faqat qonun bilan belgilangan va jamoat xavfsizligini, tartibini, salomatligi va axloqini saqlash uchun, ya'ni boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkinliklarini muhofaza etish uchun zarur bo'lgan hollardagina cheklanishi mumkin.

4. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi Davlatlar ota-onalarning va tegishli hollarda qonuniy vasiylarning o'z bolalarini o'z shaxsiy e'tiqodiga muvofiq diniy va axloqiy tarbiyalash erkini hurmat qilish majburiyatini oladi.

23-modda

1. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinish huquqiga ega.

2. Nikoh yoshiga yetgan erkaklar va xotin-qizlarning nikohdan o'tish va oila qurish huquqi tan olinadi.

3. Nikohlanuvchilarning erkin va to'liq roziligisiz birorta nikoh tuzilmasligi kerak.

4. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi Davlatlar nikohdan o'tishda, nikohda bo'lgan vaqtda va u bekor qilinayotganda er-xotinlarning huquq hamda majburiyatlari tengligini ta'minlash uchun zarur choralar ko'rishlari lozim. Nikoh bekor qilinganda barcha bolalar zarur tarzda himoya qilinishi hisobga olinishi kerak.

XOTIN-QIZLARNI KAMSITISHNING BARCHA SHAKLLARIGA BARHAM BERISH TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 1979-yil 18-dekabrda 34/180-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
87-I-sonli qaroriga muvofiq qo'shilgan*

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsiyatining qadr-qimmatiga va qadriyatiga, erkak va xotin-qizlarning teng huquqligiga ishonchni yana qaror toptirganligini hisobga olgan holda,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini tasdiqlaganini va barcha odamlar o'zining qadr-qimmatiga hamda huquqida erkin va teng bo'lib tug'ilishini, har bir inson unda e'tirof etilgan barcha huquq va erkinliklarga hech qanday farqlarsiz, shu jumladan, jinsga nisbatan ham ega bo'lishi kerakligini ma'lum qilganini hisobga olib,

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarning ishtirokchi-davlatlariga erkak va xotin-qizlar uchun barcha iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlardan teng foydalanish huquqini ta'minlash majburiyati yuklatilganligini hisobga olib,

erkak va xotin-qizlarning teng huquqli bo'lishiga yordam berish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan muassasalar shafeligida tuzilgan xalqaro konvensiyalarni e'tiborga olib,

shuningdek, erkak va xotin-qizlarning teng huquqli bo'lishiga yordam berish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va tavsiyanomalarni hisobga olib,

biroq, mana shu turli hujjatlarga qaramay, xotin-qizlarga nisbatan jiddiy kamsitilish hollari hali ham mavjudligidan tashvishlanib,

xotin-qizlarning kamsitilishi inson qadr-qimmatiga bo'lgan teng huquqlilik va hurmat qilish sabablarining buzilishiga, xotin-qizlarning erkaklar bilan bir qatorda o'z mamlakatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ishtirok etishiga to'sqinlik qilishini, jamiyat va oila farovonligining o'sishiga halaqit berishini hamda xotin-qizlarning o'z mamlakatlari va insoniyatning manfaatlarini yo'lida imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishini yanada qiyinlashtirishini eslatib,

qashshoqlik sharoitlarida xotin-qizlarning oziq-ovqat, sog'liqni saqlash, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va ishga joylashish imkoniyatlari, shuningdek boshqa ehtiyojlardan foydalanish imkoniyati juda kam ekanligidan tashvishlanib,

tenglik va adolatga asoslangan yangi xalqaro iqtisodiy tartibning o'rnatilishi erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashda sezilarli hissa qo'shishiga qat'iy ishonib,

irqiy ayirmachilik, barcha turdagi irqchilik, irqiy kamsitish, eski va yangi mustamlakachilik (kolonializm va neokolonializm), agressiya, xorijiy bosib olinish va hukmronlik hamda davlatlarning ichki ishlariga aralashishga barham berish erkaklar va xotin-qizlar huquqlarini to'la amalga oshirish uchun zarur ekanligini ta'kidlab,

xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro keskinlikni yumshatish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy tizimlaridan qat'i nazar, barcha davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, ommaviy va batamom qurolsizlanish, xususan, qat'iy va samarali xalqaro nazorat ostida yadroviy qurolsizlanish, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda adolat, tenglik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillarini qaror toptirish hamda chet el va mustamlaka hukmronligi hamda xorijiy istilo ostida bo'lgan xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash va mustaqillikka bo'lgan huquqini amalga oshirish,

shuningdek davlatlarning milliy suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilish ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishga ko'maklashishini hamda buning natijasida erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida to'liq tenglikka erishishga imkon berishini tasdiqlab,

mamlakatning to'liq rivojlanishi, butun dunyoda farovonlik va tinchlik ishi xotin-qizlarning barcha sohalarida erkaklar bilan baravar mumkin qadar ko'proq ishtirokini talab qilishiga qat'iy ishonib,

xotin-qizlarning oila farovonligi va jamiyat rivojiga qo'shayotgan hozirgacha to'liq tan olinmagan hissasining ahamiyatini, onalikning ijtimoiy ahamiyatini hamda oilada va bola tarbiyasida ota-onaning o'rnini hisobga olib, xotin-qizlarning nasl davomchisi sifatidagi o'zni xotin-qizlar huquqlarining kamsitilishiga sabab bo'lmasligi kerakligini, chunki bolalarning tarbiyasi erkak va xotin-qizlarning hamda butun jamiyatning birgalikdagi javobgarligini talab qilishini anglab,

erkak va xotin-qizlar o'rtasida to'la tenglikka erishish uchun ham erkak, ham xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi an'anaviy o'rnini o'zgartirish zarurligini yodda tutib,

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyada e'lon qilingan tamoyillarni amalga oshirish va shu maqsadda bunday kamsitishlarning barcha shakllari va ko'rinishlariga barham berish uchun zarur choralarni ko'rishga qat'iy qaror qilib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

Mazkur Konvensiyaning maqsadi uchun "xotin-qizlarga nisbatan kamsitish" tushunchasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki har qanday boshqa sohada inson huquqlari va asosiy erkinliklariga erkak va xotin-qizlarning teng huquqliligi asosida xotin-qizlarning oilaviy ahvolidan qat'i nazar, ular tomonidan tan olish, foydalanish yoki amalga oshirishni bo'shashtirishga yoxud yo'qqa chiqarishga yo'naltirilgan jinsiy belgilariga ko'ra har qanday farq, istisno yoki cheklashni anglatadi.

2-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllarini qoralab, zudlik bilan barcha tegishli usullar orqali xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish siyosatini olib borishga kelishadilar va shu maqsadda quyidagi majburiyatlarni oladilar:

a) erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqliligi prinsipini, agarda bu hozirgacha qilingan bo'lmasa, milliy Konstitutsiyaga yoki boshqa tegishli qonunchilikka kiritish va qonun hamda boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu prinsipni amaliyotga joriy etilishini ta'minlash;

b) xotin-qizlarga nisbatan har qanday kamsitishni taqiqlovchi tegishli qonunchilik va boshqa choralarni, jumladan, zarur bo'lganda sanksiyalarni qabul qilish;

c) vakolatli milliy sudlar va boshqa davlat muassasalarining yordami bilan xotin-qizlarni kamsitishning har qanday aktiga qarshi samarali himoya qilishni ta'minlash orqali xotin-qizlar huquqlarini erkaklar bilan tenglik asosida yuridik himoya qilish tartibini o'rnatish;

d) xotin-qizlarga nisbatan kamsitadigan biron-bir hujjatlarni yoki xatti-harakatlarni amalga oshirishdan tiyilish hamda davlat organlari va muassasalari ushbu majburiyatga muvofiq ish ko'rishlariga kafolat berish;

e) biron-bir shaxs, tashkilot yoki korxona tomonidan xotin-qizlarni kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'rish;

f) xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni ifodalaydigan amaldagi qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, jumladan, qonunchilik choralarni ko'rish;

g) o'zining jinoyat qonunchiligidagi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni ifodalaydigan barcha qoidalarini bekor qilish.

3-modda

Ishtirokchi-davlatlar barcha sohalarda, xususan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ro'yobga chiqarishlari hamda foydalanishlarini kafolatlash maqsadida ularni har tomonlama rivojlanishini va taraqqiyotini ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni, jumladan, qonunchilik choralarni ko'radilar.

4-modda

1. Mazkur Konvensiyada belgilanganidek, ishtirokchi-davlatlar tomonidan erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida amalda tengligini ta'minlashni tezlashtirishga yo'naltirilgan vaqtinchalik maxsus choralarni qabul qilish kamsituvchi deb hisoblanmaydi, biroq u aslo teng huquqli bo'lmagan yoki tabaqalashtirilgan andozalarning saqlanib qolishiga olib kelmasligi kerak; imkoniyatlar tengligi va teng huquqlilik munosabatining maqsadlariga erishilgandan so'ng bu choralar bekor qilinishi shart.

2. Ishtirokchi-davlatlar tomonidan onalikni himoya qilishga yo'naltirilgan maxsus choralar, jumladan, ushbu Konvensiyada mavjud bo'lgan choralarning qabul qilinishi kamsituvchi deb hisoblanmaydi.

5-modda

Ishtirokchi-davlatlar quyidagi maqsadlarda barcha tegishli choralarni qabul qiladilar:

a) erkaklar va xotin-qizlar xulq-atvorining ijtimoiy va madaniy modellari jinslardan birining past bo'lishi yoki ustun bo'lishi yoxud erkak va ayol rolining bir xilligi g'oyasiga asoslangan xurofotlarga barham berish hamda urf-odatlar va boshqa barcha amaliyotlarni tugatishga erishish maqsadida o'zgartirish;

b) barcha holatlarda bolalar manfaatlari ustun turishi sharti bilan oilaviy tarbiya o'z ichiga onalikni ijtimoiy vazifa sifatida to'g'ri anglashni hamda erkak va xotin-qizlarning o'z bolalarining tarbiyasi hamda kamoloti uchun umumiy javobgarligi e'tirof etilishini qamrab olishini ta'minlash.

6-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlar savdosi va xotin-qizlarni fohishalikka ekspluatatsiya qilishning barcha turlariga chek qo'yish uchun barcha tegishli choralarni, jumladan, qonunchilik choralarni ko'radi.

II QISM

7-modda

Ishtirokchi-davlatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko'radilar, xususan, xotin-qizlarga erkaklar bilan teng sharoitlarda quyidagi huquqlarni ta'minlaydilar:

a) barcha saylovlar va ommaviy referendumlarda ovoz berish hamda barcha ommaviy saylanadigan organlarga saylanish;

b) davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish hamda davlat lavozimlarini egallash, shuningdek davlat boshqaruvining barcha darajalarida hamma davlat vazifalarini amalga oshirish;

c) mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotining muammolari bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlar va uyushmalarning faoliyatida ishtirok etish.

8-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida va hech qanday kamsitishsiz xalqaro miqyosda o'z hukumatlari nomidan vakillik qilish hamda xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar fuqarolikni qabul qilish, o'zgartirish yoki saqlab qolishga nisbatan xotin-qizlarga erkaklar bilan teng huquqlarni beradi. Ular, xususan, chet ellik bilan turmush qurganda ham, nikohda bo'lgan vaqtida turmush o'rtog'ining fuqaroligi o'zgarganida ham xotin-qizlarning fuqaroligi o'z-o'zidan o'zgarishiga olib kelmasligini, uni fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylantirmasligini va turmush o'rtog'ining fuqaroligini qabul qilishga majbur qilolmasligini ta'minlaydi.

2. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga o'z farzandlarining fuqaroligiga nisbatan erkaklar bilan teng huquqlar beradi.

III QISM

10-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish, xususan, erkaklar va xotin-qizlarning tengligi asosida ularga ta'lim sohasidagi erkaklar bilan teng huquqlarni ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi:

a) shahar tumanlaridagi kabi qishloq joylarida ham barcha toifadagi o'quv muassasalarida ta'lim olish imkoniga ega bo'lish va diplom olish, kasb yoki mutaxassislikni tanlash uchun bir xil sharoitlarni yaratish, bu tenglik maktabgacha ta'lim, umumta'lim, maxsus va oliy texnik ta'limda, shuningdek kasbiy tayyorgarlikning barcha turlarida ta'minlanadi;

b) bir xil o'quv dasturlari, bir xil imtihonlar, bir xil malakali o'qituvchilar tarkibi, teng sifatli maktab xonalari va jihozlaridan foydalanish;

c) ta'lim olishning barcha bosqichlari va shakllarida erkak va xotin-qizlarning birgalikda ta'lim olishi va ushbu maqsadga erishishga ko'maklashadigan boshqa turdagi ta'lim olishni rag'batlantirish orqali, xususan, o'quv qo'llanmalari va maktab dasturlarini qayta ko'rib chiqish hamda o'qitish uslublarini moslashtirish yo'li bilan har qanday andozadagi konsepsiyani bartaraf etish;

d) ta'lim uchun stipendiya va boshqa nafaqalar olishda bir xil imkoniyatlar;

e) erkaklar va xotin-qizlarning bilimlaridagi har qanday uzilishni mumkin qadar tezroq qisqartirishga yo'naltirilgan, jumladan, katta yoshdagilar orasida savodxonlikni ommalashtirish dasturlari va funksional savodxonlik dasturini, xususan, ta'lim olishni davom ettirish dasturidan foydalanishning bir xil imkoniyatlari;

f) maktabni tugatmayotgan qizlar sonini qisqartirish hamda maktabni barvaqt tark etgan qizlar va ayollar uchun dasturlar ishlab chiqish;

g) sport va jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida faol qatnashish uchun bir xil imkoniyatlar;

h) oilalarning sog'lomligi va farovonligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ta'lim xususiyatiga ega maxsus axborotlar, jumladan, oilaning katta-kichikligini rejalashtirish to'g'risidagi axborot va maslahatlardan foydalanish imkoniyati.

11-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar erkaklar va xotin-qizlarning tengligi asosida teng huquqlarni ta'minlash bilan bandlik sohasida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, xususan:

a) barcha odamlarning ajralmas huquqi sifatida mehnatga bo'lgan huquqi;

b) ishga yollanishda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga, ishga yollanishda bir xil tanlab olish mezonlarini qo'llash huquqi;

c) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va bandlik kafolati, shuningdek shogirdlik, yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va muntazam qayta tayyorlashni o'z ichiga olgan mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitlaridan foydalanish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik olish huquqi;

d) imtiyozlar olgan holda teng mukofotlash, teng qiymatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan teng sharoitlarga, shuningdek ish sifatini baholashga teng yondashish huquqi;

e) ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqi, xususan, nafaqaga chiqish, ishsizlik, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishning boshqa holatlarida, shuningdek haq to'lanadigan ta'tilga bo'lgan huquq;

f) sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlari, jumladan, naslning davom ettirish vazifasini saqlab qolishga bo'lgan huquqi.

2. Xotin-qizlarga nisbatan turmushga chiqqanligi yoki onaligi sababli kamsitishning oldini olish va ularga mehnat qilishga bo'lgan samarali huquqlarni kafolatlash uchun ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni amalga oshirish uchun tegishli choralarni ko'radi:

a) homiladorligiga yoki homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'tiliga asosan ishdan bo'shatish tahdidi ostida sanksiyalar qo'llashni yoxud ishdan bo'shatish paytida oilaviy ahvoli tufayli kamsitishni taqiqlash;

b) avvalgi ish joyini, lavozimini yoki ijtimoiy nafaqalarini yo'qotmagan holda homiladorlik va tug'ruq bo'yicha haq to'lanadigan ta'tillar yoki taqqoslama ijtimoiy nafaqalar to'lanadigan ta'tillar joriy etish;

c) ota-onalarga oilaviy majburiyatlarini bajarishni mehnat faoliyati va jamiyat hayotidagi ishtiroki bilan birga qo'shib olib borish imkonini yaratish uchun, jumladan, bolalarni tarbiya qilish muassasalari tarmog'ini tashkil etish va kengaytirish yo'li orqali zarur qo'shimcha ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishni rag'batlantirish;

d) homiladorlik davrida xotin-qizlar salomatligi uchun zararli deb isbotlangan mehnat turlarida ularning alohida himoyasini ta'minlash.

3. Mazkur moddada nazarda tutilgan huquqlarni himoya qilishga taalluqli qonunchilik ilmiy-texnikaviy bilimlar asosida vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi, shuningdek zaruratga qarab qaytadan ko'rib chiqiladi, bekor qilinadi yoki kengaytiriladi.

12-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar erkaklar va xotin-qizlarning tengligi asosida tibbiy xizmatdan, xususan, oilaning katta-kichikligini rejalashtirishga taalluqli masalalarda ham foydalanishini ta'minlash maqsadida sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi;

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning 1-bandi qoidalaridan qat'i nazar xotin-qizlarni homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrida tegishli xizmatlarni, zaruriyat tug'ilganda, bepul xizmatlarni, shuningdek homiladorlik va emizikli davrda kerakli oziq-ovqatlarni yetkazib berishni ta'minlaydilar.

13-modda

Ishtirokchi-davlatlar erkak va xotin-qizlarning tengligi asosida teng huquqlarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy va iqtisodiy hayotning boshqa sohalarida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, xususan:

a) oilaviy nafaqaga bo'lgan huquqi;

b) zayom, ko'chmas mulk hisobiga qarz va boshqa shakldagi moliyaviy kreditlarni olishga bo'lgan huquqi;

c) dam olish bilan bog'liq tadbirlarda, sport mashg'ulotlarida va madaniy hayotning barcha sohalarida ishtirok etish huquqi.

14-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlar duch keladigan alohida muammolarni va ularning o'z oilalarining iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini,

shu jumladan, ularning xo'jalikning tovar bo'lmagan tarmoqlaridagi faoliyatini e'tiborga olib, mazkur Konvensiya qoidalarini qishloq joylarida yashovchi xotin-qizlarga nisbatan qo'llashni ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar erkak va xotin-qizlarning tengligi asosida ularning qishloq hududlarini rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash va bunday rivojlanishdan foyda olishini ta'minlash maqsadida qishloq joylaridagi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, jumladan, bunday xotin-qizlarga quyidagi huquqlarni ta'minlaydilar:

- a) barcha darajalarda rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- b) oilaning katta-kichikligini rejalashtirish masalalari bo'yicha axborotlar, maslahatlar va xizmatlarni inobatga olgan holda tegishli tibbiy xizmatdan foydalanish;
- c) ijtimoiy sug'urta dasturlari qulayliklaridan bevosita foydalanish;
- d) funksional savodxonlikni inobatga olib barcha turdagi tayyorlov hamda rasmiy va norasmiy ta'lim olish, shuningdek ularning texnikaviy darajasini oshirish uchun barcha turdagi jamoat xizmatlaridan, qishloq xo'jalik masalalari bo'yicha maslahat berish xizmatidan foydalanish;
- e) ishga yollash yoki mustaqil mehnat faoliyati orqali iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishni ta'minlash uchun o'z-o'ziga yordam ko'rsatish guruhlari va shirkatlarni tashkil etish;
- f) jamoa faoliyatining barcha turlarida ishtirok etish;
- g) qishloq xo'jalik kreditlari va zayomlari, sotish tizimi, tegishli texnologiyalari hamda yer va agrar islohotlarida, shuningdek yerlarni qayta joylashtirish rejalarida teng maqomga erishishga ega bo'lish;
- h) tegishli turmush sharoitlaridan, ayniqsa, uy-joy sharoitlaridan, sanitariya xizmatlaridan, elektr va suv ta'minotidan, shuningdek transport va aloqa vositalaridan foydalanish.

IV QISM

15-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning qonun oldida erkaklar bilan tengligini tan oladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga erkaklar bilan bir xil fuqarolik huquqlarini va uni amalga oshirishning bir xil imkoniyatlarini beradi. Ular, xususan, shartnomalarni tuzish va mulkni boshqarishda ularga teng huquqlar, shuningdek sudlar va tribunallarda ish ko'rishning barcha bosqichlarida ularga teng munosabatni ta'minlaydi.

3. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning huquqiy egaligini cheklashda o'zining huquqiy oqibatiga ega har qanday barcha shartnomalar va boshqa barcha xususiy hujjatlarni haqiqiy emas deb hisoblaydilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar shaxslarning ko'chib yurishi hamda yashash joyi va turar joyini tanlash erkinligiga taalluqli bo'lgan qonunchilikka nisbatan erkak va xotin-qizlarga bir xil huquqlarni taqdim etadi.

16-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga nisbatan nikoh va oila munosabatlariga taalluqli barcha masalalarda kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, xususan, erkak va xotin-qizlarning tengligi asosida quyidagilarni ta'minlaydi:

- a) nikohga kirishishda bo'lgan bir xil huquqlar;
- b) turmush o'rtog'ini erkin tanlash hamda faqatgina o'zining erkin va to'liq roziligi bilan nikohga kirishishda bo'lgan bir xil huquqlar;
- c) nikoh davrida va uni bekor qilishda bir xil huquq va burchlar;
- d) oilaviy sharoitidan qat'i nazar, bolalarga taalluqli bo'lgan masalalarda erkak va xotin-qizlarning ota-ona sifatida bir xil huquq va majburiyatlari; barcha vaziyatlarda bolalarning manfaati ustun turadi;

e) bolalar soni va ularning tug'ilishi o'rtasidagi oraliq to'g'risidagi masalani erkin va mas'uliyatli hal qilishda bir xil huquqlar hamda axborot, ta'lim olish imkoni, shuningdek ushbu huquqlarni amalga oshirishga imkon beradigan vositalarga ega bo'lish;

f) bolalarning vasiylari, homiylari, vakillari va farzandlikka oluvchilari bo'lishda yoki milliy qonunchilikda ko'zda tutilgan shunga o'xshash vazifalarni amalga oshirishda bir xil huquq va majburiyatlari; barcha vaziyatlarda bolalarning manfaati ustun turadi;

g) er va xotinning bir xil shaxsiy huquqlari, shu jumladan, ism-sharifini, kasb va mashg'ulotni tanlash huquqi;

h) er-xotinning mol-mulkka ham bepul, ham pullik egalik qilish, sotib olish, boshqarish, foydalanish va tasarruf qilishga nisbatan bir xil huquqlari.

2. Bolani unashtirish va nikohlash yuridik kuchga emas hamda nikohdan o'tishning eng quyi yoshini aniqlash va nikohlarni fuqarolik holati dalolatnomalarida majburiy qayd etish maqsadida barcha zarur choralar, jumladan, qonunchilik choralari ko'riladi.

V QISM

17-modda

1. Mazkur Konvensiyaning amalga oshirilish jarayonini ko'rib chiqish uchun Konvensiya kuchga kirgan vaqtda o'n sakkiztadan, u ratifikatsiya qilinganidan yoki unga o'ttiz beshinchi ishtirokchi-davlat qo'shilganidan so'ng esa ushbu Konvensiya sohasini mukammal biladigan yuqori axloqiy sifatlarga va yetuk ma'lumotlarga ega bo'lgan yigirma uchta ekspertdan iborat Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish bo'yicha qo'mitasi ta'sis etiladi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita deb ataladi). Bu ekspertlar ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z fuqarolari ichidan saylanadilar va xususiy shaxs sifatida ish yuritadilar, bunda adolatli geografik taqsimot va sivilizatsiyaning har xil shakldagi, shuningdek asosiy huquqiy tizimlar vakillari hisobga olinadi.

2. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rsatilgan ro'yxatga kiritilgan shaxslar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Har bir ishtirokchi-davlat o'zining fuqarolari orasidan bitta shaxsni taklif qilishi mumkin.

3. Mazkur Konvensiyaning kuchga kirgan kundan boshlab olti oydan so'ng birlamchi saylovlar o'tkaziladi. Har bir saylov o'tkazilishidan kamida uch oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga ikki oy ichida o'z vakillarini ko'rsatish taklifi bilan xat yo'llaydi. Bosh kotib ishtirokchi-davlatlarning ko'rsatmasi bilan shunday tarzda kiritilgan barcha shaxslarning ro'yxatini alifbo tartibida tayyorlaydi hamda bu ro'yxatni ishtirokchi-davlatlarga taqdim etadi.

4. Qo'mita a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan chaqiriladigan va BMT Markaziy muassasalarida o'tkaziladigan ishtirokchi-davlatlar yig'ilishida saylanadilar. Ishtirokchi-davlatlarning soni uchdan ikki qismni tashkil etadigan bu yig'ilishda Qo'mitaga saylangan shaxslar ovoz berishda qatnashadigan va ishtirok etadigan ishtirokchi-davlatlar vakillarining eng ko'p va mutlaq ko'p ovozini olgan nomzodlar hisoblanadi.

5. Qo'mita a'zolari to'rt yil muddatga saylanadilar. Biroq birinchi saylovda saylangan to'qqiz a'zoning vakolat muddati ikki yil o'tishi bilan tugaydi; birinchi saylovlar o'tkazilishi bilan bu to'qqiz a'zoning familiyasi Qo'mita raisi tomonidan qur'a tashlash orqali tanlanadi.

6. Qo'mitaning besh nafar qo'shimcha a'zosini saylash o'ttiz beshinchi davlatning Konvensiyani ratifikatsiya qilganidan keyin yoki unga qo'shilganidan keyin mazkur moddaning 2, 3 va 4-bandlari qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Shu tarzda saylangan ikki nafar qo'shimcha a'zoning vakolat muddati ikki yil o'tishi bilan tugaydi; bu ikki nafar qo'shimcha a'zoning familiyasi Qo'mita raisi tomonidan qur'a tashlash orqali tanlanadi.

7. Ishtirokchi-davlat ko'zda tutilmagan bo'sh o'rinlarni to'ldirish uchun Qo'mita a'zosi sifatida o'z vazifasini tugatgan ekspertning o'rniga Qo'mita ma'qullagan taqdiridagina o'z fuqarolari orasidan boshqa ekspertni tayinlaydi.

8. Qo'mita a'zolari Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlangan mukofotlarni Qo'mita vazifasining muhimligini hisobga olgan holda Assambleya tomonidan belgilangan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining mablag'laridan oladi.

9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Konvensiyaga muvofiq Qo'mitaning vazifalari samarali amalga oshirilishi uchun zarur xodim va moddiy mablag'lar bilan ta'minlaydi.

18-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyaniig qoidalarini bajarish uchun qabul qilingan qonunchilik, sud, ma'muriy yoki boshqa chora-tadbirlar to'g'risidagi va bu borada erishilgan yutuqlar haqidagi ma'ruzalarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun taqdim etish majburiyatini oladilar:

a) manfaatdor davlat uchun mazkur Konvensiyaniig kuchga kirgan kunidan e'tiboran bir yil ichida;

b) shundan so'ng, hech bo'lmaganda har to'rt yilda va so'ngra, qachonki, Qo'mita bu haqda rasmiy ravishda so'raganda.

2. Ma'ruzalarda mazkur Konvensiya bo'yicha majburiyatlarni bajarish darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar va qiyinchiliklar ko'rsatilishi mumkin.

19-modda

1. Qo'mita o'zining shaxsiy bajaradigan ishlar tartibi qoidalarini tasdiqlaydi.

2. Qo'mita ikki yil muddatga o'zining mansabdor shaxslarini saylaydi.

20-modda

1. Qo'mita ushbu Konvensiyaning 18-moddasiga muvofiq taqdim etilgan ma'ruzalarni ko'rib chiqish maqsadida, qoidaga ko'ra ikki haftadan oshmaydigan davr mobaynida har yili majlis o'tkazadi.

2. Qo'mitaning yig'ilishlari qoidaga ko'ra Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida yoki Qo'mita tomonidan belgilanadigan boshqa istalgan qulay joyda o'tkaziladi.

21-modda

1. Qo'mita har yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash orqali o'zining faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasini taqdim etadi hamda ishtirokchi-davlatlardan olingan ma'ruza va axborotlarni o'rganishga asoslangan umumiy xususiyatga ega taklif va tavsiyanomalarni kiritishi mumkin. Umumiy xususiyatga ega bunday taklif va tavsiyanomalar ishtirokchi-davlatlarning fikrlari bilan bir qatorda, agar ular mavjud bo'lsa, Qo'mitaning ma'ruzasiga kiritiladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mita ma'ruzalarini Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha komissiyasiga axborot uchun yuboradi.

22-modda

Ixtisoslashtirilgan muassasalar o'zlarining faoliyat doirasiga kiradigan ushbu Konvensiyaning bunday qoidalarini amalga oshirish haqidagi masalalarni ko'rib chiqishda vakillik qilish huquqiga ega. Qo'mita ixtisoslashtirilgan muassasalarga ularning faoliyati doirasiga kiradigan sohalarida Konvensiyani amalga oshirish haqidagi ma'ruzalarni taqdim etishni taklif qilishi mumkin.

VI QISM

23-modda

Ushbu Konvensiyada hech bir narsa erkak va xotin-qizlar o'rtasidagi teng huquqlikka erishishga ko'maklashuvchi quyida mavjud bo'lgan qoidalariga dahl qilmaydi:

- a) ishtirokchi-davlatlarning qonunchiligida; yoki,
- b) shunday davlat uchun kuchga ega bo'lgan har qanday boshqa xalqaro konvensiya, shartnoma yoki bitimda.

24-modda

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada tan olingan huquqlarning to'liq amalga oshirilishiga erishish uchun milliy darajada barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladilar.

25-modda

1. Mazkur Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiqdir.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Konvensiyaning depozitariysi etib tayinlanadi.
3. Mazkur Konvensiya ratifikatsiya qilinishi lozim. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.
4. Mazkur Konvensiya barcha davlatlarning qo'shilishi uchun ochiqdir. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish orqali amalga oshiriladi.

26-modda

1. Mazkur Konvensiyani qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi iltimosnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi nomiga har qanday ishtirokchi-davlatlardan birining istalgan vaqtda yozma ravishdagi xabar orqali taqdim etilishi mumkin.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi, agar u qandaydir choralar ko'rish zarurligini e'tirof etsa, bunday iltimosnomaga nisbatan aynan qanday choralar ko'rish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

27-modda

1. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshirilganidan so'ng o'ttizinchi kundan kuchga kiradi.
2. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoxud yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki unga qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin unga qo'shiladigan har bir davlat uchun ushbu Konvensiyaning ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan so'ng o'ttizinchi kundan kuchga kiradi.

28-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida davlatlar tomonidan qilingan qo'shimcha shartlarning matnini qabul qiladi hamda barcha davlatlarga tarqatadi.
2. Mazkur Konvensiyaning maqsad va vazifalariga to'g'ri kelmaydigan qo'shimcha shartlar kiritilmaydi.
3. Qo'shimcha shartlar istalgan vaqtda Bosh kotib nomiga yuborilgan tegishli bildirishnoma orqali bekor qilinishi mumkin, keyin esa u bu haqda barcha ishtirokchi-davlatlarni xabardor qiladi. Bunday bildirishnoma u olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29-modda

1. Mazkur Konvensiyani talqin etish yoki qo'llashga nisbatan ikki yoki bir nechta ishtirokchi-davlatlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan har qanday bahs tomonlardan birining iltimosiga binoan hakamlik muhokamasiga yuboriladi. Agar hakamlik muhokamasi haqida ariza

berilgan paytdan boshlab olti oy mobaynida tomonlar hakamlik muhokamasini tashkil etishga nisbatan kelishuvga erisholmagan bo'lsa, tomonlardan biri ushbu bahsni Sud Nizomiga muvofiq tegishli ariza berish yo'li bilan Xalqaro sudga topshirishi mumkin.

2. Har bir ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan o'zini bog'liq deb hisoblamasligini bildirishi mumkin. Boshqa ishtirokchi-davlatlar shunga o'xshash qo'shimcha shartni qo'ygan har qanday ishtirokchi-davlatga nisbatan ushbu moddaning ko'rsatilgan bandidan kelib chiqadigan majburiyatlarni olmaydi.

3. Mazkur moddaning 2-bandiga muvofiq qo'shimcha shartlarni qo'ygan har qanday ishtirokchi-davlat istagan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga bildirishnoma yo'llash orqali o'z qo'shimcha shartlarini olib tashlashi mumkin.

30-modda

Mazkur Konvensiyaning rus, ingliz, arab, ispan, xitoy, va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

Vakolatga ega bo'lgan quyida imzo chekuvchilar mazkur Konvensiyani tasdiqlash uchun imzoladilar.

XOTIN-QIZLARNING SIYOSIY HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 1952-yil 20-dekabrdagi 640 (VII)-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
501-I-sonli qaroriga binoan qo'shilgan*

Ahdlashuvchi tomonlar,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tenglik prinsipini amalga oshirishni istagan holda,

har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga hamda o'z mamlakatida davlat xizmatlaridan teng foydalanish huquqiga ega ekanligini tan olib, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga muvofiq erkaklar va xotin-qizlarning siyosiy huquqlarga ega bo'lish va ulardan foydalanishni tenglashtirish istagini e'tirof etgan holda, shu maqsadda konvensiya tuzishga qaror qilib, quyidagilarga kelishib oldilar:

1-modda

Xotin-qizlar barcha saylovlarda, hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda ovoz berish huquqiga ega.

2-modda

Xotin-qizlar erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishlarsiz milliy qonunchilik bilan belgilangan ommaviy saylovlarni talab qiladigan barcha muassasalarga saylanishi mumkin.

3-modda

Xotin-qizlar, hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda milliy qonunchilik bilan belgilangan jamoat-davlat xizmatida lavozimlarni egallash va barcha jamoat-davlat vazifalarini bajarish huquqiga ega.

4-modda

1. Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a'zolari, shuningdek Bosh Assambleyadan taklifnoma olgan g'ar qanday boshqa davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiqdir.

2. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiya 4-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan barcha davlatlarning qo'shilishi uchun ochiqdir.

2. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi deklaratsiyaning topshirilishi bilan amalga oshiriladi.

6-modda

1. Ushbu Konvensiya oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi deklaratsiyani saqlash uchun topshirilganidan boshlab to'qsoninchi kundan kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiya Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun o'zining oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi deklaratsiyasini saqlash uchun topshirgandan so'ng to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

7-modda

Har qanday davlat tomonidan imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida ushbu Konvensiyaning biror-bir moddasiga qo'shimcha shart taqdim etilgan hollarda Bosh kotib ushbu qo'shimcha shart matnini mazkur Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan yoki ishtirokchisi bo'lishi mumkin bo'lgan barcha davlatlarga yetkazadi. Ushbu qo'shimcha shartga qarshi bo'lgan har qanday davlat, ushbu xabar yuborilgan kundan boshlab to'qson kunlik muddat ichida (yoki Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan kundan boshlab) Bosh kotibga uni qabul qilmasligi to'g'risida xabar berishi mumkin. Bunday holatda Konvensiya ushbu davlat va qo'shimcha shart kiritgan davlat o'rtasida kuchga kirmaydi.

8-modda

1. Har qanday davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma ravishda xabar berish orqali ushbu Konvensiyani bekor qilishi mumkin. Denonsatsiya (rad qilish) Bosh kotib ushbu bildirishnomani olgan kundan bir yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.

2. Konvensiyada tomonlar soni oltitadan kam bo'lgan hollarda, ushbu Konvensiyaning amal qilishi denonsatsiya kuchga kirgan kundan boshlab to'xtaydi.

9-modda

Ushbu Konvensiyani talqin qilish yoki qo'llash bo'yicha har qanday ikki yoki undan ortiq Ahdlashuvchi davlatlar o'rtasida kelib chiqadigan, muzokaralar yo'li bilan hal qilinmaydigan har qanday nizo, agar ular yarashuvning boshqa tartibi to'g'risida kelishib olishmasa, mazkur nizoda tomonlardan birining talabiga binoan Xalqaro sud qaroriga taqdim etiladi.

10-modda

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolarini va ushbu Konvensiyaning IV-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarni xabardor qiladi:

- a) IV-moddaga muvofiq olingan imzolar va ratifikatsiya yorliqlari to'g'risida;
- b) V-moddaga muvofiq olingan qo'shilish haqidagi deklaratsiyalar to'g'risida;
- c) VI-moddaga muvofiq ushbu Konvensiya kuchga kiradigan sana to'g'risida;
- d) VII-moddaga muvofiq olingan xabarlar va bildirishnomalar to'g'risida;
- e) VIII-moddaning 1-bandiga muvofiq olingan denonsatsiya to'g'risidagi bildirishnomalar haqida;
- f) VIII-moddaning 2-bandiga muvofiq Konvensiyaning amal qilishi to'xtatilishi to'g'risida.

11-modda

1. Ushbu Konvensiya ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tilidagi asliga to'g'ri bo'lgan matnlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivida saqlanadi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tasdiqlangan nusxalarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga va IV-moddaning 1-bandida nazarda tutilgan Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarga yuborishi lozim.

NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RIDAGI KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 2006-yil 13-dekabrdagi 61/106-sonli
rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
501-I-sonli qaroriga binoan qo'shilgan*

(Ko'chirma)

3-modda. Umumiy tamoyillar

Ushbu Konvensiyaning prinsiplari quyidagilardan iborat:

g) erkaklar va xotin-qizlarning tengligi;

6-modda. Nogiron xotin-qizlar

1. Ishtirokchi-davlatlar nogiron xotin-qizlar va nogiron qizlar ko'p bora kamsitishlarga duchor bo'lishlarini tan oladilar va shu munosabat bilan ular tomonidan barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarining to'liq va teng amalga oshirilishini ta'minlash uchun choralar ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga ushbu Konvensiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarining amalga oshirilishi va ro'yobga chiqarilishini kafolatlash uchun xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ahvolini yaxshilash hamda huquq va imkoniyatlarini kengaytirish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

16-modda. Ekspluatatsiya qilinish, zo'ravonlik

va tahqirlashlardan ozod bo'lish

5. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga nisbatan ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlash holatlari aniqlanishi, surishtirilishi va zarur hollarda ta'qib etilishini ta'minlash uchun, shu jumladan, xotin-qizlar va bolalarga mo'ljallangan samarali qonunchilik va strategiyalarni qabul qiladi.

28-modda. Yetarli turmush darajasi va ijtimoiy himoya

b) nogironlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan xotin-qizlar, qizlar va keksa shaxslarning ijtimoiy himoya dasturi va qashshoqlik ko'lamlarini qisqartirish dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha;

TA'LIM SOHASIDA KAMSITISHGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*1960-yil 14-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan
va madaniyat masalalari bo'yicha Bosh konferensiyasi 11-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
497-I-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Bosh konferensiyasi Parijda o'n birinchi sessiyasiga yig'ilib va 1960 yil 14 noyabrdan 15 dekabrga qadar yig'ilish o'tkazib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini tasdiqlashini va har bir insonning ta'lim olish huquqini e'lon qilishini eslatib,

ta'lim sohasida kamsitish shu deklaratsiyada bayon etilgan huquqlarning buzilishi ekanligini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha o'zining Nizomiga asosan hamma joyda inson huquqlariga rioya etilishini va barcha uchun ta'limdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun millatlar o'rtasida hamkorlik o'rnatishga intilayotganini e'tiborga olib,

ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti ayrim mamlakatlarda qabul qilingan ta'lim tizimining xilma-xilligidan kelib chiqib, ta'lim sohasidagi har qanday kamsitishni bartaraf etibgina qolmasdan, balki yalpi imkoniyatlar tengligini va shu sohada barchaga teng munosabatni rag'batlantirishi ham kerakligini tan olib,

ta'lim sohasida kamsitishning, ya'ni sessiya kun tartibining 17.1.4-bandiga kiritilgan masalaning turli jihatlariga doir takliflarni inobatga olib,

bu masala xalqaro konvensiyaning predmeti, shuningdek a'zo-davlatlarga tavsiyalari ekanligi to'g'risida o'ninchi sessiyada qabul qilingan qarorni inobatga olib,

1960 yilning 14 dekabrda mazkur Konvensiyani qabul qildi.

1-modda

1. Ushbu Konvensiyada "kamsitish" iborasi ta'lim sohasida munosabat tengligini yo'q qilish yoki buzishni maqsad yoki natija qilib qo'yadigan irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqacha e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy holati yoki tug'ilish belgisi bo'yicha har qanday tafovut, istisno, cheklash yoki ustunlikni qamrab oladi, xususan:

a) har qanday shaxs yoki bir guruh shaxslar uchun biron-bir darajadagi yoki turdagi ta'limdan foydalanishga to'sqinlik qilish;

b) ta'lim darajasi past bo'lgan har qanday shaxs yoki bir guruh shaxslar uchun ta'limni cheklash;

c) har qanday shaxslar yoki bir guruh shaxslar uchun alohida ta'lim tizimi yoki o'quv yurtlarini tuzish yoki saqlash, ushbu Konvensiyaning 2-moddasi qoidasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

d) har qanday shaxs yoki bir guruh shaxslarni inson qadr-qimmatiga nomunosib vaziyatga tushirib qo'yish.

2. Ushbu Konvensiyada "ta'lim" so'zi ta'limning barcha turlari va bosqichlariga tegishli hamda ta'limdan foydalanishni, o'qitish darajasi va sifatini, shuningdek u olib boriladigan sharoitlarni o'z ichiga oladi.

2-modda

Quyidagi qoidalar, agar ularga alohida davlatlarda yo'l qo'yilsa, ushbu Konvensiyaning 1-moddasi nuqtai nazaridan kamsitish sifatida qaralmaydi:

a) turli jinsdagi o'quvchilar uchun bu tizim yoki o'quv yurtlari ta'limdan bir xilda foydalanishni ta'minlash, ularning o'qituvchilari tarkibi bir xil malakaga ega bo'lsa, ular teng sifatli bino va uskunalariga ega bo'lsa hamda bir xil dasturlar bo'yicha o'qishga imkon berilgan hollarda, ta'limning alohida tizimlarini tuzish yoki saqlab turish;

b) o'quvchilarning ota-onalari yoki qonuniy vasiylarining tanloviga mos ta'lim beradigan diniy yoxud til xususiyatiga asoslangan ta'limning alohida tizimlarini yoki o'quv yurtlarini, shu tizimlarga ulanish yoki shu o'quv yurtlariga kirish ixtiyoriy bo'lsa va agar ular beradigan ta'lim ta'limning vakolatli organlari tomonidan ko'rsatilgan yoki tasdiqlangan me'yorlarga, xususan, ayni bir xil bosqichdagi ta'limga nisbatan mos kelgan hollarda tuzish yoki saqlash;

c) xususiy o'quv yurtlarini, ularning maqsadi har qanday guruhni istisno qilish emas, balki ularning faoliyati haqiqatan ham yuqorida ko'rsatilgan maqsadga javob berishi va ular beradigan ta'lim ta'limning vakolatli organlari tomonidan ko'rsatilgan yoki tasdiqlangan me'yorlariga, xususan, ayni bir xil bosqichdagi ta'lim me'yorlariga nisbatan mos kelishi kerakligi sharti bilan davlat tomonidan beriladigan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo'lgan hollarda tuzish yoki saqlab qolish.

3-modda

Mazkur Konvensiyada beriladigan ta'riflarga mos tushadigan kamsitishga barham berish yoki uning oldini olish maqsadida ushbu oxirgi tomonlar bo'lgan davlatlar quyidagi majburiyatlarga ega:

a) ta'lim sohasida kamsitish xususiyatidagi barcha qonunchilik qarorlari va ma'muriy farmoyishlarni bekor qilish hamda ma'muriy amaliyotchilikni to'xtatish;

b) agar lozim bo'lsa, o'quv yurtlariga o'quvchilarni qabul qilishda har qanday kamsitishga barham berish uchun qonunchilik tartibida zarur choralarni ko'rish;

c) o'quvchilarga o'qish uchun haq to'lashga doir ishlarda, stipendiyalar va boshqa har qanday yordam berishda, shuningdek ta'limni xorijda davom ettirish uchun zarur bo'ladigan ruxsat va imtiyozlarni berishda, muayyan mamlakat fuqarolari bo'lgan o'quvchilarga nisbatan davlat organlari tomonidan ularning yutuqlari va ehtiyojlariga asoslangan farqlardan boshqa hech qanday farqlarga yo'l qo'ymaslik;

d) davlat organlari o'quv yurtlariga u yoki bu turdagi yordamni bergan hollarda o'quvchilarning faqat qandaydir muayyan guruhga mansubligiga asoslangan ustunlik yoki cheklolarga yo'l qo'ymaslik;

e) ularning hududida yashab turgan xorijiy fuqarolarga o'z fuqarolariga bo'lgani kabi ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash.

4-modda

Ushbu Konvensiyaning tomonlari bo'lgan davlatlar bundan tashqari ta'lim sohasida imkoniyatlar va munosabat tengligini amalga oshirish uchun milliy sharoit va odatlarga munosib usullardan foydalaniladigan umumdavlat siyosatini ishlab chiqish, rivojlantirish va hayotga tatbiq etish majburiyatini oladi, xususan:

a) boshlang'ich ta'limni majburiy va bepul qilish; o'rta ta'limni uning turli shakllarida barcha uchun umumiy mulk qilish va uning hammabopligini ta'minlash; oliy ta'limni to'liq tenglik va har bir kishining qobiliyatiga qarab barcha uchun foydalana olinadigan qilish; qonunda nazarda tutilgan o'qitish majburiyligiga rioya qilinishini ta'minlash;

b) teng pog'onali barcha davlat o'quv yurtlarida ta'limning bir xil darajasini va o'qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlarni ta'minlash;

c) boshlang'ich ta'lim olmagan yoki uni tugatmagan shaxslarning ta'lim olishini va ularning har birining qobiliyatiga mos ta'limni davom ettirishini ta'limning munosib usullari bilan rag'batlantirish va rivojlantirish;

d) o'qituvchilik kasbiga kamsitishsiz tayyorlashni ta'minlash.

5-modda

1. Ushbu Konvensiyaning tomonlari bo'lgan davlatlar shunday hisoblaydilar:

a) ta'lim inson shaxsini to'liq rivojlantirishga hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ko'proq hurmat qilishga qaratilishi kerak; u barcha xalqlar va barcha irqiy yoki diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va do'stlik, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash bo'yicha faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashishi kerak;

b) ota-onalar, tegishli hollarda, qonuniy vasiylar, birinchidan, har bir davlatning qonunlari belgilagan doirada o'z bolalarini davlatniki bo'lmagan, balki vakolatli ta'lim organlari tomonidan ko'rsatilgan yoki tasdiqlangan minimal talablarga javob beradigan boshqa o'quv yurtlariga erkin jo'natish va, ikkinchidan, o'z e'tiqodlariga muvofiq bolalarning diniy va ma'naviy tarbiyasini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;

alohida olganda hech kimga va yaxlit olganda hech bir shaxslar guruhiga ularning e'tiqodlariga to'g'ri kelmaydigan diniy tarbiyani zo'rlab o'tkazmaslik kerak;

c) quyidagi shartlarga ko'ra milliy ozchilikka mansub shaxslar o'zining ma'rifiy, jumladan, maktablarga rahbarlik qilish va har bir davlatning ta'lim sohasidagi siyosatiga muvofiq, o'z milliy tilidan foydalanish yoki o'qitish ishlarini olib borish huquqini tan olishi kerak, lekin quyidagi shartlarga ko'ra:

i) bu huquqni amalga oshirish ozchilikka mansub shaxslarga butun jamoaning madaniyati va tilini tushunishda hamda uning faoliyatida qatnashishga monelik qilmaydi va u mamlakat suverenitetiga putur yetkazmaydi;

ii) bunday turdagi maktablarda ta'lim darajasi vakolatli organlar tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy darajadan kam emas;

iii) bu turdagi maktablarga qatnash ixtiyoriydir.

2. Mazkur Konvensiyaning tomonlari bo'lgan davlatlar ushbu moddaning 1-bandida bayon etilgan tamoyillarning qo'llanilishini ta'minlash uchun barcha zarur choralar ko'rish majburiyatini oladi.

6-modda

Ushbu Konvensiyaning qo'llanilishida uning tomonlari bo'lgan davlatlar Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh konferensiyasi ta'lim sohasida kamsitishning turli jihatlariga qarshi kurash choralari hamda bu sohadagi imkoniyatlar va munosabatlar tengligini ta'minlash bo'yicha choralarni belgilash maqsadida qabul qilishi mumkin bo'lgan tavsiyalarni imkon qadar ko'proq darajada hisobga olishni o'z zimmasiga oladi.

7-modda

Ushbu Konvensiyaning tomonlari bo'lgan davlatlar ular Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh konferensiyasiga, Konferensiya tomonidan belgilanadigan muddat va shakllarda taqdim etadigan davriy ma'ruzalarida mazkur Konvensiyaning amalga oshirish uchun ular tomonidan qabul qilinadigan qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralar to'g'risida, xususan, 4-moddada eslatib o'tilgan umumdavlat siyosatini ishlab chiqish va rivojlantirish to'g'risida, erishilgan natijalar va shu siyosatni hayotga tatbiq etishda yuzaga kelgan to'siqlar haqida xabar qilishlari kerak.

8-modda

Agar ushbu Konvensiya tomonlari bo'lgan ikkita yoki bir nechta davlatlar o'rtasida uni sharhlash yoki qo'llanish masalasiga doir kelishmovchiliklar paydo bo'lsa, va agar bu kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan bartaraf etilmasa, kelishmovchiliklarni bartaraf etishning boshqa vositalari mavjud bo'lmagan hollarda, tomonlarning iltimosiga ko'ra ular hukm chiqarish uchun Xalqaro sudga yuboriladi.

9-modda

Ushbu Konvensiyaga hech qanday qo'shimcha shartlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

10-modda

Ushbu Konvensiya bir yoki bir nechta davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida alohida shaxslar yoki guruhlar foydalanishi mumkin bo'lgan huquqlarini cheklamaydi, agar bu huquqlar Konvensiyaning matni yoki ruhiga zid kelmasa.

11-modda

Ushbu Konvensiya ingliz, ispan, rus va fransuz tillarida tuzilgan bo'lib, hamma to'rtta matn teng kuchga ega.

12-modda

1. Ushbu Konvensiya Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zo-davlatlari tomonidan ularning konstitutsiyalarida nazarda tutilgan tartibda ratifikatsiya qilinishi yoki qabul qilinishi kerak.

2. Ratifikatsiya yorliqlari yoki qabul qilish to'g'risidagi hujjatlar Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh direktoriga saqlash uchun topshiriladi.

13-modda

1. Ushbu Konvensiyaga Ijroiya kengashidan unga qo'shilish to'g'risidagi taklifnomani olgan, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi bo'lmagan har qanday davlat qo'shilishi mumkin.

2. Qo'shilish Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh direktoriga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

14-modda

Ushbu Konvensiya uchinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qabul qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirilgan kundan uch oy o'tgandan so'ng kuchga kiradi, biroq faqatgina ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi o'z hujjatlarini ko'rsatilgan kunda yoki ertaroq saqlash uchun topshirgan davlatlarga nisbatan amalga oshiriladi. Har qanday boshqa davlatga nisbatan Konvensiya u ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi o'z hujjatini saqlash uchun topshirganidan keyin uch oy o'tgach kuchga kiradi.

15-modda

Ushbu Konvensiyaning tomonlari bo'lgan davlatlar uning harakati nafaqat ularning metropoliyalaridagi hududlarga, balki barcha o'zini o'zi boshqarmaydigan vasiylikdagi, mustamlaka va tashqi aloqalari uchun ular javobgar bo'lgan boshqa hududlarga ham tatbiq etilishini tan oladi; ular agar zarur bo'lsa, ko'rsatilgan hududlarning hukumati yoki vakolatli hokimliklar bilan ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki qo'shilish paytida yoxud yana avvalroq shu hududlarda Konvensiyaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun maslahatlashishga, shuningdek Ta'lim, fan

va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh direktoriga Konvensiya amalga oshiriladigan hududlar to'g'risida ma'lum qilish majburiyatini oladi. Bu notifikatsiya u olingandan keyin uch oy o'tgach kuchga kiradi.

16-modda

1. Ushbu Konvensiyaning tomoni bo'lgan har bir davlat o'z nomidan yoki tashqi aloqalari uchun u javobgar bo'lgan har qanday hudud nomidan uni denonsatsiya qilishi mumkin.

2. Denonsatsiya yozma hujjat bilan ma'lum qilinib, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh direktoriga topshiriladi.

3. Denonsatsiya, denonsatsiya to'g'risidagi hujjat olingandan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

17-modda

Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh direktori Tashkilotga a'zo-davlatlarga, 13-moddada qayd etilganidek, Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarga, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkilotiga 12 va 13-moddalarda qayd etilgan ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi, shuningdek 15 va 16-moddalarda belgilangan notifikatsiya va denonsatsiya to'g'risidagi barcha hujjatlar saqlash uchun topshirilgani haqida bildiradi.

18-modda

1. Mazkur Konvensiya Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh konferensiyasi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Biroq, uning qayta ko'rib chiqilgan matni faqat qayta ko'rib chiqilgan Konvensiyaning tomonlari bo'lgan davlatlarga majburiyat yuklaydi.

2. Agar Bosh konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqilishi natijasida yangi Konvensiya qabul qilsa va agar yangi Konvensiyada boshqa ko'rsatmalar mavjud bo'lsa, qayta ko'rib chiqilgan matnga ega yangi Konvensiya kuchga kirgan kundan e'tiboran mazkur Konvensiya ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki qo'shilish uchun yopiq bo'ladi.

19-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq mazkur Konvensiya Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh direktorining iltimosiga ko'ra Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatida ro'yxatga olinadi.

Parijda, 1960 yilning 15 dekabrda o'n birinchi sessiyaga to'plangan Bosh Konferensiya Raisi hamda Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh direktorining imzosi bilan ikkita asl nusxada tuzildi; bu nusxalar Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi va tegishli tartibda tasdiqlangan nusxalari 12 va 13-moddalarda ko'rsatilgan barcha davlatlarga, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yuboriladi.

Yuqorida keltirilgan matn Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh konferensiyasi tomonidan uning Parijda bo'lib o'tgan va 1960 yilning o'n beshinchi dekabrda yakunlangan o'n birinchi sessiyasida tegishli tartibda qabul qilingan Konvensiyaning asl matnidir.

TASDIQLASH UCHUN ushbu Konvensiyani 1960 yilning o'n beshinchi dekabrda tasdiqladilar.

ODAM SAVDOSIGA VA UCHINCHI SHAXSLAR TOMONIDAN TANFURUSHLIKDAN FOYDALANILISHIGA QARSHI KURASHISH TO'G'RIDAGI KONVENSIYA VA YAKUNLOVCHI BAYONNOMA

Bosh Assambleyaning 1949-yil 2-dekabrda 317 (IV)-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrda 576-II-son qarori bilan qo'shilgan

Muqaddima

Inson sha'ni, qadr-qimmatini va qadriyatiga to'g'ri kelmaydigan, fohishalik maqsadlarini ko'zlagan fohishalik va uning illati bo'lgan odam savdosi inson, oila va jamiyat farovonligiga xavf solishini e'tiborga olib,

xotin-qizlar va bolalar savdosiga qarshi kurashga nisbatan quyidagi xalqaro hujjatlar o'z kuchida ekanligini e'tiborga olib:

1. 1948 yil 3 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan Protokolia asosida kiritilgan o'zgartirishlari bilan 1904 yil 18 maydagi Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro shartnoma;

2. Yuqorida keltirilgan Protokol asosida kiritilgan o'zgartirishlari bilan 1910 yil 4 maydagi Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya;

3. 1947 yil 20 oktyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Protokol asosida unga kiritilgan o'zgartirishlari bilan 1921 yil 30 sentyabrdagi Xotin-qizlar va bolalar savdosiga qarshi kurash to'g'risida xalqaro konvensiya;

4. Qayd qilingan Protokol asosida kiritilgan o'zgartirishlari bilan 1933 yil 11 oktyabrdagi Balog'atga yetgan qizlar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya.

1937 yilda Millatlar Ligasi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan aktlarning harakat doirasini kengaytiruvchi konvensiyac loyihasi tuzilganini e'tiborga olib,

1937 yildan boshlab paydo bo'lgan yangi omillar o'zida yuqorida ko'rsatilgan aktlarni birlashtirgan hamda unga ma'qul tuzatishlar singari 1937 yilgi Konvensiya loyihasining asosiy qoidalarini o'z ichiga oladigan konvensiya tuzishga imkon berishini e'tiborga olib,

shuning bilan ahdlashuvchi tomonlar quyidagilarga kelishib oldilar:

1-modda

Ushbu Konvensiyada Tomonlar har bir kishini jazolash majburiyatini oladilar, ya'ni kimki boshqa shaxsning hirsini qondirish uchun:

1. boshqa shaxsni fohishalik maqsadida, hatto uning roziligi bilan qo'shib qo'ygan, mayl uyg'otgan yoki yo'ldan urgan bo'lsa;

2. boshqa shaxsning fohishaligini, hatto uning roziligi bilan ishlatgan bo'lsa.

2-modda

Ushbu Konvensiyada Tomonlar bundan buyon har bir kishini jazolash majburiyatini oladi, ular:

1. fohishaxona saqlash yoki uni boshqargan yoxud ongli ravishda fohishaxonani mablag' bilan ta'minlagan yoki mablag' bilan ta'minlashda ishtirok etgan;

2. uchinchi shaxslar tomonidan fohishalik maqsadida foydalanilishini bilib, bino yoki boshqa joyni yoki uning bir qismini ijaraga bergan yoki olganlar.

3-modda

Bu ichki qonun hujjatlari talablariga mos kelganligi sababli, 1 va 2-moddalarda nazarda tutilgan har qanday huquqbuzarlikni sodir etishga suiqasd qilish kabi bundaylarni sodir etishga tayyorgarlik harakatlari ham jazolanadi.

4-modda

Bu ichki qonunchilik talablariga mos kelganligi sababli, 1 va 2-moddalarda nazarda tutilgan harakatlarda qasddan ishtirok etish ham jazolanadi.

Bunga ichki qonunchilik talablari bilan yo'l qo'yilgan taqdirda, agar bu jazosizlikning oldini olish uchun zarur bo'lsa, sheriklik harakatlari alohida jinoyatlar sifatida ko'rib chiqiladi.

5-modda

Mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan har qanday jinoyatlarga oid ishlarda jabrlangan shaxslar ichki qonunchilikka asosan da'vogar bo'lish huquqiga ega bo'lgan hollarda, xorijiy fuqarolar bu huquqdan ushbu davlat fuqarolari bilan teng foydalanadi.

6-modda

Ushbu Konvensiyada har bir Tomon fohishalik bilan shug'ullanuvchi yoki shug'ullanishda gumon qilinayotgan shaxslar yo alohida ro'yxatdan o'tishi yo maxsus hujjatga ega bo'lishi yoxud nazorat yoki xabar berish maqsadiga ega bo'lgan favqulodda talablarga bo'ysunishlarini nazarda tutuvchi har qanday amaldagi qonun, qaror yoki ma'muriy farmoyishni rad etish yoki bekor qilish uchun barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladi.

7-modda

Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlar uchun boshqa davlatlarda ilgari chiqarilgan hukmlar e'tiborga olinadi, chunki bunga ichki qonunchilik bilan yo'l qo'yiladi:

1. jinoyatni takroran sodir etish faktini aniqlash;
2. jinoyatchini siyosiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish.

8-modda

Mazkur Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar jinoyatchilarni topshirishi lozim bo'lgan jinoyatlar sifatida ko'rib chiqiladi hamda ushbu Konvensiyaning har qanday tomonlari o'rtasida tuzilgan yoki tuziladigan jinoyatchilarni topshirish to'g'risidagi har qanday shartnoma ularga tatbiq etiladi.

Ushbu Konvensiyaning jinoyatchilarni topshirish haqidagi shartnomalarning mavjudligi bilan topshirishni shart qilib qo'ymaydigan tomonlar bundan keyin ular o'zaro munosabatlarida mazkur Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatchilarni topshirishni nazarda tutadigan jinoyatlarni jinoyatlar deb tan oladi.

Jinoyatchini topshirish to'g'risidagi talab murojaat qilingan davlatning qonuniga binoan amalga oshiriladi.

9-modda

O'z fuqarolarini topshirish tamoyili qonun bilan tan olinmaydigan davlatlarda, boshqa davlatda ushbu Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlardan birini sodir etgandan keyin o'z davlatiga qaytgan fuqarolar o'z davlatlarining sudi tomonidan ta'qib qilinadi hamda jazolanadi.

Agar ushbu Konvensiya tomonlari o'rtasida yuzaga keladigan shu kabi ishlarda xorijiy fuqaroni topshirish to'g'risidagi talabni qondirishning imkoni bo'lmasa, mazkur qoida qo'llanilmaydi.

10-modda

Agar jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs boshqa davlatda sudlangan bo'lsa va ayblov hukmi bo'yicha jazo muddatini o'tagan yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa yoxud shu davlat qonunlariga muvofiq jazo muddati qisqartirilgan bo'lsa, 9-moddaning qoidalari qo'llanilmaydi.

11-modda

Ushbu Konvensiyada hech narsa u yoki bu tomonlarning undagi xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq jinoyat yurisdiksiyasi doirasi to'g'risidagi umumiy masalaga munosabatini aniqlash kabi talqin qilinmasligi kerak.

12-modda

Mazkur Konvensiya har bir alohida davlatda Konvensiyada ko'zda tutilgan jinoyatlarni, xuddi ularni sodir etishda aybdor bo'lgan o'zlarining shaxslari ushbu davlat qonunlari bo'yicha ta'qib qilinishi va jazolanishi singari jinoyatlarni aniqlash prinsipini buzmaydi.

13-modda

Ushbu Konvensiyaning Tomonlari o'zlarining xususiy qonunlari va amaliyotiga muvofiq mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarga taalluqli sud topshiriqlarini bajarish majburiyatini oladi.

Sud topshiriqlarini topshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. sud hokimiyatlari o'rtasida bevosita aloqalar yo'li bilan;
 2. ikkita davlatning Adliya vazirlari o'rtasida bevosita aloqalar yoki topshiriq chiqadigan davlatning boshqa tegishli hokimiyatlarining u murojaat qilgan davlatning Adliya vaziriga bevosita murojaati yo'li bilan;
 3. topshiriq chiqadigan davlatning u murojaat qiladigan davlatga diplomatik yoki konsullik vakillari vositasi orqali. Ko'rsatilgan vakil sud topshirig'ini bevosita tegishli sud hokimiyatlariga yoki topshiriq berilgan davlat hukumati tomonidan ko'rsatilgan hokimiyatlarga jo'natadi, bunda u mazkur hokimiyatlardan to'g'ridan-to'g'ri sud topshirig'ini bajarish akti bo'lgan hujjatlarni oladi.
- 1 va 3-bandlarda ko'zda tutilgan hollarda sud topshirig'ining nusxasi murojaat qilingan davlatning oliy hokimiyatlariga jo'natiladi.

Agar qandaydir boshqa kelishuv bo'lmasa, sud topshirig'i har doim u kelib chiqadigan hokimiyatlar tilida tuziladi, zarur hollarda topshiriq berilgan davlat topshiriq kelib chiquvchi hokimiyatlar tomonidan tasdiqlangan o'z tiliga qilingan tarjimani taqdim etishni talab qilishi mumkin.

Ushbu Konvensiyada har bir tomon mazkur Konvensiyadagi boshqa har bir tomonni yuqorida ko'rsatilgan, boshqa davlat tomonidan sud topshiriqlarining jo'natilishi maqbul deb hisoblanadigan usul yoki usullar to'g'risida xabardor qiladi.

Har qanday davlat bunday bildirishni qilmaguniga qadar, sud topshiriqlariga nisbatan undagi mavjud tartib kuchida qoladi.

Har qanday xarajat yoki chiqimlarni qoplash to'g'risidagi talab sud topshiriqlarining bajarilishi uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi, ekspertiza bo'yicha qilinadigan xarajatlar bundan mustasno.

Ushbu moddada hech narsa ushbu Konvensiyada tomonlarning jinoiy ishlarda ularning o'z qonunlariga mos kelmaydigan isbotlashning qandaydir shakl yoki qaysidir usullarining qo'llash majburiyati sifatida talqin qilinmasligi kerak.

14-modda

Ushbu Konvensiyada har bir tomon mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilish natijalarini muvofiqlashtirish va markazlashtirish topshirilgan organni ta'sis etadi hamda saqlab turadi.

Bu organlar ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni bartaraf etish va ularga jazo berishni yengillashtirish uchun to'planadigan hamma axborotlarni muvofiqlashtiradi, bu organlar boshqa mamlakatlarning shunga o'xshash organlari bilan chambarchas aloqa bog'laydi.

15-modda

Modomiki, bu ichki qonunchilik talablariga mos kelgan ekan va bu 14-moddada belgilangan organlar bo'ysunadigan hokimiyatlar tomonidan maqbul deb tan olinar ekan, ular boshqa davlatlardagi shunga o'xshash organlar bo'ysunadigan hokimiyatlarga quyidagi axborotlarni xabar qiladilar:

1. ushbu Konvensiyada nazarda tutiladigan har bir jinoyatlar to'g'risidagi va shunday jinoyat sodir etishga har bir suiqasd to'g'risidagi tafsilotlarni;

2. ushbu Konvensiyada nazarda tutiladigan jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni qidiruv, shuningdek jinoiy ta'qib, qamoqqa olish, hibsga olish, qabul qilishni va chiqarib yuborishni rad etishning barcha holatlari to'g'risida, shuningdek bunday shaxslar turar joyining o'zgarganligi hamda ularga taalluqli boshqa har qanday foydali axborotlarni.

Shu yo'l bilan xabar qilinadigan axborotlar jinoyatchilarning tasvirini, ularning daktiloskopik izlari, fotosuratlari, ish usuli to'g'risidagi xabar, politsiya ma'lumotnomalari va sudlanganlik to'g'risidagi ma'lumotnomalarni o'z ichiga oladi.

16-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar o'zlarining ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va iqtisodiy xizmat ko'rsatish hamda shu bilan bog'langan boshqa xizmat ko'rsatish turlari sohasidagi hukumatga qarashli yoki xususiy muassasalari orqali fohishalikka qarshi kurashish bo'yicha va mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlar hamda fohishabozlik qurbonlarini normal ijtimoiy sharoitlarga qaytarish va moslashtirish yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rish yoki rag'batlantirish majburiyatini oladi.

17-modda

Immigratsiya va emigratsiyaga nisbatan ushbu Konvensiyada tomonlar fohishalik maqsadini ko'zlagan ikkala jinsdagi odam savdosini to'xtatish uchun ushbu Konvensiyaga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatlarga ko'ra talab qilinadigan barcha choralarni ko'rish va amalga oshirish majburiyatiga ega. Xususan, ular quyidagi majburiyatni oladilar:

1. immigrant va emigrantlarni, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarni ular keladigan va jo'natiladigan joylarda, shuningdek safarlari vaqtida himoya qilish uchun barcha zarur qarorlarni chiqarish;

2. eslatib o'tilgan savdo xavfi haqida aholini tegishli ravishda xabardor qilish uchun choralar ko'rish;

3. fohishalik maqsadini ko'zlovchi xalqaro odam savdosining oldini olish uchun temir yo'l stansiyalari, aviaportlar, portlar va boshqa jamoat joylarida kuzatuvni ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rish;

4. mavjud "prima facie" ma'lumotlari bo'yicha shu savdoning bosh aybdorlari, ishtirokchilari yoki qurbonlari bo'lgan shaxslarning kelishi to'g'risida tegishli hokimiyatlarni xabardor qilish maqsadida barcha zarur choralarni ko'rish.

18-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar ularning o'z qonunlari bilan belgilangan shartlarga muvofiq fohishabozlik bilan shug'ullanuvchi barcha xorijliklar to'g'risida ularning shaxsini va ijtimoiy ahvolini aniqlash, shuningdek ularni o'z davlatini tashlab ketishga undagan shaxslarni topish maqsadida ma'lumot to'plash majburiyatini oladi. Bu ma'lumotlar ko'rsatilgan shaxslarning kelib chiqishi davlat hokimiyatlariga ularni keyinchalik o'z vataniga qaytarish maqsadida xabar qilinadi.

19-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar ularning o'z qonunlari bilan belgilangan shartlarga muvofiq va ta'qiblar yoki shu qonunlarning buzilishi bilan kelib chiqadigan boshqa tadbirlardan voz kechmagan holda va imkon boricha:

1. fohishalik maqsadini ko'zlaydigan xalqaro odam savdosi qurboni bo'lgan nochor shaxslarni vataniga qaytarish bo'yicha oxirgi tadbirlarni o'tkazishdan oldin ularga vaqtinchalik yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan zarur choralar ko'rish;

2. 18-moddada ko'rsatilgan shaxslarni, agar ular shuni xohlasalar yoki ularning ixtiyorida bo'lgan shaxslar tomonidan ularni o'z vataniga qaytarish talabi tushgan bo'lsa yoki ularni mamlakatdan chiqarib yuborish haqida qonunda asoslangan buyruq mavjud bo'lsa, ularni o'z vataniga qaytarish. Vatanga qaytarish shaxsning shaxsiyati va fuqaroligi to'g'risida yoki uning chegaraga kelish joyi va sanasi to'g'risida davlat bilan kelishuvga erishilgandan keyin amalga oshiriladi. Ushbu Konvensiyaning har bir tomoni bunday shaxsning o'z hududi orqali o'tishiga ko'maklashadi.

Avvalgi xatboshida ko'rsatilgan shaxslar vataniga qaytish xarajatlarini o'zlari qoplay olmasalar va ularning kelib chiqishi davlatiga yaqin chegaraga, jo'nash portigacha yoki aviaportgacha vataniga qaytish xarajatlarini ularning o'rniga to'laydigan na eri, na qarindoshlari, na vasiy bo'lmasa, unda xarajatlar mazkur shaxslar yashaydigan davlat tomonidan to'lanadi, shu bilan bog'liq boshqa xarajatlarni esa ular kelib chiqqan davlat o'z zimmasiga oladi.

20-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar ish qidirayotgan shaxslarni, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarni fohishalik maqsadida ekspluatatsiya qilish xavfidan himoya qilish qilish bandlik bo'yicha idoralar ustidan nazoratni amalga oshirish yuzasidan, agar ular tomonidan bunday choralar ko'rilmagan bo'lsa, zarur choralarni ko'radi.

21-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga mazkur Konvensiyaning mavzuiga doir hamda o'zlarining davlatlarida nashr etilgan qonun va qarorlar to'g'risida xabar beradilar hamda shundan keyin har yili Konvensiya munosabati bilan nashr etiladigan qonun va qarorlar to'g'risida, shuningdek ushbu Konvensiyaning qo'llanishiga oid barcha qabul qilingan choralar to'g'risida xabar beradi. Bu ma'lumotlar Bosh kotib tomonidan vaqti-vaqti bilan nashr qilib boriladi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga, shuningdek 23-moddaga muvofiq mazkur Konvensiya rasman xabar qilinadigan Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarga ham yuboriladi.

22-modda

Agar ushbu Konvensiyada tomonlar o'rtasida uning talqin yoki qo'llanishiga nisbatan nizo paydo bo'lsa va agar bu nizo boshqacha yo'l bilan hal etilmasa, nizo tomonlardan birining talabi bo'yicha Xalqaro sudga yuboriladi.

23-modda

Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining istalgan a'zosi nomidan, shuningdek Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan tegishli taklif yuborilgan har qanday boshqa davlat nomidan imzolash uchun ochiq.

Mazkur Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya hujjatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibida saqlanadi.

Birinchi xatboshida qayd qilingan va ushbu Konvesiyani imzolamagan davlatlar unga qo'shilishlari mumkin.

Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mazkur Konvensiyada 'davlat' so'zi ushbu Konvensiyani imzolagan yoki unga qo'shilgan davlatning barcha mustamlaka va vasiyigidagi hududlarni hamda bu davlat xalqaro mas'uliyat sezadigan hamma hududlarni o'z ichiga oladi.

24-modda

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya yoki qo'shilish to'g'risidagi ikkinchi hujjat saqlash uchun topshirilgan sanadan to'qson kun o'tgach kuchga kiradi.

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki ratifikatsiya yoxud qo'shilish to'g'risidagi ikkinchi hujjatni saqlash uchun topshirgandan keyin unga qo'shilgan har bir davlatga nisbatan mazkur Konvensiya bu davlat tomonidan o'zining ratifikatsiya yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirgandan so'ng to'qson kun o'tgach kuchga kiradi.

25-modda

Ushbu Konvensiya kuchga kirgan vaqtdan besh yil o'tgach, mazkur Konvensiyada har qanday tomon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga bu haqda yozma bildirish yo'li bilan uni denonsatsiya qilishi mumkin.

Bunday denonsatsiya bu haqda ariza bergan tomonga nisbatan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi uning arizasini olgan sanadan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

26-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari hamda Tashkilotga a'zo bo'lmagan va 23-moddada qayd etilgan davlatlarga quyidagilarni bildiradi:

- a) 23-moddaga muvofiq olingan imzolash, ratifikatsiya va qo'shilish hujjatlari haqida;
- b) 24-moddaga muvofiq ushbu Konvensiyaning kuchga kirish sanasi to'g'risida;
- v) 25-moddaga muvofiq olingan denonsatsiya (rad qilishi) arizalari to'g'risida.

27-modda

Ushbu Konvensiyada har qaysi tomon o'z konstitutsiyasiga muvofiq mazkur Konvensiyaning qo'llanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qonunchilik yoki boshqa turli tadbirlarni qabul qilish majburiyatini oladi.

28-modda

Ushbu Konvensiya qoidalari, unda tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga taalluqli bo'lgani uchun muqaddimaning ikkinchi xatboshisidagi 1, 2, 3 va 4-bandlarda qayd etilgan xalqaro hujjatlarning qoidalarini bekor qiladi, ana shu hujjatlarning har biri ulardagi tomonlarning barchasi mazkur Konvensiyaning tomonlariga aylangach bekor bo'lgan hisoblanadi.

Yakunlovchi bayonnomaga

Ushbu Konvensiyada hech narsa odam savdosiga va fohishalik uchun boshqa shaxslarni ekspluatatsiya qilishga qarshi kurashishni ta'minlaydigan qoidalarini amalga oshirish uchun mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan shartlardan ko'ra qat'iy shart-sharoitlarni belgilaydigan har qanday qonun talablarini bajarishga to'siq sifatida qaralmasligi kerak.

Mazkur Konvensiyaning 23–26-moddalari qoidalari ushbu Bayonnomaga nisbatan qo'llaniladi.

TRANSMILLIY UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KONVENSIYASINI TO'LDIRUVCHI ODAM SAVDOSINING, AYNIQSA, XOTIN-QIZLAR VA BOLALAR SAVDOSINING OLDINI OLISH HAMDA UNGA CHEK QO'YISH VA UNING UCHUN JAZOLASH HAQIDAGI BAYONNOMA

*Bosh Assambleyaning 2000-yil 15-noyabrdagi 55/25-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyuldagi O'RQ-160-son
qonuni bilan ratifikatsiya qilingan*

Muqaddima

Ushbu Bayonnoma Ishtirokchi-davlatlari:

odam savdosining, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga qarshi kurashish yuzasidan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun bunday savdoning oldini olish, u bilan shug'ullanayotgan shaxslarni jazolash hamda bunday savdo qurbonlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni o'z ichiga oluvchi, shuningdek ular xalqaro tan olingan inson huquqlarini himoya qilish yo'li bilan amalga oshiruvchi, keng qamrovli xalqaro yondashuv zarurligini ma'lum qilib,

odamlar, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalardan foydalanishga qarshi kurashish bo'yicha normalardan iborat va amaliy choralarni nazarda tutgan bir qator xalqaro hujjatlar bo'lishiga qaramay, odam savdosining barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan universal hujjatning yo'qligini e'tiborga olib,

bunday hujjatning mavjud emasligi odam savdosi nuqtai nazaridan chorasiz ahvolga tushgan shaxslarning yetarli darajada himoyalanmasligidan tashvishlanib,

Bosh Assambleyaning 1998 yil 9 dekabrdagi 53/111-sonli rezolyutsiyasida bayon qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi keng qamrovli xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda xotin-qizlar va bolalar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hujjatni ishlab chiqish to'g'risidagi masalani muhokama qilish uchun ochiq tarkibdagi hukumatlararo maxsus qo'mita ta'sis etish to'g'risidagi qaroriga havola qilib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasiga qo'shimcha – odamlar, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar savdosining oldini olish va to'xtatish, bu jinoyatlar uchun jazo tayinlash bo'yicha xalqaro hujjat sifatida bunday jinoyatlarning oldini olish va ular bilan kurashishda yordam berishiga ishonch bildirib,

quyidagilar to'g'risida kelishdilar:

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi bilan aloqadorlik

1. Mazkur Bayonnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiradi. U Konvensiya bilan birgalikda sharhlanadi.

2. Konvensiya qoidalari mazkur Bayonnomaga, agar unda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, "mutatis mutandis" tartibida qo'llaniladi.

3. Mazkur Bayonnomaning 5-moddasiga muvofiq shunday e'tirof etilgan jinoyatlar Konvensiyaga muvofiq e'tirof etilgan jinoyatlar deb tan olinadi.

2-modda. Maqsadlar

Mazkur Bayonnoma maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a) odam savdosining oldini olish hamda xotin-qizlar va bolalarga alohida e'tibor bergan holda u bilan kurashish;
- b) bunday savdo qurbonlarini ularning inson huquqlarini to'la hurmat qilgan holda himoya qilish va ularga yordam berish;
- c) bu maqsadlarga erishishda Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish.

3-modda. Atamalar

Mazkur Bayonnoma maqsadlarida:

- a) "odam savdosi" – foydalanish maqsadlarida kuch ishlatish xavfi yoki uni qo'llash yoxud majburlovning boshqa shakllarini qo'llash, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni yoki qaramlik holatini suiiste'mol qilish yoxud to'lovlar yoki foyda ko'rinishida sotib olish yo'li bilan yoxud shaxsni nazorat qiluvchi boshqa shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki foyda ko'rinishida sotib olish yo'li bilan insonlarni yollash, tashish, berish, yashirish va odamlarni qo'lga kiritishni anglatadi. Foydalanish kamida boshqa shaxslarning fohishabozligidan foydalanish yoki shahvoniy maqsadlarda foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash urf-odatlarini, tutqunlik holatini yoki inson tana a'zolarini ajratib olishdan iborat bo'ladi.
- b) ushbu moddaning "a" kichik bandida aytib o'tilgan odam savdosidan jabrlanganlarning o'zidan rejalashtirilgan foydalanishga bo'lgan roziligi, agar ushbu kichik bandida ko'rsatilgan har qanday ta'sir etish chorasidan foydalanilgan bo'lsa, e'tiborga olinmaydi;
- c) foydalanish maqsadlarida bolani yollash, tashish, berish, yashirish yoki topshirish ushbu moddaning «a» kichik bandida ko'rsatilgan ta'sir etishning biron-bir vositasini qo'llash bilan bog'liq bo'lmasa ham "odam savdosi" deb hisoblanadi;
- d) "bola" – 18 yoshga yetmagan har qanday shaxsni anglatadi.

4-modda. Qo'llanish sohasi

Mazkur Bayonnoma, agar unda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu Bayonnomaning 5-moddasiga muvofiq shunday deb e'tirof etilishi munosabati bilan, agar bu jinoyatlar transmilliy xarakterga ega bo'lsa va uyushgan jinoiy guruh ishtirokida sodir etilgan bo'lsa, ularning oldini olishda, tergov qilishda va jinoiy ta'qib qilishda, shuningdek bu jinoyatdan jabrlanganlarni himoya qilishda qo'llaniladi.

5-modda. Kriminallashuv

1. Har bir Ishtirokchi-davlat ushbu Bayonnomaning 3-moddasida ko'rsatilgan qasddan sodir etilgan harakatlarni jinoiy jazoga loyiq deb tan olish uchun talab etiladigan – qonunchilik borasidagi va boshqa xil choralarni ko'radi.
2. Har bir Ishtirokchi-davlat, shuning bilan birga, qilmishlarni jinoiy jazoga loyiq deb tan olish uchun zarur bo'lgan quyidagi qonunchilik borasidagi va boshqa masalalarni ham hal qiladi:
 - a) o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga rioya qilish sharti bilan mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan biron-bir jinoyatni sodir etishga suiqasd;
 - b) mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan biron-bir jinoyatni sodir etishda ishtirokchi sifatida qatnashish;
 - c) mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan biron-bir jinoyatni sodir etish maqsadida boshqa shaxslarni tashkillashtirish yoki ularga boshchilik qilish.

II. ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI HIMOYA QILISH

6-modda. Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat tegishli hollarda va mumkin qadar o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq odam savdosidan jabrlanganlarning hayoti va shaxsini muhofaza qilishni bunday savdo bilan bog'liq ishlab chiqarish (faoliyat) ning sir tutilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'zining ichki huquqiy yoki ma'muriy tizimi, tegishli hollarda odam savdosidan jabrlanganlarga quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradigan choralarni nazarda tutishini ta'minlaydi:

a) ishlarni tegishli sud va ma'muriy tartibda muhokama qilinishi to'g'risidagi axborotni olish;

b) jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy ish yuritishning tegishli bosqichlarida himoya huquqlariga zarar yetkazmagan holda ularning fikrlari va xavotirlanishlarini ko'rib chiqish va bayon qilishga imkon beruvchi yordamni olish.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat odam savdosidan jabrlanganlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlash, shu jumladan, tegishli hollarda davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, boshqa tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan quyidagilarni taqdim etishni nazarda tutuvchi hamkorlikni olib borish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatni ko'radi:

a) lozim darajadagi boshpanani;

b) odam savdosidan jabrlanganlarga tushunarli bo'lgan tilda, ayniqsa ularning qonunchilikda mustahkamlangan huquqlariga oid maslahat va ma'lumotni;

c) tibbiy, ruhiy va moddiy yordamni;

d) ish bilan ta'minlanish, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sohasidagi imkoniyatlarni.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat ushbu modda qoidalarini qo'llashda odam savdosidan jabrlanganlarning yoshi, jinsi va alohida ehtiyojlarini, xususan bolalarning alohida ehtiyojlarini, shu jumladan, lozim darajada boshpana, ta'lim va parvarish olishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga oladi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat odam savdosidan jabrlanganlarga uning hududida bo'lgan davrlarida ularning jismoniy xavfsizligini ta'minlashga intiladi.

6. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'zining huquqiy tizimi, odam savdosidan jabrlanganlarga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya (tovon) olish imkoniyatini takdim etish choralari nazarda tutishini ta'minlaydi.

7-modda. Qabul qiluvchi davlatlarda odam savdosidan jabrlanganlarning maqomi

1. Mazkur Bayonnomaning 6-moddasiga muvofiq qo'llaniladigan choralarga qo'shimcha sifatida har bir Ishtirokchi-davlat odam savdosidan jabrlanganlarga tegishli hollarda o'zining hududida vaqtincha yoki doimiy asosda qolishlariga imkon beruvchi qonunchilik darajasidagi va boshqa xil lozim choralarni qabul qilish imkoniyatlarini qarab chiqadi.

2. Ushbu moddaning 1-bandida bayon qilingan qoidalarni amalga oshirishda har bir Ishtirokchi-davlat insonparvarcha mulohazalarni lozim darajada e'tiborga oladi va mehr-shafqat ko'rsatadi.

8-modda. Odam savdosidan jabrlanganlarni repatriatsiya qilish

1. Ishtirokchi-davlat odam savdosidan jabrlanganlarning fuqarosi bo'lgan yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga olib kirilguniga qadar uning hududida doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan bo'lsa, bunda u bu shaxsning qaytishiga yordam ko'rsatadi va bu shaxsning xavfsizligini ta'minlash masalalarini lozim darajada e'tiborga olib, uni asossiz yoki nooqilona kechiktirishsiz qabul qiladi.

2. Ishtirokchi-davlat odam savdosidan jabrlanganlarni – uning fuqarosi bo'lgan yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga olib kirilguniga qadar uning hududida doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan Ishtirokchi-davlatga qaytarish chog'ida bu shaxs xavfsizligini, shuningdek shaxsni odam savdosidan jabrlanganlarga aylanishiga olib kelgan har qanday ishlab chiqarish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, asosan ixtiyoriy tarzda amalga oshiradi.

3. Qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat iltimosiga ko'ra, murojaat qiluvchi Ishtirokchi-davlat asossiz yoki oqilona bo'lmagan kechiktirishlarsiz odam savdosidan jabrlanganlarga shaxs uning fuqarosi bo'lganligini yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga olib kirilguniga qadar uning hududida doimiy yashash huquqiga ega bo'lganligini tekshiradi.

4. Lozim hujjatlarga ega bo'lmagan odam savdosidan jabrlangan shaxsni qaytarishga ko'maklashish maqsadlarida uning fuqarosi bo'lgan yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga olib kirilguniga qadar uning hududida doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan Ishtirokchi-davlat qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat iltimosiga ko'ra xorijga chiqish-kirish hujjatlarini berishga rozilik bildiradi.

5. Ushbu modda qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat ichki qonunchiligining har qanday qoidasidan qat'i nazar odam savdosidan jabrlanganlarga berilgan huquqlarga zarar yetkazmaydi.

6. Ushbu modda odam savdosidan jabrlanganlarni qaytarish masalalarini to'liq yoki qisman tartibga soluvchi har qanday ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlarga zarar yetkazmaydi.

III. OLDINI OLISH, HAMKORLIK VA BOSHQA CHORALAR

9-modda. Odam savdosining oldini olish

1. Ishtirokchi-davlatlar quyidagi maqsadlarda siyosat, dasturlar va boshqa choralarni majmuaviy asosda ishlab chiqadilar va qabul qiladilar:

- a) odam savdosining oldini olish va u bilan kurashish;
- b) odamlar, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarni reviktimizatsiyadan himoya qilish.

2. Ishtirokchi-davlatlar odam savdosining oldini olish va u bilan kurashishga qaratilgan tadqiqotlarni, axborot kompaniyalarini ommaviy axborot vositalarida o'tkazish, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirish kabi chora-tadbirlarni ko'rishga intiladilar.

3. Ushbu moddaga muvofiq ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan siyosat, dasturlar va boshqa choralar tegishli hollarda davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, boshqa tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan odam savdosi nuqtai nazaridan odamlarni, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarning zaifligini belgilovchi qashshoqlik, rivojlanishning past darajadali va teng imkoniyatlarning mavjud emasligi kabi omillar ta'sirini yumshatishga qaratilgan choralarni ko'radilar yoki takomillashtiradilar.

5. Ishtirokchi-davlatlar odamlar, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalardan har qanday shaklda foydalanish odam savdosiga olib kelgani uchun unga nisbatan bo'lgan talabni yo'qotishga qaratilgan ta'lim, madaniyat yoki ijtimoiy sohada ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha qonunchilik darajasidagi yoki tegishli boshqa choralarni qabul qiladilar yoxud takomillashtiradilar.

10-modda. Axborot almashinuvi va kadrlarni tayyorlash

1. Ishtirokchi-davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi, migratsiya va boshqa tegishli organlari lozim hollarda bir-birlari bilan o'zlarining ichki qonunchiligiga muvofiq quyidagilarni aniqlashga imkon beruvchi axborot almashinuvi yo'li bilan o'zaro hamkorlik qiladilar:

a) xorijga chiqish-kirish hujjatlarisiz yoki boshqa shaxslarga tegishli shunday hujjatlar bilan xalqaro chegarani kesib o'tayotgan yoki kesib o'tishga urinayotgan shaxslar odam savdogarlari yoki bunday savdo qurbonlari bo'lib hisoblanishlari;

b) odam savdosini amalga oshirish maqsadida xalqaro chegarani kesib o'tish uchun bunday shaxslar tomonidan foydalanilgan yoki foydalanishga harakat qilingan xorijga chiqish-kirish hujjatlarining turlari;

c) odam savdosini amalga oshirish maqsadida uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan qo'llaniladigan usul va vositalar, shu jumladan jabrlanganlarni yollash va tashish, bunday savdo bilan shug'ullanuvchi alohida shaxslar va guruhlar o'rtasidagi yo'nalishlar va aloqalar, shuningdek bu guruhlar o'rtasidagi aloqalar hamda ularni aniqlash bo'yicha qo'llanilishi mumkin bo'lgan choralar.

2. Ishtirokchi-davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi, migratsiya va boshqa tegishli organlar xodimlarining odam savdosining oldini olish masalalari bo'yicha tayyorgarligini ta'minlaydilar yoki takomillashtiradilar. Ko'rsatilgan tayyorgarlik bunday savdoning oldini olish, u bilan mashg'ul bo'lgan shaxslarni jinoiy ta'qib etish va jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish, jumladan, ularni bunday savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslardan muhofaza qilish metodlariga asoslanishi lozim.

Tayyorgarlik ko'rish jarayonida shuningdek inson huquqlarini, bolalar va gender muammolarini hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratish lozim; tayyorgarlik davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, boshqa tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan hamkorlikni amalga oshirishga ko'mak berishi lozim.

3. Axborotni oluvchi Ishtirokchi-davlat uni taqdim etgan Ishtirokchi-davlatning undan cheklangan tarzda foydalanish bo'yicha cheklovlari bilan bog'liq har qanday iltimosini bajaradi.

11-modda. Chegara nazorati choralari

1. Kishilarning erkin ko'chib yurishiga oid xalqaro majburiyatlarga zarar yetkazmagan holda Ishtirokchi-davlatlar imkon qadar odam savdosining oldini olish va aniqlash uchun talab etiladigan chegara nazorati choralari belgilaydilar.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Protokolning 5-moddasiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan jinoyatlarni sodir etishda tijorat yuk tashuvchilar tomonidan foydalaniladigan transport vositalaridan foydalanishning, iloji boricha oldini olish uchun qonunchilik darajasidagi yoki boshqa tegishli choralarni ko'radi.

3. Tegishli hollarda va qo'llaniladigan xalqaro konvensiyalar uchun zarar yetkazmagan holda bunday choralar tijorat yuk tashuvchilar, shu jumladan har qanday transport kompaniyasi yoki har qanday transport vositasining egasi yoxud operatori uchun hamma yo'lovchilarning qabul qiluvchi davlatga kirishlari uchun zarur bo'lgan xorijga chiqish-kirish hujjatlariga ega ekanliklariga ishonch hosil qilish majburiyatini nazarda tutadi.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq ushbu moddaning 3-bandida o'rnatilgan majburiyatlarni buzganlik uchun sanksiyalarni nazarda tutuvchi zarur choralarni belgilaydi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat o'z ichki qonunchiligiga muvofiq mazkur Protokolga asosan shunday deb e'tirof etilgan jinoyatlarni sodir etishga daxldor bo'lgan shaxslarning uning hududiga kirishlarini rad etish yoki ularga berilgan vizalarni bekor qilishga imkon beruvchi choralarni qo'llash imkoniyatini nazarda tutadi.

6. Konvensiyaning 27-moddasi uchun zarar yetkazmagan holda Ishtirokchi-davlatlar chegara nazorati organlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'llarini joriy etish va qo'llab-quvvatlash yo'li bilan hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatini qarab chiqadi.

12-modda. Hujjatlarning ishonarliligi va ular ustidan nazoratni olib borish

Har bir Ishtirokchi-davlat mavjud imkoniyatlar doirasida quyidagi vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'radi:

a) ular tomonidan beriladigan xorijga chiqish-kirish hujjatlari yoki shaxsni tasdiqlovchi guvohnomalar ulardan noqonuniy foydalanish va ularni soxtalashtirish yoki qonunga xilof tarzda

o'zgartirish, qayta tiklash yoki berishni maksimal darajada qiyinlashtiradigan sifatda bo'lishini ta'minlash;

b) ushbu Ishtirokchi-davlat tomonidan yoki uning nomidan berilgan xorijga chiqish-kirish hujjatlari yoki shaxsni tasdiqlovchi guvohnomalarning himoyalanganlik va ishonarlilik darajasini, shuningdek noqonuniy tarzda ularni tayyorlash, berish va ulardan foydalanishning oldini olishni ta'minlash.

13-modda. Hujjatlarning qonuniyligi va haqiqiyligi

Ishtirokchi-davlat boshqa Ishtirokchi-davlatning iltimosiga ko'ra, o'z ichki qonunchiligiga muvofiq oqilona muddat ichida uning nomidan berilgan yoki berilishi mumkin bo'lgan hamda odam savdosi uchun foydalanishda gumon qilinayotgan xorijga chiqish-kirish hujjatlari yoki shaxsni tasdiqlovchi guvohnomalarning qonuniyligi va haqiqiyligini tekshiradi.

IV. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

14-modda. Istisno etuvchi qoidalar

1. Mazkur Bayonnomadagi hech narsa xalqaro huquq, xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq va xususan, qo'llash mumkin bo'lganda, qochoqlar maqomiga oid 1951 yilgi Konvensiya va 1967 yilgi Protokol hamda ularda mustahkamlangan mamlakatdan chiqarib yubormaslik prinsipiga muvofiq davlatlar va alohida shaxslarning javobgarligi, majburiyatlari hamda boshqa huquqlariga daxl qilmaydi.

2. Ushbu Bayonnomada nazarda tutilgan choralar odam savdosidan jabrlanganliklari uchungina kamsitilishga asos bo'lmaydigan tarzda talqin etiladi va qo'llaniladi. Bu choralarni talqin etish va qo'llash xalqaro e'tirof etilgan kamsitilmaslik prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladi.

15-modda. Nizolarning tartibga solinishi

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomani sharhlash yoki qo'llashga oid nizolarni muzokaralar yo'li bilan tartibga solishga harakat qiladilar.

2. Iqki yoki undan ko'p Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi Bayonnomani sharhlash yoki qo'llashga oid nizolarni oqilona vaqt ichida muzokaralar yo'li bilan tartibga solish mumkin bo'lmasa, bu Ishtirokchi-davlatlardan birining iltimosiga ko'ra, arbitraj muhokamasiga beriladi. Arbitraj to'g'risida iltimos bilan murojaat qilingandan so'ng olti oy mobaynida ana shu Ishtirokchi-davlatlar uni tashkil etish to'g'risida kelisha olmasalar, unda Ishtirokchi-davlatlarning istalgan biri Xalqaro sud Statutiga muvofiq arizani taqdim etish yo'li bilan nizoni ushbu sudga berishi mumkin.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Bayonnomani imzolashda, ratifikatsiya qilishda, qabul qilishda yoki uni tasdiqlashda yoxud unga qo'shilishda mazkur moddaning 2-bandi qoidalariga unga taalluqli bo'lmashligini ma'lum qilishi mumkin. Boshqa Ishtirokchi-davlatlar shunday izoh bildirgan har qanday Ishtirokchi-davlatga nisbatan mazkur moddaning 2-bandi qoidalariga bilan bog'liq bo'lmaydilar.

4. Ushbu moddaning 3-bandiga muvofiq izoh bildirgan har qanday Ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga xabarnoma yuborish yo'li bilan istagan vaqtda bu izohni olib tashlashi mumkin.

16-modda. Imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash va qo'shilish

1. Mazkur Bayonnoma imzolash uchun Palermo, Italiyada 2000 yilning 12 dekabridan 15 dekabriga qadar, so'ng Nyu-Yorkdagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy muassasalarida 2002 yilning 12 dekabriga qadar ochiq sanaladi.

2. Mazkur Bayonnoma, shuningdek iqtisodiy integratsiya regional tashkilotlari tomonidan, kamida bunday tashkilotga a'zo davlatlardan biri ushbu Protokolni mazkur moddaning 1-moddasiga muvofiq imzolagan holdagina, imzolanish uchun ochiq hisoblanadi.

3. Mazkur Bayonnoma ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi va tasdiqlanishi lozim.

Ratifikatsiya yorliqlari yoki qabul qilish yoxud tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun Birlashgan Millitlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi. Iqtisodiy integratsiya hududiy (regional) tashkiloti o'zining ratifikatsiya yorlig'ini yoki qabul qilish yoxud tasdiqlash to'g'risidagi hujjatini saqlash uchun, agar a'zo-davlatlardan kamida biri shunday ish tutgan bo'lsa, topshirishi mumkin. Bu ratifikatsiya yorlig'ida yoki qabul qilish yoxud tasdiqlash to'g'risidagi hujjatda bunday tashkilotning ushbu Bayonnoma bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha o'z kompetensiyasi sohasi to'g'risida ma'lum qiladi. Bu tashkilot shuningdek, depozitariyga o'z kompetensiyasi sohasining har qanday o'zgarishi to'g'risida ham xabar qiladi.

4. Mazkur Bayonnoma har qanday davlat yoki iqtisodiy integratsiya hududiy (regional) tashkilotining, bunday tashkilotlardan kamida biri ushbu Bayonnoma Ishtirokchisi bo'lgan holdagina, qo'shilish uchun ochiq bo'ladi. Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi. Qo'shilishda iqtisodiy integratsiya hududiy (regional) tashkiloti ushbu Bayonnomaning bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha o'z kompetensiyasi sohasi to'g'risida ma'lum qiladi. Bu tashkilot shuningdek, depozitariyga o'z kompetensiyasi sohasining har qanday o'zgarishi to'g'risida ham xabar qiladi.

17-modda. Kuchga kirishi

1. Mazkur Bayonnoma qirqinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qabul qilish, tasdiqlash yoxud qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshirilganidan so'ng to'qsoninchi kunda kuchga kiradi, biroq u Konvensiya kuchga kirmagunga qadar kuchga kirmaydi. Ushbu band maqsadlarida iqtisodiy integratsiya hududiy (regional) tashkiloti tomonidan saqlash uchun topshirilgan bu yo'sindagi har qanday yorliq yoki hujjatga bu tashkilotning a'zo davlatlari tomonidan saqlash uchun topshirilgan hujjatlar yoki yorliqlarga qo'shimcha sifatida qaralmaydi.

2. Mazkur Bayonnomaning qabul qiluvchi, tasdiqlovchi yoxud unga qo'shiluvchi har bir davlat yoki iqtisodiy integratsiya hududiy (regional) tashkiloti uchun ular qirqinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki bunday harakat to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan so'ng, ushbu Bayonnoma bu davlat yoki tashkilot tomonidan tegishli yorliq yoki hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyingi o'ttizinchi kuni yoki kechroq, mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq mazkur Bayonnoma kuchga kirish sanasida kuchga kiradi.

18-modda. Tuzatishlar

1. Mazkur Bayonnoma kuchga kirganidan besh yil o'tganidan so'ng ushbu Bayonnoma Ishtirokchi-davlat tuzatish kiritishni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taklif qilishi va yuborishi mumkin, Bosh kotib tavsiya etilayotgan tuzatishni bu taklifni ko'rib chiqish va u bo'yicha qaror qabul qilish maqsadida Ishtirokchi-davlatlarga va Konvensiya Ishtirokchilarining Konferensiyasiga yuboradi. Konferensiyada qatnashayotgan Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnoma har qaysi tuzatishga nisbatan konsensusga erishish uchun bor kuchlarini sarflaydilar. Agar konsensusga erishish uchun barcha harakatlar amalga oshirilgan va kelishuvga erishilmagan bo'lsa, unda oxirgi chora sifatida, tuzatishni qabul qilish uchun Ishtirokchilar Konferensiyasida hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etayotgan mazkur Bayonnoma Ishtirokchi-davlatlarining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab etiladi.

2. Ularning vakolat doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha iqtisodiy integratsiya hududiy (regional) tashkilotlari ushbu moddaga muvofiq o'zlarining ovoz berish huquqlarini mazkur Bayonnoma a'zolari hisoblangan Ishtirokchi-davlatlar soniga teng ovozlarga ega bo'lgan holda amalga oshiradilar.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiqqabul qilingan tuzatish Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi lozim.

4. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish Ishtirokchi-davlatga nisbatan u tomonidan ratifikatsiya yorliqlari yoki qabul qilish yoxud tasdikdash to'g'risidagi hujjatlarni saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshirilgach, to'qson kundan so'ng kuchga kiradi.

5. Tuzatish kuchga kirganidan so'ng, ushbu Bayonnoma unga rioya etishga o'z roziligini bildirgan Ishtirokchi-davlatlar uchungina majburiy xisoblanadi. Boshqa Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnoma qoidalari va unga oldin o'zlari tomonidan kiritilgan, ratifikatsiya qilingan, qabul qilingan yoki tasdiklangan har qanday tuzatishlarni bajarishda davom etadilar.

19-modda. Denonsatsiya (bekor qilish)

1. Ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma xabarnoma yuborish yo'li bilan denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan xabarnoma olinganidan bir yil o'tganidan so'ng kuchga kiradi.

2. Iqtisodiy integratsiya tashkiloti Protokolga a'zo barcha davlatlar ushbu Bayonnomani denonsatsiya qilganlaridan keyin uning Ishtirokchisi hisoblanmaydi.

20-modda. Depozitariy va tillar

1. Mazkur Bayonnoma Depozitariysi etib Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tayinlanadi.

2. Mazkur Bayonnomaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tilidagi matnlari aynan hamda asl nusxa hisoblanib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

Mazkur holatni guvohlantirishga o'z hukumatlari tomonidan lozim darajada vakolatlangan vakillar ushbu Bayonnomani imzoladilar.

DENGIZ QUROLI KUCHLARI TARKIBIDAGI YARADORLAR, BEMORLAR VA KEMA HALOKATI JABRLANUVCHILARINING TAQDIRINI YAXSHILASH BO'YICHA KONVENSIYA

*1949-yil 12-avgustda Jenevada diplomatik konferensiyada
qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi
946-XII-son qarori bilan qo'shilgan*

(Ko'chirma)

II BOB. YARADORLAR VA BEMORLAR VA KEMA HALOKATIGA UCHRAGANLAR

12-modda

Navbat bilan tibbiy yordam ko'rsatishda faqat shoshilinch tibbiy yordamga muhtojlik sababligina imtiyozli yondashuvga yo'l qo'yiladi.

Xotin-qizlarga munosabatda ularning jinsi nuqtai nazaridan zarur bo'lgan alohida e'tibor ko'rsatiladi.

HARBIY ASIRLAR BILAN QANDAY MUNOSABATDA BO'lish TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*1949-yil 12-avgustda Jenevada Diplomatik konferensiyada
qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi
946-XII-son qarori bilan qo'shilgan*

(Ko'chirma)

II BO'LIM. HARBIY ASIRLAR HIMOYASI TO'G'RISIDA UMUMIY MAZMUNDAGI QOIDALAR

14-modda

Har qanday sharoitda harbiy asirlar o'z shaxsiyati va or-nomusining hurmat qilinishi huquqiga egadir.

Xotin-qizlarga munosabatda ularning jinsi nuqtai nazaridan joiz bo'lgan alohida e'tibor ko'rsatiladi hamda har qanday vaziyatda ularga erkaklarga ko'rsatilayotgan munosabatdan yomon bo'lmagan darajada muomala qilinishi zarur.

Harbiy asirlar asir olingan paytlaridagi o'zlarining fuqaroviy huquqdorliklarini to'la saqlab qoladilar. Asirlikda saqlab turgan Davlat o'z hududida yoki undan tashqarida ana shu huquqdorlik bo'yicha beriladigan huquqlarning amalga oshirilishini faqat asirlik shart-sharoitlari talabi darajasidagina cheklashi mumkin.

25-modda

Erkak va xotin-qiz harbiy asirlar joylashtirilgan lagerlarda xotin-qizlar alohida yotoq joylari bilan ta'minlanadi.

III BOB. JINOIY VA INTIZOMIY JAZO I. UMUMIY QOIDALAR

88-modda

Intizomiy yoki jinoiy jazoni o'tayotgan ofitser, unter-ofitsep yoxud askar harbiy asirlarga nisbatan asirlikda saqlab turgan Davlat qurolli kuchlarida xuddi shunday jazo uchun bu unvonlarga teng bo'lganlarga qo'llaniladigan muomaladan ko'ra og'irroq muomala qilinishi mumkin emas.

Xotin-qiz harbiy asirlar asirlikda saqlab turgan Davlat qurolli kuchlari tarkibidagi xotin-qizlarga nisbatan xuddi shunday huquqbuzarliklar uchun belgilangan jazodan og'irroq jazolarga hukm etilmasligi yoki jazoni o'tash chog'ida ularga nisbatan ko'zda tutilgan muomaladan ko'ra og'irroq muomalaga duchor qilinmasligi kerak.

Xotin-qiz harbiy asirlar asirlikda saqlab turgan Davlat qurolli kuchlari tarkibidagi xuddi shunday huquqbuzarliklari yuzasidan jazolanayotgan erkaklarga nisbatan og'irroq jazolarga hukm etilishi yoki jazoni o'tash chog'ida ularga xuddi shunday huquqbuzarliklari yuzasidan jazolanayotgan ana shu erkaklar uchun ko'zda tutilgan munosabatlardan ko'ra og'irroq muomala qilinishi mutlaqo mumkin emas.

Intizomiy yoki jinoiy jazoni o'tab chiqqan harbiy asirlar bilan boshqa harbiy asirlarga qaraganda o'zgacha munosabatda bo'lish taqiqlanadi.

II. INTIZOMIY JAZOLAR

97-modda

Hech qanday sharoitda harbiy asirlar intizomiy jazoni o'tash uchun axloq tuzatish muassasalari (qamoqxona, axloq tuzatish koloniyasi, surgun qamoqxonalari va boshqalar)ga ko'chirilishi mumkin emas.

Intizomiy jazo o'taladigan barcha binolar 25-moddada ko'zda tutilgan gigiena talablariga javob berishi kerak. Jazoni o'tayotgan harbiy asirlar 29-moddaga muvofiq tarzda o'zlarini ozoda saqlash imkoniga ega bo'lishlari lozim.

Ofitserlar va ularga tenglashtirilganlar unter-ofitserlar va oddiy askarlar bilan birga, bitta xonada qamoqda saqlanmasligi kerak.

Intizomiy jazoni o'tayotgan xotin-qiz harbiy asirlar erkak harbiy asirlardan ajratilgan holda alohida xonalarda saqlanishi va bevosita xotin-qizlarning nazorati ostida bo'lishi kerak.

**XALQARO QUROLLI MOJAROLAR QURBONLARINI
HIMOYA QILISHGA TAALLUQLI JENEVA KONVENSIYALARIGA 1949 YIL
12 AVGUSTDAGI QO'SHIMCHA BAYONNOMA
(I BAYONNOMA)**

*I Bayonnoma 1977-yil 8-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiyada
qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi
946-XII-son qarori bilan qo'shilgan*

(Ko'chirma)

**III BO'LIM. NIZOLASHAYOTGAN TOMON HUKMI OSTIDA
BO'LGAN SHAXSLAR BILAN MUOMALA QILISH**

**I BOB. QO'LLANISH SOHASI HAMDA SHAXS
VA OB'EKTLAR HIMOYASI**

75-modda. Asosiy kafolatlar

5. Qurolli mojaro bilan bog'liq sabablar tufayli ozodligi cheklangan xotin-qizlar erkaklar joylashgan binolardan ajratilgan binolarga joylashtiriladi. Ular bevosita xotin-qizlarning nazoratida bo'ladi. Ammo oilalar qo'lga olingan yoki internirlangan hollarda, ular iloji boricha bir joyga va har bir oila alohida tarzda joylashtiriladi.

**II BOB. XOTIN-QIZLAR VA BOLALAR HIMOYASI BO'YICHA
CHORA-TADBIRLAR**

76-modda. Xotin-qizlar himoyasi

1. Xotin-qizlar alohida hurmatdan foydalanadi va ular, xususan, nomusga tegish, fohishabozlikka majburlash va boshqa har xil nomunosib tajovuzlardan himoya bilan ta'minlanadi.

2. Qurolli mojaro bilan bog'liq sabablarga ko'ra qamalgan, qo'lga olingan yoki internirlangan homilador xotin-qizlar va qaramog'ida yosh bolasi bo'lgan xotin-qizlarga oid ishlar birinchi navbatda ko'rib chiqiladi.

3. Nizolashayotgan tomonlar qurolli mojaro bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etgan homilador xotin-qizlar va qaramog'ida yosh bolasi bo'lgan xotin-qizlarga nisbatan iloji boricha o'lim jazosi berish haqida hukm chiqarmaslikka harakat qiladilar. Bunday xotin-qizlarga nisbatan ushbu huquqbuzarliklar uchun chiqarilgan o'lim jazosi berish hukmi ijro etilmaydi.

SANOAT VA SAVDODA MEHNAT INSPEKSIYASI TO'G'RISIDAGI 81-KONVENSIYA

Bosh Konferensiyada 1947-yil 11-iyulda qabul qilingan

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 27-avgustdagi
O'RQ-556-son qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

(Ko'chirma)

I BO'LIM. SANOATDA MEHNAT INSPEKSIYASI

8-modda

Inspeksiya shtati tarkibiga erkaklar ham, xotin-qizlar ham tayinlanishi mumkin; zarur hollarda erkak va xotin-qiz inspektorlar zimmasiga alohida vazifalar yuklatilishi mumkin.

HAQ TO'LANADIGAN TA'TIL TO'G'RIDAGI 52-KONVENSIYA

*Bosh Konferensiyasining 1936-yil 24-iyundagi
20-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
84-l-son qaroriga muvofiq qo'shilgan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1936 yilning 4 iyunida o'zining yigirmanchi sessiyasiga to'planib,
sessiya kun tartibining ikkinchi bandi bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'tillar to'g'risida bir qator takliflarni qabul qilishga qaror chiqarib,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,
bir ming to'qqiz yuz o'ttiz oltinchi yil iyun oyining yigirma to'rtinchi kunida quyidagi "Haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risidagi 1936 yilgi konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya quyidagi korxona yoki muassasalardan birida, ular davlatga qarashli yoki xususiy bo'lishidan qat'i nazar, ish bilan band bo'lgan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi:

a) buyumlar ishlab chiqariladigan, o'zgartiriladigan, tozalanadigan, ta'mirlanadigan, bezatiladigan, sayqal beriladigan, sotuvga tayyorlanadigan, buziladigan yoki yo'q qilinadigan korxonalarda yoki materiallar qayta ishlanadigan korxonalarda, shu jumladan, kema qurish yoki ishlab chiqarish, elektr toki o'zgartiriladigan yoki har qanday turdagi elektr energiyasi yoxud dvigatel quvvati uzatiladigan korxonalarda;

b) to'liq yoki asosan qurilish, rekonstruksiya qilish, saqlash, ta'mirlash, qayta qurish yoki qismlarga ajratish bilan shug'ullanadigan korxonalarda:

- binolarni;
- temir yo'llarni;
- tramvay yo'llarini;
- aeroportlarni;
- portlarni;
- prichallarni (kemalar bog'lanadigan joy);
- pirslarni (kemalar bog'lab qo'yiladigan maxsus joylar);
- suv toshqini yoki qirg'oq eroziyasidan himoya qiladigan inshootlarni;
- kanallarni;
- ichki, dengiz yoki havo navigatsiyasi maqsadlari uchun inshootlarni;
- yo'llarni;
- tunnellarni;
- ko'priklarni;
- viaduklarni (yo'l ustidan o'tgan ko'priklarni);
- kanalizatsiya tizimlarini;
- suv quvurlarini;
- quduqlarni;
- irrigatsiya yoki quritish inshootlari, elektraloqalari qurilmalarini;
- gaz yoki elektr quvvati ishlab chiqarish yoki taqsimlash bo'yicha korxonalarini;
- quvurlarni;

- suv ta'minoti tizimlarini;
 - hamda boshqa shu kabi ishlar yoki yuqorida qayd etilgan ishlardan oldingi qurilishga tayyorlash yoki poydevorini o'rnatish bilan shug'ullanadigan korxonalarni;
- c) avtomobil va temir yo'llar, ichki suv yo'llari yoki havo yo'llari bo'ylab yo'lovchilarni yoki yuklarni tashish, jumladan, yuklarni port, prichal, pristan (kemalar bog'lab qo'yiladigan maxsus joylar), omborlarda yoki aeroportlarda tashish bilan shug'ullanadigan korxonalarda;
 - d) yerdan foydali qazilmalarni qazib olish bo'yicha shaxta, karerlarda yoki boshqa korxonalarda;
 - e) tijorat yoki savdo korxonalarida, shu jumladan, pochta va elektroloqalari muassasalarida;
 - f) xodimlari asosan ish yuritish bilan shug'ullanadigan muassasalar va ma'muriy organlarda;
 - g) davriy matbuot korxonalarida;
 - h) bemor, nimjon, nochor va aqldan ozganlarni davolaydigan hamda parvarishlaydigan muassasalarda;
 - i) mehmonxonalar, restoranlar, pansionlar, oshxonalar, klublar, kafelar va boshqa shunga o'xshash umumiy ovqatlanish muassasalarida;
 - j) teatrlar va umumiy ko'ngilochar joylarda;
 - k) avvalgi toifalar bilan butunlay qamrab olinmagan aralash tijorat va sanoat korxonalarida.
2. Har bir mamlakat hokimiyatining vakolatli organi, ish beruvchilar va xodimlarning asosiy manfaatdor tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashgandan so'ng, bir tomondan avvalgi bandeda belgilangan korxonalar va muassasalar, ikkinchi tomondan mazkur Konvensiya qo'llanilmaydigan korxona va muassasalar o'rtasida chegaralarni belgilaydi.
3. Har bir mamlakat hokimiyatining vakolatli organi mazkur Konvensiyaning qo'llanilish doirasidan quyidagi shaxslarni istisno qilishi mumkin:
- a) faqat ish beruvchining oila a'zolari band bo'lgan korxonalarda yoki muassasalarda band bo'lgan shaxslarni;
 - b) xizmat sharoitlari ularga hech bo'lmaganda, ushbu Konvensiya bilan belgilangan ta'til muddatiga teng bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqini beradigan davlat muassasalarida band bo'lgan shaxslarni.

2-modda

1. Ushbu Konvensiya qo'llaniladigan har bir shaxs bir yil davomida uzluksiz ishlaganidan so'ng, hech bo'lmaganda, olti ish kuniga teng bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqiga ega.
2. O'n olti yoshdan kichik bo'lgan shaxslar, jumladan, o'quvchilar uzluksiz ishlaganidan so'ng, hech bo'lmaganda, o'n ikki ish kuniga teng bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqiga ega.
3. Haq to'lanadigan yillik ta'tilga quyidagilar qo'shilmaydi:
 - a) rasmiy va an'anaviy bayramlar;
 - b) kasallik natijasida ishdagi tanaffuslar.
4. Milliy qonunlar yoki qoidalar ayrim vaziyatlarda ushbu modda bilan belgilangan eng kam muddatdan oshadigan haq to'lanadigan yillik ta'tilning qismlarga bo'linishiga ruxsat berishi mumkin.
5. Haq to'lanadigan yillik ta'tilning davomiyligi milliy qonunlar va qoidalar bilan belgilanadigan shartlaridan kelib chiqib, ish stajining davomiyligiga muvofiq ko'paytiriladi.

3-modda

- Ta'tilga chiqadigan har bir shaxs ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga asosan butun ta'til davomida quyidagilarni oladi:
- a) milliy qonunlar yoki qoidalar bilan belgilangan usulda hisoblangan o'zining odatdagi haqini, agar mavjud bo'lsa, o'zining odatdagi haqiga teng naqd pulni qo'shgan holda;
 - b) jamoa shartnomasi bilan belgilangan haqni.

4-modda

Haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqini istisno etadigan yoki bunday ta'til olish huquqini bermaydigan har qanday bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi.

5-modda

Milliy qonunlar yoki qoidalar, o'zining yillik ta'tili paytida haq to'lanadigan ishda band bo'lgan shaxslar, ta'til davri uchun haq olishdan mahrum bo'lishi mumkinligini nazarda tutishi mumkin.

6-modda

Ish beruvchilarga bog'liq sababga ko'ra tegishli ta'tildan foydalangunga qadar ishdan bo'shatilgan shaxslarga, mazkur Konvensiyaga asosan ta'tilning har bir kuni uchun 3-moddada nazarda tutilgan haq to'lanishi lozim.

7-modda

Ushbu Konvensiya qoidalarini hayotga samarali tatbiq etishni yengillashtirish uchun har bir ish beruvchi vakolatli hokimiyat tomonidan ma'qullangan shaklda quyidagilarni aks ettiruvchi yozuvlarni yuritib borishi kerak:

- a) u tomonidan yollangan har bir shaxsning ishga qabul qilingan sanasini hamda shunga o'xshash har bir shaxs ega bo'lgan har yilgi haq to'lanadigan ta'tilning muddatini;
- b) har bir shaxsning haq to'lanadigan yillik ta'tilga chiqish sanasini;
- c) har bir shaxsning haq to'lanadigan yillik ta'til davri uchun oladigan haqini.

8-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilotning har bir a'zosi, mazkur Konvensiya qoidalarining qo'llanilishini ta'minlash uchun choralar tizimini ishlab chiqadi.

9-modda

Ushbu Konvensiyada hech bir narsa mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan sharoitdan qulayroq sharoitni ta'minlaydigan qonun, sud qarori, an'analar yoki ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida bitim bilan belgilangan har qanday qoidalarni buzmaydi.

10-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuboriladi.

11-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat Tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.
2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor Tashkilotning ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarni ro'yxatga olganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.
3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olingan kunidan keyin o'n ikki oy o'tgach Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan kuchga kiradi.

12-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinishi bilan, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori bu haqda Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi. U, shuningdek keyinchalik Tashkilotning boshqa a'zolaridan yuborilgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi barcha hujjatlarning ro'yxatga olinganligi haqida ularni xabardor qiladi.

13-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har qanday a'zosi uning dastlabki kuchga kirgan kundan boshlab o'n yillik muddat o'tganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjati orqali uni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil muddatda mazkur moddada nazarda tutilgan o'zining denonsatsiya qilish foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga muvofiq, u mazkur modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

14-modda

Har gal, Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi zarur deb topganda, u Bosh Konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uning to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqilishi to'g'risidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritilishini hal qiladi.

15-modda

1. Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilgan holatlarda va, agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biron bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik ravishda 13-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi Konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishga olib keladi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan uni ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni jihatidan o'z kuchida qoladi.

16-modda

Mazkur Konvensiyaning fransuzcha va inglizcha matnlari bir xil kuchga ega.

TENG HAQ TO'LASH TO'G'RISIDAGI 100-KONVENSIYA

*Bosh Konferensiyasining 1951-yil 29-iyundagi
34-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
493-I-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh Konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1951 yilning 6 iyunida o'zining o'ttiz to'rtinchi sessiyasiga to'planib,

sessiya kun tartibining yettinchi bandi hisoblangan teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to'lash tamoyili to'g'risida bir qancha takliflarni qabul qilishga qaror qilib, mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,

bir ming to'qqiz yuz ellik birinchi yil iyun oyining yigirma to'qqizinchi kunida quyidagi "Teng haq to'lash to'g'risidagi 1951 yilgi konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

Ushbu Konvensiya maqsadi uchun:

a) "haq to'lash" atamasi ish beruvchining xodimga qaysidir ishni oxirigacha bajarganligi sababli odatdagi, asosiy yoki eng kam ish haqi yoxud to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, naqd yoxud real taqdim etadigan, odatdagi, asosiy yoki eng kam oylik va boshqa har qanday haqlarni o'z ichiga oladi;

b) "teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to'lash" atamasi jins bo'yicha kamsitishsiz belgilanadigan haq to'lash miqdori ma'nosini anglatadi.

2-modda

1. Tashkilotning har bir a'zosi haq to'lash miqdorini belgilashning amaldagi usullariga munosib vositalar yordamida belgilangan usullarga mos keladigan darajada rag'batlantiradi hamda barcha xodimlarga nisbatan teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to'lash tamoyilining qo'llanilishini ta'minlaydi.

2. Ushbu tamoyil quyidagi tarzda qo'llanilishi mumkin:

a) yoki milliy qonunchilik;

b) yoki qonunchilik bilan belgilangan yoki tan olingan ish haqini aniqlash tizimlari;

c) yoki ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi jamoa shartnomalari;

d) yoki ushbu turli usullarni qo'shib ishlatish.

3-modda

1. Bunday harakatlar ushbu Konvensiya qoidalarining qo'llanilishiga yordam beradigan holatlarda, bajariladigan ishlar asosida turli vazifalarni xolis baholash choralari ko'riladi.

2. Bunday baholashning usullari haq to'lash miqdorlarini belgilash sohasidagi vakolatli organlar yoki agar haq to'lash miqdorlari jamoa shartnomalari bilan belgilanadigan bo'lsa, ushbu shartnomalarda ishtirok etuvchi tomonlarning qarorlari ob'ekti bo'lishi mumkin.

3. Jinsidan qat'i nazar, bajarilgan ishni bunday ob'ektiv baholashdan kelib chiqadigan farqqa mos keladigan haq to'lash miqdorlaridagi farq teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to'lash tamoyiliga zid sifatida qaralmaydi.

4-modda

Tashkilotning har bir a'zosi ushbu Konvensiyaning qoidalarini hayotga tatbiq etish maqsadida ish beruvchilar va ishchilarning tegishli tashkilotlari bilan tegishli tartibda hamkorlik qiladi.

5-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

6-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

7-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 2-bandi qoidalariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yuborilgan arizada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

a) Tashkilotning manfaatdor a'zosi ushbu Konvensiya qoidalarini o'zgartirmasdan qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

b) u mazkur Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlar bilan qo'llash majburiyatini olgan hududlar va bu o'zgartirishlarning tafsilotlari;

c) Konvensiya qo'llanilmaydigan hududlar va bu holatda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) o'zining qarorini bundan keyin ham qoidalarni ko'rib chiqilgunga qadar saqlab turishiga nisbatan hududlar.

2. Ushbu moddaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlarida qayd qilingan majburiyatlar ratifikatsiya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi va u bilan bir xil oqibatlarga olib keladi.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi yangi ariza orqali mazkur moddaning 1-bandi "b", "c" va "d" kichik bandlariga asosan avvalgi arizada keltirilgan qo'shimcha shartlarning barchasi yoki bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davri mobaynida 9-modda qoidalariga muvofiq Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlarda istalgan avvalgi bayonotning shartini o'zgartiradigan va muayyan hududlardagi mavjud holatni bildiradigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

8-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 4 va 5-bandlari qoidalariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yo'llangan bayonotlar ushbu Konvensiya qoidalari mazkur hududga o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishsiz qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi; agar bayonotda Konvensiya qoidalari o'zgartirilishi sharti bilan qo'llanilishi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda bu o'zgartirishlar aynan nimadan iborat ekanligi aniqlanadi.

2. Tashkilotning tegishli a'zosi yoki a'zolari yoxud xalqaro hokimiyat yangi bayonot orqali har qanday avvalgi arizalarda nazarda tutilgan o'zgarishlardan foydalanish huquqidan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

3. Tashkilotning tegishli a'zosi yoki a'zolari yoxud xalqaro hokimiyat 9-modda qoidalariga muvofiq Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davrlarda Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlarda istalgan avvalgi arizaning shartini o'zgartiradigan va ushbu Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan mavjud holat to'g'risida bildiradigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har qanday a'zosi uning dastlabki kuchga kirgan kunidan boshlab o'n yillik muddat o'tganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish (bekor qilish) to'g'risidagi hujjati orqali uni denonsatsiya qilishi (bekor qilishi) mumkin. Denonsatsiya (bekor qilish) denonsatsiya qilish (bekor qilish) to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi avvalgi bandda qayd etilgan o'n yillik davr o'tganidan keyin, bir yil muddatda mazkur moddada nazarda tutilgan o'zining denonsatsiya qilish (bekor qilish) huquqidan foydalanmasa, navbatdagi o'n yillik davrga bog'liq bo'ladi va oqibatda ushbu moddada belgilangan tartibda mazkur Konvensiyani har o'n yillik davr tugashi bilan denonsatsiya qilishi (bekor qilishi) mumkin bo'ladi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarni, denonsatsiya qilish to'g'risidagi bayonot va hujjatlarni ro'yxatga olinganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor unga yuborilgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi ikkinchi hujjatni ro'yxatga olinganligi haqida Tashkilot a'zolarini xabardor qilgan holda, Tashkilot a'zolarining e'tiborini mazkur Konvensiyaning kuchga kirish sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zlari tomonidan ro'yxatga olingan barcha ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatlarga, denonsatsiya qilish to'g'risidagi bayonot va aktlariga nisbatan to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Har gal, Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi zarur deb topganda, u Bosh Konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uning to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqilishi to'g'risidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritilishini hal qiladi.

13-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilgan holatlarda va, agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 9-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan uni ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

2. Mazkur Konvensiya, nima bo'lganda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni jihatidan o'z kuchida qoladi.

14-modda

Mazkur Konvensiyaning inglizcha va fransuzcha matnlari bir xil kuchga ega.

ONALIKNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RIDAGI 103-KONVENSIYA

*Bosh Konferensiyaning 1952-yil 28-iyundagi
35-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
85-I-son qaroriga muvofiq qo'shilgan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh Konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1952 yilning 4 iyunida o'zining o'ttiz beshinchi sessiyasiga to'planib,
sessiya kun tartibining yettinchi bandi hisoblangan onalikni muhofaza qilish to'g'risida bir
qancha takliflarni qabul qilishga qaror chiqarib,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,
bir ming to'qqiz yuz ellik ikkinchi yil iyun oyining yigirma sakkizinchi kunida quyidagi "Onalikni
muhofaza qilish to'g'risidagi 1952 yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya" deb nomlanishi
mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya sanoat korxonalarida band bo'lgan xotin-qizlarga kabi nosanoat va
qishloq xo'jalik ishlarida band bo'lgan, jumladan, kasanachi (uyda ishlovchi) xotin-qizlarga ham
qo'llaniladi.

2. Mazkur Konvensiya maqsadlarida "sanoat korxonalari" atamasi davlat va xususiy
korxonalarga, shuningdek ularning bo'limlariga taalluqli va, xususan, quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxtalar, karerlar (ochiq konlar) va boshqa yer osti boyliklarini qazib oluvchi sanoat
korxonalari;

b) ishlab chiqarish buyumlarini tayyorlash, qayta ishlash, tozalash, ta'mirlash, bezash, sayqal
berish, sotishga tayyorlash, buzish yoki yo'q qilish bo'yicha korxonalarni yoxud materiallarni qayta
ishlash bo'yicha korxonalarni, jumladan, kemasozlik korxonalari, transformatsiya va elektr
quvvatini uzatish hamda umuman dvigatel quvvatini ishlab chiqarish bo'yicha korxonalarni;

c) qurilish, tiklash, ta'mirlash, qayta qurish va buzish bilan shug'ullanuvchi qurilish bo'yicha
korxonalarni;

d) yo'llar, temir yo'llar, dengiz yoki ichki suv yo'llari yoxud havo yo'llari orqali yo'lovchilarni
yoki tovarlarni tashish, shu jumladan, yuklarni portlar, pristanlar (kemalar to'xtaydigan joy),
platformalar, omborlar yoki aeroportlarda yuklarni qayta ishlash bo'yicha korxonalarni.

3. Mazkur Konvensiya maqsadlarida "nosanoat ishlar" atamasi quyidagi davlat yoki xususiy
korxonalarda yoki xizmatlar yoxud ularning faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarga
taalluqli:

a) savdo korxonalari;

b) pochta va elektr aloqa xizmatlari;

c) xodimlar asosan idora ishi bilan mashg'ul bo'ladigan muassasalar va ma'muriy organlar;

d) gazeta chiqaradigan korxonalar;

e) mehmonxonalar, pansionlar, restoranlar, klublar, kafelar va shunga o'xshash umumiy
ovqatlanish korxonalari;

f) kasal, nogiron, nochor va yetimlarni davolash hamda parvarish qilish bo'yicha muassasalar;

g) teatrlar va madaniy-ommaviy muassasalar;

h) xususiy xo'jaliklarda bajariladigan yollanma uy mehnati;

shuningdek, hokimiyatning vakolatli organi mazkur Konvensiya qoidalarini qo'llashga qaror qilgan barcha boshqa nosanoat ishlari.

4. Mazkur Konvensiya maqsadlarida "qishloq xo'jaligi ishlari" atamasi qishloq xo'jalik korxonalarida, shu jumladan, ekinzorlar va yirik sanoatlashtirilgan qishloq xo'jalik korxonalarida bajariladigan barcha ishlarga taalluqlidir.

5. Ushbu Konvensiya muayyan korxona, korxona bo'limi yoki ish turiga qo'llanilishiga nisbatan gumon mavjud bo'lgan barcha hollarda, mazkur masala hokimiyatning vakolatli organi tomonidan ish beruvchilar va ishchilarning tegishli vakillik tashkilotlari bilan, bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilganidan so'ng hal qilinadi.

6. Milliy qonunchilik ushbu Konvensiyani qo'llash doirasidan mazkur mamlakat qonunchiligining aniqlashi bo'yicha faqat ish beruvchining oila a'zolari band bo'lgan korxonani chiqarishi mumkin.

2-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun "ayol" atamasi yoshi, millati, irqi yoki e'tiqodi, nikohda bo'lishi yoki bo'lmasiligidan qat'i nazar, ayol jinsiga mansub har qanday shaxsni, "bola" atamasi esa uning ota-onasi nikohda bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'i nazar, har qanday bolani anglatadi.

3-modda

1. Xotin-qizga nisbatan mazkur Konvensiya qo'llanilganda, uning taxminiy tug'ish muddatini tasdiqlaydigan tibbiy guvohnoma taqdim etilganida homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til olish huquqiga ega bo'ladi.

2. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning davomiyligi kamida 12 haftani tashkil etadi hamda tug'ruqdan keyingi majburiy ta'til davrini o'z ichiga oladi.

3. Tug'ruqdan keyingi majburiy ta'tilning davomiyligi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanadi, ammo hech qanday holatda 6 haftadan kam bo'lishi mumkin emas; butun homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning qolgan qismi mamlakat qonunchiligida belgilab qo'yilganligiga qarab, tug'ruqning taxmin qilingan sanasigacha yoki tug'ruqdan keyingi majburiy ta'til muddati tugaganidan so'ng foydalanilishi mumkin yoxud uning bir qismi tug'ruqning taxmin qilingan sanasidan oldin, qolgan qismi tug'ruqdan keyingi majburiy ta'til muddati tugaganidan so'ng olinishi mumkin.

4. Agar tug'ruq taxmin qilingan sanasidan keyin ro'y bersa, ushbu sanaga qadar olingan ta'til har qanday holatda tug'ruqning aniq sanasigacha uzaytiriladi, bunda tug'ruqdan keyingi majburiy ta'tilning davomiyligi qisqartirilmaydi.

5. Tibbiy ko'rik bilan aniqlanganda kasallikning sababi homiladorlik bo'lsa, mamlakat qonunchiligi tug'ruqqacha bo'lgan davrda qo'shimcha ta'til muddatini nazarda tutadi va uning maksimal davomiyligi hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilanishi mumkin.

6. Tibbiy ko'rik bilan aniqlangan kasallikning sababi tug'ruq bo'lsa, ayol tug'ruqdan keyingi ta'tilini uzaytirish huquqiga ega bo'ladi va uning maksimal davomiyligi hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilanishi mumkin.

4-modda

1. 3-modda qoidalariga muvofiq belgilangan homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayol pul va tibbiy yordam olish huquqiga ega bo'ladi.

2. Pul nafaqasi miqdori mamlakat qonunchiligi tomonidan ayolning o'zi va uning farzandi uchun gigiena nuqtai nazaridan yaxshi hayotiy sharoitni hamda zarur turmush darajasini ta'minlaydigan tarzda belgilanadi.

3. Tibbiy yordam malakali akusherlar yoki shifokorlar tomonidan ko'rsatiladigan tug'ruqqacha, tug'ish vaqtida va undan keyin parvarish hamda kuzatuvni, shuningdek zarurat bo'lganda

kasalxonaga yotqizishni o'z ichiga oladi; bunda imkon qadar shifokorni tanlashga bo'lgani kabi davlat yoki xususiy tibbiy muassasani tanlashda ham to'liq erkinlik taqdim etiladi.

4. Pul nafaqalari va tibbiy yordam yo majburiy ijtimoiy sug'urta tizimining mablag'lari hisobidan yo davlat jamg'armalari hisobidan taqdim etiladi; har ikki holatda ham ular belgilangan shartlarga javob beradigan barcha xotin-qizlarga huquqiy jihatdan taqdim etiladi.

5. Ko'rsatilgan pul nafaqalarini va tibbiy yordamni olish huquqiga da'vogarlik qila olmaydigan xotin-qizlarga, ijtimoiy ko'maklashish jamg'armasi hisobidan ijtimoiy ko'maklashish tartibida yordam ko'rsatish uchun talab qilinadigan daromadlarining tekshirilishi sharti bilan tegishli yordam taqdim etiladi.

6. Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan beriladigan pul nafaqalari miqdori avvalgi ish haqi asosida hisoblab chiqilganda, u ayolning ushbu maqsadda hisobga olinadigan avvalgi ish haqining kamida uchdan ikki qismini tashkil etadi.

7. Majburiy ijtimoiy sug'urta tizimiga muvofiq homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqalarni ko'zda tutadigan hamda to'lanadigan ish haqining umumiy miqdoriga asoslangan har qanday soliqlarni va shu kabi nafaqalarni taqdim etish maqsadida yig'iladigan har qanday badallar ish beruvchilar va ishchilar yoki faqat ish beruvchilar tomonidan to'lanishidan qat'i nazar, mazkur korxonada band bo'lgan erkaklar va xotin-qizlarning umumiy soni asosida, jinsdagi farqlarsiz to'lanadi.

8. Hech bir holatda ish beruvchi unda band bo'lgan xotin-qizlarga tegishli bunday nafaqalarning taqdim etilishi yuzasidan qilgan xarajatlari uchun shaxsan javobgar bo'lmaydi.

5-modda

1. Agar ayol o'z farzandini ona suti bilan boqayotgan bo'lsa, u bu maqsad uchun ishida bir yoki bir necha marotaba tanaffus olish huquqiga ega bo'lib, bu tanaffusning davomiyligi mamlakat qonunchiligi bilan belgilanadi.

2. Bolani ovqatlantirish uchun ishdagi tanaffuslar ish vaqti hisoblanadi hamda unga bu uchun qonun hujjatlari tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda ish vaqtidek haq to'lanadi; agar bu masala jamoa shartnomasi orqali tartibga solinadigan bo'lsa, mazkur qoida tegishli shartnoma bilan belgilanadi.

6-modda

Ayol 3-modda qoidalariga muvofiq unga berilgan homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lganida, ish beruvchi tomonidan ayolning ishda bo'lmaganligi vaqtida yoki ijro muddati uning ishda bo'lmaganligi bilan to'g'ri keladigan muddatda berilgan ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyrug'i noqonuniy hisoblanadi.

7-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatga ilova qilingan bayonot yordamida quyidagilarga nisbatan mazkur Konvensiya qo'llanilishi yuzasidan istisnoni nazarda tutishi mumkin:

- a) nosanoat ishlarining ayrim toifalarini;
- b) qishloq xo'jaligi korxonalarida (ekinzorlardan tashqari) bajariladigan ishlarni;
- c) xususiy xo'jaliklarda bajariladigan uy ishlari;
- d) uyda ishlovchi xotin-qizlarni;
- e) dengiz orqali yo'lovchilarni yoki yuklarni tashish bo'yicha transport muassasalari.

2. Mazkur moddaning 1-bandi qoidalari ish turlari yoki korxonalar toifalariga nisbatan qo'llanilishi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatga ilova qilinadigan bayonotda ko'rsatiladi.

3. Shunday bayonot qilgan Tashkilotning har qanday a'zosi istalgan vaqtda yangi bayonot orqali uni to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

4. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qilingan bayonotning o'ziga nisbatan kuchga kirgan Tashkilotning har bir a'zosi, o'zining mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi har yilgi ma'ruzasida, qilingan bayonotga asosan ushbu moddaning 1-bandi tatbiq etiladigan ishlar va korxonalarga nisbatan o'z qonunchiligi va amaliyotining holati hamda mazkur ishlar va korxonalarga nisbatan Konvensiya hayotga qay darajada qo'llanilayotgani yoki uni qanday qo'llash ko'zda tutilayotgani to'g'risida xabar beradi.

5. Mazkur Konvensiya dastlab kuchga kirgan sanadan besh yillik davr o'tganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi Konferensiyaga, ushbu istisnolarning qo'llanilishi to'g'risidagi, uning fikriga ko'ra, mazkur masalada qabul qilinishi kerak bo'lgan choralar haqidagi takliflarni o'z ichiga olgan maxsus ma'ruzani taqdim etadi.

8-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlarni ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yuboriladi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarinigina birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingandan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 2-bandiga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yuborilgan bayonotda quyidagilarga nisbatan ko'rsatmalar mavjud:

a) Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlarsiz qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

b) Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlari bilan va bu o'zgartirishlarning tafsilotlarini qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

c) Konvensiya qo'llanilmaydigan hududlar va bu holatda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi o'z qarorini, bu holat kelgusida ko'rib chiqilgunga qadar, saqlab turishi.

2. Ushbu moddaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlarida ifodalangan majburiyatlar ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatning ajralmas qismi hisoblanadi hamda u bilan bir xil kuchga ega.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi yangi bayonoti orqali ushbu moddaning 1-bandi "b", "c" yoki "d" kichik bandlariga asosan avvalgi bayonotida mavjud bo'lgan qo'shimcha shartlarning barchasidan yoki bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi 12-modda qoidalariga muvofiq mazkur Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davri mobaynida Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlardagi istalgan avvalgi bayonotning shartlarini o'zgartiradigan va muayyan hududlardagi hozirgi vaziyat to'g'risida xabardor qiladigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

11-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 4 va 5-bandlariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yo'llangan bayonotda Konvensiya qoidalari tegishli hududda o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishlarsiz qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi; agar bayonotda Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi ko'rsatilgan bo'lsa, unda bu o'zgartirishlarning aynan nimadan iborat ekanligi aniqlashtiriladi.

2. Tashkilotning tegishli a'zosi yoki a'zolari yoxud xalqaro hokimiyat yangi bayonot orqali har qanday avvalgi bayonotda nazarda tutilgan o'zgartirishlardan foydalanish huquqidan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

3. Tashkilotning tegishli a'zosi yoki a'zolari yoxud xalqaro hokimiyat 12-modda qoidalariga muvofiq mazkur Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davrida Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlardagi istalgan avvalgi bayonotning shartlarini o'zgartiradigan va ushbu Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan mavjud vaziyat to'g'risida xabardor qiladigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

12-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi uning dastlabki kuchga kirgan paytidan boshlab o'n yillik muddat o'tganidan keyin denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali uni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi avvalgi bandda qayd etilgan o'n yillik davr o'tganidan keyin bir yil muddatda mazkur moddada nazarda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmasa, navbatdagi o'n yillik davrga bog'liq bo'ladi va mazkur moddada belgilangan tartibda ushbu Konvensiyani har o'n yillik davr o'tishi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

13-modda

1. Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktori Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini Tashkilot a'zolaridan qabul qilib olingan ratifikatsiya to'g'risidagi barcha hujjatlarning, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi aktlarning ro'yxatga olinganligi haqida xabardor qiladi.

2. Bosh direktor, unga yuborilgan ratifikatsiya to'g'risidagi ikkinchi hujjatning ro'yxatga olinganligi haqida Tashkilot a'zolarini xabardor qilib, ularning e'tiborini Konvensiyaning kuchga kirish sanasiga qaratadi.

14-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori BMT Ustavining 102-moddasi muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi tomonidan ro'yxatga olingan barcha ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar, bayonotlar va denonsatsiya qilish haqidagi aktlarga nisbatan to'la ma'lumotlarni ro'yxatga olish uchun yuboradi.

15-modda

Har gal, Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy Kengashi zarur deb hisoblaganda, u Bosh Konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va ushbu Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritishni hal qiladi.

16-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan holatlar bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 12-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan uni ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni jihatidan o'z kuchida qoladi.

17-modda

Mazkur Konvensiyaning inglizcha va fransuzcha matnlari bir xil kuchga ega.

MAJBURIY MEHNATNI TUGATISH TO'G'RISIDAGI 105-KONVENSIYA

*Bosh Konferensiyaning 1957-yil 25-iyundagi
40-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
498-I-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh Konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1957 yilning 5 iyunida o'zining qirqinchi sessiyasiga to'planib, sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi bo'lgan majburiy mehnat to'g'risidagi masalani ko'rib chiqib,

Majburiy mehnat to'g'risidagi 1930 yilgi Konvensiya qoidalarini hisobga olib,

Qullik to'g'risidagi 1926 yilgi Konvensiya zaruriy yoki majburiy mehnat qullikka o'xshash sharoitga olib kelmasligi uchun barcha zarur choralar ko'rishni nazarda tutishini va Qullikni, qul savdosi hamda qullikka o'xshash institutlar va odatlarni tugatish to'g'risidagi 1956 yilgi Qo'shimcha konvensiya qarz asorati va krepostnoy qaramlikni to'liq bekor qilishini ko'zda tutishini e'tiborga olib,

1949 yilgi Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya ish haqi o'z vaqtida to'lanishi kerakligini va ishchilarning ishdan ketishining haqiqiy imkonidan mahrum qiladigan har qanday mehnatga haq to'lash tizimini qo'llash taqiqlanganligini nazarda tutishini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida qayd etilgan va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan inson huquqlarini buzuvchi majburiy yoki zaruriy mehnatning ayrim turlarini bekor qilish yuzasidan qo'shimcha takliflarni qabul qilishga qaror qilib,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,

bir ming to'qqiz yuz ellik yettinchi yil iyun oyining yigirma beshinchi kunida quyidagi "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi 1957 yilgi konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi majburiy yoki zaruriy mehnatni tugatish va uning har qanday shaklini ishlatmaslik majburiyatini oladi:

a) belgilangan siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy tizimga zid siyosiy qarashlar yoki mafkuraviy e'tiqodlarning mavjudligi yoxud ifodalanishi uchun siyosiy ta'sir yoki tarbiya vositasi yoki jazo chorasi sifatida;

b) iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari uchun ishchi kuchini safarbar etish va undan foydalanish usuli sifatida;

c) mehnat intizomini saqlash chorasi sifatida;

d) ish tashlash harakatlarida qatnashganlik uchun jazo chorasi sifatida;

e) irqiy, ijtimoiy va milliy mansublik yoki diniy e'tiqod belgilari bo'yicha kamsitish choralari sifatida.

2-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi mazkur Konvensiyaning 1-moddasida keltirilgan zo'raki yoki majburiy mehnat shakllarining zudlik bilan va to'liq bekor qilinishi uchun samarali choralar ko'rish majburiyatini oladi.

3-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuboriladi.

4-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor tomonidan Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi uning dastlabki kuchga kirgan paytidan boshlab o'n yillik muddat o'tganidan keyin denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali uni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi avvalgi bandda qayd etilgan o'n yillik davr o'tganidan keyin bir yil muddatda mazkur moddada nazarda tutilgan denonsatsiya qilish (bekor qilish) huquqidan foydalanmasa, navbatdagi o'n yillik davrga bog'liq bo'ladi va mazkur moddada belgilangan tartibda ushbu Konvensiyani har o'n yillik davr o'tishi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

6-modda

1. Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktori Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini Tashkilot a'zolaridan qabul qilib olingan barcha ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatlarning va denonsatsiya qilish to'g'risidagi aktlarning ro'yxatga olinganligi haqida xabardor qiladi.

2. Bosh direktor, unga yuborilgan ratifikatsiya to'g'risidagi ikkinchi hujjatning ro'yxatga olinganligi haqida Tashkilot a'zolarini xabardor qilib, ularning e'tiborini Konvensiyaning kuchga kirish sanasiga qaratadi.

7-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori BMT Ustavining 102-moddasiga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi tomonidan ro'yxatga olingan barcha ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatlar va denonsatsiya qilish haqidagi aktlarga nisbatan to'liq ma'lumotlarni ro'yxatga olish uchun yuboradi.

8-modda

Har gal, Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy Kengashi zarur deb hisoblaganda, u Bosh Konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va bu Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritishni hal qiladi.

9-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan holatlar bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 5-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi

konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan uni ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

2. Mazkur Konvensiya, nima bo'lganda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni jihatidan o'z kuchida qoladi.

10-modda

Mazkur Konvensiyaning inglizcha va fransuzcha matnlari bir xil kuchga ega.

MEHNAT VA ISH TURLARI SOHASIDA KAMSITISH TO'G'RSIDAGI 111-KONVENSIYA

*Bosh Konferensiyaning 1958-yil 25-iyundagi
42-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
499-I-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1958 yilning 4 iyunida o'zining qirq ikkinchi sessiyasiga to'planib,
sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblangan mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi bir qator takliflarni qabul qilishga qaror qilib,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,
Filadelfiya deklaratsiyasida barcha odamlar irqi, e'tiqodi yoki jinsidan qat'i nazar, erkinlik va qadr-qimmat, iqtisodiy barqarorlik va teng imkoniyatlar sharoitida o'zining moddiy farovonligi va ma'naviy rivojlanishini amalga oshirish huquqiga ega ekanligi e'lon qilinganligini e'tiborga olib,
kamsitish Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan huquqlarning buzilishi ekanligini hisobga olib,
bir ming to'qqiz yuz ellik sakkizinchi yil iyun oyining yigirma beshinchi kunida quyidagi "Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi 1958 yilgi konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya maqsadlarida "kamsitish" atamasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) mehnat va ish turlari sohasidagi imkoniyatlar yoki muomala tengligining yo'q qilinishi yoki buzilishiga olib keladigan irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy e'tiqodi, xorijiy mansublik yoki ijtimoiy kelib chiqishi belgilari bo'yicha amalga oshiriladigan yo'l qo'ymaslik, ustun qo'yish yoki har qanday farqlash;

b) ish beruvchi va ishchilarning vakillik tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa va boshqa tegishli organlar bilan maslahatlashgan holda tegishli A'zo tomonidan belgilanadigan mehnat va ish turlari sohasidagi imkoniyatlar yoki muomala tengligining yo'q qilinishi yoki buzilishiga olib keladigan har qanday farqlash, yo'l qo'ymaslik yoki ustun qo'yish.

2. O'ziga xos talablarga asoslangan muayyan ishlarga nisbatan yo'l qo'ymaslik, ustun qo'yish yoki har qanday farqlash kamsitish deb hisoblanmaydi.

3. Ushbu Konvensiya maqsadida "mehnat" va "ish turlari" atamaları kasbiy o'rganish imkoniga ega bo'lishni, mehnat va turli ish turlariga ega bo'lishni, shuningdek mehnatning haq va sharoitlarini o'z ichiga oladi.

2-modda

Ushbu Konvensiya kuchda bo'lgan Tashkilotning har bir a'zosi mehnat va ish turlariga nisbatan shu sohadagi har qanday kamsitishni tugatish maqsadida milliy sharoit va amaliyotga mos keladigan usullar, imkoniyat va muomala tengligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan milliy siyosatni belgilash va amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3-modda

Ushbu Konvensiya kuchda bo'lgan Tashkilotning har bir a'zosi milliy sharoit va amaliyotga mos keladigan usullar orqali quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) ushbu siyosatning qabul qilinishi va unga rioya qilinishiga ko'maklashish ishida ish beruvchilar va ishchilar tashkilotlari, shuningdek boshqa tegishli organlar hamkorligini ta'minlashga intilish;

b) ushbu siyosatning qabul qilinishi va unga rioya qilinishini ta'minlaydigan bunday qonunchilikni kiritish va shunday ta'lim dasturlarini qo'llab-kuvvatlash;

c) ushbu siyosatga mos kelmaydigan har qanday qonunchilik qoidalarini bekor qilish va har qanday ma'muriy qo'llanmalarni yoki amaliyotni o'zgartirish;

d) mehnat sohasida belgilangan siyosatni davlat hokimiyatining bevosita nazorati ostida amalga oshirish;

e) davlat hokimiyati boshqaruvi ostida kasb tanlash, kasbga o'qitish va ishga joylashtirish bo'yicha muassasalar faoliyatida belgilangan siyosatga rioya qilinishini ta'minlash;

f) aytib o'tilgan siyosatga muvofiq o'tkazilgan tadbirlarda va mazkur tadbirlar tufayli erishilgan natijalarini o'zining Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi har yilgi ma'ruzalarida ko'rsatishi.

4-modda

Davlat xavfsizligiga putur yetkazish faoliyati bilan shug'ullanashida asosli shubhalar mavjud bo'lgan yoki isbotlangan shaxsga qarshi qaratilgan har qanday choralar, manfaatdor shaxs milliy amaliyotga muvofiq tashkil etilgan vakolatli organga murojaat qilish huquqiga ega bo'lsa, kamsitish deb hisoblanmaydi.

5-modda

1. Xalqaro mehnat konferensiyasi tomonidan qabul qilingan boshqa konvensiyalar va tavsiyalarda nazarda tutilgan himoya qilish yoki yordam berish bo'yicha alohida choralar kamsitish deb hisoblanmaydi.

2. Tashkilotning har bir a'zosi ish beruvchi va ishchilarning vakillik tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashgan holda, jinsi, yoshi, jismoniy nuqsonlari, oilaviy ahvoli yoki ijtimoiy yoxud madaniy darajada idrok qilishiga ko'ra, odatda alohida himoya yoki yordamga muhtoj deb topilgan shaxslarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har qanday boshqa alohida choralar kamsitish deb hisoblanmasligini belgilashi mumkin.

6-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavi qoidalariga muvofiq, uni metropoliyadan tashqari hududlarda qo'llash majburiyatini oladi.

7-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

8-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor tomonidan Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi uning dastlabki kuchga kirgan paytidan boshlab o'n yillik muddat o'tganidan keyin denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat

orqali uni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi avvalgi bandda qayd etilgan o'n yillik davr o'tganidan keyin bir yil muddatda mazkur moddada nazarda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmasa, navbatdagi o'n yillik davrga bog'liq bo'ladi va mazkur moddada belgilangan tartibda ushbu Konvensiyani har o'n yillik davr o'tishi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktori Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini Tashkilot a'zolaridan qabul qilib olingan barcha ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatlarning va denonsatsiya qilish to'g'risidagi aktlarning ro'yxatga olinganligi haqida xabardor qiladi.

2. Bosh direktor, unga yuborilgan ratifikatsiya to'g'risidagi ikkinchi hujjatning ro'yxatga olinganligi haqida Tashkilot a'zolarini xabardor qilib, ularning e'tiborini Konvensiyaning kuchga kirish sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori BMT Ustavining 102-moddasiga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi tomonidan ro'yxatga olingan barcha ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatlar va denonsatsiya qilish haqidagi aktlarga nisbatan to'liq ma'lumotlarni ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Har gal, Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy Kengashi zarur deb hisoblaganda, u Bosh Konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va bu Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kirishni hal qiladi.

13-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan holatlar bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 5-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan uni ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

2. Mazkur Konvensiya, nima bo'lganda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni jihatidan o'z kuchida qoladi.

14-modda

Mazkur Konvensiyaning inglizcha va fransuzcha matnlari bir xil kuchga ega.

QISHLOQ XO'JALIGIDA MEHNAT INSPEKSIYASI TO'G'RISIDAGI 129-KONVENSIYA

*Bosh Konferensiyaning 1969-yil 25-iyundagi
53-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 27-avgustdagi
O'RQ-555-son qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

(Ko'chirma)

6-modda

1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi tizimi vazifalariga quyidagilar kiradi:

a) mehnat sharoitlariga va ish jarayonida mehnatkashlar xavfsizligini ta'minlashga doir qonun-qoidalar, ya'ni ish vaqti, ish haqi, har haftalik dam olish kunlari, ta'tillar, mehnat xavfsizligi, sog'liqni saqlash, farovonlikni ta'minlash, xotin-qizlar, bolalar va o'smirlarni ishga yollash va boshqa shu kabi masalalar sohasiga doir qonun-qoidalar, qanchalik mehnat inspektorlari tomonidan qo'llanilishi ta'minlansa, shu darajada bu qoidalarning tatbiq qilinishini muhofaza qilish;

10-modda

Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi shtati tarkibiga erkaklar ham, xotin-qizlar ham tayinlanishi mumkin; zarur hollarda erkak va xotin-qiz inspektorlar zimmasiga alohida vazifalar yuklatilishi mumkin.

IKKINCHI BO'LIM. XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan

(Ko'chirma)

IKKINCHI BO'LIM. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCH LARI

V bob. Umumiy qoidalar

18-modda

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

X bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

46-modda

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

UCHINCHI BO'LIM. JAMIYAT VA SHAXS

XIII bob. Jamoat birlashmalari

56-modda

O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

XIV bob. Oila

63-modda

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

65-modda

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrdagi
2012-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

IKKINCHI BO'LIM. JAVOBGARLIK ASOSLARI

IV bob. Javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar

17-modda. Jismoniy shaxslarning javobgarligi

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar ushbu Kodeks 97, 98, 104–106, 118, 119, 137, 164–166, 169-moddalari, 173-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ushbu Kodeksning 122, 123, 125¹, 127, 127¹, 128¹, 144, 146, 193–195, 205–210, 225, 226, 230–232, 234, 235, 279–302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

O'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalariga muvofiq va ushbu Kodeksning Umumiy qismi oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar.

TO'RTINCHI BO'LIM. JAZO VA UNI TAYINLASH

X bob. Jazo tushunchasi, maqsadlari va turlari

45¹-modda. Majburiy jamoat ishlari

Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o'qishdan bo'sh vaqtda o'taladi.

Mahkumlar majburiy jamoat ishlarini o'tashi mumkin bo'lgan joylar (obyektlar) va majburiy jamoat ishlarining turi mazkur jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilanadi.

Majburiy jamoat ishlari bir yuz yigirma soatdan to'rt yuz sakson soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi va olti oy davomida kuniga to'rt soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo'lgan muhlatda kuniga to'rt soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda o'taladi.

Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Mahkum jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlanilgan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

46-modda. Axloq tuzatish ishlari

Axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo'lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi.

Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi.

Axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Agar shaxs sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo'lib o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan vaqt jazoning o'talغان muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

50-modda. Ozodlikdan mahrum qilish

Ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir.

Ozodlikdan mahrum qilish bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi, ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun tayinlanishi mumkin.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum qilish ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan bir necha jazolarni qo'shish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda;

b) qasddan og'ir jinoyat sodir etganlik va o'ta og'ir jinoyati uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib yoki o'tayotgan chog'ida, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda;

g) o'ta xavfli retsidivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar, shuningdek afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlarga hamda qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda;

b) og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib, yangi sodir etgan o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga, shuningdek o'ta xavfli retsivist deb topilganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi.

Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish, jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga:

a) o'ta xavfli retsivistlarga;

b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek qonunchilikka muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

Sud tomonidan jazoni manzil-koloniya o'tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni jazoning o'talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o'tkazadi.

51-modda. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun belgilanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

XI bob. Jazo tayinlash

55-modda. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar

Quyidagi holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi:

a) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;

b) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;

v) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;

g) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;

d) jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish;

e) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;

j) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi;

z) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;

i) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish.

Jazo tayinlashda sud ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Yengillashtiruvchi holat ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi.

56-modda. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar

Quyidagi holatlarda jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holatlar deb topiladi:

- a) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- b) yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan;
- v) xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;
- g) aybdorga moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan;
- d) o'ta shafqatsizlik bilan;
- e) ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda;
- j) yosh bola yoki ruhiy kasalligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsdan foydalangan holda;
- z) jinoyat natijasida og'ir oqibatlarining kelib chiqqanligi;
- i) umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- k) g'arazli yoki boshqacha past niyatlarda;
- l) irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida;
- m) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan;
- n) ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi;
- o) mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish.

Sud sodir etilgan jinoyatning xususiyatini e'tiborga olib, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi ham mumkin.

Sud jazo tayinlashda ushbu moddada nazarda tutilmagan holatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topishi mumkin emas.

Ushbu holatlar Kodeks Maxsus qismining moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi.

BESHINCHI BO'LIM. JAVOBGARLIK DAN VA JAZODAN OZOD QILISH

XIII bob. Jazodan ozod qilishning turlari

72-modda. Shartli hukm qilish

Agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi.

Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Basharti, shartli hukm qilish to'g'risidagi qaror yuqori sud tomonidan chiqarilgan taqdirda ham, sinov muddatini hisoblash shu kundan boshlanadi.

Shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud mahkumga muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish, ishga yoki o'qishga kirish, yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarib qolsa, bu haqda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organga xabar berib turish, vaqti-vaqti bilan kelib bu organlarda ro'yxatdan o'tib turish,

muayyan joylarda bo'lmalik, muayyan vaqtda yashash joyida bo'lishi, alkogolizm, giyovandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tashi kabi majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Shartli hukm qilingan shaxslarning xulqi ustidan ichki ishlar organlari, harbiy xizmatchilar xulqi ustidan esa, harbiy qism yoki muassasaning qo'mondonligi nazorat olib boradi.

Hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddati davomida unga yuklatilgan majburiyatlarning hammasini yoki bir qismini olib tashlashi yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi ham mumkin.

Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartlilikini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Shartli hukm o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganlarga, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan shaxslar bundan mustasno.

Shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha jazo tayinlaydi.

75-modda. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish

Hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashi mumkin.

Bunday shaxslar tuzalganidan keyin, ushbu Kodeksning 69-moddasida nazarda tutilgan va sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan kundan boshlab hisoblanadigan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa, jazo ijro etiladi.

Intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'lig'i harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

Majburiy jamoat ishlariga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetgan bo'lsalar, shuningdek ayollar bu turdagi jazoni o'tayotgan vaqtda homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqsalar, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

MAXSUS QISM

BIRINCHI BO'LIM. SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

III bob. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

115-modda. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, agar homila sun'iy tushirilgan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

IV bob. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar

121-modda. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish

Xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majbur etish —

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha harakat jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa, —

uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

V bob. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar

126-modda. Ko'p xotinli bo'lish

Ko'p xotinli bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

VI bob. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar

136-modda. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish

Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

VII bob. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

148-modda. Mehnat qilish huquqini buzish

Bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrdagi
2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

IKKINCHI BO'LIM. MA'MURIY HUQUQBUZARLIK VA MA'MURIY JAVOBGARLIK UMUMIY QISM

III bob. Ma'muriy jazo va majburlov chorasi

29-modda. Ma'muriy qamoqqa olish

Ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun — o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, shuningdek harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Ma'muriy qamoqqa olish chorasi homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

IV bob. Ma'muriy jazoning qo'llanilishi

31-modda. Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar

Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;
- 2) aybdorning huquqbuzarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi;
- 3) huquqbuzarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi;
- 4) huquqbuzarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;
- 5) huquqbuzarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;
- 6) huquqbuzarlikning homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktyabrdagi
O'RQ-798-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

UMUMIY QISM I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1-bob. Asosiy qoidalar

4-modda. Mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipi

Har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega.

Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita cheklolvar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitishdir.

Mehnat va mashg'ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki yuqoriroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar (oilaviy vazifalarni bajarish bilan band bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va boshqalar) to'g'risidagi alohida g'amxo'rlik bilan bog'liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek ularni cheklash kamsitish deb hisoblanmaydi.

Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi asoslangan farqlar xodimning ish beruvchi bilan mehnat aloqasi xususiyatiga, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan joyga, xodim mehnatining shart-sharoitlari va xususiyatiga, ish beruvchining huquqiy maqomiga, ba'zi tarmoqlar va kasblardagi xodimlar mehnatining o'ziga xos xususiyatlariga, organizmning psixofiziologik xususiyatlariga, oilaviy vazifalarning mavjudligiga hamda boshqa obyektiv holatlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Mehnat va (yoki) mashg'ulotlar sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitilish fakti ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi, shu jumladan kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

II BO'LIM. MEHNAT SOHASIDAGI IJTIMOY SHERIKLIK

8-bob. Jamoa shartnomasi

67-modda. Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishi

Jamoa shartnomasining mazmunini va tuzilishini uning taraflari belgilaydi.

Jamoa shartnomasiga ish beruvchining va xodimlarning quyidagi masalalar bo'yicha o'zaro majburiyatlari kiritilishi mumkin:

mehnatga haq to'lash shakli, tizimi va miqdori, pul mukofotlari, nafaqalar, kompensatsiyalar, qo'shimcha to'lovlar;

narxlarning o'zgarishidan, inflatsiya darajasidan, jamoa shartnomasida belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilishidan kelib chiqqan holda mehnatga haq to'lashni tartibga solish mexanizmi;

xodimlarning bandligi, ularni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ularni ishdan bo'shatish shartlari;

ish vaqti va dam olish vaqtining, ta'tillarning davomiyligi;

xodimlarning, shu jumladan ayollarning, nogironligi bo'lgan shaxslarning va o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnat sharoitlari hamda mehnat muhofazasini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

tashkilotni, idoraga qarashli uy-joyni xususiyashtirish chog'ida xodimlarning manfaatlarini hisobga olish;

ishni ta'lim bilan qo'shib olib borayotgan xodimlar uchun imtiyozlar;

ixtiyoriy tibbiy va ijtimoiy sug'urta;

ish beruvchi tomonidan xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shimcha badallar kiritish miqdorlari va muddatlari;

jamoa shartnomasining bajarilishi ustidan nazorat qilish, taraflarning javobgarligi, kasaba uyushmasi qo'mitasi faoliyat ko'rsatishi uchun normal sharoitlar bilan ta'minlash.

Tashkilotning iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olingan holda, jamoa shartnomasida boshqa shartlar, shu jumladan mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan normalar hamda qoidalarga nisbatan imtiyozliroq mehnat shartlari va ijtimoiy-iqtisodiy shartlar (qo'shimcha ta'tillar, pensiyalarga ustamalar, muddatidan oldin pensiyaga chiqish, transport va xizmat safari xarajatlarini kompensatsiya qilish, xodimlarni ishlab chiqarishda hamda ularning farzandlarini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bepul yoki qisman haq to'lanadigan tarzda ovqatlantirish, uyali aloqa, Internet jahon axborot tarmog'i uchun haq to'lash, oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish uchun ssudalar to'lash va haq to'lash, boshqa qo'shimcha imtiyozlar va kompensatsiyalar) ham bo'lishi mumkin.

Agar qonunchilikda qoidalar jamoa shartnomasida albatta mustahkamlab qo'yilishi shartligi to'g'risidagi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatma mavjud bo'lsa, ushbu qoidalar jamoa shartnomasiga kiritiladi.

9-bob. Jamoa kelishuvlari

85-modda. Jamoa kelishuvlarining mazmuni va tuzilishi

Jamoa kelishuvlarining mazmuni va tuzilishini taraflar belgilaydi.

Jamoa kelishuvlarida:

mehnatga haq to'lash, mehnat shartlari va mehnatni muhofaza qilish, mehnat va dam olish rejimi to'g'risidagi;

mehnatga haq to'lashni narxlarning o'zgarishlaridan, inflatsiya darajasidan, jamoa kelishuvlarida belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilishidan kelib chiqqan holda tartibga solish mexanizmi haqidagi;

eng kam miqdori qonunchilikda nazarda tutiladigan kompensatsiya tarzidagi qo'shimcha to'lovlar to'g'risidagi;

xodimlarning bandligiga, ularni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga, ularning malakasini oshirishga ko'maklashish haqidagi;

ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda ishlab chiqarishda xodimlarning sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risidagi;

xodimlarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha maxsus tadbirlar haqidagi;

davlat tashkilotlarini xususiyashtirish chog'ida xodimlarning manfaatlarini hisobga olinishi to'g'risidagi;

yuqoriroq darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar (homilador ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar va boshqalar) uchun qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etayotgan ish beruvchilarga beriladigan imtiyozlar haqidagi;

ijtimoiy sheriklikni va uch tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, jamoa shartnomalarini tuzishga ko'maklashish, mehnat nizolarining oldini olish, mehnat intizomini mustahkamlash to'g'risidagi qoidalar nazarda tutilishi mumkin.

Jamoa kelishuvlarida qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga doir qoidalar bo'lishi mumkin.

MAXSUS QISM

III BO'LIM. ISHGA JOYLASHTIRISH

10-bob. Umumiy qoidalar

96-modda. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish sohasidagi qo'shimcha kafolatlar

Davlat aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxs), shuningdek ko'p bolali oilalardagi ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar);

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarni hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar;

"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxslar;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar (qonunda belgilangan pensiya yoshiga qadar ikki yil oldin);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar yoki sudning qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar;

odam savdosidan jabrlanganlar.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari jumlasiga qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Ishga joylashtirish sohasidagi qo'shimcha kafolatlar qo'shimcha ish o'rinlarini, ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar mehnat qilishi uchun tashkilotlarni tashkil etish, maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash yo'li bilan, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar orqali ta'minlanadi.

Ish beruvchi ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan, mehnat organlari va boshqa organlar tomonidan yuborilgan shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda ishga qabul qiladi.

Qonunchilikda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish sohasidagi boshqa qo'shimcha kafolatlar ham nazarda tutilishi mumkin.

IV BO'LIM. YAKKA TARTIBDAGI MEHNATGA OID MUNOSABATLAR

12-bob. Mehnat shartnomasi 2-§. Mehnat shartnomasini tuzish

129-modda. Ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov

Mehnat shartnomasi quyidagi maqsadda dastlabki sinov bilan tuzilishi mumkin:
xodimning topshirilayotgan ishga muvofiqligini tekshirish;
mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi haqida xodim tomonidan qaror qabul qilish.

Dastlabki sinovdan o'tish mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi kerak. Bunday shartlashuv mavjud bo'lmagan taqdirda, xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi:

homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy);

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish uchun yuborilgan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslar;

davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yo'llanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

o'zi bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;

ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;

ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar;

jamo'a kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va ish beruvchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-§. Mehnat shartnomasini o'zgartirish

142-modda. Ish beruvchi uchun majburiy bo'lgan, xodimning tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazish

Xodimning vaqtincha boshqa ishga o'tkazish to'g'risidagi iltimosi ish beruvchi tomonidan quyidagi uzrli sabablarga ko'ra qanoatlantirilishi lozim:

qaysi tibbiy xulosaga muvofiq xodim sog'lig'ining holatiga ko'ra vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarini istisno etadigan ishga o'tkazishga muhtoj bo'lsa, o'sha tibbiy xulosaning mavjudligi;

qaysi tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayol vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazishga muhtoj bo'lsa, o'sha tibbiy xulosaning mavjudligi;

ikki yoshga to'lmagan bolasini parvarishlayotgan ota-onaning biri (vasiy) tomonidan avvalgi ishini bajarish mumkin emasligi;

ushbu iltimos uzrli sabablar tufayli kelib chiqqan va bunday ish ish beruvchida mavjud bo'lgan boshqa hollarda. Xodimning tashabbusiga ko'ra vaqtincha boshqa ishga o'tkazish uchun uzrli sabablar ro'yxati, shuningdek bunday o'tkazish chog'ida mehnatga haq to'lash tartibi jamoa shartnomasida belgilanishi mumkin, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

149-modda. Mehnat shartnomasini o'zgartirishni rasmiylashtirish

Mehnat shartnomasini o'zgartirish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Xodimni doimiy boshqa ishga o'tkazish to'g'risida, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini o'zgartirish haqida, mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyini o'zgartirish to'g'risida, shuningdek ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan joyni o'zgartirish haqida buyruqlar chiqarish uchun mehnat shartnomasiga kiritilgan o'zgartishlar asos bo'ladi. Mehnat shartnomasiga doir o'zgartishlar xodim va ish beruvchi tomonidan yozma shaklda tuziladigan hamda mehnat shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha kelishuv imzolash orqali rasmiylashtiriladi. Mehnat shartnomasiga doir qo'shimcha kelishuv kamida ikki nusxada tuziladi. Qo'shimcha kelishuvning har bir nusxasi xodimning va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning imzosi bilan mustahkamlanadi. Ish beruvchida muhr mavjud bo'lgan taqdirda, mehnat shartnomasining barcha nusxalarida mansabdor shaxsning imzosi muhr bilan tasdiqlanadi. Qo'shimcha kelishuvning bir nusxasi xodimga beriladi, boshqasi (boshqalari) ish beruvchida mehnat shartnomasi bilan birga saqlanadi. Xodim tomonidan qo'shimcha kelishuvning nusxasi olinganligi xodimning ish beruvchida saqlanadigan qo'shimcha kelishuvning nusxasiga qo'yilgan qo'shimcha imzosi bilan tasdiqlanadi.

Xodimni doimiy boshqa ishga o'tkazish, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini o'zgartirish, shuningdek mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyini o'zgartirish to'g'risidagi buyruqlar mehnat shartnomasi taraflari tomonidan qo'shimcha kelishuv tuzish orqali ushbu shartnomaga kiritilgan o'zgartishlarning mazmuniga aynan muvofiq ravishda chiqariladi va xodimga imzo qo'ydirib e'lon qilinadi.

Xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish o'tkazishning muddati ko'rsatilgan holda buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra va xodimning tashabbusi bilan xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqarish uchun xodimning yozma arizasi asos bo'ladi.

Xodim sog'lig'ining holatiga ko'ra xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish, homilador ayolni, shuningdek ikki yoshga to'lmagan bolasini parvarishlayotgan ota-onadan birini (vasiyni) ularning avvalgi ishni bajarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda vaqtincha boshqa ishga o'tkazish haqida buyruq chiqarish uchun ularning arizasi va tibbiy xulosa asos bo'ladi.

Ish beruvchining tashabbusiga ko'ra xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqarish uchun ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish faktlarining mavjudligi asos bo'ladi.

Xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish mehnat shartnomasida aks ettirilmaydi.

Xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish haqida buyruq chiqarish uchun xodim hamda mazkur xodimni vaqtincha xizmat safariga yuborgan ish beruvchi bilan kelishuvga ko'ra xodim qaysi ish beruvchiga xizmat safariga yuborilgan bo'lsa, o'sha ish beruvchi o'rtasida tuzilgan alohida muddatli mehnat shartnomasi asos bo'ladi.

5-§. Mehnat shartnomasini bekor qilish

163-modda. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishni taqiqlash

Mehnat shartnomasini:

- 1) ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilmagan asoslar bo'yicha;
- 2) ushbu Kodeksning mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash talabini buzadigan;
- 3) xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrlarida, u mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan davrlarda;
- 4) xodim davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan davrda;
- 5) xodim xizmat safarida bo'lgan davrda;
- 6) homilador ayollar (ushbu Kodeks 408-moddasi) va uch yoshgacha bolasi bo'lgan xodimlar (ushbu Kodeks 409-moddasi) uchun kafolatlar berishni nazarda tutadigan talablarga rioya qilmasdan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi.

Ushbu Kodeksning 147-moddasiga muvofiq xodim boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilgan davrda avvalgi ish joyi bo'yicha tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish taqiqlanadi.

Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish uchun ushbu modda birinchi qismining 3–6-bandlarida nazarda tutilgan cheklovlar tashkilot (uning alohida bo'linmasi) o'z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda yoxud yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyat tugatilganda qo'llanilmaydi.

13-bob. Ish vaqti

1-§. Umumiy qoidalar

186-modda. To'liqsiz ish vaqti

Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra xodimga ishga qabul qilish chog'ida va keyinchalik to'liqsiz ish vaqti (to'liqsiz ish kuni (smena) va (yoki) to'liqsiz ish haftasi, shu jumladan ish kunini qismlarga bo'lgan holda) belgilanishi mumkin. To'liqsiz ish vaqti ham muddati cheklanmagan holda, ham mehnat shartnomasi taraflari kelishgan har qanday muddatga belgilanishi mumkin.

Ish beruvchi:

ushbu Kodeksning 398-moddasiga muvofiq homilador ayolning, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bola (o'n olti yoshgacha bo'lgan nogironligi bo'lgan bola) ota-onasidan birining (ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxsning), shuningdek oilaning betob a'zosini parvarishlashni amalga oshirayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra tibbiy xulosaga binoan;

nogironligi bo'lgan shaxsning iltimosiga ko'ra, agar mazkur shaxs uchun ish vaqtini belgilash ushbu Kodeks 424-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalarida nazarda tutilgan bo'lsa;

ushbu Kodeksda yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o'zga hollarda to'liqsiz ish kunini belgilashi shart.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida sanab o'tilgan shaxslar uchun to'liqsiz ish vaqti xodim uchun qulay bo'lgan muddatga, biroq to'liqsiz ish vaqtini majburiy ravishda belgilash uchun asos bo'lgan holatlar mavjud bo'lgan davrdan ortiq bo'lmagan muddatga belgilanadi, ish vaqtining va dam olish vaqtining rejimi, shu jumladan har kungi ishning (smenaning) davomiyligi, ishning boshlanish va tugash vaqti, ishdagi tanaffuslar vaqti esa ushbu ish beruvchidagi ishlab chiqarish

(ish) sharoitlari hisobga olingan holda xodimning istaklariga muvofiq belgilanadi. Bunda nogironligi bo'lgan shaxslar to'liqsiz ish vaqtining davomiyligi va ish rejimi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanishi kerak.

To'liqsiz ish vaqti shartlarida ishlaganda xodimning mehnatiga haq to'lash u ishlab bergan vaqtga mutanosib ravishda yoki u bajargan ishning hajmiga qarab amalga oshiriladi.

To'liqsiz ish vaqti shartlarida ishlash xodimlar uchun har yilgi asosiy mehnat ta'tili davomiyligining, mehnat stajini hisoblab chiqarishning va boshqa mehnat huquqlarining biror-bir cheklanishlariga sabab bo'lmaydi.

14-bob. Dam olish vaqti

1-§. Umumiy qoidalar

202-modda. Xodimni mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod etishning dam olish vaqti bo'lmagan davrlari

Xodimga dam olish uchun emas, balki boshqa maqsadlarda beriladigan, xodimni mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod etish davrlari dam olish vaqtiga kirmaydi. Bunday davrlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilinishi to'g'risidagi ogohlantirish muddati davrida xodimga ishga joylashish uchun beriladigan ishdan bo'sh bo'linadigan qo'shimcha kunlar;

o'n olti yoshga to'lguniga qadar nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onadan biriga (ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxsga) beriladigan ishdan bo'sh bo'linadigan qo'shimcha kunlar;

homilador ayollarga beriladigan ishdan bo'sh bo'linadigan kunlar;

donorlarning tibbiy tekshiruv kunida hamda qon va uning tarkibiy qismlari topshiriladigan kunda ishdan ozod etilishi;

ijtimoiy ta'tillar: homiladorlik va tug'ish ta'tillari, bolani parvarishlash ta'tillari, o'quv ta'tillari va ijodiy ta'tillar;

xodim tomonidan davlat yoki jamoat majburiyatlari bajariladigan davrlar;

ish beruvchining va mehnat jamoasining manfaatlarini ko'zlab majburiyatlar bajariladigan davrlar;

xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrlari;

xodimga dam olish uchun emas, balki mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan o'zga maqsadlarda beriladigan, xodimni mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod etishning boshqa davrlari.

4-§. Har yilgi mehnat ta'tili

227-modda. Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilini berish tartibi

Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi xodimda u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan olti oy o'tganidan keyin yuzaga keladi. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra xodimga ishlagan olti oy o'tgunga qadar ham mehnat ta'tili berilishi mumkin.

Birinchi bor tashkil etilgan tashkilotlar uchun xodimlarga birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tili birinchi ish yili tugaguniga qadar ushbu ta'tilni berish sharti bilan olti oy ishlamasidan ilgari yoki undan keyin berilishi mumkin.

Olti oy o'tgunga qadar xodimning xohishiga ko'ra quyidagilarga har yilgi mehnat ta'tili beriladi: ayollarga – homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin;

o'n to'rt yoshga to'lmagan bitta yoki undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolani) tarbiyalayotgan shaxslarga (yolg'iz ota-onaga, shu jumladan beva ayollarga,

beva erkaklarga, nikohdan ajralganlarga, muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarning xotinlariga, ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslarga);

o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslarga;

rezervga bo'shatilganidan keyin uch oydan kechiktirmay ishga kirgan muddatli harbiy xizmatni o'tagan sobiq harbiy xizmatchilarga;

1941–1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari bo'yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga;

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga;

ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarida o'qiyotganlarga, agar ular o'zining har yilgi mehnat ta'tilini imtihonlar, sinovlar (zachyotlar) topshirish, bitiruv malakaviy ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini, kurs, laboratoriya ishlarini va boshqa o'quv ishlarini bajarish vaqtiga to'g'rilab olishni xohlasa;

jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida yoxud ichki hujjatlarda belgilangan boshqa hollarda boshqa xodimlarga.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda har yilgi mehnat ta'tili to'liq davomiylikda va to'liq haq to'langan holda beriladi.

Olti oydan kam ishlagan o'rindoshlarga birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tili ularning xohishiga ko'ra asosiy ish bo'yicha har yilgi mehnat ta'tili bilan bir vaqtda o'rindoshlik asosida ishdagi ta'til uchun ishlab berilgan vaqtga mutanosib ravishda haq to'langan holda beriladi. Olti oy va undan ortiq ishlagan o'rindoshlarga birinchi ish yili uchun o'rindoshlik asosidagi ishdagi beriladigan har yilgi mehnat ta'tiliga, shuningdek ikkinchi va keyingi ish yillari uchun ushbu toifadagi xodimlarning mehnat ta'tiliga, ushbu ta'til ish yili davomida qaysi vaqtda berilishidan qat'i nazar, to'liq haq to'lanadi.

Har yilgi mehnat ta'tili o'quvchilarning yozgi ta'tili davrida beriladigan ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilar tarkibiga birinchi ish yilidagi har yilgi mehnat ta'tili o'quvchilarning yozgi ta'tili davrida to'liq davomiylikda, ular ushbu ta'lim tashkilotiga ishga kirgan vaqtdan qat'i nazar, ishlab bergan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'langan holda beriladi. Mazkur toifadagi xodimlarga ikkinchi va keyingi ish yillari uchun beriladigan mehnat ta'tiliga, ushbu ta'til ish yili davomida qaysi vaqtda berilishidan qat'i nazar, to'liq haq to'lanadi.

228-modda. Ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta'tilini berish tartibi

Ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta'tili ish beruvchi va xodim uchun majburiy bo'lgan ta'tillar jadvali bilan belgilanadigan har yilgi mehnat ta'tillarini berish navbatiga muvofiq beriladi.

Ta'tillar jadvali kalendar yil boshlanguniga qadar ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra tasdiqlanadi.

Xodim har yilgi mehnat ta'tili beriladigan vaqt to'g'risida ta'til boshlanishidan kamida o'n besh kun oldin xabardor qilinishi kerak.

Xodimning xohishiga ko'ra har yilgi mehnat ta'tili unga qulay bo'lgan vaqtda quyidagilarga berilishi kerak:

ayollarga – homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin;

bolani parvarishlash ta'tilidan foydalanayotgan xodimga ushbu ta'tildan oldin yoki keyin;

o'n to'rt yoshga to'lmagan bir yoki undan ortiq nafar bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolani) tarbiyalayotgan shaxslarga (yolg'iz ota-onaga, shu jumladan beva ayollarga, beva erkaklarga, nikohdan ajralganlarga, muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarning xotinlariga, ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslarga);

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;

1941–1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari bo'yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga;

o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslarga;

ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarida o'qiyotganlarga, agar ular o'zining har yilgi mehnat ta'tilini imtihonlar, sinovlar (zachyotlar) topshirish, bitiruv malakaviy ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini, kurs, laboratoriya ishlarini va boshqa o'quv ishlarini bajarish vaqtiga to'g'rilab olishni xohlasa;

“O'zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga;

jamoat kelishuvlarida, shuningdek jamoat shartnomasida yoxud boshqa ichki hujjatlarda belgilangan hollarda boshqa xodimlarga.

Ishlaydigan erkaklarga har yilgi mehnat ta'tili ularning xohishiga ko'ra xotinining homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida beriladi.

Jadvalda belgilangan har yilgi mehnat ta'tilini berish vaqti xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan o'zgartirilishi mumkin.

229-modda. Har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki uni boshqa muddatga ko'chirish

Xodimlar quyidagi hollarda har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega:

vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrida;

homiladorlik va tug'ish ta'tilining muddati boshlanganda;

har yilgi mehnat ta'tili o'quv ta'tiliga to'g'ri kelib qolganda;

davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarayotganda, agar qonunchilikda bunday majburiyatlarni bajarish uchun ishdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa;

jamoat kelishuvlarida yoki jamoat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Agar har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanishga monelik qiluvchi sabablar ta'til boshlanguniga qadar kelib chiqqan bo'lsa, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan ta'tildan foydalanishning yangi muddati belgilanadi. Bunday sabablar ta'til davrida kelib chiqqan hollarda ta'til tegishli kunlar soniga uzaytiriladi yoki xodim bilan ish beruvchining kelishuviga ko'ra ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi boshqa muddatga ko'chiriladi.

Xodim har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanishga to'sqinlik qiladigan, yuzaga kelgan sabablar to'g'risida ish beruvchini yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Agar xodim ushbu Kodeks 228-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan muddatda ta'til boshlanadigan vaqt haqida o'z vaqtida xabardor qilinmagan yoki unga ta'til boshlanguniga qadar ushbu Kodeks 233-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ta'til vaqti uchun haq to'lanmagan bo'lsa, har yilgi mehnat ta'tili xodimning arizasiga ko'ra boshqa muddatga ko'chiriladi.

232-modda. Xodimni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olish

Har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga ta'tilning istalgan vaqtida faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Shu munosabat bilan ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi xodimga mazkur ish yili davomida boshqa vaqtda berilishi yoki ushbu Kodeksning 230 va 231-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda keyingi ish yilida berilishi kerak.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni va mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlarni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

5-§. Ijtimoiy ta'tillar

236-modda. Ijtimoiy ta'tillar tushunchasi

Xodimlarga onalik, bolalarni parvarishlash, ta'lim olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek boshqa ijtimoiy maqsadlarda beriladigan ta'tillar ijtimoiy ta'tillardir.

237-modd. Qonunchilikda belgilangan ijtimoiy ta'tillar

Ushbu Kodeksga muvofiq xodimlar quyidagi ijtimoiy ta'tillarni olish huquqidan foydalanadi: homiladorlik va tug'ish ta'tillari (ushbu Kodeksning 404-moddasi); bola parvarishlash ta'tili (ushbu Kodeksning 405-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari); o'quv ta'tili (ushbu Kodeksning 385-moddasining birinchi qismi); ijodiy ta'tillar (ushbu Kodeksning 387-moddasining birinchi qismi).

Xodimlarga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ijtimoiy ta'tillarni berish xodimning mehnat stajiga, u bajaradigan ishning joyi va xususiyatiga, ish beruvchining tashkiliy-huquqiy shakliga bog'liq emas.

Xodim o'quv ta'tilida (ushbu Kodeks 385-moddasining birinchi qismi) yoki ijodiy ta'tilda (ushbu Kodeks 387-moddasining birinchi qismi) bo'lgan vaqtida uning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi. Bundan oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirganda beriladigan ish haqi saqlanmaydigan ta'til mustasno.

Ayol tug'ishdan oldingi va tug'ishdan keyingi ta'tilda bo'lgan vaqtida (ushbu Kodeksning 404-moddasi) unga qonunchilikda belgilangan miqdorda hamda tartibda homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi.

Bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarishlash ta'tilida bo'lgan davrida bolani haqiqatda parvarishlayotgan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga), buvisiga, bobosiga yoki boshqa qarindoshiga qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda bolani parvarishlash nafaqasi to'lanadi.

O'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq nafar bola yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biri (ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxs) davomiyligi to'rt kalendar kun bo'lgan har yilgi ijtimoiy ta'tilda bo'lgan davrida uning ushbu ta'til davri uchun o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi (ushbu Kodeksning 401-moddasi).

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan ijtimoiy ta'tillar, bundan Kodeks 405-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan bolani parvarishlash ta'tillari mustasno, navbatdagi har yilgi mehnat ta'tilini olish huquqini beradigan ish stajiga kiritiladi.

15-bob. Mehnatga haq to'lash

1-§. Mehnatga haq to'lashning umumiy shartlari

244-modd. Xodimlarning mehnatiga haq to'lash sohasidagi asosiy kafolatlar

Mehnat to'g'risidagi qonunchilikda xodimlarning mehnatiga haq to'lash sohasidagi quyidagi asosiy kafolatlar nazarda tutiladi:

mehnatga haq to'lash sohasida kamsitishni taqiqlash;

teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng miqdorda haq to'lanishini ta'minlash;

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilash;

ish beruvchining o'z moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq xodimlar tomonidan bajarilgan ish uchun haq to'lashni amalga oshirish majburiyatini mustahkamlab qo'yish;

mehnatga natura shaklida haq to'lanishini cheklash;

ish haqini to'lash tartibi va muddatlariga doir talablarni tartibga solish;

normal ish sharoitlaridan chetga chiqadigan sharoitlarda ishlaganlik (ish vaqtidan tashqari, dam olish va ishlamaydigan bayram kunlari, tungi vaqtda ishlash) uchun mehnatga haq to'lashning kafolatlangan miqdorlarini belgilash;

ushbu Kodeks 100-moddasining oltinchi va yettinchi qismlariga muvofiq ish beruvchining faoliyati tugatilgan hamda u to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda xodim tomonidan ish haqi olinishini ta'minlash;

budjet tashkilotlari xodimlari uchun mehnatga haq to'lashning davlat tariflarini belgilash;

xodimning ish haqidan ushlab qolish miqdorini cheklash;
xodimning ishlab topilgan mablag'larni erkin tasarruf etishini cheklashni taqiqlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

xodimlarga ish haqi o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash.

Jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qabul qilinadigan ichki hujjatlarda qonunchilikda belgilanganiga nisbatan xodimlarning mehnatiga haq to'lash sohasidagi qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat shartnomasida belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilanganiga nisbatan yomonlashtirilishi mumkin emas.

Jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilanganiga nisbatan yomonlashtirilishi mumkin emas.

Jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari jamoa kelishuvida belgilanganiga nisbatan yomonlashtirilishi mumkin emas.

17-bob. Kafolatli to'lovlar va kompensatsiya to'lovlari

1-§. Kafolatli to'lovlar va kafolatli qo'shimcha to'lovlar

280-modda. Ish beruvchining xodimga kafolatli to'lovlarni amalga oshirish majburiyati

Ish beruvchi xodimga:

xodim jamoaviy muzokaralarda, jamoa shartnomasi loyihasini tayyorlashda ishtirok etgan davr;

xodimlarning vakillari bo'lgan va ishlab chiqarish ishlaridan ozod qilinmagan shaxslar tomonidan xodimlarning vakilligi va ularning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vazifalar bajarilgan davr;

mehnat nizolari bo'yicha komissiya a'zosi ushbu komissiya ishida ishtirok etgan davr;

xodim mehnatni muhofaza qilish sohasida o'quvdan hamda bilim va ko'nikmalar tekshiruvdan yoki majburiy tibbiy ko'rikdan o'zining aybisiz o'tmaganligi sababli ishdan chetlashtirilgan davr;

xodim o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilganligi tufayli ishdan chetlatilgan davr;

xodim yillik mehnat ta'tilida bo'lgan davr;

ish beruvchining aybi bilan bekor turib qolingan va nuqsonga yo'l qo'yilgan davr;

ish beruvchining aybi bilan mehnat normalari bajarilmagan, mehnat (lavozim) majburiyatlari ijro etilmagan davr;

ushbu Kodeksning 364-moddasiga muvofiq sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazilgan davr;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakolatli shaxs tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilgan davr;

xodim xizmat safarida bo'lgan davr;

xodim ish beruvchi bilan birgalikda yoki ish beruvchining taklifiga binoan o'z roziligiga ko'ra boshqa joyga ko'chganida unga yangi joyga ko'chish va joylashish uchun zarur bo'lgan, lekin olti ish kunidan ko'p bo'lmagan vaqt;

xodim ishdan ajralgan holda o'zi va ish beruvchi uchun majburiy bo'lgan qayta tayyorlashdan yoki majburiy malaka oshirishdan o'tgan davr;

xodim o'quv ta'tillarida bo'lgan davr;

xodim ijodiy ta'tillarda bo'lgan davr;

alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishga joylashtirish davri;

xodimlar majburiy tibbiy ko'riklardan o'tgan davr;

homilador ayol yengilroq yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazilgan davr;

ikki yoshga to'lmagan bolasini parvarish qilayotgan ota-onadan biri (vasiy) yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazilgan davr;

xodimni ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazish, g'ayriqonuniy ravishda ishdan chetlashtirish, g'ayriqonuniy ravishda mehnat shartnomasini bekor qilish, shuningdek yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish bo'yicha organning xodimni ilgari ishga tiklash to'g'risidagi qarorini bajarmaslik tufayli xodimning majburiy progul qilgan davri uchun kafolatli to'lovlarni amalga oshirishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan kafolatli to'lovlardan tashqari ish beruvchi xodimlarga ushbu Kodeksda, qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasida belgilangan boshqa kafolatli to'lovlarni amalga oshirishi shart.

19-bob. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi

2-§. Ish beruvchining xodimga yetkazilgan ziyon uchun moddiy javobgarligi

327-modda. Boquvchi bo'lgan xodim vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan ziyonning o'рни ish beruvchi tomonidan qoplanishiga doir huquqqa ega bo'lgan shaxslar doirasi

Boquvchi bo'lgan xodim (bundan buyon matnda boquvchi deb yuritiladi) mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoki sog'liqqa yetkazilgan boshqa shikast tufayli vafot etgan taqdirda ish beruvchi quyidagi shaxslarga ziyonning o'rnini qoplashi shart:

marhumning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga, shuningdek o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga yoki uning vafot etgan kuniga qadar undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga;

marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandiga;

ota-onasidan biriga (ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxsga), eriga (xotiniga) yoki boshqa oila a'zosiga, agar u ishlamayotgan bo'lsa hamda marhumning o'n to'rt yoshga to'lmagan yoki bu yoshga to'lgan bo'lsa-da, ammo tibbiy muassasalarning xulosasiga ko'ra sog'lig'i holati bo'yicha o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan bolalarini, aka-ukalarini, opa-singillarini yoki nabiralarini parvarish qilish bilan band bo'lsa.

Bolalarning qaramoqda ekanligi taxmin qilinadi va dalillar talab qilmaydi.

Quyidagilar mehnatga qobiliyatsiz deb hisoblanadi:

o'n sakkiz yoshdan oshgan shaxslar, agar ularga shu yoshga to'lguniga qadar nogironlik belgilangan bo'lsa;

oltmish yoshga to'lgan erkaklar va ellik besh yoshga to'lgan ayollar;

o'ziga nisbatan nogironlik belgilangan shaxslar.

Oila a'zosining mehnatga qobiliyatsizligi yuz bergan vaqt (boquvchining vafotidan oldin yoki keyin) uning ziyonning o'rni qoplanishiga bo'lgan huquqiga ta'sir qilmaydi.

O'n sakkiz yoshga to'lgan va undan katta o'quvchilar kunduzgi ta'lim tashkilotlarida o'qishni tugatguniga, lekin ko'pi bilan yigirma uch yoshga to'lguniga qadar ziyonning o'rni qoplanishiga bo'lgan huquqqa egadir.

328-modda. Boquvchi vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan ziyonning o'rnini ish beruvchi tomonidan qoplash muddati

Boquvchi vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan ziyonning o'rni quyidagicha qoplanadi: voyaga yetmagan shaxslarga – o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar;

oʻn sakkiz yoshdan oshgan oʻquvchilarga – kunduzgi taʼlimni tugatguniga, lekin koʻpi bilan yigirma uch yoshga toʻlguniga qadar;

ellik besh yoshdan oshgan ayollarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga – umrbod;

nogironligi boʻlgan shaxslarga – nogironlik muddatiga;

marhumning qaramogʻida boʻlgan bolalarini, nabiralarini, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlash bilan band boʻlgan ota-onasidan biriga, eriga (xotiniga) yoki boshqa oila aʼzosiga – qaramogʻidagi shaxslar oʻn toʻrt yoshga toʻlguniga qadar.

VI BOʻLIM. AYRIM TOIFADAGI XODIMLAR MEHNATINI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

24-bob. Umumiy qoidalar

389-modda. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari tasnifi

Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari quyidagi mezonlar boʻyicha tasniflanadi:

1) mehnat munosabatlarining subyektlari (ayollar, oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashgʻul shaxslar, nogironligi boʻlgan shaxslar, voyaga yetmaganlar) boʻyicha;

2) mehnat faoliyatining sohalari, tarmoqlari va turlari (pedagoglar va tibbiyot xodimlari, transport xodimlari va boshqalar) boʻyicha;

3) mehnat sharoitlarining ogʻirligiga va (yoki) zararliligiga qarab;

4) tabiiy-iqlim sharoitlariga qarab;

5) xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi mehnat munosabatlarining xususiyatlari (kasanachilar, masofadan turib ishlovchi xodimlar va boshqalar) boʻyicha.

Mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga muvofiq ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlarini tasniflashning boshqa mezonlari ham nazarda tutilishi mumkin.

25-bob. Ijtimoiy va huquqiy jihatdan kuchli himoya qilinishga muhtoj shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari

1-§. Ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashgʻul shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari

392-modda. Homiladorligi yoki farzandlari borligi sababli ishga qabul qilishni rad etishni yoki ish haqi miqdorini kamaytirishni taqiqlash

Homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bogʻliq sabablarga koʻra ishga qabul qilishni rad etish yoki mehnatga haq toʻlash miqdorini kamaytirish taqiqlanadi.

Ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etgan taqdirda, rad etish sabablarining ishga qabul qilish huquqiga ega boʻlgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan yozma asosini homilador ayol yoki farzandlari bor shaxs talabiga koʻra uch kun ichida taqdim etishi shart. Ishga qabul qilishni rad etish sabablarining yozma asosini taqdim etmaganlik ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan shikoyat qilishga monelik qilmaydi.

393-modda. Ayollar mehnatini muhofaza qilish boʻyicha qoʻshimcha choralar

Ish beruvchi kasaba uyushma qoʻmitasi bilan kelishuvga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari boʻyicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishuvga koʻra

tasdiqlanadigan tavsiyalarni inobatga olib, noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan, ayollarning mehnatidan foydalanish cheklanadigan ayrim ishlar ro'yxatini belgilashga haqli.

Ayollar tomonidan ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p normadan ortiq bo'lgan og'ir yuklarni ko'tarish va tashish taqiqlanadi.

Ayollarning og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishi chog'ida ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p yuklamalar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

394-modda. Homilador ayollarni yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazish

Tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat ko'rsatish normalari avvalgi ishlardagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda kamaytiriladi yoki ular yengilroq ishga yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi. Ishlab chiqarish normalarini kamaytirish, shuningdek vaqtincha boshqa ishga o'tkazish muddatlari tibbiy xulosaga muvofiq belgilanadi.

Homilador ayolga yengilroq ish yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ish berish masalasi hal etilguniga qadar, u buning oqibatida qoldirilgan barcha ish kunlari uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim.

395-modda. Ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan ota-onadan birini (vasiyni) boshqa ishga o'tkazish

Ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan ota-onadan biri (vasiy) avvalgi ishini bajarishi mumkin bo'lmagan taqdirda, o'z arizasiga ko'ra bajariladigan ishi uchun haq to'lanadigan, biroq avvalgi ishi bo'yicha o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bola ikki yoshga to'lguniga qadar ish haqi to'lanadigan boshqa ishga o'tkaziladi.

Ish beruvchida boshqa ish mavjud bo'lmagan taqdirda, ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan xodimga qonunchilikda belgilangan tartibda bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

Yakka tartibdagi mehnatga doir nizo yuzaga kelgan taqdirda, ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan xodimni boshqa ishga o'tkazish mumkin emasligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

396-modda. Tungi ishlarda, ish vaqtidan tashqari ishlarda, dam olish kunlaridagi hamda ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarda homilador ayollar va bolalari bor shaxslar mehnati qo'llanilishining hamda ularni xizmat safariga yuborishning o'ziga xos xususiyatlari

Homilador ayollar, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolaning (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning) ota-onasidan biri (ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxs) faqat o'z yozma roziligi bilan tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilinishi, shuningdek xizmat safariga yuborilishi mumkin. Bunda ish beruvchi mazkur xodimlarni tungi ishlardan, ish vaqtidan tashqari ishlardan, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlardan yoki xizmat safaridan voz kechish borasidagi huquqi to'g'risida xabardor qilishi shart.

Homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish homilador ayolning hamda bolaning hayotiga va sog'lig'iga xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa mavjud bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

397-modda. Uch yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan birining (vasiysining) qisqartirilgan ish vaqti davomiyligiga bo'lgan huquqi

Uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ota-onasidan biriga (vasiysiga) haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.

Ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar mehnatiga haq to'lash har kungi to'liq ish davomiyligida ishlaydigan xodimlar uchun belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

Uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtirilmaydigan ish beruvchilarda ishlaydigan ota-onasidan biriga, vasiysiga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida yoki ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatlarda belgilanishi mumkin.

398-modda. Homilador ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga to'liqsiz ish vaqti belgilash

Ish beruvchi homilador ayolning, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolaning (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning) ota-onasidan birining (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsning), shuningdek oilaning betob a'zosini parvarishlashni amalga oshirayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra ularga tibbiy xulosaga muvofiq to'liqsiz ish vaqti belgilashi shart.

399-modda. Qo'shimcha dam olish kuni

O'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onadan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsga) oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni berilib, davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan shu vaqt uchun bir kunlik ish haqi miqdorida nafaqa to'lanadi.

400-modda. Homilador ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga yillik mehnat ta'tillarini berish navbatini belgilashdagi imtiyozlar

Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik mehnat ta'tili, ularning xohishiga ko'ra, tegishincha homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin beriladi.

Homilador ayollarni yillik mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Bolani parvarishlash ta'tilidan foydalanayotgan xodimga yillik mehnat ta'tili, uning xohishiga ko'ra, bola parvarishlash ta'tilidan oldin yoxud undan keyin beriladi.

Ishlaydigan erkaklarga xotinining homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida o'z xohishiga ko'ra yillik mehnat ta'tili:

birinchi ish yili uchun – ishlab berilgan vaqtdan qat'i nazar;

keyingi yillarda – ta'tillar berish jadvalidan qat'i nazar beriladi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan bitta va undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz otaga, yolg'iz onaga (beva erkaklarga, beva ayollarga, nikohdan ajrashganlarga, yolg'iz onalarga) va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga yillik mehnat ta'tillari, ularning xohishiga ko'ra, ular uchun qulay bo'lgan vaqtda beriladi.

401-modda. O'n ikki yoshga to'lmagan bolalarning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsga) beriladigan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til

O'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to'rt kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ta'til yillik mehnat ta'tiliga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu ta'tildan alohida (to'liq yoxud qismlarga bo'lib), lekin faqat tegishli ish yili davomida foydalanilishi mumkin. Ushbu ta'tilni keyingi ish yiliga ko'chirishga yoki uni pulli kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

402-modda. O'n ikki yoshga to'lmagan bolalarning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan birining (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsning) ish haqi saqlanmagan holda ta'til olish huquqi

O'n ikki yoshga to'lmagan ikki nafar va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxs), ularning xohishiga ko'ra, har yili ish haqi saqlanmagan holda davomiyligi kamida o'n to'rt kalendar kun bo'lgan ta'til beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ta'til yillik mehnat ta'tiliga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu ta'tildan alohida (to'liq yoxud qismlarga bo'lib), lekin faqat joriy ish yili davomida foydalanilishi mumkin. Ushbu ta'tilni keyingi ish yiliga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi.

403-modda. Homilador ayollarga antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash uchun qo'shimcha bo'sh kunlar berilishi

Ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'riklar va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlar berishi shart.

Homilador ayollarni antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

404-modda. Homiladorlik va tug'ish ta'tili

Ayolga tug'ruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug'ruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug'ish ta'tili berilib, qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'lanadi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili ayolga jamlangan holda hisoblab chiqarilib, tug'ruqqacha haqiqatda foydalanilgan kunlar sonidan qat'i nazar, to'liq beriladi.

Homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash hamda to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

405-modda. Bolani ikki va uch yoshga to'lguniga qadar parvarishlash ta'tillari

Homiladorlik va tug'ish ta'tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi ikki yoshga to'lguniga qadar bolani parvarishlash ta'tili berilib, bu davr uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda nafaqa to'lanadi.

Ayolga uning xohishiga ko'ra, bolasi uch yoshga to'lguniga qadar uni parvarishlash uchun ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha ta'til ham beriladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan bolani parvarishlash ta'tillaridan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani haqiqatda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham, shuningdek vasiysi ham to'liq yoki qismlarga bo'lib foydalanishi mumkin.

Ayol yoki ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar xohishiga ko'ra, bolani parvarishlash ta'tili vaqtida to'liqsiz ish vaqti shartlari asosida yoki ish beruvchi bilan kelishuv

bo'yicha uyda ishlashi mumkin. Bunda ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq ularning nafaqa olish huquqi saqlab qolinadi.

Bolani parvarishlash ta'tillari davrida xodimning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta'tillarning ko'pi bilan olti yili mehnat stajiga qo'shiladi, shu jumladan mutaxassisligi bo'yicha ish stajiga ham qo'shib hisoblanadi.

Kelgusidagi yillik mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga, agar jamoa shartnomasida, shuningdek tashkilotning ichki hujjatida yoxud mehnat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bolani parvarishlash ta'tillari vaqti kiritilmaydi.

406-modda. Yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga beriladigan ta'tillar

Yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga bola farzandlikka olingan yoki vasiylik belgilangan kundan boshlab va bola tug'ilgan kundan e'tiboran ellik olti kalendar kun (bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq bola farzandlikka olingan taqdirda esa yetmish kalendar kun) o'tguniga qadar qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'langan xolda ta'til beriladi.

Yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimning yozma arizasiga ko'ra, xodimga bola ikki yoshga to'lguniga qadar bolani parvarishlash ta'tili berilib, ushbu davr uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda nafaqa to'lanadi, shuningdek bola uch yoshga to'lguniga qadar ish haqi saqlanmaydigan ta'til ham beriladi.

407-modda. Bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar

Ikki yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan davomiylikda beriladi. Ikki yoshga to'lmagan ikki yoki undan ortiq nafar farzandi bo'lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanadi. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar ish vaqtiga kiritiladi va o'rtacha ish haqi bo'yicha haq to'lanadi.

Ikki yoshga to'lmagan bola otasining yoki onasining (vasiysining) xohishiga ko'ra bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusga qo'shib berilishi yoxud ish kunining (smenaning) tegishincha qisqartirilgan holda boshiga yoki oxiriga ko'chirilishi, shu jumladan jamlangan holda ko'chirilishi mumkin.

Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar faqat ota-onadan biri bolani parvarishlash ta'tilida bo'lmagan va bunday tanaffuslardan foydalanmayotgan taqdirda beriladi.

Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslarning aniq davomiyligi va ularni berish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

408-modda. Mehnat shartnomasini bekor qilish chog'ida homilador ayollar uchun kafolatlar

Homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, bundan tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilgan yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ish faoliyati tugatilgan hollar mustasno.

Ayolning homiladorligi davrida muddatli mehnat shartnomasining muddati tugagan taqdirda, ish beruvchi ayolning yozma arizasiga binoan va homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilgan taqdirda, mehnat shartnomasining amal qilish muddatini homiladorlik tugaguniga qadar, unga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan taqdirda esa bunday ta'tilning oxiriga qadar uzaytirishi shart. Mehnat shartnomasi homiladorlikning oxiriga

qadar uzaytirilgan ayol, ish beruvchining so'roviga binoan, lekin uch oyda ko'pi bilan bir marta homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etishi shart. Agar bunda ayol homiladorlik tugaganidan keyin haqiqatda ishlashni davom ettirsa, ish beruvchi homiladorlikning tugaganligi faktini bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran bir hafta ichida mehnat shartnomasini uning muddati tugaganligi sababli bekor qilishga haqli.

Ayol bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddati tugaganligi munosabati bilan ushbu shartnomani uning homiladorligi davrida bekor qilishga, agar mehnat shartnomasi yo'q bo'lgan xodimning majburiyatlarini bajarish vaqtiga tuzilgan bo'lsa va homiladorlik tugaganiga qadar ayolni ish beruvchida uning sog'lig'i holati inobatga olingan holda bajara oladigan boshqa ishga ayolning yozma roziligi bilan o'tkazish mumkin bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

Homilador ayol bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ayolning ushbu Kodeks 404-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan davr uchun homiladorlik va tug'ish nafaqasini olish huquqi saqlanib qoladi.

409-modda. Uch yoshgacha bo'lgan bolasi bor xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishdagi kafolatlar

Uch yoshgacha bolasi bor ayol yoxud uch yoshgacha bo'lgan bolani yolg'iz tarbiyalayotgan ota (vasiy) bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga faqat ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 1, 4 va 5-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yo'l qo'yiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ularning bola parvarishlash nafaqasini olish huquqi saqlanib qoladi.

Bolasi uch yoshga to'lguniga qadar bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan xodim bilan mehnat shartnomasini xodimning malakasi yetarli emasligi oqibatida egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga loyiq emasligi munosabati bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 3-bandiga muvofiq bekor qilishga xodim ta'tildan chiqqan kundan e'tiboran bir yil ichida yo'l qo'yilmaydi.

410-modda. Oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslardan biriga kafolatlar berish sharti

Ushbu Kodeksda bolaning otasiga yoki oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxslarga (onadan tashqari) mehnat sohasida qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilgan hollarda, ular bolaning onasi yoki oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxs bu kafolatlardan foydalanmayotganligini tasdiqlovchi hujjatni (ish joyidan ma'lumotnomani, o'lim to'g'risidagi guvohnomani, ona va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxs muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarorini va hokazolarni) ish beruvchiga ish joyi bo'yicha taqdim etishi kerak.

Agar bolaning onasi ishlamasa hamda bolaning parvarishi va tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lsa yoxud ishlasa hamda ushbu paragrafda nazarda tutilgan kafolatlardan foydalansa, otaga yoki oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul boshqa shaxslarga mazkur kafolatlar berilmaydi.

26-bob. Xodimning ish beruvchi bilan mehnatga oid aloqasi xususiyatiga va o'z mehnat faoliyatini amalga oshirish joyiga bog'liq holda mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

3-§. Masofadan turib ishlovchi xodimlarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

458-modda. Vaqtincha masofadan turib ishlashga o'tishga yoki masofadan ishlashga o'tkazishga doir ustuvor huquqqa ega bo'lgan xodimlarning toifalari

Tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega halokatlar, ishlab chiqarishdagi avariya, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, shuningdek yong'inlar, toshqinlar, zilzilalar, epidemiyalar yoki epizootiyalar ro'y bergan taqdirda hamda aholining yoxud uning bir qismining hayotiga yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soladigan boshqa alohida hollarda ish beruvchida tegishli texnik va tashkiliy imkoniyatlar mavjud bo'lganda vaqtincha masofadan turib ishlashga o'tish yoki o'tkazish uchun ustuvor huquq beriladigan xodimlarning toifalari quyidagilardan iborat:

homilador ayollar;

o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarning ota-onalari, vasiylari;

nogironligi bo'lgan shaxslar;

yoshga doir pensionerlar;

nogironligi bo'lgan shaxslarni yoki oilaning o'zgarar parvarishiga muhtoj bo'lgan bemor a'zolarini parvarishlayotgan xodimlar.

Jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, ichki hujjatda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan xodimlarning boshqa toifalari ham vaqtincha masofadan turib ishlashga o'tish yoki o'tkazish uchun ustuvor huquqqa ega bo'lishi mumkin.

4-§. Vaxta usulida ishlovchi shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

466-modda. Xodimlarning ayrim toifalarini vaxta usulidagi ishlarga jalb qilishni cheklash

Vaxta usulida bajariladigan ishlarga quyidagilar jalb qilinishi mumkin emas:

o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar;

homilador ayollar;

uch yoshgacha bo'lgan bola parvarishini amalga oshirayotgan ota-onadan biri (vasiy);

tibbiy xulosaga muvofiq vaxta usulidagi ishlarni bajarishiga qarshi ko'rsatmalar bo'lgan shaxslar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda 163-I-son
va 1996-yil 29-avgustda 256-I-son Qonunlari bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

IKKINCHI QISM

57-bob. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar

2-§. Fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash

1009-modda. Boquvchisi vafot etganligi natijasida ziyon ko'rgan shaxslarga zararni to'lash

Boquvchisi vafot etgan taqdirda quyidagilar zararni undirish huquqiga ega:

marhumning qaramog'ida turgan yoki u vafot etgan kungacha undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar;

marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandi;

mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, marhumning qaramog'ida bo'lgan uning o'n to'rt yoshga to'lmagan yoxud ko'rsatilgan yoshga to'lgan bo'lsa ham tibbiyot muassasasining xulosasiga ko'ra salomatligi bo'yicha boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlashda band bo'lgan va ishlamaydigan ota-onasidan biri, eri (xotini) yoki oilaning boshqa a'zosi;

marhumning qaramog'ida bo'lgan va uning vafotidan keyin besh yil ichida mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan shaxslar.

Ishlamaydigan va marhumning ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlashda band bo'lgan ota-onasidan biri, er (xotin) yoxud oilaning boshqa a'zosi parvarishlashni amalga oshirish davrida mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan taqdirda, ana shu shaxslarni parvarishlash tugaganidan keyin zararni undirish huquqini saqlab qoladi.

Zarar quyidagilarga to'lanadi:

voyaga yetmaganlarga – o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar;

o'n sakkiz yoshdan oshgan o'quvchilarga – o'quvning kunduzgi shaklida o'qishni tugatgunga qadar, biroq yigirma uch yoshdan oshmaganlarga;

ellik besh yoshdan oshgan ayollarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga – umrbod;

nogironligi bo'lgan shaxslarga – nogironlik muddatiga;

marhumning qaramog'ida bo'lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini ular o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar parvarishlashda band bo'lgan ota-onasidan biri, eri (xotini) yoxud oilaning boshqa a'zosi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-IJROIYA KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi
409-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

MAXSUS QISM

IV BO'LIM. OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH I KICHIK BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

10-bob. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish

58-modda. Mahkumlarni ajratilgan holda saqlash

Jazoni ijro etish muassasalarida erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshlilar, ozodlikdan mahrum etishga birinchi marta hukm qilingan shaxslar va ilgari bu jazo turini o'tagan mahkumlar alohida-alohida saqlanadi.

Quyidagilar boshqa mahkumlardan batamom ajratilib, shuningdek alohida-alohida saqlanadi: o'ta xavfli retsivistlar;

umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlar;

mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

sud va huquq-tartibotni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar; turli yuqumli kasalliklarga chalingan mahkumlar.

60-modda. Mahkumlarni ko'chirish

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazoni ijro etuvchi bir muassasadan boshqasiga ko'chirish ushbu Kodeksning 58-moddasi talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov qilinayotgan shaxslardan alohida ko'chiriladi.

Homilasi yigirma to'rt haftalikdan oshgan yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar boshqa mahkumlardan alohida ko'chiriladi.

Mahkum bemorlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollar, zarurat bo'lganda, tibbiy xodimlar kuzatuvida ko'chiriladi.

Mahkumlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularni boshqa hollarda ham ajratilgan tarzda ko'chirishga yo'l qo'yiladi.

Ko'chirish chog'ida mahkumlar zarur moddiy-maishiy va sanitariya-gigiyena sharoitlari bilan ta'minlanadi, ularga mavsumiy kiyim va poyabzal, belgilangan norma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari beriladi.

Mahkumlarni ko'chirish davlat hisobidan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda soqchi kuzatuvida amalga oshiriladi.

Jazoni o'tash joyiga borayotgan yoki bir jazoni ijro etish muassasasidan boshqa jazoni ijro etish muassasasiga ko'chirilayotgan mahkumlarni vaqtincha saqlash uchun jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalari huzurida tranzit-jo'natish uchastkalari tashkil etilishi mumkin. Mahkumlar tranzit-jo'natish uchastkalarida rejimining turi sud hukmi bilan belgilangan jazoni ijro etish muassasasida o'zining jazoni o'tashiga oid shartlar asosida, ushbu Kodeksning 58-moddasi talablariga rioya etgan holda saqlanadi. Mahkumlarni tranzit-jo'natish uchastkalarida saqlashning eng ko'p muddati ko'pi bilan 20 sutkani tashkil etadi.

11-bob. Jazoni ijro etish muassasalaridagi rejim

71-modda. Maxsus vositalarni ishlatish

Mahkumlarning g'ayrihuquqiy xatti-harakatlarini to'xtatish, shuningdek o'ziga o'zi zarar yetkazishining oldini olish maqsadida ularga nisbatan maxsus vositalar ishlatilishi mumkin.

Maxsus vositalar jumlasiga rezina tayoqlar, qo'lkishanlar yoki boshqacha bog'lash vositalari, xizmat itlari, ko'zdan yosh chiqaruvchi moddalar, chalg'itma ta'sir ko'rsatuvchi nur-tovush moslamalari, to'siq-g'ovlarni bartaraf etuvchi vositalar, suv bilan zarba beruvchi va zirhli mashinalar, inshootlarni ochish, transportni majburiy to'xtatish moslamalari hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa vositalar kiradi.

Maxsus vositalar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

mahkumlarning muassasa ma'muriyati vakillariga, boshqa mahkumlarga va o'zga shaxslarga hujumini daf etish chog'ida;

mahkumlar tomonidan sodir etilgan ommaviy tartibsizliklarni, jamoat tartibini guruh bo'lib buzishlarni to'xtatish, muassasa ma'muriyatiga ashaddiy bo'ysunmayotgan yoki qarshilik ko'rsatayotgan huquqbuzarlarni ushlab chog'ida;

garovga olinganlarni, mahkumlar egallab olgan binolarni, inshootlarni, xonalarni va transport vositalarini ozod qilish chog'ida;

mahkumlarni qo'riqlab borish va qo'riqlab turish chog'ida – qochishning oldini olish uchun; jazoni ijro etish muassasasidan qochgan mahkumlarni ushlab chog'ida.

Maxsus vositalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qo'llanilishi mumkin.

Maxsus vositalar turlari, ularni ishlatish intensivligi yuzaga kelgan vaziyat, huquqbuzarlik xususiyati va huquqbuzarning shaxsini inobatga olgan holda belgilanadi. Maxsus vositalarni qo'llash mahkumlarga va boshqa shaxslarga mumkin qadar kam zarar keltirishi lozim.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan maxsus vositalar ishlatish taqiqlanadi, ular tomonidan qurolli qarshilik ko'rsatilgan yoki fuqarolar hayoti va sog'lig'iga tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilingan hollar bundan mustasno.

Maxsus vositalarni qo'llash natijasida mahkumlar va boshqa shaxslar hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan har bir hodisa haqida darhol prokurorga xabar qilinadi.

75-modda. Mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar o'z shaxsiy hisobvarag'idagi pul hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni pul o'tkazish yo'li bilan sotib olishlari mumkin.

Sarflashga ruxsat etiladigan pul miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi.

Mahkumlar yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilganda, mehnat normasi va mehnat vazifalarini bajarganda, shuningdek bayram kunlari rag'batlantirish tarzida, mahkumlarga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3,6 foizigacha bo'lgan miqdorda qo'shimcha pul sarflashga ruxsat etiladi.

Bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi quyidagi miqdorlardan oshmasligi kerak:

umumiy tartibli koloniyalarda – belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,06 baravaridan;

qattiq tartibli koloniyalarda – belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 87,9 foizidan;

maxsus tartibli koloniyalarda – belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 70,3 foizidan;

turmalarda – belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 52,7 foizidan;

tarbiya koloniyalarida, ixtisoslashtirilgan davolash muassasalarida, shuningdek mahkum birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar hamda jazoni ijro etish muassasalaridagi bolalar uylarida bolalari bo'lgan ayollar uchun – belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 120 foizidan.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida belgilangan miqdordan ortiqcha pulga mahkumlar tibbiy xulosa asosida qo'shimcha ravishda oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek kiyim va poyabzal sotib olish huquqiga ega.

Muassasa boshlig'i yangi kelgan mahkumga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 17,6 foizigacha, manzil-koloniyalarda esa 35,2 foizigacha bo'lgan summada avans berishga haqli.

78-modda. Mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalari olishi va yuborishi

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelgan kundan boshlab posilka, yo'qlov va banderol olishlari hamda jo'natishlari mumkin. Posilka, yo'qlov va banderollar ko'zdan kechiriladi.

Bitta posilka yoki banderolning og'irligi pochta qoidalarida belgilab qo'yilgan normadan, yo'qlovning og'irligi esa posilkaning belgilangan vaznidan oshib ketishi mumkin emas.

Olinadigan posilka, yo'qlov va banderollarning miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi.

Hukm qilingan homilador ayollarning va jazoni ijro etish muassasasidagi bolalar uyida bolalari bo'lgan ayollarning, shuningdek vrach xulosasiga ko'ra davolanish va kuchli taomga muhtoj deb e'tirof etilgan bemorlarning, birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning tibbiy xulosada belgilanadigan miqdorda va xillarda qo'shimcha posilkalar, yo'qlovlar va banderollar olishiga ruxsat etiladi.

Mahkumlar cheklanmagan miqdorda pul jo'natmalari olishlari va yuborishlari mumkin. Pul jo'natmalari mahkumning shaxsiy hisobvarag'iga kelib tushadi. Mahkumlar o'zlariga yaqin qarindosh bo'lmagan shaxslarga, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlarga faqat jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining ruxsati bilan pul jo'natmalari yuborishlari mumkin.

Mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalarini olishi hamda yuborishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

12-bob. Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish

84-modda. Mahkumlarning yashash joyi

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlash sharoitiga qarab umumiy turar joylarda, xonalarda yoki kameralarda yashaydi, ushbu turar joylar, xonalar yoki kameralar belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya-gigiyena hamda qurilish normalari va qoidalariga mos kelishi kerak.

Bir mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi quyidagi miqdordan kam bo'lishi mumkin emas:

umumiy turar joylarda – ikki kvadrat metr;

tergov hibsxonalari va turmalarning umumiy kameralarida – ikki yarim kvadrat metr;

ayollar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar voyaga yetmaganlar saqlanadigan koloniyalardagi umumiy turar joylarda – uch kvadrat metr;

bemor mahkumlar saqlanadigan palatalarda – to'rt kvadrat metr;

intizomiy bo'linmalarining kameralarida hamda soqchisiz yoki kuzatuvchisiz yurish huquqidan foydalanayotgan mahkumlar yashashi uchun, shuningdek jazoni manzil-koloniyalarda o'tayotgan shaxslar uchun mo'ljallangan xona tipidagi turar joylarda – to'rt yarim kvadrat metr.

Mahkumlarga yotish uchun alohida joy, ko'rpа-to'shak, choyshab va kerakli inventar beriladi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan umumiy turar joylar maxsus vositalar va moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

85-modda. Mahkumlarning ovqati

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga organizmning energiyaga va ozuqaviy moddalarga bo'lgan fiziologik ehtiyojini ta'minlaydigan ovqat qonunchilikda belgilangan tartibda respublika budjeti hisobidan beriladi, bundan manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotganlar mustasno.

Ovqat normasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahkumlarning sog'lig'i holatiga, ularning yoshi, bajarayotgan ishining xususiyati va og'irligiga qarab belgilanadi. Mahkumlarga ularni ishga jalb etgan korxona, muassasa va tashkilotlar mablag'lari hisobidan qo'shimcha ovqat berilishi mumkin.

Mahkum homilador ayollar, emizikli onalar, voyaga yetmaganlarga, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan ovqat oshirilgan normalarda belgilanadi. Tibbiy xulosa asosida ularga qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari olishga ruxsat etilishi mumkin.

Manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan homilador ayollarga va emizikli onalarga ishdan ozod etilgan davrida respublika budjeti hisobidan ovqat beriladi.

Manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan, kasalligi tufayli yoki intizomiy bo'linmaga kiritilib ishdan ozod qilingan mahkumlarga manzil-koloniyalarning korxonalari, muassasalari va tashkilotlari hisobidan ovqat berilib, ovqatning qiymati keyinchalik mahkumlarning oylik ish haqidan ushlab qolinadi.

13-bob. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar mehnati

88-modda. Mahkumlarni mehnatga jalb etish

Mahkumlarni mehnatga jalb etishdan asosiy maqsad ularda ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iborat.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jinsi, yoshi, sog'lig'ining holati, mehnat qobiliyati va iloji boricha, ixtisosligi hisobga olingan holda ishlashi kerak. Mahkumlarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik bilan, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda, tartibga solinadi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar, odatda, jazoni ijro etish muassasalari va ular tashkilotlarining korxonalarida, ayrim hollarda esa, kerakli tarzda qo'riqlash va batamom ajratib qo'yish ta'minlangan taqdirda, boshqa korxonalarda mehnatga jalb etiladi. Mahkumlarning xususiy shaxslar foydasiga mehnat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Oltmish yoshdan oshgan erkaklar, ellik besh yoshdan oshgan ayollar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatga o'z xohishlariga ko'ra jalb etiladilar.

Mahkuma ayollar homiladorlik va tug'ish munosabati bilan qonunchilikda belgilangan muddatga ishdan ozod qilinadilar.

Mehnat to'g'risidagi qonunchilikda bajarish taqiqlangan ishlarda ayol va voyaga yetmagan mahkumlar mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mahkumlardan foydalanish taqiqlangan ishlar va lavozimlar ro'yxati qonunchilik bilan belgilab qo'yiladi.

Mahkumlar topshirilgan ishni halol, vijdonan bajarishga, mehnat va texnologiya intizomiga, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha talablarga rioya etishlari shart. Ularning mehnatga oid va boshqa nizolarni hal etish maqsadida ishni to'xtatib qo'yishi taqiqlanadi.

90-modda. Mahkumlarning ish vaqti

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar uchun mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan ish vaqtining eng ko'p normasiga rioya etgan holda, odatda, olti kunlik ish haftasi belgilanadi.

Mahkumlar ish vaqti rejimini jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ishlab chiqarish xususiyatiga qarab belgilaydi.

Mahkumlarni ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishga jalb etishga ishlab chiqarish zarurati bo'lgan taqdirda mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan ish vaqtidan tashqari ishlarning eng ko'p muddatiga rioya etgan holda yo'l qo'yiladi.

Ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy etilganda, mahkumlar ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida yoki tungi ishlarga jalb etilgan taqdirda mehnat to'g'risidagi qonunchilikda voyaga yetmagan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan belgilangan cheklashlarga rioya etish shart.

Mahkuma homilador ayollar, shuningdek jazoni ijro etish muassasalari qoshidagi bolalar uylarida bolasi bor ayollar ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishga yoki ish vaqti jamlab hisobga olinadigan rejimda ishlashga o'zlarining roziligi bilan jalb etilishi mumkin. Mazkur shaxslar tungi ishlarga, ularning roziligini olgan holda va tegishli tibbiy xulosa bo'lgan taqdirda, jalb qilinishi mumkin.

Mahkumlarning ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlaridagi ishlari uchun ikki hissa haq to'lanadi.

92-modda. Mahkumlar mehnatiga haq to'lash

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar mehnatiga mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq haq to'lanadi.

Mehnat normalarini va mehnat vazifalarini bajargan mahkumlar mehnatiga to'lanadigan oylik haq qonunchilikda Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo'yicha belgilangan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas.

Barcha chegirmalardan qat'i nazar, mahkumlar shaxsiy hisobvarag'iga ularga yozilgan ish haqining kamida yigirma besh foizi, oltmish yoshdan oshgan erkaklarning, ellik besh yoshdan oshgan ayollarning, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning, homilador ayollarning hamda jazoni ijro etish muassasalari qoshidagi bolalar uyida bolasi bor ayollarning, shuningdek manzil-koloniya va tarbiya koloniyalaridagi mahkumlarning hisobvarag'iga esa, kamida ellik foizi o'tkazib qo'yiladi.

II KICHIK BO'LIM. KOLONIYALAR VA TURMALARDA JAZONI O'TASH

16-bob. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari

109-modda. Mahkumlarni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoni qo'llash xususiyatlari

Jazoni ijro etish muassasalarining intizomiy bo'linmalariga quyidagilar kiradi: manzil-koloniya va tarbiya koloniyalarining hibsxonalari; umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning hibsxonalari va karserlari; tergov hibsxonalarining va turmalarning karserlari.

Mahkumlar hibsxonalar va karserlarga o'n besh sutkagacha, tarbiya koloniyalarining hibsxonalariga esa, o'n sutkagacha bo'lgan muddatga kiritib qo'yiladi.

Jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzuvchi mahkumlar umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning karserlariga olti oygacha, ayollar saqlanadigan koloniyalarda esa – uch oygacha bo'lgan muddatga o'tkazib qo'yiladi.

Hibsonalarga kiritib qo'yilgan mahkumlarga uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, posilka, yo'qlov va banderollar olish hamda jo'natish, xatlar va boshqa jo'natmalar yuborish taqiqlanadi. Ularga chekish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi. Mahkumlar har kuni muddati bir yarim soatlik sayrdan foydalanish huquqiga ega.

Karserlarda mahkumlarga uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, posilka, yo'qlov va banderollar olish hamda jo'natish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan foydalanish taqiqlanadi.

Umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning karserlariga o'tkazilgan mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizigacha pul sarflash;

har kuni muddati ikki soatlik sayrdan foydalanish.

Maxsus tartibli koloniyalarning, tergov hibsonalari va turmalarning karserlarida mahkumlarni yakka saqlash belgilanadi.

Mahkumlarni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish va o'tkazish muassasa boshlig'ining jazo muddati ko'rsatilgan qarori asosida hamda tibbiy ruxsatnoma bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Mahkumlar intizomiy bo'linmalardan davolash-profilaktika muassasalariga o'tkazilgan taqdirda ular davolash-profilaktika muassasalarida bo'lgan vaqt jazoni o'tash muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Intizomiy bo'linmalarga:

I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan, shuningdek yonida emizikli bolasi bor ayollar kiritilmaydi.

Intizomiy bo'linmalarda saqlanayotgan mahkumlar mehnatga jalb etilmaydi.

21-bob. Turmalarda jazoni o'tash

122-modda. Turmalarda jazoni o'tash tartibi

Turmalarda jazoni:

mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;

sud tomonidan jazoni ijro etish koloniyalaridan o'tkazilgan jazo o'tash tartibini ashaddiy buzuvchilar o'taydilar.

Turmalarda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish ushbu Kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Turmalarda mahkumlarni yengillashtirilgan saqlash sharoitiga muddatidan oldin o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi, mahkumni sog'lig'iga ko'ra tegishli tibbiy xulosa asosida o'tkazish hollari bundan mustasno.

Homilador ayollar va yonida emizikli bolasi bor ayollar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar turmalarda jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o'taydilar.

23-bob. Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tash xususiyatlari

130-modda. Mahkuma homilador ayollar va bolasi bor ayollar uchun qo'shimcha huquqlar

Mahkuma homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar ushbu Kodeksda mahkumlar uchun nazarda tutilgan huquqlardan tashqari:

muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash;

bolalarini jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish;
bolalarini joylashtirib kelish va ular bilan uchrashish uchun muassasa doirasidan chetga chiqish huquqiga ham ega.

Mahkuma ayollarga voyaga yetmagan bolalari bilan bir yil ichida to'rt marta, muddati besh sutkagacha bo'lgan uzoq muddatli uchrashuv, manzil-koloniya saqlanayotganlarga esa, ishdan bo'sh vaqtda muassasa hududidan tashqarida yashash imkoniyati bilan uzoq muddatli uchrashuvlar cheklanmagan miqdorda beriladi.

Mahkuma ayollarning voyaga yetmagan bolalari bilan uchrashishiga o'zining shaxsini, qarindoshligini yoki vasiyligini (homiyligini) tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etgan taqdirda bitta yaqin qarindoshi yoki vasiy (homiyligini) kuzatuvida yo'l qo'yiladi.

Mahkuma ayollarning voyaga yetmagan bolalari bilan uchrashuvlari ushbu Kodeksda belgilangan uchrashuvlarga qo'shib hisoblanmaydi.

Mahkuma ayollarning muassasadan tashqaridagi bolalar uylaridagi voyaga yetmagan bolalar bilan uchrashuvlari mahkuma ayollarning iltimosiga ko'ra amalga oshiriladi.

131-modda. Mahkuma ayollarning muassasa doirasidan tashqarida yashashi

Tuzalish yo'liga o'tgan mahkuma ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan vaqt mobaynida, shuningdek bolasi uch yoshga to'lgunga qadar muassasa boshlig'ining prokuror tasdiqlagan qarori bilan koloniya hududidan tashqarida yashashga ruxsat etilishi mumkin.

Muassasa hududidan tashqarida yashash huquqi Jinoyat kodeksi 73-moddasining to'rtinchi qismida ko'rsatilgan mahkumlarga berilmaydi.

Koloniya hududi doirasidan tashqarida yashaydigan mahkumalar:

xona tipidagi turar joylarda joylashadilar va muassasa ma'muriyatining nazorati ostida bo'ladilar;

ertalab o'rindan turishdan kechki yotishgacha bo'lgan vaqt mobaynida belgilangan yo'nalishlar doirasida erkin yurish huquqidan foydalanadilar;

fuqarolar kiyadigan kiyimda yurishlari, yonlarida pul va qimmatli buyumlar saqlashlari, puldan cheklanmagan holda foydalanishlari mumkin;

cheklanmagan miqdorda banderol, posilka va yo'qlovlar olish hamda jo'natish, qisqa muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega. Qisqa muddatli uchrashuvlar, odatda, ishdan bo'sh vaqtda beriladi.

Muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

jazoni o'tash tartibi muntazam ravishda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda;

homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod qilish davri tugaganda;

bola uch yoshga to'lganda.

132-modda. Bolalarni jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish

Mahkuma ayollarni saqlashga mo'ljallangan koloniyalar qoshida bolalar uyi tashkil etiladi, unda bolalar normal yashashi va kamol topishi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi.

Mahkuma ayollar uch yoshga to'lmagan bolalarini jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirishga va ishdan bo'sh vaqtida ular bilan cheklanmagan miqdorda muloqotda bo'lishga haqli.

Bolalar uyidagi bola uch yoshga to'lganidan keyin onasining roziligi bilan uning qarindoshlariga yoki, homiyligini va vasiyligini organining qaroriga binoan, boshqa shaxslarga berilishi yoxud tegishli bolalar muassasalariga yuborilishi mumkin.

Agar mahkumaning jazoni o'tash muddati tugashiga ko'pi bilan bir yil qolgan va u onalik burchlarini lozim darajada bajarib kelgan bo'lsa, muassasa ma'muriyati bolaning bolalar uyida bo'lish vaqtini uzaytirishi mumkin.

133-modda. Mahkuma ayollarning muassasa doirasidan chetga qisqa muddatli chiqishi

Maktabgacha yoshdagi bolalari bor mahkuma ayollarga bolalarini qarindoshlarinikiga, vasiylarinikiga yoki bolalar muassasalariga joylashtirib kelish uchun borish-kelish vaqtini (to'rt sutkagacha) hisobga olmagan holda o'n besh sutkagacha muddatga chetga chiqishga ruxsat etilishi mumkin.

Voyaga yetmagan nogironligi bo'lgan bolalari bor ayollarga bir yilda bir marta ular bilan uchrashish uchun yo'lga ketadigan vaqtni hisobga olmaganda yetti sutkagacha bo'lgan muddatga chetga chiqishga ruxsat etiladi.

VIII BO'LIM. JAZONI O'TASHDAN OZOD QILISH

28-bob. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish

165-modda. Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik oqibatida jazodan ozod qilishga taqdim etish tartibi

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati Jinoyat kodeksining 75-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumni jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi. Ayni bir vaqtda sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildi yuboriladi.

Mahkumni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazodan kasalligi tufayli ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus tibbiy komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi. Bunday kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Mahkumni axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazodan mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi.

Jazoni o'tash davrida homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan ayollarni jazodan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma bunday ta'til huquqini beruvchi tibbiy hujjat asosida kiritiladi.

Harbiy xizmatchilarni intizomiy qismga jo'natish yoki xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tegishli harbiy-tibbiy komissiya tomonidan ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb topish haqidagi xulosasi asosida kiritiladi. Ayol harbiy xizmatchilar xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham ozod qilinadilar.

30-bob. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilish tartibi

173-modda. Mahkumlarning ozod qilinishi to'g'risida xabar berish va ozod bo'lgan shaxslarni kuzatib borish

Jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkumlarning ozod etilganligi to'g'risida:

birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, homilador ayollar va yosh bolasi (bolalari) bor ayollarga, shuningdek voyaga yetmaganlarga nisbatan – ularning qarindoshlari yoki qarindoshlarining o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarni;

ishga kirish va turmushini yo'lga qo'yishga muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan – viloyatlar (tumanlar, shaharlar) hokimliklari huzuridagi ijtimoiy moslashuv markazlarini;

sil yoki tanosil kasalliklariga duchor bo'lgan, shuningdek alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolash kursini tugallamagan shaxslarga nisbatan – viloyat, shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari (bo'limlari) yoki sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalarini;

ma'muriy nazorat ostiga olinishi lozim bo'lgan shaxslarga nisbatan – ichki ishlar hududiy organlarini oldindan xabardor etadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan mahkumlar kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida, amnistiya akti yoki afv asosida ozod etilgan hollarda, shuningdek mahkumlar jazodan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etilgan taqdirda, bildirish qog'ozi ular ozod etilgan kuni jo'natiladi.

Hukm qilingan chet el fuqarolarining ozod etilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi hududidagi ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatlarning diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari qonunchilikda belgilangan tartibda xabardor qilinadi. O'zbekiston Respublikasi hududida biror bir davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday davlatning vakolatli organini qonunchilikda belgilangan tartibda xabardor qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ozod etilganlik to'g'risidagi bildirish qog'ozi jo'natiladi.

O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi bo'yicha yashagan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs ozod qilinayotganda jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkum qamoqqa olinguniga qadar ro'yxatga olingan joydagi ichki ishlar hududiy organining mamlakatga kirish, undan chiqish va ro'yxatga olish bilan shug'ullanuvchi tegishli xizmatini xabardor qiladi.

Sog'lig'i holatiga ko'ra doimiy parvarishga muhtoj shaxslar, shuningdek o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar qarindoshlari yoki boshqa shaxslar yoxud muassasa ma'muriyati vakilining kuzatuvida yashash joyiga jo'natiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar o'z iltimosiga ko'ra, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun internat uylariga (pansionatlarga) yuboriladi.

Voyaga yetmagan mahkumlar ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga jo'natiladi. Ota-onasi yo'q voyaga yetmagan shaxslar, zarur hollarda, internatlarga jo'natiladi yoki homiylar qaramog'iga beriladi.

IX BO'LIM. BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI IJRO ETISH

33-bob. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijro etish

186-modda. Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlarni saqlash sharoitlari

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlar kasallik turi, xulq-atvorining xususiyati, ruhiy va jismoniy holatini inobatga olib, ularni batamom ajratib qo'yishni ta'minlovchi hamda ular tomonidan yangi ijtimoiy-xavfli qilmish sodir etish, qochish, saqlash rejimini buzish ehtimolining oldini olishni ta'minlaydigan sharoiti bor palatalarga joylashtiriladi.

Erkaklar va ayollar, kattalar va voyaga yetmagan shaxslar alohida-alohida saqlanadi.

Bir bemorga to'g'ri keladigan foydali maydon normasi besh kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas.

Bemorlarga ovqat va kasalxona kiyimi bepul beriladi.

Bemorlarni ovqat va ust-bosh bilan ta'minlash normalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Posilka, yo'qlov, banderol va pul jo'natmalari olish hamda yuborish, uchrashuvlar o'tkazish, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olish, saqlash, shuningdek bemorlarga har kuni beriladigan sayr tartibi ichki tartib qoidalari bilan belgilanadi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlarga uzoq muddatli uchrashuv berilmaydi.

Bemor nomiga kelib tushgan pullar uning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni bemorlar pul o'tkazish yo'li bilan sotib oladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi
607-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1-bob. Asosiy qoidalar

2-modda. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

4-modda. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi

O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

O'zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir.

Ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog'lig'ini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko'rish, mehnatni onalik bilan bog'lab qo'shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ta'minlanadi.

II BO'LIM. NIKOH

3-bob. Nikoh tuzish tartibi va shartlari

15-modda. Nikoh yoshi

Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi.

Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK PROTSESSUAL KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvardagi
O'RQ-460-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

14-bob. Protsessual majburlov choralari

144-modda. Majburiy keltirish

Agar ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma'lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to'g'risida ajrim chiqarilishi mumkin. Mazkur ajrimning ijrosi hududiy ichki ishlar organining zimmasiga yuklatiladi. Majburiy keltirish bilan bog'liq xarajatlarni undirish ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hududiy ichki ishlar organining tegishli arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Majburiy keltirish voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, kasalligi, yoshi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra sud majlisiga kela olmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimida ushbu Kodeksning 272-moddasida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari shaxs majburiy keltirilishi lozim bo'lgan sana, vaqt va joy, shuningdek majburiy keltirish qaysi hududiy ichki ishlar organiga topshirilganligi ko'rsatiladi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi darhol ijro etilishi lozim va ish yuritiladigan joydagi yoki majburiy keltirilishi kerak bo'lgan shaxsning yashash joyi, turgan joyi (joylashgan yeri), ish, xizmat yoxud o'qish joyidagi hududiy ichki ishlar organiga ijro uchun yuboriladi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to'xtatmaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ KODEKSI

(yangi tahriri)

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda
O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

MAXSUS QISM

XIII BO'LIM. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I

53-bob. Jami daromad

374-modda. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonunchilikka muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'til uchun to'lov, shuningdek ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lovi;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

v) o'qish bilan bog'liq ta'til va ijodiy ta'tillar uchun to'lov;

g) o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolinganda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to'lov;

4) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolinganda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolinganda vaqt uchun to'lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha to'lov;

10) qonunchilikka muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to'lanadigan ishini bajarganlik uchun to'lov;

11) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lov;

12) asosiy ishdan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarining ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to'lov;

13) ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLOV KODEKSI

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-iyundagi
O'RQ-544-son Qonuni bilan tasdiqlangan*

(Ko'chirma)

13-bob. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovining o'ziga xos xususiyatlari

70-modd. Siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish

Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va saylovga qirq besh kun qolganida tugaydi.

Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka bir yuz ellik nafar nomzod, ya'ni har bir saylov okrugidan bittadan deputatlikka nomzod ko'rsatishga vakolatlidir. Bir shaxs faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi.

Ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerak.

Siyosiy partiyalar o'z partiyasi a'zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko'rsatishga vakolatlidir. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish to'g'risida bayonnoma tuziladi.

15-bob. Mahalliy Kengashlarga saylovning o'ziga xos xususiyatlari

91-modd. Mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko'rsatish tartibi

Mahalliy Kengashlarning deputatligiga nomzodlar ko'rsatish saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va saylovga qirq besh kun qolganida tugallanadi.

Mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning tegishli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalar tegishli hududda joylashgan har bir saylov okrugidan mahalliy Kengashlar deputatligiga bittadan nomzod ko'rsatishga vakolatlidir.

Bir shaxs tegishli mahalliy Kengashga saylov o'tkazish bo'yicha faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishi mumkin. Deputatlikka nomzodlar tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi.

Ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerak.

Siyosiy partiyalar faqat o'z partiyasi a'zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko'rsatadi. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatilganligi to'g'risida bayonnoma tuziladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI

AHOLI BANDLIGI TO'G'RIDA

*O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi
O'RQ-642-son Qonuni*

(Ko'chirma)

2-bob. Aholi bandligi sohasini tartibga solish

6-modda. Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, shu jumladan ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko'maklashish;

ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralari ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish;

yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;

aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish;

aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash.

3-bob. Subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari

20-modda. Grantlar

Grant ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari hisobidan ajratiladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir.

Grantlar kasbga o'qitish markazlariga (kasb-hunar ta'limi muassasalariga) quyidagilarni moliyalashtirish uchun ajratiladi:

ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni, ayniqsa, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolarni, kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan xotin-qizlarni kasbga tayyorlash xarajatlarini;

kasbga o'qitish markazlarida (kasb-hunar ta'limi muassasalarida) fermer xo'jaliklarining rahbarlari va xodimlarini, dehqon xo'jaliklarining rahbarlari va a'zolarini, tomorqa yer uchastkalari egalari agrotexnologiyalar, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik

va asalarichilik sohasida kasbga tayyorlashni, qayta tayyorlashni hamda ularning malakasini oshirishni.

Grantlar fuqarolarni O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun uyushgan holda ishga qabul qilish doirasida fuqarolarni tadbirkorlik ko'nikmalari, xorijiy tillar va kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun kasbga o'qitish markazlariga (kasb-hunar ta'limi muassasalariga), shuningdek ishlab chiqarishning o'zida o'qitish uchun tashkilot hamda "usta-shogird" maktablariga ham ajratiladi.

Grant ajratilishi uchun talabnoma mehnat bozorining ehtiyojlari hisobga olingan holda, mahalliy mehnat organlari tomonidan shakllantiriladi va hududiy mehnat organlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Talabnomaga kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirishdan o'tishni xohlovchi shaxslarning ro'yxati ilova qilinadi.

Grant asosida kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishni kasbga o'qitish markazlari (kasb-hunar ta'limi muassasalari) amalga oshirishi mumkin.

Kasbga tayyorlashni, qayta tayyorlashni va malaka oshirishni moliyalashtirish hududiy mehnat organlari hamda kasbga o'qitish markazlari (kasb-hunar ta'limi muassasalari) o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

10-bob. Shaxslarni ishsiz deb e'tirof etish

45-modda. Shaxslarni ishsiz deb e'tirof etishni rad qilish uchun asoslar

Quyidagilar ishsiz deb e'tirof etilmaydi:

taklif etilgan maqbul keladigan ishni ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida uzrli sababsiz ikki marta rad etgan shaxslar;

mahalliy mehnat organiga yoki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish bo'yicha sektorga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga birlashtirilgan mahalliy mehnat organi xodimi huzuriga maqbul keladigan ish yuzasidan taklif olish uchun ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida uzrli sababsiz kelmagan shaxslar;

ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida ishlab chiqarishdan ajralgan holda tahsil olayotgan shaxslar, bundan ta'limning sirtqi shaklida tahsil olayotganlar mustasno;

qonunchilikka muvofiq pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lgan shaxslar (pensiya turidan qat'i nazar);

bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilayotgan, ishlamayotgan ayollar;

ishini o'zgartirmoqchi bo'lgan, lekin mahalliy mehnat organlarida ro'yxatdan o'tish paytida, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tashkilotlarda ishlovchi yoki ularning shtatida hisobda turuvchi shaxslar;

sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish yoki axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazoga hukm qilinganlar;

fermer xo'jaliklarining rahbarlari va xodimlari, oilaviy korxonalarining ishtirokchilari, dehqon xo'jaliklarining rahbarlari va a'zolari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar.

Ishsiz shaxs deb e'tirof etish rad qilingan shaxs taklif etilgan ishni rad etgan paytdan yoki maqbul keladigan ish bo'yicha taklif olish uchun mahalliy mehnat organiga uzrli sababsiz kelmagan paytdan e'tiboran o'ttiz kalendar kun o'tganidan keyingina ish qidirayotgan shaxs sifatida takroran ro'yxatdan o'tish huquqiga ega.

49-modda. Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganda

moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha kafolatlar

Basharti xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi:

xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi;

texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyati o'zgarishiga olib kelgan ish hajmlari qisqarganligi yoxud tashkilot tugatilganligi;

xodim bajarayotgan ishiga malakasi yetarli emasligi oqibatida yoki sog'lig'ining holatiga ko'ra noloyiqligi;

shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga qayta tiklanishi munosabati bilan bekor qilinsa, xodimlarning ish qidirish davrida o'rtacha oylik ish haqi ishdan bo'shatish nafaqasi hisobga olingan holda, biroq ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatga saqlanib qoladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan kafolatlar mulkdor o'zgartirilganligi sababli tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda tashkilot rahbari, uning o'rinbosarlari, bosh buxgalterga nisbatan, tashkilotda bosh buxgalter lavozimi bo'lmaganda esa — bosh buxgalter vazifalarini bajaruvchi xodimga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Agar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan xodimlar mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin o'ttiz kalendar kun ichida mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tsa, ular mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma bo'yicha uchinchi oy uchun ham avvalgi ish joyidan o'rtacha oylik ish haqi olish huquqiga ega bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan xodimlarga uch oylik davr tugagach maqbul keladigan ish topib berilmagan taqdirda, ular ishsiz shaxslar deb e'tirof etiladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin o'ttiz kalendar kun ichida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda kasbi bo'yicha qayta o'qitilayotgan yoki malakasini oshirayotgan xodimlarga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining bir baravari miqdorida stipendiya to'lanadi.

Mahalliy mehnat organi tashkilotlarning boshqa tashkilotlarda ishdan bo'shatilgan, ishga qabul qilingan shaxslarning o'qishini tashkil etishga doir xarajatlarini to'liq yoki qisman kompensatsiya qilishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida yoki o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra kasb kasalligiga uchrash natijasida ishdan mahrum bo'lgan hamda ishga joylashishga va kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga yoki malakasini oshirishga muhtoj bo'lgan shaxslar bo'shatilgan xodimlarga tenglashtiriladi.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyati o'zgarishiga olib kelgan ish hajmlari qisqarganligi yoxud tashkilot tugatilganligi munosabati bilan bo'shatilgan, ishsiz deb e'tirof etilgan, qonunchilikka muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonunchilikda belgilangan umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil avval) pensiyaga chiqish huquqi beriladi.

15-bob. Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosati amalga oshirilishini moliyalashtirish

94-modda. O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan quyidagilar uchun foydalaniladi:

ishsizlik nafaqalarini, ishsiz shaxslar mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib ketishi munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash, ishsiz shaxslarga moddiy yordam ko'rsatish;

ish qidirayotgan shaxslar va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni moliyalashtirish, shu jumladan grantlar va stipendiyalar ajratish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida amalga oshiriladigan bir martalik to'lovlar uchun;

ish qidirayotgan shaxslarga va ishsiz shaxslarga muddatidan ilgari pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari o'rnini qoplash;

kasbga o'qitish markazlariga (keyinchalik xizmatlari uchun haq to'lagan holda) kasbga o'qitishga doir davlat buyurtmasini moliyalashtirish;

mehnat organlari va tasarrufidagi tashkilotlar, vaqtincha bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, kasbga o'qitish markazlari, malakani baholash markazlari uchun binolar va xonalarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash, saqlab turish, qayta ixtisoslashtirish, moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, shuningdek sotib olish;

kovorking-markazlarining, ishsiz shaxslarning bandligini qo'llab-quvvatlash "Mahalla guzari" mahalla markazlarining tashkil etilishi va saqlanishini moliyalashtirish;

nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslarning mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

bandlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash hamda unga haq to'lash masalalari bo'yicha normativ-uslubiy va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi materiallar ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

aholining ayrim guruhlari o'rtasida bandlik, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha respublika hamda hududiy darajalarda sotsiologik tekshiruvlar, so'rovnomalar o'tkazish;

band bo'lmagan aholiga ishga joylashish bo'yicha yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash;

mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo'lgan tumanlar va shaharlarda aholi bandligiga ko'maklashish hududiy dasturlari ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

ishga joylashtirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish, bo'sh (vakant) ish o'rinlarini hamda band bo'lmagan aholini hisobga olish sohasida axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish hamda texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

mehnat organlarining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi markaziy devonining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;

aholi bandligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishga yuborilgan fuqarolarni ishga joylashtirish va ularning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash masalalariga doir xalqaro loyihalar hamda shartnomalarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish;

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash uchun tijorat banklarida ochiladigan kredit liniyalari bo'yicha mehnat migrantlariga mikroqarzar berish;

fuqarolar O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirgan davrda ularning hayoti va sog'lig'ini hamda boshqa tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha sug'urta puli summasining o'rnini qoplash uchun sug'urta kompaniyalariga bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha kasbiy standartlar va malaka talablari ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

keyinchalik yangi ish o'rinlari tashkil etilishini nazarda tutuvchi loyihalarni amalga oshirishga banklar tomonidan kreditlar ajratilishi uchun tijorat banklarida ochiladigan kredit liniyalari bo'yicha resurslarni joylashtirish;

tadbirkorlik faoliyatini boshlashni xohlayotgan ish qidirayotgan shaxslarga va ishsiz shaxslarga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishga, kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir xarajatlarni to'lash uchun bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslarni ishga belgilangan zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlarining eng kam sonidan ortiq miqdorda qabul qilgan tashkilotlarga bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

mahalliy mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha ishga qabul qilingan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan xodimlarni kasbga o'qitish va ularning malakasini oshirishga doir xarajatlarni moliyalashtirish uchun ish beruvchilarga bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar va sug'orish vositalari sotib olish uchun jismoniy shaxslarga subsidiyalar berish;

ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun grantlar ajratish;

ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni, ayniqsa kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan xotin-qizlarni kasbga qayta o'qitishga doir xarajatlarni moliyalashtirish uchun kasb-hunar ta'limi muassasalariga grantlar ajratish;

kasbga o'qitish markazlarida, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida fermer xo'jaliklari rahbarlari hamda xodimlarini, dehqon xo'jaliklari rahbarlari va a'zolarini, tomorqa yer uchastkalari egalari agrotexnologiyalar, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik sohasida kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish uchun grantlar ajratish;

mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo'lgan hududlarda ish o'rinlari tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlarining ustav fondini shakllantirish (ko'pi bilan ellik foiz);

ish o'rinlarini tashkil etish uchun davlat buyurtmasini olgan tashkilotlarga va ish o'rinlari tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining ellik foizidan ko'p bo'lmagan stavka bo'yicha ssudalar berish;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

FUQAROLARNING DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI

TO'G'RIDA

*O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 03-sentyabrdagi
938-XII-son Qonuni*

(Ko'chirma)

II bob. Yoshga doir pensiyalar

7-modda. Yoshga doir pensiya olish huquqi

Yoshga doir pensiya olish huquqiga:

erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

10-modda. Yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiya olish huquqi

Yoshidan qat'i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo'lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo'lsalar (1-sonli ro'yxat, I qism);

b) bevosita erosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko'mir, ma'danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo'lsalar (1-sonli ro'yxat, II qism);

v) uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (1-sonli ro'yxat, III qism).

Yuqorida qayd etib o'tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko'ra uchish ishlaridan bo'shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini – erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo'lsalar;

g) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari:

ijodiy ish staji kamida 20 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, IV qism);

ijodiy ish staji kamida 25 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, V qism);

ijodiy ish staji kamida 30 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, VI qism);

d) sportchilarning ayrim toifalari – ish staji kamida 20 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, VII qism).

**11-modda. Umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda
imtiyozli pensiya olish huquqi**

Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar ushbu Qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) erosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar (2-sonli ro'yxat, I qism):

erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar – ish staji kamida 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Yer osti ishlaridagi mehnat staji erkaklarda 10 yildan kam va ayollarda 7 yilu 6 oydan kam bo'lgan hollarda xodimlarga bu ishlardagi har bir to'liq yil uchun ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi 1 yilga qisqartiriladi.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda – erkaklar kamida 5 yil, ayollar kamida 3 yil 9 oy – ishlagan xodimlarga pensiya ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi shunday ishda band bo'lingan har bir to'liq yil uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

b) sirklar va konsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda (2-sonli ro'yxat, II qism).

12-modda. Umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi

Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar ushbu Qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;

b) mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar (3-sonli ro'yxat, I qism):

erkaklar – ish staji kamida 25 yil bo'lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar – ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda – erkaklar kamida 6 yilu 3 oy, ayollar kamida 5 yil – ishlagan xodimlarga pensiya ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi erkaklarning bunday ishdagi har 2 yilu 6 oyi uchun va ayollarning bunday ishdagi har 2 yili uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

z) bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo'lsa – ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda. Basharti, ayol o'gay o'g'il va o'gay qizni ular 8 yoshga to'lguniga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo'lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadi;

k) nogironligi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, "Mehribonlik" uylari, harbiy akademik litseylar, tarbiya koloniyalari o'qituvchilari – maxsus ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda (3-sonli ro'yxat, VII qism);

l) ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari – maxsus ish staji shaharchalar, qishloqlar hamda ovullarda kamida 25 yil va shaharlarda kamida 30 yil bo'lgan taqdirda (3-sonli ro'yxat, VIII qism);

m) qariyalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lgan ijtimoiy xodimlar (3-sonli ro'yxat, IX qism):

erkaklar – maxsus ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar – maxsus ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda.

12¹-modda. Umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqi

Ushbu Qonun 37-moddasining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

13-modda. Liliputlar va pakanalarga pensiyalar

Ushbu Qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar:

erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo'lganda;
ayollar – ish staji kamida 15 yil bo'lganda ega bo'ladilar.

14-modda. Yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar:

erkaklar – 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar – 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

IV bob. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari

19-modda. Pensiya olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolari

Vafot etgan boquvchining qaramog'ida (20-modda) bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va ushbu moddaning "v" bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar:

a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 18 yoshdan katta bo'lsa, agar ular 18 yoshga to'lguniga qadar nogironligi bor bola bo'lib qolgan bo'lsa. Bunda basharti, agar aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa;

b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogironligi bo'lgan shaxs bo'lsalar;

v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralari, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

g) buva va buvi – agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

Ta'lim tashkilotlarining o'quvchilari va talabalari o'qishning butun davri davomida, biroq 23 yoshga to'lguniga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar.

O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. O'gay ota va o'gay onaning vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) tarbiyalaganligi yoki boqqanligini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ushbu Qonunning vafot etganlar oilalariga taalluqli hamma qoidalari bedarak yo'qolganlarning oilalariga ham, agar boquvchining bedarak yo'qolganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lsa, tegishli ravishda joriy qilinadi.

23-modda. Yangi nikohdan o'tilganida pensiyani saqlab qolish

Er (xotin)ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya pensioner yangi nikohdan o'tganida ham saqlanib qoladi.

VI bob. Ish stajini hisoblab chiqarish

38-modda. Ish stajiga imtiyozli tarzda qo'shib hisoblanadigan faoliyat davrlari

Stajga quyidagilar imtiyozli tarzda qo'shib hisoblanadi:

a) harakatdagi armiya tarkibiga kiruvchi harbiy qismlar, shtablar va muassasalardagi, jangovar harakatlar davrida partizan otryadlari va qo'shilmalaridagi xizmat va erkin yollanganlar tarkibidagi ish, baynalmilal burchni bajarishda jangovar harakatlarda ishtirok etish – uch hissa barobarida;

b) 1941–1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlash, shu jumladan harbiy qismlardagi erkin yollanganlar tarkibidagi ish va ushbu moddaning “a” bandida nazarda tutilgan xizmatdan tashqari harbiy xizmat — ikki hissa barobarida;

v) ushbu Qonun 10-moddasining “a” va “b” bandlariga hamda 11-moddasining “a” bandiga muvofiq imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan – erkaklarda 10 yildan ortiq va ayollarda 7 yilu 6 oydan ortiq ishlangan har bir to'liq yil ikki hissa barobarida;

g) moxovxonalarda, vaboga qarshi muassasalarda, immunodefitsit virusi bilan kasallangan shaxslar davolanadigan yuqumli kasalliklar muassasalarida ishlash — ikki hissa barobarida;

d) patologoanatomiya muassasalari va sud-tibbiy ekspertiza muassasalarining tibbiy xodimlaridan ayrim toifalarining ishi – bir yarim hissa barobarida;

e) asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan, asossiz ravishda qatag'on qilingan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo'lish va hibsda saqlash joylarida turgan vaqti – bir yarim hissa barobarida.

VII bob. Pensiyalar tayinlash

47-modda. Pensiyalar tayinlash muddatlari

Pensiyalar:

a) yoshga doir pensiya – agar pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab oltmish kun ichida uni so'rab murojaat etilgan bo'lsa, pensiya yoshiga to'lgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi;

b) nogironlik pensiyasi – agar nogironlik belgilangan kundan e'tiboran oltmish kundan kechiktirmay pensiya so'rab murojaat etilgan bo'lsa, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari nogironlikni belgilagan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. Nogironligi bo'lgan 60 yoshdan oshgan erkaklarga va 55 yoshdan oshgan ayollarga – nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ushbu nogironligi bo'lgan shaxslarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi;

v) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi – pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, lekin pensiya tayinlanishi uchun murojaat etishdan oldingi 6 oydan oshmagan muddatdan e'tiboran tayinlanadi. Pensiya ushbu Qonunning 19-moddasiga muvofiq marhumning oila a'zosi mehnatga qobiliyatsiz deb hisoblangan butun davr uchun, oilaning: erkaklar – 60 yoshga, ayollar – 55 yoshga to'lgan a'zolari uchun esa – umrbod tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishi munosabati bilan cheklovchi choralar (karantin) joriy etilganda, agar fuqarolar cheklovchi choralar (karantin) davrida yoki ular tugatilgandan keyin pensiya tayinlashni so'rab bir oy ichida murojaat qilgan bo'lsa, ularga pensiya uni olish huquqi yuzaga kelgan kundan e'tiboran tayinlanadi.

Boshqa barcha hollarda pensiya murojaat etilgan kundan e'tiboran tayinlanadi.

Bir pensiyadan boshqasiga o'tkazish pensioner tegishli ariza va barcha zarur hujjatlar bilan murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kundan e'tiboran amalga oshiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

XOTIN-QIZLARGA QO'SHIMCHA IMTIYOZLAR TO'G'RIDA

*O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi,
O'RQ-760-I-son Qonuni*

Bolalarni tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish hamda xotin-qizlarning mehnatdan manfaatdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

1. Uch yoshga to'lmagan bolalari bor, budget hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilansin.

2. Ushbu Qonun 3-moddasining 1-bandida nazarda tutilgan ish staji mavjud bo'lgan taqdirda ellik to'rt yoshga to'lgan ayollarga pensiyaga chiqish huquqi berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasining quyidagi qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 9, 338-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 269-modda; 1997-yil, № 4-5, 126-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda) quyidagi mazmundagi 12¹-modda bilan to'ldirilsin:

"12¹-modda. Umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqi

Ushbu Qonun 37-moddasining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar";

4. Ushbu Qonun 1999-yil 1-iyuldan e'tiboran kuchga kiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDA

*O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentyabrdagi,
O'RQ-410-son Qonuni*

(Ko'chirma)

**27-modda. Xodimlarning ayrim toifalari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi
munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Mehnat sharoiti og'ir, zararli va xavfli ishlarda band bo'lgan xodimlar, shuningdek xodimlarning ayrim toifalari (ayollar, o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslar, mehnat qobiliyati cheklangan shaxslar) uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH TO'G'RISIDA

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi,
O'RQ-561-son Qonuni*

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

jinsiy zo'ravonlik – xotin-qizlarga nisbatan ularning rozilgisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

jismoniy zo'ravonlik – xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli;

zo'ravonlik – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik);

iqtisodiy zo'ravonlik – xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

ish joyi – o'zi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq mehnat majburiyatlarini amalga oshirish yoki xizmat vazifalarini bajarish uchun bo'lishi yoki borishi lozim bo'lgan, ish beruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan joy;

ruhiy zo'ravonlik – xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga

qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'rvonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik);

tazyiq – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik;

tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi – o'ziga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo'lgan yoki tazyiq va zo'rvonlik natijasida jabrlangan ayol jinsidagi shaxs;

tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish – xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i uchun paydo bo'lgan xavfni bartaraf etish, tezkor chora-tadbirlarni talab qiladigan hayotiy vaziyatlar yuz berganda xotin-qizlarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek jabrlanuvchiga nisbatan tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning takroran g'ayriqonuniy xatti-harakatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadidagi iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik va boshqa tushadigan kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar tizimi;

tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish – xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etishga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda xotin-qizlarning zo'rvonlikdan xoli bo'lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

himoya orderi – tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo'rvonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda belgilangan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan hujjat.

4-modda. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchining huquqlari

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish;

maxsus markazlarda, shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish;

ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqda xabardor qilish;

sodir etilgan tazyiq va zo'rvonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish.

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

5-modda. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish;

xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilinishini ta'minlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini ta'minlash.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini va strategiyalarni tasdiqlaydi;

tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning xavfsizligini, jismoniy va ruhiy reabilitatsiyasini hamda moslashuvini ta'minlash bo'yicha tuzilmalarni tashkil etadi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlarning hamkorligini muvofiqlashtiradi.

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda amalga oshiradi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi;

xotin-qizlarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

8-modda. Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

Ichki ishlar organlari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'radi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'rvonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam asosda profilaktika ishlarini olib boradi;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilganligi yoki sodir etilishi tahdidi mavjudligi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqadi;

tazyiq yoki zo'rvonlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga rasmiy ogohlantirish beradi;

himoya orderini beradi;

zo'rvonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'radi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

9-modda. Mehnat organlarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

Mehnat organlari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

ishga joylashtirilmagan xotin-qizlarni hisobga olish, ularning bandligini ta'minlash va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'ravonlik hollarining oldini olish hamda xotin-qizlar bilan o'zaro munosabatlar madaniyatini yuksaltirish bo'yicha mulk shakllaridan qat'i nazar tashkilotlarda profilaktika tadbirlarini o'tkazadi;

ish qidirayotgan va og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolarga va zo'rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash va kasbga yo'naltirishga ko'maklashish choralari ko'radi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

10-modda. Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlarining hamda ta'lim muassasalarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlar hamda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

xotin-qizlarni majburiy mehnatga va g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga jalb qilish hollari aniqlanganligiga doir faktlar to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qiladi;

ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar orasidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlaydi hamda ularning xulq-atvorini tuzatish, shuningdek tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish hamda moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ta'lim muassasalarida bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishni ta'minlash maqsadida tadbirlar tashkil etadi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

11-modda. Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlarining hamda sog'liqni saqlash muassasalarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga hamda ularning bolalariga, shu jumladan ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga keltirilgan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga hamda ularning bolalariga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni bepul davolash chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga tibbiy va ruhiy yordam ko'rsatish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi hamda ularni sog'liqni saqlash muassasalarining ish amaliyotiga joriy etadi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xotin-qizlarning hayotiga yoki sog'lig'iga xavf soluvchi faktlar va aniqlangan sabablar to'g'risida xabardor qiladi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

12-modda. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlariga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash bo'yicha tadbirlarda ishtirok etadi va bunday holatlarni bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko'radi;

zo'ravonlikdan jabrlanganlarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga hamda o'z joniga qasd etishning oldini olishga doir tadbirlar o'tkazadi;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazganligi va zo'ravonlik sodir etganligi uchun profilaktik hisobda turadigan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktika tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etadi;

nizoli vaziyatlarni profilaktika qilishga, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir dasturlar hamda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

13-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda ishtirok etishi

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashishi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni hamda mazkur sohada huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'radi.

14-modda. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlarning hamkorligi

Vakolatli organlar va tashkilotlar xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qiladi:

aniqlangan tazyiq va zo'ravonlik faktlari to'g'risida o'zaro bir-birini xabardor qilish;

tazyiq va zo'rvonlik holatlariga munosabat bildirish choralarini kelishish hamda tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

tazyiq va zo'rvonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish va tajriba almashish sohasidagi chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish;

tazyiq va zo'rvonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish sohasidagi tadbirlarni amalga oshiradigan mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, qonunchilikni va ularning qo'llanilish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**15-modda. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik
holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning
umumiy chora-tadbirlari**

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

tazyiq va zo'rvonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash;

aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;

fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

tazyiq va zo'rvonlik sodir etish xavfi bo'lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralarini amalga oshirish;

tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;

aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.

**16-modda. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik hollarining
statistik hisobi va hisoboti**

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek zo'rvonlik sodir etgan yoki zo'rvonlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yagona elektron ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

17-modda. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchini xabardor qilish

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlar tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchini ijtimoiy hamda huquqiy himoya qilish mexanizmlari, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanganga ko'rsatiladigan yordam turlari va xizmatlar to'g'risidagi axborot bilan tanishtiradi.

Zarur bo'lgan taqdirda vakolatli organlar va tashkilotlar sodir etilgan tazyiq va zo'rvonlik fakti munosabati bilan ariza berishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Jazoni ijro etish muassasalari tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanganga unga nisbatan zo'rvonlik sodir etgan shaxs jazoni ijro etish joyidan ozod etilganligi, ozodlikdan mahrum qilish joyidan tashqariga qisqa muddatga chiqarilganligi yoki qochib ketganligi haqida zudlik bilan xabar beradi.

18-modda. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilar uchun ishonch telefoni

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi yordam ko'rsatish, maslahat berish mexanizmi hamda chora-tadbirlari, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish to'g'risida axborot olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining butun hududida tunu kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog'i (ishonch telefoni) ishlab turishini ta'minlaydi.

Telefon liniyasi tarmog'i maxfiylikka rioya etgan holda faoliyat ko'rsatadi. Ishonch telefoni orqali olingan axborotni oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

19-modda. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlarning xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki uni sodir etgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq faoliyati xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlardir.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar muayyan shaxsning, uning ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, uning g'ayriijtimoiy xulq-atvori, tazyiq va zo'rvonlik sodir etishga moyilligi, shuningdek u sodir etgan tazyiq va zo'rvonlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda qo'llaniladi.

20-modda. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarni qo'llash uchun asoslar

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarni qo'llash uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tazyiq va zo'rvonlik qurbonining murojaati;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari;

tazyiq yoki zo'rvonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish faktlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;

davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan materiallar.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlar tazyiq va zo'rvonlik faktlari aniqlangan taqdirda bu haqda tegishli ichki ishlar organlariga darhol xabar qilishi shart.

Ichki ishlar organlari tazyiq va zo'rvonlik to'g'risida og'zaki yoki yozma xabar olganda bunday harakatlarga chek qo'yish va ularning oldini olish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan yakka tartibdagi chora-tadbirlar ko'rishi shart.

21-modda. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

profilaktika suhbatini o'tkazish;

himoya orderini berish;

tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazlarga joylashtirish;

zo'rvonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish.

22-modda. Profilaktika suhbatlari

Muayyan shaxsni jamiyatda umum qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishonitirish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy hamda huquqiy oqibatlarini tushuntirish, shuningdek qonunda belgilangan javobgarlik to'g'risida ogohlantirish maqsadida profilaktika suhbatlari o'tkaziladi.

Tazyiq va zo'rvonlik hollarini aniqlagan vakolatli organ vakili tomonidan profilaktika suhbatlari tazyiq o'tkazish va zo'rvonlik sodir etishga moyil shaxslar bilan qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

23-modda. Himoya orderini berish va uning muddatini uzaytirish

Himoya orderi tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchiga beriladi. Tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'rvonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi.

Himoya orderini bergan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsni himoya orderining shartlari hamda uni bajarmaslik oqibatlari va zo'rvonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi.

Shaxs himoya orderini olish to'g'risidagi tegishli hujjatni imzolashni rad etgan taqdirda, himoya orderini topshirayotgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan xolislar ishtirokida dalolatnoma tuziladi.

Tegishli hududda tazyiq va zo'rvonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq va zo'rvonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderini o'ttiz kun muddatgacha beradi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Agar xavf hali bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra ko'pi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin.

Himoya orderini berish, uzaytirish yoki himoya orderini berishni yoxud uzaytirishni rad etish ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazorat uni bergan ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi.

Himoya orderining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

24-modda. O'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarga nisbatan yoki sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan himoya orderi

O'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organi ularning nomidan himoya orderini berish hamda uni uzaytirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilar himoya orderini olish to'g'risidagi ariza bilan shaxsan murojaat qilishga haqli.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarning himoya orderini berish hamda uni uzaytirish to'g'risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili hozirligida ko'rib chiqiladi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga nisbatan yoki sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan himoya orderi ularning qonuniy vakiliga yoki vasiylik va homiylik organiga beriladi.

Himoya orderi berilganligi va uzaytirilganligi to‘g‘risidagi axborot vasiylik va homiylik organiga, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga 24 soat ichida yuboriladi.

25-modda. Himoya orderining mazmuni

Himoya orderida quyidagilar ko‘rsatiladi:

u rasmiylashtirilgan sana va joy;

uni rasmiylashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar;

tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan sanasi va joyi, kasbi hamda yashash joyi; ushbu Qonunning 26-moddasida nazarda tutilgan cheklovlarining ro‘yxati.

Himoya orderida tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining sudga murojaat qilish huquqi to‘g‘risidagi, tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun ma‘muriy javobgarligi haqidagi ma‘lumot ko‘rsatiladi.

26-modda. Himoya orderida nazarda tutilgan cheklovlar

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

tazyiq o‘tkazishni va zo‘ravonlik sodir etishni taqiqlash;

tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta‘lim muassasalarida tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo‘l qo‘yiladi);

tazyiq o‘tkazilgan va zo‘ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo‘lishini taqiqlash;

tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplash, shuningdek ma‘naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklatish;

tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda ko‘rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilgan taqdirda ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan talablardan tashqari, unga tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturidan o‘tishi to‘g‘risidagi shart majburiy tartibda kiritiladi.

Agar himoya orderini berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilari aniqlansa, himoya orderini berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallari jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organiga yuboriladi.

27-modda. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazlar

Tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlar tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, ruhiy, tibbiy va

boshqa yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazlar (bundan buyon matnda maxsus markazlar deb yuritiladi) tashkil etishi mumkin.

28-modda. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni maxsus markazlarga joylashtirish

Zo'ravonlik fakti mavjud bo'lgan taqdirda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining yoki uning qonuniy vakilining boshpana berish to'g'risidagi talabi bo'yicha tegishli vakolatli organlar va tashkilotlar tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarning maxsus markazlarga joylashtirilishini ta'minlaydi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchini maxsus markazga joylashtirish uning xohishiga ko'ra o'ttiz kungacha bo'lgan muddatga amalga oshiriladi. Zarurat bo'lgan taqdirda bu muddat maxsus markazning ustavida belgilangan tartibda uzaytiriladi. Maxsus markazga joylashtirish muddati tugagach, agar tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga nisbatan xavf mavjud bo'lsa, maxsus markaz ma'muriyati bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi shart.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi maxsus markazga joylashtirilgan taqdirda, uning ish joyi saqlab qolinadi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining maxsus markazda bo'lish vaqti uni ta'lim muassasasidan mashg'ulotlarni o'tkazib yuborganligi munosabati bilan chiqarish uchun asos bo'lmaydi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar tazyiq o'tkazganlikda va zo'ravonlik sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsdan undirilishi mumkin.

29-modda. Zo'ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan tadbirlar

Zo'ravonlik takroran sodir etilishining oldini olish hamda zo'ravonlikdan jabrlanganning xavfsizligini ta'minlash maqsadida shaxsning zo'ravonlikka moyil xulq-atvorini o'zgartirishda unga ruhiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Zo'ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tadi.

Zo'ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

30-modda. Ma'lumotlarning maxfiyligi

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga yordam ko'rsatgan shaxslarga ma'lum bo'lib qolgan barcha shaxsga doir ma'lumotlar shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik bilan qo'riqlanadi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining shaxsiga doir ma'lumotlari ishonib topshirilgan hamda kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan bu ma'lumotlar o'ziga ma'lum bo'lib qolgan, ushbu ma'lumotlarni oshkor etishga yo'l qo'ygan shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

31-modda. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish chora-tadbirlarini moliyalashtirish

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish chora-tadbirlarini moliyalashtirish tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlarning mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

33-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

34-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

35-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR UCHUN TENG HUQUQ HAMDA IMKONIYATLAR KAFOLATLARI TO'G'RSIDA

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi,
O'RQ-562-son Qonuni*

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar — jinslarning notengligini bartaraf etish, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki asos bo'ladigan tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar;

gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati;

gender statistikasi — davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi;

gender-huquqiy ekspertiza — normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish;

genderga oid audit — davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi holatini, shuningdek genderga doir kompleks yondashuvni o'rganish va baholash;

jins bo'yicha bevosita kamsitish — jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash, shu jumladan oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatlari tufayli kamsitish, shuningdek shahvoniy shilqimlik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq to'lash;

jins bo'yicha bilvosita kamsitish – bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo'yadigan vaziyatlarni, holatlarni yoki mezonlarni yaratish, shu jumladan gender tengsizlikni ommaviy axborot vositalari, ta'lim, madaniyat orqali targ'ib etish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar yoxud talablar belgilash;

genderga doir kompleks yondashuv – davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'z faoliyatini, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishni xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tashkil etish.

4-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- demokratizm;
- xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;
- jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;
- ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik

Xotin-qizlar va erkaklar davlat tomonidan kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Quyidagilar jins bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi:

bola tug'ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda farqlarni belgilash;

qonunda belgilangan tartibda muddatli harbiy xizmatga chaqirish;

ushbu Qonun asosida gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish;

xotin-qizlar va erkaklar mehnatini muhofaza qilishda ularning reproduktiv salomatligini saqlash xususiyatlari;

majburiyatlar faqat muayyan jinsdagi shaxslar tomonidan bajarilishi mumkinligiga asoslangan holda kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish;

qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlarini hamda huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini tartibga solishda farqlarni belgilash;

xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijobiy choralar.

6-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlaydi.

Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'riladi.

7-modda. Gender-huquqiy ekspertiza

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladi.

Normativ-huquqiy hujjatning yoki uning loyahasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda, gender-huquqiy ekspertiza xulosasi ushbu normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqqan yoki qabul qilgan organga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi:

jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjatning yoki uning loyahasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiq emasligini aniqlashga;

jinsi bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, kamsitish xususiyatiga ega xavflarni aniqlashga;

jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga yo'l qo'yadigan, aniqlangan normalarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgandir.

8-modda. Gender statistikasini shakllantirish

Davlat statistika organlari gender ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ishni, unga ishlov berishni, uni to'plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e'lon qilishni amalga oshiradi.

Gender ko'rsatkichlarini shakllantirish:

davlat statistika organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat statistik kuzatuvlariga;

davlat boshqaruvi organlarining ma'muriyatga oid ma'lumotlariga;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan statistik kuzatuvlarga asoslanadi.

Gender ko'rsatkichlari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining statistik ma'lumotlari asosida ham shakllantirilishi mumkin.

8¹-modda. Genderga oid auditning asosiy vazifalari

Genderga oid auditning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbatini o'rganish;

davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatini genderga doir kompleks yondashuv asosida tashkil etganligi holatini o'rganish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi qonunchilikning ijro etilish holatini baholash;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

8²-modda. Genderga oid auditni o'tkazish va uning natijalarini ko'rib chiqish tartibi

Genderga oid audit tasdiqlangan uch yillik rejaga asosan O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik nazorati doirasida o'tkaziladi.

Genderga oid audit davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda genderga oid auditni o'tkazish uslubiyati asosida o'tkaziladi.

Genderga oid auditni o'tkazish uchun tegishli sohada zarur bilimga va ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar jamoatchilik asosida jalb etilishi mumkin.

Genderga oid audit natijalariga doir axborot va takliflar genderga oid audit o'tkazilganidan keyin Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasiga o'n ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi genderga oid audit natijalariga doir axborotni va takliflarni bir oy ichida ko'rib chiqadi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi genderga oid audit natijalariga doir axborotni va takliflarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda genderga doir kompleks yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi.

Genderga oid audit natijalari to'g'risidagi axborot O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

2-bob. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasini tartibga solish

9-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mazkur sohadagi normativ-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish;

- mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish;

- jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtirok etishini ta'minlash;

- mehnatga oid va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

- oilani, bolalikni ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, mas'uliyatli onalik va otalikni shakllantirish;

- jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga qaratilgan axborotdan jamiyatni himoya qilish;

- mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etish;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish maqsadida milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda samarali hamkorlikni rivojlantirish.

10-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, shuningdek davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

**11-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xotin-qizlar
va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi
vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarning ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi hamda amalga oshirilishini va ularni moliyalashtirish uchun zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi hamkorligini ta'minlaydi;

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralarni belgilaydi.

**12-modda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik
va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasining vakolatlari**

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi:

xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikka erishishga, oilani mustahkamlashga, onalik, otalik hamda bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishishga, davlat xizmatining rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini ta'minlashga ko'maklashadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

gender tenglikni, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarning joriy holatini o'rganish, mavjud muammolarni tanqidiy jihatdan tahlil qilish va bartaraf etish choralari ko'radi;

xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini erkaklar bilan teng ravishda oshirish choralari ko'radi;

davlat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtiradi;

jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilganligi munosabati bilan og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus muassasalarni tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish va ularni bekor qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalariga doir murojaatlarini qabul qilishni, ko'rib chiqishni va tahlil qilishni amalga oshiradi hamda buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan choralar ko'radi;

genderga oid auditni o'tkazish rejasini tasdiqlaydi va genderga oid auditni o'tkazish uslubiyatini belgilaydi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va bu sohadagi xalqaro standartlarga rioya etish borasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

13-modda. Davlat organlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vakolatlari

Davlat organlari o'z vakolatlari doirasida:

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni va axborotni muntazam ravishda yig'ishni hamda tahlil qilishni ta'minlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularni tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'radi hamda bunga ko'maklashadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha fuqarolarning madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish yuzasidan tegishli choralar ko'radi hamda bunga ko'maklashadi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni amalga oshirishga faol jalb qilish maqsadida ular bilan hamkorlikni rivojlantiradi;

xotin-qizlar va erkaklar kasbiy va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, shu jumladan ham onalarga, ham otalarga bola parvarishi uchun ta'til berish orqali shart-sharoitlar yaratadi;

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'radi va ularni bekor qiladi;

mehnat bozorida xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ilgari surish, ishga joylashtirish uchun o'qitish hamda sharoitlar yaratish yuzasidan xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs (bundan buyon matnda vakolatli shaxs deb yuritiladi) belgilanadi. Vakolatli shaxsning majburiyatlarini bajarish davlat organi rahbarining o'rinbosarlaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Davlat organlarining rahbarlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ishtirokida maslahat-kengash organlarini tuzishi mumkin.

14-modda. Davlat organlaridagi vakolatli shaxsning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vakolatlari

Vakolatli shaxs:

faoliyatning tegishli sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga rioya etilishini ta'minlaydi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash holatini tahlil qiladi, gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar qo'llanilishining maqsadga muvofiqligini o'rganadi hamda ularni qo'llash to'g'risida takliflar kiritadi;

jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga barham berish yuzasidan axborot faoliyatini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda doimiy asosda amalga oshiradi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida gender ko'rsatkichlarini tahlil qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqadi, tahlil qiladi hamda zarur hollarda ular haqida vakolatli organlarga xabar beradi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha xodimlarning kasbiy darajasini oshirish choralari ko'radi;

jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishning namoyon bo'lish faktlarini bartaraf etish yuzasidan choralari ko'radi.

**15-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining,
nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa
institutlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq
hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi ishtiroki**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari:

xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirishga, erkaklar bilan teng ravishda xotin-qizlarning ijtimoiy hamda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun bandlik sohasida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga, shu jumladan kasanachilikni tashkil etishga, oilalar uchun ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini yaratishga ko'maklashadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy muassasalar va ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar bilan ijtimoiy sheriklik asosida hamkorlik qiladi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini shakllantirishga qaratilgan o'quv, axborot-ma'rifiy tadbirlarini amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlarni va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishda davlat organlariga ko'maklashadi;

jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilgan shaxslarning huquqlarini davlat organlarida va sudda himoya qilishga ko'maklashadi;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

**3-bob. Davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq
hamda imkoniyatlar kafolatlari**

**16-modda. Davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda
imkoniyatlarni ta'minlash**

Davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash orqali davlat boshqaruvida turli jinsdagi shaxslarning ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kafolatlanadi.

Davlat xotin-qizlarga erkaklar bilan teng sharoitlarda va hech bir kamsitishsiz xalqaro miqyosda davlatning vakili bo'lish hamda xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'radi.

Davlat xizmatiga qabul qilish chog'ida va uni o'tash davrida jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishdagi tenglik malakaga va kasbiy tayyorgarlikka muvofiq ta'minlanadi.

Davlat xizmatchilari lavozimlarini egallash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularning xizmatda ko'tarilishi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlangan holda amalga oshiriladi.

Davlat xizmatida xizmatchilarning lavozim toifalarini hisobga olgan holda bir jinsdagi xodimlarning lavozimlarni egallashi uchun kvotalash tizimini belgilashni nazarda tutuvchi gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralarni qo'llashga ruxsat beriladi. Kvota vaqtinchalik chora sifatida joriy etiladi hamda u davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar vakilligining mutanosibligiga erishilishiga qarab bekor qilinishi mumkin.

Davlat organlari rahbarlari lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligiga rioya etilishi zarur.

Davlat organlarining rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishda teng huquqlilikni ularning qobiliyati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq ta'minlashi shart.

17-modda. Davlat xizmatidagi lavozimlarni egallash uchun tanlovlarda xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi

Davlat xizmatidagi lavozimlarni, shu jumladan rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi ta'minlanishi kerak.

Davlat organlarining kadrlar xizmatlari zimmasiga tanlov komissiyalariga nafaqat tanlovda ishtirok etayotgan shaxslarning ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, balki davlat xizmatining tegishli lavozimlarida ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etish majburiyati yuklatiladi. Shunga o'xshash ma'lumotlar xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga doir chora-tadbirlar ko'rish uchun davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish, xizmat bo'yicha ko'tarish masalalarini hal qilishda davlat organlarining kadrlar xizmatlari tomonidan taqdim etiladi.

4-bob. Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

18-modda. Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash

Xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda teng huquqlarga ega.

Siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi.

19-modda. Saylov komissiyalarini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov hamda referendumlar o'tkazish bo'yicha viloyat, tuman, shahar, okrug va uchastka saylov komissiyalarining tarkibini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi.

5-bob. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

20-modda. Iqtisodiy sohada hamda tadbirkorlik faoliyatida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

Davlat organlari va mulk shaklidan qat'i nazar tashkilotlar rahbarlari jamiyatning iqtisodiy resurslaridan, shu jumladan ko'char va ko'chmas mol-mulk, er, moliyaviy aktivlar, kreditlar, ijtimoiy jamg'armalardan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining erkin tanlangan turlaridan xotin-qizlar va erkaklarning teng foydalanishini ta'minlashi shart.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi.

21-modda. Mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

Ish beruvchi mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida quyidagilarni ta'minlaydi:

ishga yollashda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni;

teng mehnat uchun xotin-qizlar va erkaklarga teng ish haqini (mukofotni) hamda xotin-qizlar va erkaklar ishining sifatini baholashga doir teng yondashuvni;

xizmatda ko'tarilish, qayta tayyorlash va malaka oshirishda teng imkoniyatlarni;

texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ish hajmlarining qisqarishi oqibatida xodimlarning soni (shtati) yoki ishning xususiyati o'zgarishi yoxud korxona, muassasa va tashkilot tugatilishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda qonunda belgilangan afzalli huquqlarni bergan holda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari tengligini;

oilani ijtimoiy himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha farzandlari bor ayollar va erkaklar foydalana oladigan amaliyotni joriy etish va rivojlantirishni, homilador hamda emizikli ayollar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratishni;

xotin-qizlar va erkaklarning hayot faoliyatini hamda sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydigan, shu jumladan reproduktiv funksiyalarni saqlaydigan xavfsiz mehnat sharoitlarini;

mehnat munosabatlarida shaxslarning qadr-qimmatini poymol qilishga olib keluvchi nomaqbul muomalaga yoki kamsituvchi mehnat sharoitlarini yaratishga yo'l qo'yilmasligini;

xotin-qizlar va erkaklar uchun mehnat faoliyatini, jamiyat hayotida ishtirok etishni oilaviy majburiyatlar bilan birga olib borish uchun teng sharoitlar yaratishni, shu jumladan mehnat qilish imkoniyatini beradigan, bolalarni parvarishlash bo'yicha muassasalar tarmog'ini tashkil etish va kengaytirish orqali sharoitlar yaratishni.

22-modda. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

Mehnat munosabatlarini jamoa-shartnomaviy jihatdan tartibga solish chog'ida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlaydigan qoidalarni jamoa shartnomalari va kelishuvlariga kiritish, ularning kasbiy va oilaviy majburiyatlarni qo'shib bajarishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash shart.

Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash majburiyatlarini tashkilotlarning va ular tarkibiy bo'linmalarining vakolatli shaxsi zimmasiga yuklatish;

ishga qabul qilish va xizmat bo'yicha ko'tarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish;

xotin-qizlar va erkaklar mehnatiga haq to'lashda notenglikni bartaraf etish.

**23-modda. Ijtimoiy himoya sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun
teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari**

Davlat organlari, shuningdek mulkchilik shaklidan qat'i nazar tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari aholini ijtimoiy himoya qilish choralari amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlarini teng darajada hisobga olishi shart.

Xotin-qizlar va erkaklar ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishda teng huquqlarga ega.

**24-modda. Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar
va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari**

Oila, onalik, otalik va bolalik davlat muhofazasidadir.

Xotin-qizlar va erkaklar oilaviy munosabatlar sohasida teng huquq hamda majburiyatlarga ega.

Oilaviy munosabatlar sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun huquq hamda imkoniyatlarning tengligi quyidagilarga asoslanadi:

xotin-qizlar va erkaklar nikoh tuzishining ixtiyoriyligiga;

majburiy va erta nikohlarga yo'l qo'yilmasligiga;

er va xotinning shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari tengligiga;

oilaning ichki mojarolarini o'zaro kelishuv bo'yicha hal qilishga;

uy mehnatiga nisbatan xotin-qizlar va erkaklar huquq hamda majburiyatlarining tengligiga;

bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishda, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashda teng ishtirok etishga.

Ota-onalar kichik yoshdagi bolalarni, nogironligi bo'lgan oila a'zolarini parvarishlash bo'yicha nafaqalar olishda teng huquqlarga ega bo'ladi.

Bola tug'ilishi munosabati bilan ona ham, ota ham haq to'lanadigan ta'til olish huquqiga ega. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko'ra ular o'rtasida bo'linishi mumkin, bunda ota-ona ta'tildan uni qismlarga bo'lgan holda foydalanishi mumkin.

25-modda. Uy mehnatini bajarishda teng munosabatlar kafolatlari

Uy mehnati jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas, u ayollar va erkaklar tomonidan teng darajada amalga oshiriladi.

**6-bob. Ta'lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar
va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari**

**26-modda. Ta'lim, ilm-fan hamda madaniyat sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun
teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari**

Davlat ta'lim olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

xotin-qizlar va erkaklarning ta'lim olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta'lim va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini;

turli ta'lim dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid ma'rifatini oshirishga ko'maklashishni;

jinslardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan xoli o'quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni;

o'quv dasturlari va darsliklarni jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yimaslik prinsipiga muvofiqlik yuzasidan muntazam ravishda monitoring qilishni;

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlash masalalari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma'rifiy tadbirlarni rag'batlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashni.

Ta'lim sohasidagi vakolatli organ ta'lim dasturlarini, ta'lim muassasalarining dasturlarini hamda rejalarini ularning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi jihatidan ekspertizadan o'tkazishni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha kursni o'z ichiga olishi kerak.

27-modda. Sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

xotin-qizlar va erkaklarning sog'liqni saqlash sohasidagi o'z huquqlarini amalga oshirishga, shu jumladan malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishiga, qulay tibbiy xizmatlardan foydalanishga, oilani rejalashtirishga va reproduktiv salomatlikni himoya qilishga bo'lgan teng imkoniyatlarini;

zarur bo'lgan hollarda, xotin-qizlarning turli ehtiyojlarini hisobga olib, ayniqsa, homiladorlik, tug'ish davrida va tug'ishdan keyingi davrda xotin-qizlarga bepul xizmatlar ko'rsatgan, shuningdek homiladorlik va emizish davrida tegishli oziq-ovqat bilan ta'minlagan holda, sog'liqni saqlash sohasidagi strategiya va dasturlarning amalga oshirilishini;

tibbiy ta'lim sohasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan tashabbuslarni qabul qilishni;

sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga oluvchi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashishni.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

28-modda. Jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish faktlari ustidan shikoyat qilish

Agar shaxs o'zini jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunda jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmaydi.

Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi to'g'risidagi ishlarni sudlarda ko'rish chog'ida advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmatlarga haq to'lash qonunchilikda belgilangan tartibda, ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.

29-modda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

30-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

31-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini
qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

32-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

OILA VA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH, MAHALLA VA NURONIYLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;

gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;

hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni "Ayollar daftari" orqali manzilli qo'llab-quvvatlash;

jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish.

2. Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita), uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etilsin.

3. Quyidagilar Qo'mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;

oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish;

xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlar yo'nalishidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga yordam ko'rsatish.

4. Vazirlar Mahkamasining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasini Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etish hamda Qo'mita tuzilmasiga o'tkazish;

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutini “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etish hamda Qo‘mita tuzilmasiga o‘tkazish;

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi, “Oila va jamiyat” gazetasi, “Saodat” jurnali, “Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila” xalqaro ilmiy jurnalini Qo‘mita tuzilmasiga o‘tkazish;

“Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari” faoliyatini isloh qilish va takomillashtirish.

5. Quyidagilar:

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasiga – Bosh vazir o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi lavozimi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tuzilmasiga – Qo‘mita raisi bilan kelishilgan holda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalariga – Qo‘mita raisi bilan kelishilgan holda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan hokim o‘rinbosarlari — oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari lavozimlari;

tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalariga – Qo‘mita raisi bilan kelishilgan holda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan hokim o‘rinbosarlari — oila va xotin-qizlar bo‘limlari boshliqlari lavozimlari kiritilsin.

6. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tuzilmasidagi – Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri lavozimi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalaridagi — hokim o‘rinbosarlari — mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari boshliqlari lavozimlari;

tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalaridagi – hokim o‘rinbosarlari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari boshliqlari lavozimlari tugatilsin.

7. Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi har bir mahallada mahalla raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma‘naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassis lavozimi o‘rniga xotin-qizlar faoli lavozimi mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tartibi saqlangan holda bir nafardan joriy etilsin.

8. Quyidagilar mahalladagi xotin-qizlar faolining asosiy vazifalari etib belgilansin:

xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma‘naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma‘naviy-axloqiy muhitini va an‘anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarning tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarni jalb qilish bo‘yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi;

“Ayollar maslahat kengashlari” bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko‘maklashish, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish.

9. Belgilansinki:

Qo'mita oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

oila va xotin-qizlar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Qo'mita bilan kelishiladi;

Qo'mita tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi;

Qo'mita xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarga har tomonlama ko'maklashish hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirishga mas'ul hisoblanadi;

mahalladagi xotin-qizlar faoli o'z faoliyatida Qo'mita va uning hududiy bo'linmalariga bo'ysunadi hamda ular oldida hisobdor bo'ladi.

10. Qo'mita quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

bir hafta muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Qo'mita faoliyatini tashkil etish yuzasidan;

ikki hafta muddatda oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish yuzasidan;

uch oy muddatda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti hamda "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" faoliyatini takomillashtirish yuzasidan.

11. Quyidagilar nuroniy va keksalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

ijtimoiy hamjihatlik va adolatlilik tamoyillari asosida keksa avlod vakillarining hayot sifati va uzoq umr ko'rish darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

keksa avlod vakillariga o'z vaqtida, manzilli va samarali ijtimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash, ularga sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta'lim, madaniyat va transport tizimlaridan keng foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

keksa avlod vakillarining kafolatli ijtimoiy va moddiy ta'minotini tashkil etish;

zamonaviy iqtisodiyotda keksa avlod vakillarining huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirib borishga sharoitlar yaratish;

keksa avlod vakillarining tizimli ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish.

12. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari negizida tegishincha Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) hamda uning hududiy bo'linmalari amaldagi moliyalashtirish tartibi va mehnatga haq to'lash shartlari saqlab qolingan holda tashkil etilsin.

13. Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

mahallalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mahallalarning jamiyatdagi o'rne va rolini kuchaytirish, aholi kundalik muammolari bilan ishlash va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeyini yuksaltirish;

nuroniy va keksalarni mahallalarda oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni Vatanga muhabbat, ezgulik va rahmdillik singari an'analarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga keng jalb etish;

nuroniy va keksalarni qo'llab-quvvatlash sohasiga oid qonunchilik hujjatlarining ijrosi, shu jumladan hududlarda, ayniqsa, olis qishloqlarda keksa avlod vakillariga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini muvofiqlashtirib borish;

o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarni ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini o'rganish hamda manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda hal etish choralari ko'rish;

mahallalarning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

14. Belgilab qo'yilsinki:

Vazirlik nuroniy va keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, mahallalar bilan hamkorlik o'rnatish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

mahalla, nuroniy va keksalar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Vazirlik bilan kelishiladi;

Vazirlik tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi;

Vazirlik Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tegishli huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

15. Vazirlik quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

bir hafta muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Vazirlik faoliyatini tashkil etish yuzasidan;

ikki hafta muddatda nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning hayot darajasini oshirish yuzasidan;

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda mahalla tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan.

16. Davlat organlari va tashkilotlarining alohida e'tibori qaratilsinki, mahalla raisi mahalla hududining aholi tomonidan saylangan obro'li shaxsi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalaydi hamda hududni kompleks rivojlantirish vazifalari amalga oshirilishini va fuqarolar muammolari samarali hal etilishini tashkil etadi.

17. Mahalla raisiga quyidagi qo'shimcha huquqlar berilsin:

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlari faoliyatini hududdagi birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni bartaraf etishga yo'naltirish hamda bu borada jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlari faoliyatini baholash hamda natijalari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashlariga axborot kiritib borish;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarini rag'batlantirish yoki ularga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llash bo'yicha mazkur xodimlarning yuqori turuvchi tashkilotlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish.

18. Vazirlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-iyulga qadar "Mahalla to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritсин. Bunda, shu jumladan quyidagilar nazarda tutilsin:

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faolini mahalla kengashi tarkibiga kiritish;

mahalla raisi, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorining mahalla hududida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari hamda mahallani kompleks rivojlantirish bo'yicha kollegial mas'uliyati va javobgarligi doirasini aniq belgilash;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorining o'zaro hamkorligi hamda ularning mahalla raisi bilan kelishgan holda faoliyat yuritishi;

mahalla raislarini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish, shu jumladan sog'lig'ini tiklash (bepul tibbiy davolanish, sanatoriylarga imtiyozli yo'llanmalar berish) hamda davlat majburiy sug'urtasi (faoliyati davomida mehnat layoqatini yo'qotganda hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 3-bandida nazarda tutilgan qoidalar.

19. Aholi muammolarini o'rganish, tahlil qilish va hal etish hamda murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqishning bir-biri bilan uzviy bog'langan to'rt pog'onali "mahalla-tuman-viloyat-respublika" tizimi joriy etilsin.

20. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

hududda mahalla raisi tomonidan aholi e'tirozlariga eng ko'p sabab bo'layotgan muammolarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda muhokamalar o'tkaziladi;

har oyda mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axboroti eshutiladi hamda muammolarning bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi;

mahalla raisi har chorakda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan mahallada amalga oshirilgan ishlar natijalari hamda bartaraf etilmagan tizimli muammolar bo'yicha tegishli tuman (shahar) xalq qabulxonasiga ma'lumotlar kiritib boradi;

tuman (shahar) xalq qabulxonasi mahalla raisi ma'lumotiga asosan tegishli davlat organlari va tashkilotlariga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi hamda mas'ul xodimlarni rag'batlantirish yoki ularga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llash bo'yicha mazkur xodimlarning yuqori turuvchi tashkilotlariga takliflar beradi.

21. Qo'mita Vazirlik bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

22. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har olti oy yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 1-mart,
PF-81-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

OILA VA XOTIN-QIZLARNI TIZIMLI QO'LLAB-QUVVATLASHGA DOIR ISHLARNI YANADA JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur 1-ilovaga muvofiq;

2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi;

mazkur yuridik shaxslarning ushbu band ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan xodimlar oldidagi majburiyatlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'langan homiladorlik va tug'ish nafaqasi hajmida kamaytiriladi.

3. Xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

a) oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari yo'naltirilsin.

Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov) ikki oy muddatda mazkur kichik bandda nazarda tutilgan mablag'larni ajratish grafigini tijorat banklari kesimida tasdiqlasin;

b) davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirilsin.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov) hamda Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) 2022-yil 1-sentabrga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan xotin-qizlarning davlat oliy ta'lim muassasalari kesimida ro'yxatini shakllantirsin hamda 2022-yil 1-oktabrga qadar kontrakt to'lovlarini qoplab bersin;

v) xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha – 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratib borilsin.

Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) ushbu kichik bandda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "El-yurt umidi" jamg'armasiga har yili Davlat budjetidan kamida 6 milliard so'm ajratilishini ta'minlasin;

g) har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) tavsiyalariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan 150 nafardan jami 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplab borilsin.

Qo'mita (Z.B. Maxkamova) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov) ikki oy muddatda mazkur kichik badda nazarda tutilgan ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish, ularga tavsiyalar berish va ta'lim kontraktlarini qoplab berish tartibini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

d) mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Qo'mita tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish amaliyoti joriy etilsin.

Qo'mita (Z.B. Maxkamova), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov) hamda Davlat test markazi (M.M. Karimov) bir oy muddatda mazkur kichik badda nazarda tutilgan alohida kvotalarni davlat oliy ta'lim muassasalari kesimida taqsimlash, xotin-qizlarga tavsiyalar berish, alohida test sinovlarini o'tkazish tartibini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

e) davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borilsin.

Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmanov) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov) ikki oy muddatda xotin-qizlar uchun mazkur kichik badda nazarda tutilgan maqsadli kvotalar davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari kesimida tasdiqlanishini ta'minlasin.

4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining:

asosan xotin-qizlarga dizayn, to'qimachilik, axborot texnologiyalari, tarmoqlar iqtisodiyoti, marketing va talab yuqori bo'lgan boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim beradigan alohida universitetni;

ushbu universitet huzurida paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida bosqichma-bosqich hududiy texnikumlarni tashkil etish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlansin.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov), Qo'mita (Z.B. Maxkamova), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.J. Ortiqov), Toshkent shahar hokimligi (J.A. Artikxodjayev) ikki oy muddatda universitet faoliyatini yo'lga qo'yish, uning moddiy-texnika ta'minoti va joylashtirilishi bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. Xotin-qizlarni ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmanov):

Qo'mita (Z.B. Maxkamova) bilan birgalikda har yili mart oyida amaliy innovatsion loyihalar bo'yicha "Olima ayol" tanlovini o'tkazib borsin;

ikki oy muddatda "Bo'lajak olim" tanlovi doirasida "Ayollar biznesi uchun birinchi qadam" tanlovini o'tkazish uchun ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kamida 10 milliard so'm ajratilishini ta'minlasin.

6. Qo'mita, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining xotin-qizlar ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini hayotga tatbiq etish, startup loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Qo'mita huzurida "Olima ayollar jamiyati"ni tuzish haqidagi taklifiga rozilik berilsin.

Qo'mita (Z.B. Maxkamova) va Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bir oy muddatda "Olima ayollar jamiyati"ni tashkil etish chora-tadbirlari bo'yicha Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин. Bunda "Olima ayollar jamiyati"ga xotin-qizlarni amalda qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat budjetidan 50 milliard so'm ajratilishi nazarda tutilsin.

7. 2022-yil 1-iyundan boshlab davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitishning yangi tartibi joriy etilsin. Bunda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazlari huzurida malakani baholash markazlari tashkil etiladi;

malakani baholash markazlari kasbiy malaka talablarini ishlab chiqadi va salohiyatli ta'lim muassasalariga davlat buyurtmasini beradi;

o'quv kurslarini tugatgan xotin-qizlar bilimi darajasi malakani baholash markazlari tomonidan aniqlanadi va shu asosda ularga malaka sertifikatlari beriladi;

malaka sertifikatini olgan xotin-qizlarga mehnat faoliyatini boshlashi uchun o'qish xarajatlariga teng miqdorda malakani baholash markazlari tomonidan subsidiyalar beriladi;

malakani baholash markazlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, akademik litsey va kollejlarning bitiruvchi sinf o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasi beriladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (S.M. Xolxo'jayev), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B. Xusanov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.H. Toshkulov) hamda Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bir oy muddatda davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

8. "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga asosan 2022-yilda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlashga ko'maklashadigan hamda ularning muammolari bilan shug'ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlariga 17,1 milliard so'm miqdoridagi grant mablag'lari ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Qishloq joylaridagi ayollarni kasbga o'qitish, tadbirkorlikka jalb qilish va ish bilan ta'minlash loyihalarini amalga oshirish maqsadida 2023-yildan boshlab:

har yili nodavlat tashkilotlarga bazaviy hisoblash miqdorining 7 ming baravari miqdorigacha grantlar berish uchun Davlat budjetidan kamida 50 milliard so'm Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga ajratib borilsin;

tuman (shahar) sektor shtablari joylashgan binolarning kamida bittadan xonasida o'quv kurslarini o'tkazish uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

9. 2022-yil 1-sentabrdan boshlab mehnat resurslari zich bo'lgan qishloq joylarining reyestri (keyingi o'rinlarda – Reyestr) joriy etilsin.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (S.M. Xolxo'jayev):

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari bilan birgalikda 2022-yil 1-iyulga qadar tumanlarda mehnat resurslari zich bo'lgan qishloq joylari ro'yxatini shakllantirsин;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Reyestrni shakllantirish va yuritish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

Belgilansinki, 2022-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-yanvarga qadar Reyestrda kiritilgan hududlardagi umumiy xodimlari soni kamida 10 nafar bo'lgan va ularda ishlovchi xotin-qizlarning mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan kichik tadbirkorlik subyektlariga:

Reyestrda kiritilgan hududda joylashgan obyektlar bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i 50 foiz imtiyoz qo'llagan holda hisoblanadi;

ularda ishlovchi xotin-qizlar mehnatiga haq to'lash fondiga ijtimoiy soliq 1 foizlik stavkada hisoblanadi;

budget tashkilotlariga yillik umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 750 baravarigacha bo'lgan mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri sotish huquqi beriladi;

ular tomonidan ko'chmas mulk ijaraga olinganda 3-ilovaga muvofiq imtiyozlar beriladi.

10. Oliy Majlis Senati va Vazirlar Mahkamasi tomonidan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlanganligi, Oliy Majlis Senati raisi T.K. Narbayeva – komissiya raisi hamda Bosh vazir o'rinbosari Z.B. Maxkamova va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Q.M. Rafikov – komissiya raisi o'rinbosarlari etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi (T.K. Narbayeva) bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi "Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish dasturi"ni tasdiqlasin va ijroga qaratilishini ta'minlasin:

a) Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslarini tashkil etish hamda har yili kamida 100 nafar xotin-qizlarni o'qitish;

b) 2024-yil 1-yanvarga qadar:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi hamda ularning tizimidagi tashkilotlar xodimlari orasida xotin-qizlarning ulushini kamida 30 foizga yetkazish;

barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o'rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash. Bunda, mazkur talab tegishli tashkilot rahbari xotin-qizlar orasidan tayinlanganda yoki unda faqat bir nafar o'rinbosar bo'lgan taqdirda majburiy hisoblanmaydi.

11. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida xotin-qizlarning biznes-loyihalarini moliyalashtirish uchun 2022-yilda qo'shimcha 1 trillion so'm ajratsin.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi koordinatorlari (S.M. Xolxo'jayev, A.A. Kamalov, D.Sh. Sultanov) 2022-yilda mazkur dastur doirasida ajratilayotgan mablag'larning jami 4 trillion so'm qismi tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarga yo'naltirilishini ta'minlasin.

12. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh.A. Vafayev) uch oy muddatda xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro moliya institutlarining 300 million AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslari jalb etilishini ta'minlasin.

13. Belgilab qo'yilsinki, 2022-yil 1-apreldan boshlab:

tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga ajratilayotgan subsidiya miqdori 7 million so'mdan 10 million so'mga oshiriladi;

"Hunarmand" uyushmasi qoshidagi hunarmandchilik markazlarida kamida 40 foiz tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar joylashtiriladi.

14. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (S.M. Xolxo'jayev), Qo'mita (Z.B. Maxkamova) hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (A.B. Voitov) ikki oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022–2024-yillarga mo'ljallangan "Biznes ayollar" dasturi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

tadbirkorlik subyektlari orasida xotin-qizlarning ulushini 40 foizgacha yetkazish;

xotin-qizlarga o'z tomorqasida gul va meva-sabzavot yetishtirish uchun issiqxona qurish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni yo'lga qo'yish uchun 35 million so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratish.

15. 2022-yil 1-iyundan boshlab mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari (keyingi o'rinlarda – markazlar) tashkil qilinsin. Bunda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari markazlarni barpo etish uchun har bir mahalladan 300 kvadrat metrgacha bo'lgan yer maydonini doimiy foydalanish huquqi asosida yoki bo'sh turgan davlat mulki obyekтини operativ boshqaruv huquqi asosida mahallalarga ajratsin;

Markazlar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari yoki qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan barpo etilishi nazarda tutilsin;

barpo etilgan markazlar mahallalar tomonidan tikuvchilik, qandolatchilik, fitnes, sheyping, xotin-qizlarni kasbga o'qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga uzoq muddatli ijaraga berilsin.

16. Xotin-qizlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash maqsadida:

a) 2022-yilda ipoteka kreditlari bo'yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltirilsin;

b) 2022-yil 1-apreldan boshlab uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan, shu jumladan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni ijara huquqi asosida vaqtinchalik joylashtirish uchun ijtimoiy uy-joylarni "Xalqparvar" komissiyalari bilan kelishgan holda ikkilamchi uy-joy bozorida sotib olishga ruxsat berilsin;

v) uy-joyga muhtoj, jumladan xususiy uy-joy fondida ijara huquqi asosida istiqomat qilayotgan "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi, lekin ko'pi bilan 500 ming so'mgacha bo'lgan qismi "Ayollar daftari" jamg'armasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari hisobidan qoplab berilsin. Bunda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan 2022-yildan boshlab zarur mablag'lar ajratib borilsin;

ushbu bandda ko'rsatilgan imtiyozlardan foydalanish uchun xotin-qizlarga ijtimoiy kontrakt asosida kasb o'rganish, mehnat qilish imkoniga ega bo'lsa, mustaqil yoki Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari yo'llanmasi asosida ishga joylashish bo'yicha ijtimoiy majburiyatlarni yuklash tartibi joriy etilsin.

17. 2022-yil 1-apreldan boshlab:

a) boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarning:

farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'lanadigan ota-onalar badalidan ozod qilinsin;

3 yoshgacha bo'lgan farzandlari uchun nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga Davlat budjetidan subsidiyalar belgilangan tartibda ajratilsin;

b) to'liq quvvat bilan ishlamayotgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni pullik xizmat ko'rsatish shaklida qabul qilishga ruxsat berilsin;

v) kechki smenada xotin-qizlar ishlaydigan korxona va tashkilotlar o'z huzurida maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil qilganda, ulardagi tarbiyachilarning ish haqi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilsin.

Maktabgacha ta'lim vazirligi (A.V. Shin) va Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) ikki oy muddatda mazkur bandning "v" kichik bandida nazarda tutilgan kompensatsiya to'lovlari amalga oshirish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

18. Belgilansinki:

aliment to'lovchining boshqa ijro hujjatlari bo'yicha majburiyatlari mavjud bo'lganda, qarzdordan undirilgan mablag'lar aliment to'lovlari bo'yicha qarzdorlik to'liq qoplangandan so'ng qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va navbatda taqsimlanadi. Xuddi shu kabi, ijro harakatlari

davomida qarzdorga solingan jarimalar va ijro harakatlarini amalga oshirish xarajatlari ham aliment to'lovlaridan joriy qarzdorlik to'liq qoplangandan so'ng undiriladi;

aliment majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlab kelayotgan va qidiruvga e'lon qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy ijro organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirish, shuningdek, davlat ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish amaliyoti joriy etiladi. Bunda, ushbu manbalarda qidiruvdagi shaxslar va ularning mol-mulki to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolarga majburiy ijro va ichki ishlar organlariga xabar berish imkoniyati yaratiladi.

19. Adliya vazirligi (R.Q. Davletov) va Bosh prokuratura (N.T. Yo'ldoshev) uch oy muddatda aliment to'lovlarini undirish tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan qonun loyihasini belgilangan tartibda kiritсин. Bunda, shu jumladan quyidagilar nazarda tutilsin:

a) aliment bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lganda qarzdorlik to'liq bartaraf etilguniga qadar: qarzdorning transport vositasini boshqarish huquqini vaqtincha cheklash; qarzdorga litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega bo'lgan davlat xizmatlarini vaqtincha ko'rsatmaslik;

b) aliment bo'yicha qarzdorlik mavjudligini nikoh tuzish uchun monelik qiladigan holat sifatida belgilash.

20. Majburiy ijro byurosi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda "Aliment to'lovlari" davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilsin va unga Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 50 milliard so'm ajratilsin.

Belgilansinki, sud qarori bilan aliment to'lash majburiyati yuklatilgan shaxslardan belgilangan mablag'larni uch oy ichida undirish imkoni bo'lmagan hollarda "Aliment to'lovlari" davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari aliment to'lovlari bo'yicha shakllangan qarzdorlikni bir yo'la to'lash uchun yo'naltiriladi hamda keyinchalik aliment to'lash majburiyati yuklatilgan qarzdordan sud qarorisiz majburiy tartibda undirib olinadi.

Bosh prokuratura (N.T. Yo'ldoshev) va Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) ikki oy muddatda "Aliment to'lovlari" davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini yo'lga qo'yish, jamg'arma mablag'lari hisobidan aliment to'lovlaridan qarzdorlik to'lanadigan holatlar va shaxslar toifasini belgilash tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

21. Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlarga xos bo'lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish maqsadida:

a) Qo'mita (Z.B. Maxkamova) va Sog'liqni saqlash vazirligi (B.A. Musayev) ikki oy muddatda yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatilishi lozim bo'lgan ehtiyojmand 6 ming nafar xotin-qizlar, reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlanishga muhtoj bo'lgan 10 ming nafar nogironligi bo'lgan xotin-qizlar ro'yxatlarini Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasiga taqdim etsin;

b) Sog'liqni saqlash vazirligi (B.A. Musayev):

Qo'mita (Z.B. Maxkamova) bilan hamkorlikda 2022-yilda 3 million nafar xotin-qizlar onkologik skriningdan o'tkazilishini ta'minlasin;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh.A. Vafayev) bilan birgalikda 2022–2025-yillar davomida 227 ta tug'uruq kompleksi va 46 ta tumanlararo perinatal markazlarni to'liq ta'mirlash va jihozlash uchun xalqaro moliya institutlarining 105 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni jalb qilsin;

v) Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) 2022-yilda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagilar ajratilishini ta'minlasin:

yuqori texnologik tibbiy yordamga muhtoj xotin-qizlar uchun Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga qo'shimcha – 100 milliard so'm;

nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash uchun Tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligiga qo'shimcha – 17 milliard so'm;

barcha tuman va shahar tibbiyot birlashmalari tarkibidagi “Onko-nazorat” (“Cancer – nazorat”) ayollar ko‘rik xonalarini tibbiy asbob-uskunalar va tibbiy vositalar bilan jihozlash uchun – 20 milliard so‘m;

9–12 yoshdagi 815 ming nafar o‘smir qizlarni odam papillomasi virusiga qarshi hamda 12 turdagi vaksinalar bilan emlash uchun — 200 milliard so‘m.

22. Adliya vazirligi (R.Q. Davletov), Bosh prokuratura (N.T. Yo‘ldoshev), Oliy sud (K.F. Kamilov), Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov) va Qo‘mita (Z.B. Maxkamova) 2022-yil 1-iyunga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi order sud tomonidan bir yil muddatgacha berilishini belgilash;

chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi hududida aliment majburiyatlarini bajarmaganlik uchun sudlangan yoki ma‘muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, unga nisbatan O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish va O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqini cheklash bo‘yicha majburlov choralarini qo‘llamaslik;

ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

yaqin qarindoshi bo‘lgan xotin-qizga qasddan tan jarohati yetkazganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

shaxs hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi, sha‘ni va nomusini kamsituvchi ma‘lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash;

ikki oydan ortiq muddat mobaynida moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlagan shaxsga nisbatan haq to‘lanadigan jamoat ishlariga yoki boshqa ishga majburiy jalb qilish tarzidagi ma‘muriy huquqbuzarlikka oid jazo turini belgilash.

23. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.J. Xadjayev) Qo‘mita (Z.B. Maxkamova) va Yoshlar ishlari agentligi (A.Z. Sa‘dullayev) bilan birgalikda uch oy muddatda:

iqtdorli qizlarning ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda intellektual va innovatsion tashabbuslarini rivojlantirish maqsadida “Bilimdon qizlar” teleko‘rsatuvi;

turli sohalarida yutuqlarga erishgan xotin-qizlar to‘g‘risida ibo-hayo, poklik, sabr-toqat va ilmga intilish singari ezgu qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi “Ayol muvaffaqiyati” ruknidagi teledasturlar tayyorlanishi hamda efirga uzatilishini ta‘minlasin.

24. Farovon va barqaror oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan oilalarga beriladigan “Ibratli oila” ko‘krak nishoni ta‘sis etilsin va uni 15-may – Xalqaro oilalar kunida topshirish tartibi belgilansin.

Qo‘mita (Z.B. Maxkamova) bir oy muddatda “Ibratli oila” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizom loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 4-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

26. Qo‘mita (Z.B. Maxkamova) ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga muvofiq ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

27. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilish maqsadida:

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi raisi T.K. Narbayeva – 10-band;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvahitov – 3-band;

Bosh vazir o‘rinbosari Z.B. Maxkamova – 1, 4, 5, 22–25-bandlar;

Bosh vazir o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov — 2, 6–9, 11, 13–16, 20-bandlar;

Bosh vazir o‘rinbosari S.O‘. Umurzakov – 12-band;

Bosh prokuror N.T. Yoʻldoshev – 17–19, 21-bandlarda nazarda tutilgan tadbirlar ijrosi sifatli va oʻz vaqtida taʼminlanishi uchun masʼul va javobgar etib belgilansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari boʻyicha respublika komissiyasi raisi T.K. Narbayeva va Bosh vazir oʻrinbosari Z.B. Maxkamova har uch oyda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borsin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 7-mart,
PF-87-son

2022-2026-YILLARDA XOTIN-QIZLARNING MAMLAKAT IQTISODIY, SIYOSIY VA IJTIMOYIY HAYOTINING BARCHA JABHALARIDA FAOLLIGINI OSHIRISH BO'YICHA

MILLIY DASTUR

O'zbekistonda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar" doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida "Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" belgilangan.

Ushbu maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning o'z huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishida ularni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi dasturlarni kengaytirish talab etiladi.

2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur (keyingi o'rinlarda – Milliy dastur) xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Milliy dastur O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Milliy dasturda xotin-qizlarning huquqlariga inson huquqlarining ajralmas bo'lagi sifatida qaraladi hamda u "Inson qadri uchun" tamoyilidan kelib chiqqan holda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Milliy dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi xotin-qizlarning jamiyat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida teng huquqlar asosida to'laqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

1-bob. Milliy dasturning maqsad va vazifalari

Milliy dasturning maqsadi – xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, ularning salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda, xususan, davlat boshqaruvida ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlashdan iborat.

Milliy dasturni amalga oshirishda quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fan sohasiga keng jalb etish;

xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish choralari kuchaytirish;

xotin-qizlar orasida tazyiq va zo'ravonlikka uchrash hamda odam savdosi qurboni bo'lish holatlarining oldini olish;

jazoni ijro etish muassasasida saqlanayotgan, chet elga chiqib ketgan, davlat va jamoat tashkilotlarida hamda xususiy sektorda mehnat qilayotgan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning qonuniy manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari yanada takomillashtirish;

nuroniylar onaxonlarni e'zozlash, ularning bilim va boy hayotiy tajribasidan oilalarni mustahkamlash, qizlarning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda foydalanish, shuningdek, ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini targ'ib etish orqali oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash;

xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularda huquqiy madaniyat va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldorlik hissini oshirish choralari ko'rish.

2-bob. Milliy dasturning dolzarbligi, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirishdagi muammolar

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foizga, tadbirkorlik sohasida 25 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 46 foizga yetdi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi, yangi Bosh vazir o'rinbosari lavozimi joriy etilib, u mazkur qo'mita raisi hisoblanishi belgilandi.

Xotin-qizlarning jamiyatlardagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida Xotin-qizlarning jamiyatlardagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar tashkil etildi.

Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun Xalq banki tizimida rahbarining xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi.

Viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari hamda tuman (shahar)lar hokimliklarida hokim o'rinbosarlari — oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari lavozimlari, har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi kiritildi.

Xotin-qizlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus jamg'arma hisobidan ularning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mablag'lar ajratib kelinmoqda.

Jumladan, 2018–2021-yillarda og'ir-ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, 5,6 mingdan ziyod xotin-qizlar uchun uy-joy to'lovining boshlang'ich badali to'lab berildi, nogironligi bo'lgan 20 mingga yaqin ayollarga nogironlik aravachasi, eshitish moslamalari va boshqa reabilitatsiya vositalari olib berildi, 18 mingga yaqin xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar berildi, 500 nafar xotin-qizlarning jarrohlik amaliyoti xarajatlari to'lab berildi.

"Ayollar daftari" bilan ishlash orqali ijtimoiy ko'makka muhtoj xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilib, 2021-yilning o'zida 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berish uchun 2 trillion so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish uchun kontrakt to'lovlarini to'lab berish tizimi joriy etilib, oliy ta'lim muassasasiga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grant o'rinlari soni ikki baravarga oshirildi.

Xotin-qizlar uchun ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 6 oylik imtiyozli davr bilan kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 126 mingga yaqin ayollarga imtiyozli kreditlar berildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trillion so'mdan ziyod kredit ajratildi. 55 ming nafar xotin-qizlar tadbirkorlik va kasb-hunar markazlari tomonidan o'qitildi, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etildi.

Beshta muhim tashabbus doirasida chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar xotin-qizlar bandligi ta'minlandi.

Uy-joy sotib olish uchun 1 250 nafar xotin-qizlarga 22 milliard so'mga yaqin boshlang'ich badallar to'lab berildi.

Har yili 28 nafar iqtidorli xotin-qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanib, mukofot laureatlarini oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlariga kirish imtihonlarisiz davlat granti asosida qabul qilish yo'lga qo'yildi.

"Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etilib, o'tgan davr mobaynida 855 nafar faollar ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Davlat buyurtmasi asosida aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish tizimi hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning ish stajini qayd etish tartibi yo'lga qo'yilib, norasmiy sektorda band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizgacha qisqardi.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish masalalari bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi himoya orderini berish tartibi yo'lga qo'yilib, ushbu tartib orqali 2020–2021-yillarda zo'rvonlikdan jabr ko'rgan 35 mingdan ziyod xotin-qizlar himoya qilindi.

Xotin-qizlarning murojaatlari bo'yicha kunu-tun faoliyat yuritadigan 1211 qisqa raqamli "ishonch telefoni" orqali birgina 2021-yilning o'zida 100 mingga yaqin xotin-qizlarning murojaatlari hal etildi.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning 14 ta hududiy va 14 ta namunali tumanlararo markazlari tashkil etilib, mazkur maskanlarda 50 mingga yaqin xotin-qizlarga psixologik, yuridik, tibbiy va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatildi.

2020–2021-yillarda mahalla faollari tomonidan ajralish yoqasiga kelib qolgan 50 mingga yaqin oilalar yarashtirildi, 20 mingdan ziyod oilada nikoh qonuniylashtirildi, 6 mingga yaqin oilaning notinchligiga barham berildi.

Barcha tumanlar va shaharlarda Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari tashkil etildi. 2021-yil davomida ushbu markazlar tomonidan 90 mingdan ortiq nikohlanuvchi shaxslar oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodiyoti va budjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha bepul o'qitildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishi davrida barcha xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yuqori bosqichga ko'tarish hamda jamiyatda xotin-qizlar o'rni va rolini yanada oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bugungi kunda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

xotin-qizlarning, ayniqsa, qishloq joylardagi xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ishsiz xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish, ish bilan ta'minlash, ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagan;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollar va o'zgalar parvarishiga muhtoj keksa yoshdagi ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, ularni ehtiyojmandlik holatidan chiqarishga qaratilgan ishlar samarali tashkil etilmagan;

yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj 15 ming nafar xotin-qizlarning muammolari to'liq hal etilmagan;

xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga hamda huquqiy oqibatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lamiga yetarli emas;

ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar va kam ta'minlangan oilalarga tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, ularga subsidiyalar ajratish va bandligini ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar (shu jumladan, mikrokreditlar) ajratish tartib-taomillari bo'yicha targ'ibot ishlari hamda uslubiy-amaliy ko'maklashish tizimida sustkashliklar mavjud;

hududlarda, ayniqsa, chekka qishloqlarda tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarga tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish, ahvoli og'ir bo'lgan bemor xotin-qizlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni davolash hamda nogironlik belgilari aniq namoyon bo'lgan xotin-qizlarni ko'rikdan o'tkazish davriyligi muntazam tusga ega emas;

boquvchisini yo'qotgan hamda ajralish yoqasida turgan oilalarda, to'liqsiz oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarning, shuningdek, uzoq muddatga yashash joyidan chiqib ketgan ayollarning oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning muammolarini o'rganish va hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash ishlari tashkil etilmagan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlarni kasb-hunarlariga o'qitish, ularning bandligini ta'minlash hamda boshqa muammolarini o'z vaqtida hal etish choralari talab darajasida emas;

hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarning iqtidorlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish tizimi joriy etilmagan;

mahallalarda voyaga yetayotgan qizlar va yosh kelinlar o'rtasida oila, turmush madaniyati, tibbiy madaniyat, milliy qadriyatlarni e'zozlash, oilalarni mustahkamlashda qaynonalarning rolini oshirish kabilar bo'yicha targ'ibot ishlari samarali yo'lga qo'yilmagan;

mahallalardagi "Ayollar maslahat kengashlari" tomonidan xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va ularning o'z vaqtida hal etilishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, ijtimoiy faolligini oshirish borasida ularga uslubiy-amaliy ko'maklashish va rag'batlantirish amaliyoti joriy etilmagan.

3-bob. Milliy dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari

Quyidagilar Milliy dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

I. Xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish

Xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish.

Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash.

Chet elga ishlash uchun ketgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, odam savdosining oldini olish.

Xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilik normalari ijrosini monitoring qilish.

II. Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash.

Xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash.

Xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning rolini yanada oshirish.

Xotin-qizlar o'rtasida sportni ommalashtirish, madaniy hordiq chiqarishlari uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish.

Nuroniyl onaxonlarni e'zozlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va faolligini oshirish.

III. Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash

Nogironligi bo'lgan yoki nogironligi bo'lgan farzandni tarbiyalovchi ayollarni qo'llab-quvvatlash.

Uy-joyini ta'mirlashga muhtoj hamda noturar joylarda yashaydigan ehtiyojmand xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash.

Boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash.

O'zgalar parvarishiga muhtoj kekxa yoshdagi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

"Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va tadbirkorligini yo'lga qo'yishga ko'maklashish.

IV. Oila institutini mustahkamlash

Oila institutini mustahkamlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish.

Demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish.

Oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarini saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash.

Oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish.

V. Xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish

Xotin-qizlar orasida qonuniylk va huquq-tartibotni ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usul va shakllarini tatbiq etish.

Ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

4-bob. Milliy dasturni amalga oshirish

Milliy dastur uch bosqichda: 2022–2023-yillar, 2024–2025-yillar va 2026-yil davomida amalga oshiriladi, bunda:

a) birinchi bosqichda (2022–2023-yillar) tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratishga hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar bajariladi:

xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida masofaviy ish usuli va moslashuvchan ish grafida ishlash mexanizmlari joriy etiladi;

uzoq muddatga xorijga chiqib ketayotgan ota-onalar tomonidan farzandiga vasiy yoki homiy tayinlashning majburiy tartibi o'rnatiladi;

mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketgan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtiriladi;

xotin-qizlar orasidagi ishsizlik darajasini kamaytirish uchun ular davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitiladi;

ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks choralar ko'riladi;

iqtdorli yosh xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yaratiladi;

respublika va hududlarda “Yetakchi ayollar muloqoti” platformasi tashkil etiladi;
xorijdagi vatandoshlardan iborat “O‘zbekistonlik vatandosh xotin-qizlar kengashi” tashkil etiladi;

vazirlik va idoralar, xo‘jalik birlashmalari va ta‘lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlarining faoliyati yo‘lga qo‘yiladi;

qurilish, transport, kommunal, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi kollej va texnikumlarda kasb (mutaxassislik) egallash istagida bo‘lgan xotin-qizlarning to‘liq davlat granti asosida ta‘lim olishlari ta‘minlanadi, 3 yoshgacha farzandi bo‘lgan talaba-qizlarga masofaviy ta‘lim olish imkoniyati yaratiladi;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlarning uy-joy sharoitlari yaxshilanadi, shuningdek, qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlarga doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishda ko‘maklashiladi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim, professional ta‘lim tashkilotlarining tegishli fanlari tarkibiga oila qadriyatlari va oila psixologiyasiga oid mavzular kiritiladi;

notinch va kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Oilaviy sayohat” turistik paketlari joriy etiladi;

notinch oilalar uchun oilaviy psixologlar yordamini ko‘rsatish tizimi joriy etiladi;

b) ikkinchi bosqichda (2024-2025-yillar) barcha sohalarida gender tenglikka erishish hamda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar bajariladi:

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq mavjud infratuzilmalarni mustahkamlash va yangilarini tizimli ravishda barpo etish ishlari jadallashtiriladi;

Milliy dastur doirasida belgilangan maqsad va vazifalarning “mahallabay” ijrosi ustidan monitoring olib borish tizimi yanada takomillashtiriladi;

v) uchinchi bosqichda (2026-yil) xotin-qizlarning huquqiy, tibbiy, psixologik savodxonligini oshirish hamda ilmiy-madaniy iqtidori va ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar bajariladi:

Milliy dasturning asosiy natijalariga erishish, maqsadli parametrlari ko‘rsatilgan inson kapitalini yetakchi rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan mezonlarga muvofiq baholash tartibiga o‘tiladi;

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish uchun indikatorlar yaratiladi.

5-bob. Milliy dasturni qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish

Milliy dastur quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

mas‘ul ijrochilarning budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzlari), grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘lari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6-bob. Kutilayotgan natijalar

Milliy dasturning amalga oshirilishi kelgusida quyidagi natijalarga olib kelishi kutilmoqda:

“Bir million dasturchi” loyihasida ishtirok etadigan xotin-qizlar soni 30 foizga yetkaziladi;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xotin-qizlar bandligiga ko‘maklashish maqsadida 14 ta hududda kooperativlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga o‘qishga tavsiya etilgan nomzodlar orasida xotin-qizlar ulushi 30 foizgacha yetkaziladi;

oliy ta'lim muassasalarida psixolog mutaxassislariga ehtiyoj yuqori bo'lgan sohalar bo'yicha qabul parametrlari 30 foizga oshiriladi;

tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining 46 ta tug'uruq bo'limi negizida tumanlararo perinatal markazlar tashkil etiladi;

respublikada istiqomat qilayotgan 337 mingdan ziyod xotin-qizlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya choralari bilan qamrab olish ko'lami kengaytiriladi, ularni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlarida ambulator reabilitatsiya qilish mexanizmlari joriy etiladi;

xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari takomillashtiriladi, xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilik normalari ijrosi qat'iy nazoratga olinadi;

gender tenglikka erishish darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida mamlakatimizning o'rni sezilarli oshiriladi;

xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrashining oldi olinadi;

jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan xotin-qizlarning jamiyat hayotiga moslashuvchanligi oshadi;

chet elga ishlash uchun chiqib ketgan xotin-qizlarni huquqiy qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yiladi;

odam savdosining oldi olinadi;

xotin-qizlar orasida ishsizlik darajasi kamayadi, ayollar tadbirkorligi oshib, kambag'allik qisqartiriladi;

og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarning turmushi yaxshilanadi;

nogironligi bo'lgan yoki nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ayollar, uy-joysiz, boquvchisi bo'lmagan, o'zgarlar parvarishiga muhtoj ayollar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi;

xotin-qizlarning salomatligi mustahkamlanadi, onalik va bolalik muhofaza qilinadi;

davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyi yanada mustahkamlanadi;

xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratiladi, ilm-fan sohasida ayollarning o'rni oshadi;

xotin-qizlarning sport bilan shug'ullanishi va madaniy hordiq chiqarishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratiladi;

oila instituti mustahkamlanadi, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhit yaxshilanadi va ajrimlar soni kamayadi;

xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklar oldi olinadi;

xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari roli oshadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

XOTIN-QIZLARNING MEHNAT HUQUQLARI KAFOLATLARINI YANADA KUCHAYTIRISH VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHGA OID CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining vazifalari qayta ko'rib chiqildi, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo'linmalari, Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etildi, shuningdek, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi.

Shu bilan birga, xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlash, tadbirkorlik sohasida samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini yaratishga to'squinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjud.

Jumladan, uzoq muddat bola parvarishlash bilan band bo'lgan ayollarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash borasidagi ishlar yetarlicha tashkil etilmagan.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida:

1. Belgilab qo'yilsinki, 2019-yil 1-maydan:

ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlar bekor qilinadi;

tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxati tasdiqlanadi;

bola parvarishlash ta'tilining kamida uch oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasi tartibida qo'shimcha bir oy nafaqa to'lanadigan bola parvarishlash ta'tili beriladi;

ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi;

ayollarning pensiya yoshiga to'lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi;

erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.

2. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari ko'magida nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lgan "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari"ni (keyingi o'rinlarda markazlar deb yuritiladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

3. Quyidagilarni markazlarning asosiy vazifalari etib belgilash tavsiya etilsin:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga ko'maklashish;

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish;

ayollarning o'z biznesini tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo'llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'qitishni tashkil etish;

zarur hollarda, faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo'sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko'maklashish;

tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko'maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga ko'maklashish;

norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro'yxatdan o'tish, "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish orqali soliqlar va boshqa turdagi imtiyozlardan foydalanishda hamda imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko'rsatish.

4. Belgilab qo'yilsinki:

markazlar biznes-inkubator shaklida xotin-qizlarning tadbirkorlik, hunarmandchilik faoliyatini, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan tashkil etiladi;

markazlarni saqlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va asosiy vazifalari amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga tijorat banklariga kredit ajratish uchun berilgan resurslardan hisoblangan foizdan kelib tushgan mablag'lar (bank marjasidan tashqari) hamda xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar tuman (shahar) hokimi va tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan shakllantiriladigan ro'yxat asosida maxsus o'qitish dasturi bo'yicha o'qitiladi;

maxsus o'qitish dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan xotin-qizlar orasidan tegishli tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi tavsiyasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 3 yildan kam bo'lmagan muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan 2019-yil 31-dekabrgacha yillik 8 foizli stavkada, 2020-yil 1-yanvardan – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasida, 2021-yil 1-yanvardan esa tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o'rnatiladigan stavkalarda hamda hududlarda aholi bandligini ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni kreditlash tartibi asosida kreditlar ajratiladi;

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan AT Xalq banki, "Mikrokreditbank" ATB hamda "Agrobank" ATBga har yili ajratiladigan 100 milliard so'm miqdoridagi resurs mablag'lari kredit mablag'larining manbai bo'lib hisoblanadi. Mazkur resurs mablag'larining kamida 50 foizi qishloq joylarida istiqomat qiluvchi xotin-qizlarning biznesini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bir oy muddatda kredit olish uchun tavsiya berish jarayonini adolatli va shaffofligini ta'minlovchi tartibni tasdiqlasin.

Tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o'rnatiladigan stavkalarida beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarning bir qismini kompensatsiya qilish mexanizmi qo'llaniladi.

7. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi Adliya vazirligi va Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz bilan birgalikda ikki oy muddatda:

a) quyidagilarni nazarda tutuvchi "Erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

gender tenglik tushunchasi va turlari;

vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari;

davlat boshqaruvida ishtirok etish, ishga qabul qilish yoki yollash, kredit olish va tadbirkorlik bilan shug'ullanishda gender tenglikni ta'minlashga oid normalar;

gender tenglik buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shuningdek bunday buzilishga olib keladigan qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik;

b) quyidagilarni nazarda tutuvchi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

maishiy, ish joyidagi va ta'lim muassasalaridagi tazyiq va zo'ravonliklar turlari;

vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari;

tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shuningdek, bunday qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik;

sudgacha va sud jarayonida tazyiq va kamsitishlarga duchor bo'lgan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan protsessual kafolatlar.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Xotin-qizlar qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Markaziy saylov komissiyasi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy sud, Markaziy bank, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2-ilovaga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan minimal gender ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlarning "Gender.stat.uz" veb-saytiga joylashtirilishini va ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilanib borilishini ta'minlasin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bir oy muddatda markazlarni barcha sharoitlarga ega bo'lgan xizmat xonalari bilan ta'minlasin.

10. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Adliya vazirligi hamda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda uch oy muddatda qonun hujjatlarini xotin-qizlarning mehnat va tadbirkorlik huquqlari kamsitilishi holatlari mavjudligi nuqtai nazaridan inventarizatsiya qilib, tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

11. Quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi E.I. Basitxanova zimmasiga ushbu qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning davlat organlari va tashkilotlari tomonidan samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo'yicha o'rinbosari E.M. Ganiyev va O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.U. Umurzoqov zimmasiga Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya bilan hamkorlikda ushbu qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar va loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro moliya tashkilotlari, birinchi navbatda, ayollarni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning texnik ko'mak vositalari va kreditlarini jalb qilish bo'yicha doimiy va tizimli ravishda zarur tashkiliy-amaliy choralar ko'rish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi T.K. Narbayeva va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 7-mart,
PQ-4235-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoniga muvofiq:

1. Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy vakillik organlarining Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasini, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida esa Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha hududiy komissiyalarni tashkil etish haqidagi taklifi qo'llab-quvvatlansin.

2. Quyidagilar:

a) Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

b) Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni: 49 nafar shtat birligidan iborat Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

168 nafar shtat birligidan iborat Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

621 nafar shtat birligidan iborat tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlarining namunaviy tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisiga:

o'zining o'rinbosarlari o'rtasida aniq vazifalar va funksiyalarni taqsimlash;

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) markaziy apparati, hududiy bo'linmalari tuzilmalariga boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy shtatlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar, yetakchi loyiha institutlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, ekspertlarni maslahatchi sifatida jalb qilish huquqi berilsin.

4. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasida xodimlarning umumiy cheklangan soni doirasida 5 nafar boshqaruv xodimlari shtat birligidan iborat bo'lgan Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisining kotibiyati tashkil etilsin.

5. Belgilab qo'yilsinki:

Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi har yili Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasiga Qo'mita faoliyati yuzasidan hamda sohadagi tizimli muammolar va ularning yechimi to'g'risida axborot berib boradi;

mahallalardagi xotin-qizlar faollari lavozimlariga nomzodlar tuman (shahar) hokimlari o'rinbosarlari – oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari boshchiligidagi tanlov komissiyalarini shakllantirish orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi;

mahallalardagi xotin-qizlar faollari lavozimlariga oila va xotin-qizlar bilan ishlash tajribasiga ega, shaxsiy fazilatlar bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi va sadoqatli nomzodlar tayinlanadi;

Qo'mita markaziy apparati xodimlari mehnatga haq to'lash shartlariga ko'ra Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi markaziy apparati xodimlariga, uning hududiy bo'linmalari xodimlari Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari xodimlariga tenglashtiriladi.

6. Qo'mita va uning hududiy bo'linmalarining faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

Davlat budjeti mablag'lari;

Qo'mitaning budjetdan tashqari mablag'lari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin.

8. Bosh prokuraturaning tashkiliy-shtat tuzilmasida shtat birliklarini maqbullashtirish hisobidan 20 nafar shtat birligidan (shundan, 14 nafar hududiy vakillar shtat birligi) iborat Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etilsin.

Bosh prokuratura xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatilsin.

9. Qo'mita:

a) ikki oy muddatda:

markaziy apparat va hududiy bo'linmalarining Qo'mitaga yuklangan vazifalarni professional darajada bajarishga qodir bo'lgan, zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar bilan tanlov asosida to'ldirilishini;

tarkibiy va bo'ysunuvidagi bo'linmalar, shu jumladan mahalladagi xotin-qizlar faoli to'g'risidagi nizomlar, shuningdek, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari tasdiqlanishini ta'minlasin;

b) uch oy muddatda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda Qo'mita va uning hududiy bo'linmalarini yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulanishini hamda zarur aloqa, jumladan, Qo'mitani hukumat aloqasi bilan ta'minlasin.

10. Belgilansinki, Qo'mita va uning hududiy bo'linmalari o'zlariga yuklatilgan funksiyalarga muvofiq belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

Qo'mitaga tegishli vazifalarni amalga oshirish uchun, zarur hollarda, davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning rahbarlari hamda mutaxassislarini jalb qilish, ishchi guruhlar tuzish;

Qo'mita vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni so'rash va olish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda oilani mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko'zlab sudlarga ariza (shikoyat) va da'volarni kiritish;

xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda oilani mustahkamlashga doir tashabbuslar bilan chiqish hamda takliflar kiritish.

11. 2022-yil 1-maydan boshlab mahalladagi xotin-qizlar faolining oylik ish haqi miqdori u birlashtirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilansin:

xonadonlar soni 500 tagacha bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,5 baravari miqdorida;

xonadonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4 baravari miqdorida;

xonadonlar soni 1 000 tadan ortiq bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,5 baravari miqdorida.

Belgilansinki, faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, mahallalardagi xotin-qizlar faollarini qo'llab-quvvatlash maqsadida mehnatga haq to'lash jamg'armasining 15 foizi miqdorida moddiy rag'batlantirish jamg'armasi shakllantiriladi.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2022-yil 1-avgustga qadar mahalliy budjet mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mahallalardagi xotin-qizlar faollarini "Ayollar daftari"ni yuritish, masofadan turib hisobotlar taqdim etish hamda videokonferensaloqa shaklida yig'ilishlarda ishtirok etish imkonini beruvchi planshetlar bilan ta'minlasin.

Qo'mita hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ikki oy muddatda planshetlarda foydalaniladigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqsin va mahallalardagi xotin-qizlar faollariga taqdim etsin.

13. Qo'mita Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ismoiliy ko'chasi, 1 G-uy manzili bo'yicha operativ boshqaruv huquqi asosida joylashtirilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Qo'mita bilan birgalikda 2022-yil 1-aprelga qadar Qo'mitaning hududiy bo'linmalarini zarur bino va inshootlar bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

14. Moliya vazirligi:

2022-yilda ushbu qarorni amalga oshirish doirasida Qo'mitaning xarajatlari uchun "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin;

"2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar Qo'mita faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar uchun mablag' ajratish choralari ko'rsin;

2023-yildan boshlab har yili Davlat budjeti parametrlarida zarur mablag'larni ko'zda tutsin.

15. Qo'mita manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

16. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 1-mart,
PQ-146-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

XOTIN-QIZLARNI KASB-HUNAR VA TADBIRKORLIKKA O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkor ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlikka o'qitish dasturlarida ishtirok etuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlarining elektron reyestriga kiritilgan nodavlat ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – nodavlat ta'lim tashkilotlari), professional ta'lim muassasalari hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining (keyingi o'rinlarda – Oliy maktab) kasb-hunarga o'rgatuvchi o'quv kurslariga yo'naltirilgan yoshlar va xotin-qizlar uchun Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan uch tomonlama shartnoma asosida o'quv kurslari qiymatining 70 foizi, biroq 1 mln so'mdan oshmagan qismi kompensatsiya qilib beriladi;

uch tomonlama shartnoma fuqaro, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy boshqarmalari va mazkur badda ko'rsatilgan ta'lim tashkilotlari o'rtasida mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchilari (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchilari) tavsiyasiga ko'ra tuziladi;

"Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni Oliy maktab tomonidan o'qitish ishlari to'liq bepul amalga oshiriladi;

nodavlat ta'lim tashkilotlari, professional ta'lim muassasalari hamda Oliy maktabning kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslarini yakunlagan ishsiz xotin-qizlar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan mavjud bo'sh ish o'rinlariga joylashtiriladi;

tadbirkorlik yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslarini yakunlagan xotin-qizlarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tishidan boshlab, o'z faoliyatini mustaqil olib borishiga qadar bo'lgan jarayonda hokim yordamchilari tomonidan tizimli ravishda amaliy yordam ko'rsatib boriladi.

2. Belgilansinki, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi tomonidan mehnatga layoqatli, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan ish beruvchilar uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ikki oy muddatda mehnatga layoqatli, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan ish beruvchilar uchun subsidiyalar ajratish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritgin.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan fuqarolar, birinchi navbatda, xotin-qizlarga hokim yordamchisi tavsiyasi asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan nodavlat ta'lim tashkilotlari va professional ta'lim muassasalarining o'quv kursi qiymatining qolgan 30 foiz qismi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi hududiy boshqarmasi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi, tegishliligi bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlari yoki professional ta'lim muassasalari va fuqaro o'rtasida shartnomaga muvofiq oldindan to'lash orqali qoplab beriladi.

4. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Oliy maktab bilan birgalikda bir oy muddatda:

har bir mahalla kesimida ishsiz deb e'tirof etilgan va ishlash yoki tadbirkorlik qilish istagini bildirgan xotin-qizlarning birlamchi ro'yxatini shakllantirsin;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, Oliy maktabining hududiy filiallari, Savdo-sanoat palatasida shakllantirilgan ro'yxatlarga kiritilgan xotin-qizlarning kasb-hunarga ("Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi elektron axborot tizimida mavjud bo'sh ish o'rinlaridan kelib chiqqan holda) va tadbirkorlikka o'qitilishini ta'minlasin;

hokim yordamchilari tavsiyasiga asosan kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha kurslarni tugatgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash borasida "Onlayn mahalla" platformasini Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining "Mehnat.uz" platformasiga integratsiya qilish orqali ularni mavjud bo'sh ish o'rinlariga yo'naltirsin.

5. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

6. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi direktori M.M. Ubaydullayev belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari J.A. Qo'chqorov va Z.B. Maxkamova zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 22-iyul,
PQ-329-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI OSHIRISH VA SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RIDA

Kasanachilikni rivojlantirish orqali oila budjeti daromadlarini oshirish, uy mehnatidan foydalangan holda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish orqali ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlar sonini qisqartirish, mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida:

1. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ-214-son qarorining 4-bandiga muvofiq, kasanachiga zarur asbob-uskuna xarid qilish uchun tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan subsidiya miqdori amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha oshirilsin;

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Mahkamova) Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan olis va chekka hududlardagi mahallalarda kamida 20 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni kasanachilik asosida ish bilan ta'minlagan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili bir marotaba har birining qiymati 50 million so'm bo'lgan loyihalar tanlovini o'tkazsin;

yangi ish boshlayotgan kasanachilar faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish va takomillashtirish hamda ularga uslubiy yordam berish uchun xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan lider kasanachilarni jalb etgan holda o'quv kurslari tashkil etilsin;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan kamida 5 nafar ishsiz xotin-qizlarni kasanachilik asosida ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat mulkidagi bino va inshootlarni ijaraga olishda ijara haqi 50 foiz miqdorda undirilsin;

ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlari umumiy sonining kamida 70 foizi "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bo'lgan kasanachilikni tashkil etgan va imtiyoz berilgan davrda ularning bandligini saqlab qolgan tadbirkorlik subyektlari davlat mulkidagi bino va inshootlar uchun ijara haqi to'lovidan 2027-yil 1-oktabrga qadar ozod etilsin.

Mazkur bandedda nazarda tutilgan "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni kasanachilik asosida ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlariga davlat mulkidagi bino va inshootlarni ijaraga olishda ijara to'lovlari uchun beriladigan imtiyozlarning shartlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Kasanachilikni rivojlantirish orqali xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha 2022-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Mahkamova) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagi choralarini ko'rsin:

har bir tuman (shahar)da xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari huzurida lider kasanachilarni jalb etgan holda "maslahat soatlari"ni joriy etish;

hududlarda kasanachilik orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida "Eng namunali tadbirkor" ko'rik-tanlovini o'tkazish.

4. Belgilansinki:

mahallalarda tashkil etiladigan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari (keyingi o'rinlarda — markazlar) tuman (shahar) hokimliklari tomonidan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan barpo etiladi;

markazlar binolari mahalla fuqarolari yig'ini tomonidan mahallalardagi xotin-qizlar faollarining tavsiyasiga asosan davlat mulkini ijaraga berish tartibiga muvofiq tikuvchilik, qandolatchilik, fitnes, shepying, xotin-qizlarni kasbga o'qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 5 yil muddatga ijaraga beriladi;

xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish faoliyati tashkil etilgan markazlarda bitta yo'nalish bo'yicha jalb qilingan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining mehnatiga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan haq to'lashga ruxsat beriladi;

markazlarda bitta loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizlarning doimiy bandligini ta'minlash maqsadida har bir nafar bandligi ta'minlanadigan ishsiz xotin-qiz uchun Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga belgilangan tartibda 3 million so'mdan oshmagan miqdorda davlat granti ajratiladi;

ajratilgan davlat granti ijtimoiy loyihani amalga oshirish maqsadida markazlarda tashkil etiladigan tikuvchilik, qandolatchilik, pazandachilik va turli hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda tayyorlash uchun zarur bo'ladigan dastgoh, uskuna va jihozlar xarid qilishga yo'naltiriladi.

Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortiqov) hamda Kadastr agentligi (F. Pulatov) bilan birgalikda 3-ilovada ko'rsatilgan mahallalarda bo'sh yer uchastkalari va bo'sh binolarning (binolar bir qismining) markazlar tashkil etish uchun tegishli mahallalarga ajratilishini va ularning to'liq ishga tushirilishini ta'minlasin;

Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi (T. Xudaybergenov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (M. Ubaydullayev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortiqov), Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev), Savdo-sanoat palatasi (D. Vahobov) bilan birgalikda markazlar binolarini tadbirkorlik subyektlariga 5 yilgacha ijaraga berish hamda markazlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda mahallalarga ko'maklashsin;

mazkur qarorga 3-ilovada keltirilmagan barcha mahallalarda bosqichma-bosqich markazlar barpo etilishi va ularning faoliyati yo'lga qo'yilishi choralari ko'rsin.

6. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), O'zbekiston Milliy axborot agentligi (A. Ko'chimov) va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Xadjayev) mazkur qarorning mazmun-mohiyatini va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari Z.M. Mahkamova, bandlik va mehnat munosabatlari vaziri N.B. Xusanov hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 21-sentabr,
PQ-376-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tishi tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi E.I. Basitxanova va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 4-yanvar,
3-son

TAZIYQ VA ZO'RAVONLIKDAN JABRLANGAN XOTIN-QIZLARGA HIMOYA ORDERINI BERISH, IJROSINI TA'MINLASH VA MONITORING OLIB BORISH TO'G'RSIDA

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq va (yoki) zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga (keyingi o'rinlarda jabrlanuvchi deb ataladi) himoya orderini, shuningdek tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga (keyingi o'rinlarda zo'ravonlik sodir etgan shaxslar deb ataladi) himoya orderining nusxasini berish (keyingi o'rinlarda jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga himoya orderini berish deb ataladi) tartibini belgilaydi.

2. Himoya orderi ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq seriya va raqamga ega bo'lgan, qat'iy hisobi yuritiladigan hujjat hisoblanadi.

3. Himoya orderi ichki ishlar organlarining tayanch punkti profilaktika (katta) inspektori (keyingi o'rinlarda profilaktika inspektori deb ataladi) tomonidan ushbu Nizomga 2-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq beriladi.

4. Himoya orderi tuman (shahar) ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida yuritiladigan alohida daftarda qayd etiladi.

2-bob. Himoya orderini berish tartibi

5. Quyidagilar himoya orderini berish uchun asos hisoblanadi:

tazyiq va zo'ravonlik qurbonining murojaati;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va (yoki) ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan xabarlar;

tazyiq yoki zo'ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;

davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar.

6. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar jabrlangan xotin-qizlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgach ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakldagi xabarnomani darhol ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

7. Xabarnoma qonunchilik hujjatlariga muvofiq ichki ishlar organlari navbatchilik qismidagi daftarda qayd etiladi.

8. Tazyiq va zo'ravonlik to'g'risida habar bergan shaxslar va tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qo'riqlanadi.

9. Ichki ishlar organlarining navbatchilik qismida belgilangan tartibda qayd etilgan murojaatlar va xabarlar darhol profilaktika inspektoriga taqdim etiladi.

10. Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari tomonidan taqdim etilgan murojaatlar va xabarlarni 24 soat mobaynida o'rganib chiqadi hamda o'rganish davomida: jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar hamda boshqa shaxslar bilan holat yuzasidan suhbat o'tkazadi;

jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning turmush tarzi, tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishining kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarini o'rganadi;

jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

11. Profilaktika inspektori murojaat va xabarlarni o'rganish yakuni bo'yicha:

tazyiq va zo'rvonlik holatlari aniqlangan taqdirda – himoya orderini rasmiylashtiradi;

zo'rvonlik sodir etgan shaxslarga himoya orderi berilganligi to'g'risida jabrlanuvchining roziligi bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, shuningdek, boshqa tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlarni xabardor qiladi;

tazyiq va zo'rvonlik holatlari aniqlanmagan taqdirda qonunchilik hujjatlariga muvofiq tegishli choralarni belgilaydi hamda bu haqda fuqarolar yig'ini raisi va mahalladagi xotin-qizlar faoli ishtirokida dalolatnoma rasmiylashtiradi;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilari aniqlangan taqdirda – himoya orderini berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallarini jinoiy javobgarlik masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuboradi.

12. O'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchilarning himoya orderini berish to'g'risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Shaxs himoya orderini olishni va uni imzolashni rad etganda, profilaktika inspektori xolislar ishtirokida dalolatnoma tuzadi hamda uni ushbu xatti-harakatni davom ettirgan taqdirda qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi to'g'risida rasmiy ogohlantiradi va bu haqda jabrlanuvchini xabardor qiladi.

13. Himoya orderi rasmiylashtirilganda barcha yozuvlar ko'k (havorang) siyohli ruchkada, tushunarli qilib yoziladi.

14. Himoya orderi uch qismdan iborat bo'lib:

birinchi qismi (asli) to'ldirilgandan so'ng jabrlanuvchilarga beriladi;

ikkinchi qismi (nusxasi) zo'rvonlik sodir etgan shaxslarga beriladi;

uchinchi qismi profilaktika inspektorida qoladi.

15. Himoya orderi o'ttiz kun muddatgacha beriladi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

16. Profilaktika inspektori himoya orderi berilganidan so'ng uch kun muddatda bu haqda tegishli tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'ining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosarini xabardor qiladi.

17. Tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'ining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosari himoya orderini rasmiylashtirish uchun to'plangan materiallarni o'rganib, taraflar fikrini eshitgan holda profilaktika inspektorining himoya orderini berish to'g'risidagi qarorini bekor qilishga haqli.

3-bob. Himoya orderining ijrosini ta'minlash tartibi

18. Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

tazyiq o'tkazishni va zo'rvonlik sodir etishni taqiqlash;

tazyiq o'tkazgan yoki zo'rvonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchining tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo'l qo'yiladi);

tazyiq o'tkazilgan va zo'rvonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo'lishini taqiqlash;

tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash, shuningdek, ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;

tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda ko'rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek, qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Himoya orderida qonunchilik hujjatlarida belgilanmagan boshqa cheklovlarni nazarda tutish taqiqlanadi.

19. Tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsdan qurol va uning o'q-dorilarini olib qo'yish hamda saqlash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20. Profilaktika inspektori himoya orderini rasmiylashtirishda xotin-qizlarga nisbatan o'tkazilgan tazyiq va zo'ravonlik holatidan kelib chiqqan holda zo'ravonlik sodir etgan shaxsga ushbu Nizomning 18-bandida belgilangan bitta yoki bir nechta cheklovni bir vaqtning o'zida qo'llashi mumkin.

21. Himoya orderi amal qilish davrida:

a) profilaktika inspektorlari:

tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'radi;

xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam asosda profilaktika ishlarini olib boradi;

himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazorat qiladi hamda uning talablarini buzgan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'radi;

b) mehnat organlari:

xotin-qizlarga nisbatan ish joyida tazyiq va zo'ravonlik o'tkazilgan hollarda, bunday hollarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan, shuningdek, xotin-qizlar bilan o'zaro munosabatlar madaniyatini oshirish bo'yicha tashkilotlarda profilaktika tadbirlarini o'tkazadi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlagan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi;

v) ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari hamda ta'lim muassasalari:

ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar orasidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxslar aniqlanganda ularning xulq-atvorini tuzatish, shuningdek, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarini ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda moslashtirish chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarning ta'lim muassasalarida bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishini ta'minlash maqsadida tadbirlar tashkil etadi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi;

g) davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari:

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi;

d) O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining hududiy bo'linmalari:

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlariga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko'radi;

jabrlanuvchini ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazganligi va zo'ravonlik sodir etganligi uchun profilaktik hisobda turadigan shaxslar bilan nizoli vaziyatlarni profilaktika qilish, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish choralari ko'radi;

himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi;

e) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadi;

xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan olib boriladigan profilaktika ishlarida qatnashadi;

himoya orderining amal qilish muddati mobaynida tegishli hududda istiqomat qiluvchi zo'ravonlikni sodir etgan shaxs, shuningdek, jabrlanuvchi bilan kelgusida bunday hollarning oldini olish maqsadida mahalla faollari ishtirokida suhbatlar o'tkazadi;

bu haqda profilaktika inspektoriga xabar beradi.

22. Zo'ravonlik sodir etgan shaxslar tomonidan himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda profilaktika inspektori tomonidan o'z vakolati doirasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

4-bob. Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish tartibi

23. Himoya orderi amal qilishi davrida xavf bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati jabrlanuvchining arizasiga ko'ra ko'pi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin.

24. Profilaktika inspektori besh ish kuni mobaynida:

himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida jabrlanuvchining arizasini, shu jumladan, xavf bartaraf etilgan yoki etilmaganligini o'rganadi;

ushbu masala yuzasidan mazkur Nizomning 21-bandida ko'rsatilgan tegishli davlat organlari va tashkilotlarning fikri (xulosasi)ni oladi;

himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish yuzasidan to'plangan ma'lumotlarni huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'iga kiritadi.

25. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i ikki ish kuni mobaynida tegishli hujjatlarni o'rgangan holda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytiradi yoki uzaytirishni rad etish to'g'risida asoslangan qaror qabul qiladi.

26. Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilgan taqdirda bu haqda amaldagi blankaga belgi qo'yilib, jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar tanishtiriladi hamda zo'ravonlik sodir etgan shaxslar zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tishi to'g'risida ogohlantiriladi.

27. Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilgan davrda zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga qo'shimcha cheklovlar yoki profilaktik chora-tadbirlar belgilanishi mumkin.

28. O'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchilarning himoya orderini uzaytirish to'g'risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi.

5-bob. Himoya orderining amal qilish muddatini tugatish tartibi

29. Himoya orderining amal qilishi quyidagi holatlarda tugatiladi:

jabrlanuvchi himoya orderini tugatishni so'rab murojaat qilganda;

himoya orderida belgilangan muddat (uzaytirilgan muddat) tugaganda;

jabrlanuvchi yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsdan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

sodir etgan jinoyati uchun jabrlanuvchi yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biriga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanganda;

jabrlanuvchilar yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biri sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etilganda;

jabrlanuvchilar yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biri majburiy davolanishga yuborilganda;

jabrlanuvchi va zo'rvonlik sodir etgan shaxslarning biri qonun hujjatlariga muvofiq doimiy yashash joyidan uzoq muddatga boshqa mamlakatga chiqib ketganda;

jabrlanuvchi va zo'rvonlik sodir etgan shaxslardan biri vafot etganda.

30. Himoya orderining amal qilish muddati tugaganligi to'g'risida shu kunning o'zida jabrlanuvchi va zo'rvonlik sodir etgan shaxslar xabardor qilinadi.

6-bob. Himoya orderini berish faoliyati ustidan monitoring olib borish tartibi

31. Himoya orderini berish faoliyati ustidan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan monitoring olib boriladi.

32. Profilaktika inspektorlari tomonidan taqdim etilgan jabrlanuvchi, zo'rvonlik sodir etgan shaxslarga berilgan himoya orderi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar tuman huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari tomonidan umumlashtirib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalariga keyingi oyning 2-kuniga qadar taqdim etiladi.

33. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, Toshkent viloyati va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmalari huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari ushbu ma'lumotlarni o'rganib, umumlashtiradi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasiga keyingi oyning 5-kuniga qadar taqdim etadi.

34. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'ining xotin-qizlarni tazyiqdan himoya qilish, shu jumladan, himoya orderini berish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisoboti har oyda tegishli tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i huzurida o'tkaziladigan tezkor yig'ilishlarda muhokama qilib boriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

35. Himoya orderi blankasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tayyorlanadi.

36. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish chora-tadbirlarini moliyalashtirish "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 31-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

37. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

XOTIN-QIZLAR MUAMMALARINI O'RGANISH VA HAL ETISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan "Ayollar daftari"ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida tuman (shahar) hokimliklarida yuridik shaxs bo'lmagan, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari shaklidagi "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – "Ayollar daftari" jamg'armasi) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

"Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritiladigan xotin-qizlarning ro'yxatini shakllantirish, ushbu xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirish, mazkur chora-tadbirlar ijrosi ustidan monitoring o'rnatish hamda "Ayollar daftari" ro'yxatidan chiqarish tartibini nazarda tutuvchi "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) 1-ilovaga muvofiq;

"Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xarajatlarini moliyalashtirish tartibini nazarda tutuvchi "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa mas'ul vazirlik va idoralarga "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi vazifalarni ustuvor ravishda amalga oshirish yuklatilsin:

xotin-qizlarning bandligini ta'minlash;

tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanishi uchun ko'maklashish;

ularni tadbirkorlikka jalb qilish;

moddiy yordam ko'rsatish;

turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to'lash;

ijtimoiy uylarga joylashtirish va ularning uy-joylarini ta'mirlashga ko'maklashish;

tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratsin.

4. Belgilansinki:

a) "Ayollar daftari" jamg'armasining daromad va xarajatlari yillik parametrlarini va ularning ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlarni, yillik ish rejalarini tasdiqlash hamda jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa vakolatlar "Ayollar daftari" jamg'armasi Vasiylik kengashi (keyingi o'rinlarda – Vasiylik kengashi) tomonidan amalga oshiriladi. Bunda daromad va xarajatlarning yillik parametrlari mahallabay taqsimlanadi;

b) Vasiylik kengashi a'zolari jamg'armani boshqarish bo'yicha faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi;

v) "Ayollar daftari" jamg'armasi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan nazorat qilinadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimlari hamda sektorlar rahbarlari bilan hamkorlikda xotin-qizlar bandligini ta'minlash choralari ko'rsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar (shaharlar) hokimliklari: har chorakda mahalliy budjet prognozining ortiqcha bajarilgan qismining kamida 15 foizi, biroq "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xarajatlarini moliyalashtirishga yetarli bo'lgan miqdorda "Ayollar daftari" jamg'armasiga yo'naltirilishini ta'minlasin;

"Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan va uy-joyini ta'mirlashga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning uy-joyini tizimli ravishda ta'mirlash ishlarini amalga oshirsin.

Bunda har bir uy-joyini ta'mirlash ishlariga "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda mablag' ajratilishi nazarda tutilsin.

7. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan (qaramog'ida 1 guruh nogironligi bo'lgan farzandlari yoshidan qat'i nazar) farzandlariga davolash, dori vositalari olib berish yoki murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun mablag' zarur bo'lgan holatlarda tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi xulosasi va sektor rahbari tavsiyasi bilan tibbiy muolaja xarajatlarini "Ayollar daftari" jamg'armasi va Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab berish tartibi joriy etilsin.

8. "Ayollar daftari" yuritilishi bo'yicha sektorlar rahbarlari hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi mas'ul hisoblanishi belgilab qo'yilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda:

"Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha mazkur qaror bilan joriy etilgan yangi tartibni amaliyotga joriy etish choralari ko'rsin;

jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka, xususan, ayollarga tushuntirish, shuningdek, "Ayollar daftari" bilan ishlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirsin.

10. Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasining tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan:

"Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz hamda zo'ravonlikka uchragan ayollar muammolarini aniqlash va hal qilish bo'yicha mas'ul idora va rahbarlarning natijaga yo'naltirilgan faoliyati yo'lga qo'yilishi va muvofiqlashtirilishi;

sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari – oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari tomonidan joylardagi xotin-qizlar muammolarini hal etish bo'yicha "yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, amalga oshirilishi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida har oyda hisobot berishini yo'lga qo'yish tashkil etilishi belgilansin.

11. "Ayollar daftari" bilan ishlash elektron tizimi Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash Davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilishi yo'lga qo'yilsin va ushbu tizim orqali quyidagi qo'shimcha imkoniyatlar yaratilsin:

ijtimoiy-himoyaga muhtoj xotin-qizning "Ayollar daftari"ga kiritish haqidagi murojaatini to'g'ridan to'g'ri qabul qilish;

ushbu murojaatni ko'rib chiqish natijalari, agarda murojaatni qanoatlantirish rad etilgan bo'lsa, rad etish asoslari;

“Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan yordam turlari;

“Ayollar daftari” orqali yordam ko‘rsatilayotgan xotin-qizlarning ro‘yxati va ularning har biriga ko‘rsatilgan yordamlarning aniq turlari, hajmi hamda kelgusida rejalashtirilayotgan tadbirlar.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-iyulga qadar “Ayollar daftari” bilan ishlash elektron tizimi to‘liq ishga tushirilishi hamda tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta‘minlasin;

2022-yil 1-sentabrga qadar “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritiladigan xotin-qizlar ro‘yxatini shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirish hamda ushbu chora-tadbirlarning ijrosini monitoring qilish, “Ayollar daftari”dan chiqarishda imkon qadar inson omilini kamaytirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

13. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-son qaroriga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi Z.B. Maxkamova zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

A.ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 31-mart,
145-son

"AYOLLAR DAFTARI"NI YURITISH ORQALI XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARINI TIZIMLI RAVISHDA HAL ETISH VA ULARNI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASH TARTIBI TO'G'RSIDA

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) kam ta'minlangan va ehtiyojmand xotin-qizlarning muammolarini mahallabay o'rganish va hal etish hamda ularni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlash tartibini belgilaydi.

2. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

"Ayollar daftari" tizimi – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

"Ayollar daftari" – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi;

"Ayollar maslahat kengashi" – ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va hal etishga ko'maklashish, oilalarni mustahkamlash va ularning farzand tarbiyasidagi rolini hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan maslahatlar berish, "odobli qiz", "iffatli kelin" va "ma'rifatli ayol" g'oyalari keng targ'ib etish maqsadida har bir fuqarolar yig'inida tashkil etiladigan va jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan tuzilma;

"Individual dastur" – "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan har bir xotin-qiz hamda ularga ko'rsatiladigan amaliy yordam turlari, davri (sanasi), miqdori (summasi, foizi va boshqalar) va amaliy yordamlar monitoringi to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

sektorlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlarining tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan tumanlar (shaharlar) va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organining ko'maklashuvchi kollegial ishchi tuzilmasi;

sektorlar ishchi guruhi – sektor rahbari boshchiligida iqtisodiyot, investitsiya, qurilish, qishloq xo'jaligi sohasi, davlat boshqaruvi organlari tuman (shahar)lar tuzilmalarining malakali mutaxassislari va tijorat banklari xodimlaridan iborat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ishchi guruhlari.

3. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2-bob. "Ayollar daftari"ga kiritiladigan xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish

4. "Ayollar daftari"ga 30 yoshdan oshgan quyidagi toifadagi xotin-qizlar kiritiladi:

1) ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar – bandligi ta'minlanmagan, ishlash istagida bo'lgan va daromad manbaiga ega bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar;

2) tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar – bandligi ta'minlanmagan, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar;

3) boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar – boquvchisi vafot etgan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, ruhiy kasallikka chalingan, I-II guruh nogironligi bo'lgan hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan, bedarak yo'qolgan (sud qaroriga asosan) ehtiyojmand xotin-qizlar, shuningdek, nikohi bekor qilingan ehtiyojmand xotin-qizlar va ehtiyojmand yolg'iz onalar (FHDY organlarining ma'lumotnomasi asosida);

4) ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar – mehnatga layoqatsiz, o'zgalar parvarishiga, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar;

5) uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar – noturar joylarda istiqomat qilayotgan, doimiy yashash uchun turar joyi bo'lmagan, bir xonadonda (kichik hovlida) uch va undan ortiq oila yashayotgan (uy-joy maydoni belgilangan ijtimoiy normadan kam bo'lgan), biroq o'zining yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy mavjud bo'lmagan, xususiy uy-joy fondida ijara huquqi asosida istiqomat qilayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar;

6) qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar – nogironligi bo'lgan voyaga yetmagan (I guruh nogironligi bo'lgan farzandi yoshidan qat'iy nazar) farzandini bevosita parvarishlayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar.

Bunda “Ayollar daftari” ro'yxatiga kiritiladigan xotin-qizlar yuqoridagi toifalardan faqat biriga kiritilishi mumkin.

5. “Ayollar daftari”ga xotin-qizlar yashab turgan joyi bo'yicha kiritiladi, bunda xotin-qizlarning yashash joyi bo'yicha doimiy yoki vaqtincha ro'yxatda turmasligi “Ayollar daftari”ga kiritishni rad etish uchun asos hisoblanmaydi.

6. Xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari quyidagi shakllarda o'rganiladi:

sektorlar ishchi guruhlari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan mahallalarda fuqarolar yig'inlari raislari va faollari bilan birgalikda barcha yo'nalishdagi muammolarni har yili yanvar oyida uyma-uy yurish orqali;

xotin-qizlarning murojaatlari, shu jumladan, “Ayollar maslahat kengashi” va “Ayollar daftari” axborot tizimi (keyingi o'rinlarda – axborot tizimi) orqali.

“Ayollar maslahat kengashi”ga va axborot tizimi orqali murojaat qilingan holatda, anketa-so'rovnomalar mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan to'ldirilib, sektor ishchi guruhiga taqdim qilinadi. Sektorlar rahbarlari va tumanlar (shaharlar) oila va xotin-qizlar bo'limlari birgalikda muammolarning haqqoniyligini o'rganadi va har oyda o'rganilgan va “Ayollar daftari”ga kiritilishi kerak bo'lgan xotin-qizlar ro'yxatini xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga taqdim etadi.

O'rganish davomida xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari Nizomga 1a-ilovaga muvofiq anketa-so'rovnomalar orqali aniqlanadi.

7. Anketa-so'rovnomalar to'ldirilgandan so'ng 3 kun muddatda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlari bilan solishtiriladi hamda xotin-qizlarning ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasi (toifasi) aniqlanib, sektorlar rahbarlari hamda tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i tomonidan Nizomga 1b-ilovaga muvofiq ularning individual dasturlari shakllantiriladi.

8. Individual dasturlar asosida sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i tomonidan 3 kundan oshmagan muddatda “Ayollar daftari”ga kiritiladigan xotin-qizlarning ro'yxatlari 1v-ilovaga muvofiq hamda ularning muammolarini bartaraf etishga qaratilgan “Yo'l xaritasi” loyihasi, imzolangan holda, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

9. “Temir daftar”ga kiritilgan oilalardagi xotin-qizlar, farzandi “Eshlar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar, shuningdek, ilgari “Ayollar daftari”ga kiritilib, bandligi ta'minlangan yoki tadbirkorligi yo'lga qo'yilgan xotin-qizlar takroran “Ayollar daftari”ga kiritilmaydi.

“Ayollar daftari”ga kiritiladigan xotin-qizlar ro‘yxatini shakllantirishda ustuvorlik ilgari “Ayollar daftari”ga kiritilmagan xotin-qizlarga beriladi.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida kam ta‘minlangan oila sifatida ro‘yxatga olingan oilalardagi xotin-qizlar “Ayollar daftari”ning faqat “ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar”, “tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar” va “uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar” toifalariga kiritilishi mumkin.

10. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi qarori bilan “Ayollar daftari”ga kiritiladigan xotin-qizlarning ro‘yxatlari va “Yo‘l xaritasi” belgilangan tartibda tasdiqlanadi hamda ijroga qaratiladi.

11. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashida tasdiqlangan ro‘yxatlar sektorlar shtablarining kotiblari tomonidan 3 kundan oshmagan muddatda axborot tizimiga kiritiladi.

Sektorlar rahbarlari, tumanlar (shaharlar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari boshliqlari “Ayollar daftari”ga ma‘lumotlarni kiritish va chiqarish, ularning haqqoniyligi bo‘yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

Mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga yordam berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar axborot tizimiga kiritiladi va shundan so‘ng bajarilgan hisoblanadi. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga belgilangan tartibda yordam ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan barcha hisobotlar axborot tizimida shakllantiriladi.

12. “Ayollar daftari” ushbu Nizomga 1g-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha yuritiladi.

3-bob. “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarning muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

13. “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun beriladigan kredit, subsidiya, grant va moddiy yordam turlarining ro‘yxati 2-ilovaga asosan belgilanadi.

14. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar uchun:

bandligini ta‘minlash;

zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida bir martalik moddiy yordam berish;

2) tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun:

tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;

3) boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun:

bir martalik moddiy yordam berish;

zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og‘ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta‘mirlashga muhtoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta‘mirlash;

4) ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun:

bir martalik moddiy yordam berish;

zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og‘ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta‘mirlashga muhtoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta‘mirlash;

tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun zarur tibbiy yordamlar ko‘rsatish;

5) uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun:

ijara kompensatsiyasini to‘lash, ijtimoiy uylarga joylashtirish, uy-joy bilan ta‘minlash;

zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida bir martalik moddiy yordam berish;

6) qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar uchun:

bir martalik moddiy yordam berish;

zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashish.

15. “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan:

barcha xotin-qizlarga ularning murojaatiga asosan huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatiladi;

zaxiraga qaytarilgan yoki yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlari dehqon xo'jaligi tashkil etgan holda sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun dehqonchilik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga 0,10 gektardan 1 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda belgilangan tartibda ochiq elektron tanlov orqali 10 yilga ijaraga beriladi.

Bunda:

dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berishda o'z tomorqasida meva-sabzavotchilik, poliz mahsulotlarini yetishtirish va uzumchilikda yaxshi natijalarga erishgan, ushbu sohalaridan birida tayanch mutaxassislikka ega bo'lgan, "Ayollar daftari"da ro'yxatda turgan ehtiyojmand xotin-qizlarga alohida ustuvorlik beriladi.

Zarur hollarda, mazkur bandning uchinchi kichik bandida nazarda tutilgan maqsadlar uchun ajratiladigan subsidiya mablag'lari qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib asosida tegishli buyurtma ijrochilarga to'g'ridan to'g'ri o'tkazib beriladi.

4-bob. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarga amaliy yordam berish tartibi

1-§. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash

16. Xotin-qizlarning bandligiga quyidagi yo'nalishlarda ko'maklashiladi:

a) sektorlar rahbarlari tuman (shahar) investitsiya bo'limlari, mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari, Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, tijorat banklari hamkorlikda tarmoq va hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan yangi ish o'rinlariga ishga joylashtirish;

b) sektorlar rahbarlari tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari hamda Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari bilan birgalikda mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o'rinlariga ishga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

v) sektorlar rahbarlari tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari bilan birgalikda kooperativlarga jalb etish;

g) tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari hamda Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, Savdo-sanoat palatasining tuman (shahar) tadbirkorlikka ko'maklashish markazlari, Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitishni tashkil etish, tadbirkorlikka jalb etish, o'zini o'zi mustaqil ravishda band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish orqali bandlikka ko'maklashish.

Ushbu badda ko'rsatilgan ko'maklashish choralari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2-§. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish

17. Tadbirkorlikni yo'lga qo'yishga ko'maklashish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

a) Savdo-sanoat palatasi, AT "Xalq banki", Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, "Tadbirkor ayol" ishbilarmon ayollar uyushmasi, "Hunarmand" uyushmasi hamda hududiy xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari va tegishli nodavlat o'quv markazlari joylarda o'quv kurslarini tashkil etish orqali tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan va "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish va biznes loyihalarini tuzishga ko'maklashadi;

b) "Mikrokreditbank" ATB, "Agrobank" ATB va AT "Xalq banki"ning tuman (shahar) filiallari orqali tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kredit ajratiladi.

AT “Xalq banki” “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularga kredit olishda ko‘maklashish, bu masalada respublikada ajratilgan kreditlarning statistik hisobotini yuritish va kredit ajratilgandan so‘ng ularning tadbirkorligini rivojlantirish uchun doimiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirishga mas‘ul hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish ishlari samaradorligini o‘rganadi va har chorakda Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib boradi.

18. Kreditlar “Ayollar daftari”ga kiritilgan va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Bunda kreditlar 33 million so‘mgacha miqdorda hokimlar yordamchilarining tavsiyalari asosida ajratiladi.

Kreditlarni ilgari olingan kreditlar yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarishga, shaxsiy ehtiyoj uchun avtotransport vositasi sotib olishga, ma‘muriy xarajatlarni to‘lashga, jumladan, avtotransport vositasining ta‘minoti, mebel, aloqa xizmatlari to‘lovi va uyali telefon sotib olishga hamda qonunchilik hujjatlari va Markaziy bankning qoidalariga ko‘ra taqiqlangan faoliyatlarga ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kreditlar 14 foizlik stavkada:

oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga – 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;

chorvachilik (chetdan keltirilgan naslli qo‘y va echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo‘nalishi) uchun – 1 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;

bog‘dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo‘jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish uchun – 3 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga ajratiladi.

19. Kreditlar qarz oluvchining ssuda hisobvarag‘idan kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar uchun tegishli tashkilotlarning bankdagi hisobvarag‘iga pul o‘tkazish yo‘li bilan ajratiladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan va o‘zini o‘zi band qiladigan xotin-qizlarga ayrim turdagi faoliyatni amalga oshirish (kasanachilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilar uchun zaruriy xomashyo, ehtiyot qism hamda qurilish mollari sotib olish) maqsadida 5 mln so‘mgacha miqdorida kredit mablag‘lari naqd pulda berilishi mumkin.

Kreditlar “Mikrokreditbank” ATB, “Agrobank” ATB va AT “Xalq banki”ning tuman (shahar) filiallari tomonidan “Ayollar daftari”da hisobda turgan xotin-qizlarning murojaat qilish qat‘iy navbati asosida Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali ajratiladi.

20. “Ayollar daftari”ga kiritilgan, biroq kredit olishni rad qilgan xotin-qizlarning doimiy bandligini ta‘minlash maqsadida tadbirkorlik subyektlarining “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashga qaratilgan loyihalariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturi doirasidagi resurslar hisobidan yillik 14 foizlik stavkada imtiyozli kreditlar ajratilishi mumkin.

Bunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni doimiy ish bilan ta‘minlash sharti bilan samaradorligi yuqori va barqaror ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan loyihalariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish Davlat dasturlari doirasidagi resurslar hisobidan 225 million so‘mdan ortiq, biroq 1 milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda belgilangan tartib asosida kredit ajratilishi mumkin.

Kredit summasining aniq miqdori tadbirkor tomonidan ish bilan ta‘minlanadigan har bir xotin-qiz uchun 33 million so‘mgacha miqdorga mutanosib ravishda belgilanadi.

3-§. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilish uchun kerak bo'lgan asbob-uskuna, mehnat qurollari xarid qilish uchun subsidiya ajratish

21. "Ayollar daftari"ga kiritilgan tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamogchi bo'lgan xotin-qizlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari (tikuvchilik, to'qimachilik, pazandachilik, soch turmashlash, duradgorlik, chilangarlik, qurilish, qishloq xo'jaligi (motokultivator, o't o'rish o'roq mashinasi, payvandlash apparati, o'simliklarga ishlov berish qurilmasi) va boshqa sohalarda ishlatiladigan mehnat qurollari va apparatlarini xarid qilish uchun 7 million so'mgacha Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda yoki 10 million so'mgacha "Ayollar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Ayollar daftari" jamg'armasi Vasiylik kengashi (keyingi o'rinlarda – Vasiylik kengashi) qaroriga muvofiq subsidiya ajratiladi.

22. "Ayollar daftari" jamg'armasi orqali asbob-uskuna, mehnat qurollari xarid qilish maqsadida subsidiya ajratiladigan hollarda, ariza beruvchi Vasiylik kengashi raisi nomiga (arizada fuqaro o'z faoliyatini boshlashi uchun kerak bo'ladigan asbob-uskuna, mehnat qurollarining nomi va turi, soni, taxminiy xarid narxi va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim) taqdim etadi.

Ariza beruvchining qolgan barcha ma'lumotlari (elektron shakldagi fuqarolik pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi nusxasi, tadbirkor sifatida davlat xizmatlari markazida davlat ro'yxatidan o'tganligi yoki o'zini o'zi band qilgan sifatida faoliyat turlari bo'yicha soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat) axborot tizimi orqali inson omilisiz aniqlab olinadi.

23. Vasiylik kengashi tomonidan fuqaroning murojaatini 3 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda o'rganib chiqiladi hamda hokim yordamchisi tavsiyasi asosida subsidiya ajratish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

24. Arizani ko'rib chiqish natijasida hujjatlar to'liq taqdim etilgan va unda kamchiliklar yoki yolg'on ma'lumotlar aniqlanmagan taqdirda, murojaat qiluvchiga o'z faoliyatini boshlashiga kerak bo'lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish to'g'risida Vasiylik kengashining qarori rasmiylashtiriladi.

25. Vasiylik kengashi qarorida asbob-uskuna, mehnat qurollarining nomi va ularni xarid qilish uchun ajratiladigan subsidiya miqdori ko'rsatiladi.

26. Arizani ko'rib chiqish natijasida hujjatlar to'liq taqdim etilmaganligi yoki unda kamchiliklar mavjudligi yoxud yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilganligi aniqlangan taqdirda, murojaat qiluvchiga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma ravishda xabar beriladi.

27. Vasiylik kengashining ishchi organi – Oila va xotin-qizlar bo'limi Vasiylik kengashi qarori rasmiylashtirilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali qarorda ko'rsatilgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini belgilangan tartibda xarid qilish choralari ko'radi.

28. Buyurtma asosida asbob-uskuna va (yoki) mehnat qurollari yetkazib berilganda, bu haqda Vasiylik kengashining ishchi organi qabul qilib olgan kundan boshlab 1 ish kunidan kechiktirmay ariza beruvchini xabardor qiladi.

29. Tegishli asbob-uskuna va (yoki) mehnat qurollari ariza beruvchiga Vasiylik kengashi a'zolari va ariza beruvchi o'rtasida tuziladigan dalolatnoma asosida topshiriladi. Dalolatnomada ariza beruvchiga taqdim etilayotgan asbob-uskuna va (yoki) mehnat qurollarining xususiyatidan kelib chiqib nomi, turi, markasi, kafolat muddati, xarid qilingan narxi va vaqti ko'rsatilishi kerak.

30. Ariza beruvchiga ajratilgan subsidiya asosida xarid qilingan asbob-uskuna yoki mehnat qurollaridan samarali foydalanilayotganligi, ularning texnik holati sozligi kafolat muddati davomida sektor shtabi kotibi tomonidan o'rganiladi.

4-§. “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarga tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashish

31. Sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limi, tuman fermer, dehqon ho‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda hokim yordamchilari bilan hamkorlikda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish;

parranda, asalari, quyon, baliq va bedana boqishni yo‘lga qo‘yish;

dehqonchilik bilan shug‘ullanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish ishlarida har tomonlama ko‘maklashish;

“Tomorqa xizmati” tashkilotlari va “Dala do‘konlari”ni tashkil etish.

32. Mazkur nizomning 31-bandida belgilangan maqsadlar uchun subsidiyalar va kreditlarini ajratish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5-§. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga moddiy yordam ko‘rsatish

33. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatlar asosida “Ayollar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bir martalik moddiy yordam beriladi.

Bir martalik moddiy yordam “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi va boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan manbalar hisobidan ham berilishi mumkin.

Ushbu bir martalik moddiy yordamni to‘lash uchun:

a) mahallalardagi xotin-qizlar faollari sektorlar rahbarlari bilan birgalikda, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga mazkur Nizomning 14-bandiga muvofiq bir martalik moddiy yordam berish miqdorlari (summasi) ko‘rsatilgan ro‘yxatni (har bir xotin-qizning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasporti seriyasi yoki identifikatsiyalovchi ID – kartasi raqami ko‘rsatilgan holda) tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limiga taqdim etadi;

b) tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limi:

“Ayollar daftari” jamg‘armasining daromadlari va tushumlari prognozidan kelib chiqib, tuman (shahar) moliya bo‘limi bilan kelishilgan holda, bir martalik moddiy yordamni oyma-oy to‘lash grafigini shakllantiradi hamda Vasiylik kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi. Bunda tasdiqlangan oyma-oy to‘lash grafigining nusxasi mahallalardagi xotin-qizlar faollariga ham taqdim etiladi;

tasdiqlangan grafikka asosan har oyning 5-sanasiga qadar mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatlar asosida to‘lov vedomostlarini shakllantirib, tumanlar (shaharlar) va xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankining tegishli bo‘limiga (filialiga) taqdim etadi;

v) tumanlar (shaharlar) hokimliklarining buxgalteriya bo‘limlari tasdiqlangan oyma-oy to‘lash grafigi hamda to‘lov vedomostlari asosida “Ayollar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan zarur mablag‘larni xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankining tegishli bo‘limiga (filialiga) ko‘chiradi;

g) xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankining tegishli bo‘limi (filiali) tomonidan bir martalik moddiy yordam to‘lovlari har oyning 5–27-sanalarida amalga oshiriladi. Oyning oxirgi ish kunida vedomostlar yopiladi. Oyning 27-sanasiga qadar tayinlangan, biroq o‘z vaqtida talab qilib olinmagan moddiy yordamga yo‘naltirilgan mablag‘lar “Ayollar daftari” jamg‘armasiga o‘tkaziladi va oluvchining birinchi talabiga ko‘ra to‘lanadi. Yopilgan vedomostning bir nusxasi tuman (shahar) hokimligi hamda oila va xotin-qizlar bo‘limiga taqdim etiladi;

d) tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limi muhtoj xotin-qizlarga to‘langan bir martalik moddiy yordam to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni axborot tizimiga kiritadi hamda yopilgan vedomostning nusxasini tegishli mahallalardagi xotin-qizlar faollariga taqdim etadi.

Bir martalik moddiy yordam bir kalendar yili davomida bir marotaba beriladi.

Sektor rahbarlari jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan “Ayollar daftari”ga kiritilgan I va II guruh nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar, shuningdek, qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi bor yolg‘iz onalarga qo‘shimcha moddiy yordam berish choralari ko‘rib boradi.

6-§. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga turar joy ijara kompensatsiyasini to’lash

34. Mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holat hamda fuqarolarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari “xonadonbay” hamda ularning murojaatlariga asosan o’tkazilgan o’rganish natijalari bo’yicha fuqarolar yig’inlari raislari va xotin-qizlar faollari tomonidan turar joy uchun ijara kompensatsiyasini to’lab berish bo’yicha talabnomalar shakllantiriladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga turar joy ijara kompensatsiyasi mazkur talabnomalar hamda sektorlar rahbarlari va tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo’limi boshlig’ining xulosasi asosida belgilangan tartibda to’lab beriladi.

Bunda:

turar joy ijarasi to’g’risidagi shartnoma uch tomonlama – ijaraga beruvchi, ijaraga oluvchi va tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo’limi o’rtasida tegishli yilning so’nggi kunigacha bo’lgan muddatga tuziladi;

turar joy ijarasi uchun to’lovlarning 50 foizi, lekin ko’pi bilan 500 ming so’mgacha bo’lgan qismi “Ayollar daftari” jamg’armasi hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag’lari hisobidan qoplab beriladi.

Turar joy ijarasi uchun to’lovlar ijaraga beruvchiga to’g’ridan to’g’ri to’lanadi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar va ularning birga yashaydigan oila a’zolari boshqa dasturlar doirasida, homiylik yoki boshqa mablag’lar hisobidan uy-joy bilan ta’minlangan yoxud uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo’yicha ijtimoiy yordam (ko’mak) olgan yoki imtiyozlardan foydalangan xotin-qizlarga mazkur Nizom asosida turar joy ijara kompensatsiyasi ajratilmaydi.

Turar joy ijara kompensatsiyasi to’lab turilgan davrda uy-joy bilan ta’minlangan yoki ijtimoiy uy-joyga joylashtirilgan xotin-qizlarga yangi turar joyga ko’chib o’tgan oydan boshlab keyingi oyning birinchi sanasidan turar joy ijara kompensatsiyasi to’xtatiladi. Mazkur tartib ajratilgan turar joy yashash uchun sharoiti mavjud bo’lgan holda xotin-qizlar tomonidan ko’chib o’tish rad etilgan taqdirda ham qo’llaniladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijtimoiy uy-joylarga ijara huquqi asosida besh yildan ortiq bo’lmagan muddatga keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan joylashtirilishi yoki homiylar tomonidan mulk huquqi asosida uy-joy bilan ta’minlanishi mumkin.

Ushbu badda ko’rsatilgan imtiyozlardan foydalanish uchun xotin-qizlarga ijtimoiy kontrakt asosida kasb o’rganish, mehnat qilish imkoniga ega bo’lsa, mustaqil yoki aholi bandligiga ko’maklashish markazlari yo’llanmasi asosida ishga joylashish bo’yicha ijtimoiy majburiyatlar yuklanadi.

7-§. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning uy-joyini ta’mirlash

35. Sektorlar ishchi guruhlari tomonidan tegishli mutaxassislar jalb qilingan holda, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning uy-joyi holati o’rganiladi va nuqson dalolatnomasi hamda ta’mirlash yoki qurilish materiallarini olib berish bo’yicha smeta ishlab chiqilib, “Ayollar daftari” jamg’armasi Vasiylik kengashiga kiritiladi.

Har bir uy-joyini ta’mirlash ishlariga “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda mablag’ ajratiladi.

36. Vasiylik kengashi tomonidan ta’mirlash smetasi bo’yicha tegishli qaror qabul qilinib, mablag’ ajratiladi hamda qurilish tashkilotiga (pudratchiga) yoki qurilish materiallari yetkazib beruvchi korxonaga o’tkazib beriladi.

Bunda qurilish tashkilotga (pudratchi) yoki qurilish materiallari yetkazib beruvchi korxona davlat xaridlarining elektron tizimi orqali aniqlanadi.

37. Sektorlar rahbarlari tumanlar (shaharlar) qurilish bo’limlari bilan birgalikda mablag’ ajratilgan vaqtdan boshlab ta’mirlash ishlari sifatli bajarilishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

8-§. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga tibbiy xizmat ko’rsatish

38. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar, shuningdek, ularning voyaga yetmagan (qaramog’ida I guruh nogironligi bo’lgan farzandlarining yoshidan qat’i nazar) farzandlariga tibbiy yordam ko’rsatish zarurati sektor ishchi guruhi tomonidan aniqlanganda, ularning salomatligi hududiy birlamchi tibbiy-sanitariya muassasasidan shifokor jalb qilingan holda baholanadi.

O’rganish natijasiga ko’ra tibbiy yordam ko’rsatish zarurati tibbiyot xodimi tomonidan aniqlanganda, belgilangan tartibda tegishli birlamchi tibbiy-sanitariya muassasasiga yo’naltiriladi va statsionar yoki ambulator davolanish masalasi hal etiladi.

O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag’lari hisobidan tibbiy yordam ko’rsatiladigan imtiyozli toifaga kirmaydigan, ammo birlamchi tibbiy-sanitariya muassasasi tomonidan viloyat yoki respublika darajasida davolanishi lozim deb topilgan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar, shuningdek, ularning voyaga yetmagan (qaramog’ida I guruh nogironligi bo’lgan farzandlarining yoshidan qat’i nazar) farzandlarining davolanishi bilan bog’liq bo’lgan xarajatlari, sektorlar rahbarlari xulosasiga asosan “Ayollar daftari” jamg’armasi va Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi mablag’lari hisobidan belgilangan tartibda qoplab beriladi.

O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag’lari hisobidan tibbiy yordam ko’rsatiladigan imtiyozli toifaga kiradigan viloyat yoki respublika darajasida davolanishi lozim deb topilgan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar, shuningdek, ularning voyaga yetmagan (qaramog’ida I guruh nogironligi bo’lgan farzandlarining yoshidan qat’i nazar) farzandlari belgilangan tartibda elektron navbatga qo’yilishi ta’minlanadi.

Nogironlik belgilari aniq namoyon bo’lgan bemorlar belgilangan tartibda ko’rikdan o’tish uchun Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga yuboriladi.

39. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar va (yoki) ularning voyaga yetmagan (qaramog’ida I guruh nogironligi bo’lgan farzandlarining yoshidan qat’i nazar) farzandlariga davolash, dori vositalarini olib berish yoki murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun mablag’ zarur bo’lgan holatlarda, tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi va sektor rahbari xulosalari bilan tibbiy muolaja xarajatlari “Ayollar daftari” jamg’armasi, Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi va “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’lari hisobidan to’lab beriladi.

Bunda dori-darmon olib berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha hamda murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha miqdordagi xarajatlari “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan to’lab beriladi;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan I va II guruh nogironligi bo’lgan yoki surunkali kasalliklarga chalingan ehtiyojmand xotin-qizlarning va (yoki) ularning voyaga yetmagan (qaramog’ida I guruh nogironligi bo’lgan farzandlarining yoshidan qat’i nazar) farzandlarining, shuningdek, lozim bo’lganda I guruh nogironligi bo’lgan shaxslarga hamrohlik qiluvchining O’zbekiston Respublikasining boshqa hududida joylashgan tibbiy muassasalarga davolanish uchun borish-kelish yo’l xarajatlari sektorlar rahbarlari xulosasiga asosan “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan to’lab beriladi.

Bunda xotin-qizlar yo’l xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni tegishli tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo’limiga taqdim etadi.

Yo’l hujjatlari mavjud bo’lmaganda, yo’l kiraga haq to’lash har bir kilometr bazaviy hisoblash miqdorining 0,08 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

Bemorni maxsus transport vositasida tibbiy muassasaga yetkazish lozim bo’lgan taqdirda, yo’l xarajatlarini to’lab berish uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi xulosasi olinadi.

9-§. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordam ko’rsatish

40. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga sayyor qabullar orqali quyidagilar bo’yicha huquqiy yordam ko’rsatiladi:

prokuratura organlari – huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan xotin-qizlarga amaliy yordam ko'rsatish, sudga murojaat qilish tartibini tushuntirish, sudga murojaat qilish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarni rasmiylashtirishga ko'maklashish;

ichki ishlar organlari – tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni ushbu tahdidlardan himoya qilish, takroriy zo'rvonlik sodir etilishining oldini olish maqsadida profilaktik suhbatdan o'tkazish va zo'rvonlik sodir etgan shaxsni tuzatish dasturidan o'tish bo'yicha vakolatli organga yuborish, himoya orderi talablarining ijrosini nazorat qilish hamda uning talablarini buzib zo'rvonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan vakolati doirasida chora ko'rish; adliya organlari – huquqiy maslahatlar berish.

10-§. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish

41. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga “Ayollar maslahat kengashi”, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, uning hududiy va tumanlararo namunali markazlari, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi huzuridagi “Xotin-qizlar huquqiy, psixologik maslahatxonasi”, ta'lim muassasalarining, malakali psixologlari tomonidan psixologik maslahatlar berib boriladi.

5-bob. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirish

42. Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirish mazkur Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash homiylik, xalqaro moliya institutlari grantlari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagai boshqa manbalar hisobidan ham moliyalashtirilishi mumkin.

Tuman (shahar)lar kesimida ajratiladigan mablag'lar taqsimoti har chorak uchun Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Fermer, dehqon ho'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi va “Mikrokreditbank” ATB, “Agrobank” ATB va AT “Xalq banki” tomonidan har chorakdan oldingi oyning 20-sanasiga qadar tuman (shahar)lar hokimliklariga yetkaziladi.

43. “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga yordamlar ko'rsatilishi Nizomning 3a-ilovasiga muvofiq ma'lumotnoma bo'yicha yuritiladi.

6-bob. “Ayollar daftari” dai chiqarish tartibi

44. Xotin-qizlar quyidagi hollarda “Ayollar daftari”dan chiqariladi:

har bir toifa bo'yicha belgilangan amaliy yordamlar to'liq ko'rsatilganda (individual dastur asosida);

to'liq davlat ta'minotiga olinganda;

o'z arizasiga ko'ra;

“Ayollar daftari”ga noqonuniy kiritilganligi aniqlanganda;

boshqa davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketganda;

sudning ozodlikdan mahrum etishni nazarda tutuvchi hukmi qonuniy kuchga kirganda;

shaxs vafot etgan taqdirda yoki sud qarori asosida bedarak yo'qolgan deb topilganda.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning individual dasturga kiritilgan masalalari to'liq hal etilgunga qadar ularni “Ayollar daftari”dan chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Doimiy va vaqtincha yashash uchun respublikaning boshqa hududiga ko'chib o'tganda, doimiy yashash va vaqtincha turar joyi bo'yicha ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmasdan “Ayollar daftari”ga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalari ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berilganda, mazkur xatboshida nazarda tutilayotgan xotin-

qizlar yuqoridagi daftardan chiqarilmaydi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalar bir yil muddatga saqlab qolinadi. Bunda, imtiyoz va preferensiyalarning bir yillik amal qilish muddati dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarmoqlarida ishga joylashgan taqdirda, mazkur xatboshida nazarda tutilayotgan xotin-qizlar yuqoridagi daftardan chiqarilmaydi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalar uch oy muddatga saqlab qolinadi. Bunda, imtiyoz va preferensiyalarning uch oylik amal qilish muddati xotin-qizlar ishga kirgan kundan boshlab hisoblanadi.

45. Sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i, mahallalardagi xotin-qizlar faollari, hokim yordamchilari bilan kelishilgan holda, mazkur Nizomning 44-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha "Ayollar daftari"dan chiqarish yuzasidan takliflarni har yili dekabr oyida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari muhokamasiga kiritadi.

46. Xotin-qizlarni "Ayollar daftari" ro'yxatidan chiqarish, "Yo'l xaritasi" va individual dasturlarga o'zgartirishlar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qarori asosida kiritiladi.

47. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qarori asosida "Ayollar daftari"dan chiqarilgan xotin-qizlar to'g'risidagi ma'lumotlar sektorlar shtablari kotiblari tomonidan 3 kundan oshmagan muddatda axborot tizimiga kiritiladi.

"Ayollar daftari"dan chiqarilgan xotin-qizlar tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan 5 kun ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilinadi.

7-bob. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosining monitoringi

48. "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi monitoringi ularning individual dasturlari orqali monitoring qilinadi.

Individual dasturlar tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan yuritiladi.

Anketa-so'rovnoma va individual dasturlarning asl nusxalari tumanlar (shaharlar) oila va xotin-qizlar bo'limlarida 5 yil muddat davomida saqlanadi.

49. Individual dasturda ko'rsatilgan tegishli chora-tadbirlar ijrosi belgilangan mas'ullar tomonidan ta'minlanadi hamda individual dasturda qayd etib boriladi.

Mutasaddi tashkilotlarning mas'ul xodimlari, sektorlar shtablarining kotiblari tomonidan "Ayollar daftari"ga kiritilgan har bir xotin-qizning aniqlangan muammolari bartaraf etilganligi haqidagi hisobotlar har ish kuni soat 18.00 gacha axborot tizimiga kiritib boriladi.

Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tahlil qiladi hamda ma'lumotlarning asosliqligini o'rganish uchun har 10 kunda sektorlar rahbarlariga taqdim qiladi.

50. Sektorlar rahbarlari har oyning 1-sanasisiga qadar taqdim qilingan ma'lumotlarni hamda amalga oshirilgan ishlarni tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari hamda hokim yordamchilari bilan tahlil qiladi, muammolarni bartaraf etish choralari ko'radi hamda amalga oshirilgan ishlarni tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limiga kiritadi.

51. Sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari, mas'ul tashkilotlar rahbarlari individual dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosi va uning haqqoniyligi bo'yicha har oy yakuni da tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga axborot berib boradi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalarida sektorlar, idora va tashkilotlar rahbari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i hisoboti eshittilib, ularga tegishli baho beriladi.

Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi har oyda yakuniy ma'lumotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmasiga taqdim qiladi.

52. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmasi har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasisiga qadar

ma'lumotlarni tahlil qiladi, qayta ishlaydi hamda umumlashtirilgan ma'lumotlarni Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga taqdim qiladi.

53. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi har oyda hududiy boshqarmalardan olingan ma'lumotlarni tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklar bilan tahlil qiladi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi "Ayollar daftari"ning yuritish uchun mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklarning barcha darajadagi rahbarlarining hisobdorligini har chorak yakuni bilan belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taqdim qiladi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli kotibiyati taqdim qilingan axborot xatini tahlil qiladi, respublika darajasida hal qilinadigan masalalarni o'rganadi.

Vazirlik, idora va tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklarga mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisining topshiriq xati yuboriladi.

54. Vazirlar Mahkamasi tahliliy ma'lumot va takliflarni ko'rib chiqadi hamda zarurat bo'lgan hollarda, "Ayollar daftari"ning yuritilishi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida muhokama qilishga materiallar tayyorlaydi.

55. Barcha muammolar bartaraf etilib, individual dasturda qayd etilgan chora-tadbirlar to'liq bajarilgandan so'ng "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar va mas'ullar tomonidan tasdiqlanib, xotin-qizlar ro'yxati xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga "Ayollar daftari"dan chiqarish uchun kiritiladi.

56. "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimi natijasi bo'yicha hisobot berish Nizomning 3b-ilovasidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

57. Sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari axborot tizimida "Ayollar daftari"ni yuritish bilan bog'liq masalalarni to'liq aks ettirib borilishini ta'minlaydi.

58. "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish:

mahalla darajasida – tuman (shahar) sektorlari rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari boshlig'i, mahallalardagi xotin-qizlar faollari, hokim yordamchilari;

tuman (shahar) darajasida – viloyat sektorlari rahbarlari, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hududiy kengashlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Oila va xotin-qizlar boshqarmalari;

viloyat darajasida – Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, tegishli vazirlik va idoralar;

respublika darajasida – Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi.

59. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari mazkur Nizom doirasida amalga oshiriladigan ishlar uchun ajratilgan mablag'larning samarali va maqsadli ishlatilishini nazorat qiladi.

60. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KAMIDA BESH YIL MEHNAT STAJIGA EGA BO'LGAN XOTIN-QIZLARNI DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA QABUL QILISH TARTIBINI TASDIQLASH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlarda oliy ma'lumotli xotin-qizlar ulushini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

davlat organlari va tashkilotlarda mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlarni (keyingi o'rinlarda — xotin-qizlar) davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga bazaviy to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha alohida qabul parametrlarini belgilash tartibi;

xotin-qizlarga Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan bir marta 3 yil muddat davomida amal qiladigan tavsiyanoma berish;

tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlarni oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tanlovlar natijasiga ko'ra alohida qabul parametrlari doirasida o'qishga qabul qilish tartibi.

2. Belgilansinki:

tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun tanlovlar umumiy tartibda davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari (test sinovi, kasbiy (ijodiy) imtihon) doirasida o'tkaziladi;

kirish imtihonlari yakunlariga ko'ra to'plangan ball bo'yicha talabalikka tavsiya etilmagan, biroq to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizini va undan kam bo'lmagan ballni to'plagan tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan taqsimlangan kvotalar asosida, ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya etilgan holda, alohida qabul parametrlari (jami 500 ta kvota) doirasida tanlovga ko'ra to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etiladi.

3. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda kollej va texnikumlarni bitirgan hamda oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar ro'yxatini mutaxassisligi bo'yicha shakllantirsin va doimiy yangilab borsin.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mazkur ro'yxatdagi xotin-qizlarning kamida besh yil mehnat stajiga egaligini "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi ma'lumotlari asosida aniqlasin va doimiy yangilab borilishini ta'minlasin.

4. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda har yili 1-iyunga qadar xotin-qizlar mehnat faoliyati kam bo'lgan sohalarida kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun ajratilgan to'lov-kontrakt asosidagi 500 ta alohida kvotani davlat oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlash va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga kiritsin.

5. 2022–2023 o'quv yili uchun talabgorlardan hujjatlarni qabul qilish muddatlari istisno tariqasida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilansin, kelgusi o'quv yillaridan boshlab talabgorlardan hujjatlarni qabul qilish 1-ilovaga muvofiq umumiy tarzda amalga oshirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar oliy ta‘lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 585-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi Z.B. Mahkamova hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri A.X. Toshqulov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 9-iyun,
322-son

**MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KAMIDA BESH YIL MEHNAT STAJIGA EGA BO'LGAN
XOTIN-QIZLARNI DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
O'QISHGA QABUL QILISH TARTIBI TO'G'RIDA**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga alohida qabul parametrlari doirasida tanlov natijalariga ko'ra to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Bunda o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) tavsiyanomasi asosida mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar hisobidan, ish faoliyatiga mos bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari (test sinovi, kasbiy (ijodiy) imtihon) doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga, O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ishchi guruh – talabgorga tavsiyanoma berish masalasini ko'rib chiqish uchun tashkil etilgan tuman (shahar) hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i (ishchi guruh rahbari), tuman (shahar) iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i, tuman (shahar) moliya bo'limi boshlig'i, tuman (shahar) soliq bo'limi boshlig'i, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazi boshlig'i, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi boshlig'i, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i, Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo'limi rahbaridan iborat tarkibda Oila va xotin-qizlar bo'limida tuziladigan guruh.

Ishchi guruh faoliyati uning a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi;

mutaxassislik – talabgorning o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha olgan mutaxassisligi;

talabgor – tavsiyanoma asosida mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan hamda davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish istagida bo'lgan xotin-qizlar.

3. Tavsiyanoma olish uchun talabgor quyidagi mezonlarning barchasiga muvofiq kelishi kerak: o'rta maxsus yoki professional ta'lim bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lishi;

tavsiyanoma olgunga qadar oliy ta'lim olmaganligi yoki olmayotganligi;

o'rta maxsus yoki professional ta'lim mutaxassisligi bo'yicha besh yillik mehnat stajiga ega bo'lishi.

Tavsiyanoma berilgan kundan boshlab uch yil muddat davomida faqat bir marta oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinishi uchun amal qiladi.

4. Tavsiyanomaga ega bo'lgan talabgorlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga tanlov natijalari doirasida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish mazkur Nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Tavsiyanomani berish tartibi

5. Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari talabgorga tavsiyanoma berish masalasini ko'rib chiqish uchun har yili 25-aprelga qadar ishchi guruhlarini tashkil etadi.

6. Tavsiyanoma olish uchun talabgor doimiy yashash yoki vaqtincha ro'yxatda turgan joyidagi tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari (ishchi guruh)ga har yili 1-maydan 1-iyunga qadar ushbu Nizomga 2-ilovada keltirilgan shaklga muvofiq ariza bilan murojaat qiladi.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan muddatdan kechikib berilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

7. Ishchi guruhlar tavsiyanoma olish maqsadida murojaat etgan talabgorlarning ariza va unga ilova qilingan hujjatlarini mazkur Nizomning 3-bandida belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan har yili 1-iyundan 7-iyunga qadar ko'rib chiqadi.

Bunda ishchi guruhlar tomonidan mazkur Nizomning 3-bandida ko'rsatilgan mezonlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va elektron shakldagi hujjatlar (mehnat stajini tasdiqlovchi ma'lumotlar, o'rta maxsus ta'lim muassasasida o'qiganlikni tasdiqlovchi arxiv ma'lumotnomasi) "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi hamda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali olinadi.

"Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy qilingunga qadar ishlagan va 2020-yil 1-yanvardan keyingi davrda mehnat faoliyatini olib bormayotgan talabgorlarning ish staji ma'lumotlari (agar "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksida qayd etilmagan bo'lsa) ularning mehnat daftarchalaridagi yozuvlar asosida olinadi.

Talabgorlarning o'zlari tomonidan "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilgan va bugungi kunda tizimda tasdiqlanmagan ish staji ma'lumotlari mehnat daftarchalaridagi yozuvlar bilan bir xil bo'lgan taqdirda inobatga olinadi.

8. Ishchi guruhlar tavsiyanoma berishga tavsiya etilgan talabgorlarning ro'yxatlarini shakllantiradi. Bunda talabgorlarning hujjatlarini ko'rib chiqish yakuni bo'yicha quyidagi xulosalardan biri qabul qilinadi:

tavsiyanoma berishga tavsiya etish to'g'risida;

tavsiyanoma berishga tavsiya etishni rad etish to'g'risida.

9. Quyidagilar tavsiyanoma berishga tavsiya etishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

talabgorning ushbu Nizomning 3-bandida belgilangan mezonlarga muvofiq emasligi;

ariza vakolatga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilganligi.

10. Ishchi guruh yig'ilishining yakuni bo'yicha elektron hujjat shaklidagi bayonnoma tuzilib, ishchi guruh rahbari va a'zolarining elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi.

Ishchi guruhning xulosasi asosida tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi rahbarining talabgorga tavsiyanomani berish yoki tavsiyanoma berishni rad etish to'g'risidagi qarori (elektron hujjat shaklida) qabul qilinadi va tegishli hujjatlar ilova qilingan holda ko'rib chiqish uchun 10-iyunga qadar Qo'mitaga taqdim qilinadi.

11. Qo'mita tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi rahbarining qarori va unga ilova qilingan hujjatlarni har yili 10-iyundan 14-iyunga qadar mazkur Nizom talablariga muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi hamda tavsiyanomani berish yoki tavsiyanoma berishni rad etish to'g'risida Qo'mita birinchi rahbarining buyrug'i chiqariladi.

Tavsiyanoma ushbu Nizomga 3-ilovada keltirilgan shaklga muvofiq Qo'mitaning birinchi rahbari tomonidan, birinchi rahbar lavozimi vakant bo'lganda va/yoki uning vazifalarini bajarish boshqa shaxsga yuklatilganda esa – ushbu rahbar tomonidan beriladi.

Qo'mita birinchi rahbarining buyrug'i har yili 14-iyunga qadar tegishli tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limiga (ishchi guruhga) talabgorni xabardor qilish uchun yuboriladi.

Ishchi guruh tomonidan ikki ish kuni ichida talabgorlarning mobil telefon raqamiga yoki elektron manziliga tavsiyanoma berishga tavsiya etilganligi yoki rad etilganligi to'g'risida xabar yuboriladi.

Talabgor qarordan norozi bo'lgan taqdirda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

12. Qo'mita har yili 15-iyunga qadar:

tavsiyanoma berilgan xotin-qizlar elektron reyestrini shakllantiradi;

tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar haqidagi ma'lumotlarni ularning ish faoliyatiga mos bo'lgan yo'nalishlarini ko'rsatgan holda Davlat test markazining maxsus dasturiga kiritadi;

tavsiyanoma berilgan talabgorlarning ro'yxatini o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

13. Ishchi guruh har yili 15-iyunga qadar tavsiyanoma talabgorlarga yetkazilishini ta'minlaydi.

14. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari ishchi guruhlar faoliyatini tashkil qiladi, muvofiqlashtiradi hamda amaliy va metodik jihatdan ko'maklashadi.

3-bob. O'qishga qabul qilish bo'yicha alohida qabul parametrlarini belgilash

15. Qo'mita Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda har yili 10-iyunga qadar xotin-qizlar mehnat faoliyati kam bo'lgan sohalarida kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun ajratilgan to'lov-kontrakt asosidagi 500 ta alohida kvotani davlat oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlaydi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Davlat komissiyasi)ga kiritadi.

16. Davlat oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlangan alohida kvota har yili 15-iyunga qadar Davlat komissiyasi qarori bilan tasdiqlanadi.

4-bob. Talabgorlarni ro'yxatdan o'tkazish

17. Tavsiyanomaga ega bo'lganlar davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilish uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining rasmiy veb-sayti orqali ro'yxatdan o'tadi.

18. Tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlarning imtiyozlari haqidagi ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining (keyingi o'rinlarda – Davlat test markazi) maxsus dasturi orqali ro'yxatdan o'tish jarayonida talabgorlarning shaxsiy kabineti (imtiyozlar bo'limi)da shakllanadi.

19. Davlat test markazi 10 kun muddatda talabgorlarning shaxsiy kabineti (imtiyozlar bo'limi) da tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlarning imtiyozlari haqidagi ma'lumotlar qayd etilishi yuzasidan rasmiy dasturga o'zgartirishlar kiritadi.

Talabgorlarning shaxsiy kabinetida unga tegishli tavsiyanoma haqida ma'lumot mavjud bo'lmasa, Qo'mitaga murojaat qiladi.

5-bob. Talabgorlarning test sinovida ishtirok etishi va natijalarni e'lon qilish

20. Tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun tanlovlar umumiy tartibda davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari (test sinovi, kasbiy (ijodiy) imtihon) doirasida o'tkaziladi.

21. Kirish imtihonlari yakunlariga ko'ra to'plangan ball bo'yicha talabalikka tavsiya etilmagan, biroq to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizini va undan kam bo'lmagan ballni to'plagan tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya etilgan holda, Davlat komissiyasi tomonidan taqsimlangan alohida qabul parametrlari doirasida to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etiladi.

22. Kirish imtihonlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizini va undan kam bo'lmagan ballni to'plagan, ammo talabalikka tavsiya etilmagan tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar yuzasidan ma'lumotlar Davlat test markazi tomonidan ballar ketma-ketligi bo'yicha,

abituriyent sifatida ro'yxatdan o'tish davrida tanlagan birinchi ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlarining yakuniy natijasi e'lon qilingan kundan boshlab besh kun muddatda Qo'mitaga taqdim etiladi.

23. Tavsianomaga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun ajratilgan alohida qabul parametrlari doirasida, ballar ketma-ketligi bo'yicha abituriyent ro'yxatdan o'tish davrida tanlagan birinchi ta'lim yo'nalishiga tanlov natijasi asosida talabalikka tavsiya etiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Mazkur Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

25. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

**XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID
XALQARO SHARTNOMALAR VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUN HUJJATLARI
TO'PLAMI**

Nashr uchun mas'ul
Muharrirlar
Kompyuterda sahifalovchi

M. Tillabayev
M. Palnova, L. Ruzikulova
A. Jumaniyazov

Chop etishga 2023-yil 28-martda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16.

«PT Serif» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14,7. Nashr tabog'i 13,7.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 7.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazida chop etildi.
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.